



ADABIYOT



Toshkent -2010

Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov,
Rahmon Qo'chqorov

ADABIYOT

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
8-sinfi uchun darslik-majmua

Ikkinchi nashri

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi nashrga tavsiya etgan



G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi

«O'ZBEKISTON» nashriyot-matbaa ijodiy uyi

Toshkent — 2010

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHIQO'TAU
AXBOROT-RESURS MARKAZI

Handwritten signature

Mas'ul muharrir: **Vahob Rahmonov**

QADRLI O'QUVCHI!

Siz boshqa fanlar qatori adabiyotdan ham saboqlar olib, ong va tafakkuringizni tinimsiz boyitmoqdasiz. Adabiy saboqlar Sizdan faqat aqlnigina emas, balki tuyg'ularni ham «ishga solishni», zehnlroq bo'lishni talab etmoqda. Chunki badiiy asar dunyosiga kirmoqchi bo'lgan odamning aqlligina bo'lishi yetarli emas. Uning ko'ngli, tuyg'ulari, hislari ham toza, samimiy bo'lishi lozim.

Bu yil 8-sinfga o'tgan ekansiz, demak, ancha katta bo'lib qoldingiz. Siz bilan jiddiyroq masalalarda bosh qotirishimiz, hatto olam va odam taqdiri bilan bog'liq muammolar ustida ham bahslashishimiz mumkin. Bu yilgi mashg'ulotlarda aynan mana shu muammolar talqin etilgan asarlarga duch kelasiz.

Ularni idrok etish, tushunib his qilish uchun ixlos qo'yib astoydil o'qishingiz, bilmagan narsalaringizni murabbiylardan erinmay so'rab, aniqlashtirishingiz talab etiladi.

Mana shu jiddiy, ayni paytda, maroqli izlanishlarda Sizni ilhom, kelajakka intilish hissi tark etmasin.

«Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan ijara uchun chop etildi».



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Mutal BURHONOV *musiqasi*

Abdulla ORIPOV *so'zi*

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

N a q a r o t:

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

N a q a r o t:

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

KIRISH

Aziz o'quvchi!

Hayotning rang-barang hodisalarga to'la ekanini ozmi-ko'pmi anglab boryapsiz. Har bir odamning u yoki bu hodisaga bergan bahosi bir-biridan anchagina farq qilishini ham ko'rib-bilib turibsiz.

Insoniyat bosib o'tgan tarixiy yo'l shu qadar chigal, murakkab hodisalarga boyki, uni dabdurustdan baholashning hech iloji yo'q. Shu tufayli ham o'tmish hayot to'g'risida har bir ilm sohasi o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib xulosalar yasaydi. Bu rang-baranglik san'at sohalariga ham birdek tegishlidir.

Deylik, ushbu mavzuni o'rganayotganingizda sinf derazalaridan Sizni o'ziga chorlayotgan kuz faslining tarovatini musavvir mo'yoqalami orqali turfa bo'yoqlarda tasvirlasa, bastakor ushbu fasl nafasini ohang yordamida ko'nglingizga olib kiradi. Xuddi shu kabi, agar tarix ilmi voqea-hodisalarning qachon, qayerda, nima sababdan yuz bergani, bu qanday natijalarga olib kelganini chuqur o'rgansa, adabiyot uchun ushbu hodisalarda ishtirok etgan kishilarning qalbidan o'tgan kechinmalar muhimroq hisoblanadi. Tarixchi bo'lib o'tgan hodisalarning o'rni, unda ishtirok etgan odamlar ism-u sharifi, ularning tarjimaiy holiga oid faktlarni iloji boricha aniq ifoda etmog'i lozim. Ijodkor adib esa o'z g'oyaviy-badiiy maqsadidan kelib chiqib mazkur hodisalarga biroz erkinroq yondashadi.

Masalan, sarkarda Amir Temurning taqdirida muhim o'rin tutgan «Loy jangi» (1365-yil)ga raqiblar qanday tayyorgarlik ko'rganlari, bu jangda har ikki tomondan nechtadan askar ishtirok etgani, har bir tomondan qancha odam qurbon bo'lgani va boshqa tafsilotlarga yozuvchi to'liq to'xtalishi shart emas. U mazkur jangning butun dahshati va fojiasini birgina qahramon (u oddiy askar bo'lishi ham mumkin!) qismati orqali o'quvchiga anglatadi. Natijada badiiy tasvir ta'siriga berilgan o'sha o'quvchi o'zini shiddatli

jala ostida kechayotgan, jaladan-da shiddatli olishuv ichida his qilishi hech gap emas. Demak, yozuvchi tarixiy hodisaga ijodiy yondashib, uning bir qirrasini xuddi kuchli lupa ostida ko‘ringandek bo‘rttirib tasvirlar ekan, bunda muayyan maqsadni nazarda tutadi.

O‘rni kelganda badiiy ijodning yana bir muhim jihatini aytib ketishimiz kerak. U ham bo‘lsa, ijodkorning hayot hodisalariga nisbatan egallagan pozitsiyasi, faol munosabati masalasidir.

Rus adibi Maksim Gorkiy XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiyani qamrab olgan adolatsizlik, xunrezliklar o‘ziga qanday ta’sir etganini xotirlab, shunday yozgan edi: «Hayotda ko‘rayotganlarim go‘yo yuragimning ustini shilib tashlagandek bo‘ldi. Shundan buyon mening qalbim har bir nohaqlikdan, adolatsizlikdan ta’sirlanib, achishadigan bo‘lib qoldi».

Endi hozirga qadar hayoti va ijodini o‘rganganingiz yozuvchi-shoirlar asarlarini birrov esingizga oling. Ularning aksariyatida mana shu holatni kuzatish mumkinmi, yo‘qmi? Ulug‘ Navoiyning:

Menga qilsa ming jafu, bir qatla faryod aylamom,
Elga qilsa bir jafu, ming qatla faryod aylaram, —

degan shohbaytining mag‘zida zamonasi muammolaridan ogohlik, xalq qismatidan qayg‘urish hislari yotibdi.

Hozirgi kunda adabiyot va ijod ahli zimmasidagi bu mas‘uliyat yana-da ortsa ortdiki, kamaygani yo‘q. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bu muhim masalani quyidagicha ifoda etadi:

«Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatni ertangi kunini o‘ylab, odamlarni ezgulik, insofdiyonat, mehr-oqibat va bag‘rikenglikka da‘vat etishga qaratilgan haroratli so‘zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ya’ni, yozuvchi: «Ey odamzod, ko‘zingni och, sen nima uchun yashayapsan, inson degan yuksak nomga munosib bo‘lish uchun nima qilyapsan?» degan savollarni kitobxon oldida, jamiyat oldida qat’iy qilib qo‘ya olsagina, o‘ylaymanki, o‘zining insoniy va ijodiy burchini bajargan bo‘ladi» («O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi. 2009-yil, 3-iyul soni).

Albatta, adabiyot hayotdan quruq nusxa ko‘chirish, «hayotdan o‘xshatib vozish» degani emas. Agar shunday bo‘lganida

soʻz sanʼatining qadri ham, qiymati ham boʻlmas edi. *Hayot haqiqati* (hayotda yuz bergan voqea-hodisalar) *badiiy haqiqat* (chinakam badiiy asar)ga aylanishi uchun ijodkor tugʻma isteʼdodga ega boʻlishi lozimligini Siz yaxshi bilasiz. Bunga qoʻshimcha, oʻsha ijodkor hayot sirlarini tez ilgʻashi, yuzaki qaraganda bir-biriga aloqasi yoʻqdek koʻrinadigan voqealar oʻrtasidagi bogʻliqlikni anglay bilishi, eng muhimi, inson degan murakkab mavjudot koʻnglini faqat oʻzigagina xos nigoh bilan kashf eta olishi lozim. Buning uchun esa, ijodkor tinimsiz oʻqib-oʻrganishi, odamlar xarakteriga xos boʻlgan eng muhim jihatlarni erinmay kuzatishi, koʻrib-bilganlarini umumlashtira olishi darkor.

Bu jarayonda yozuvchi-shoirning ijodiy fantaziya kuchidan mohirona foydalanishi muhim ahamiyatga ega. 6-sinfda oʻqiganimiz Gʻafur Gʻulomning mashhur «Shum bola» qissasi yodingizdami? Oʻta injiq, ziqna, ezma Sariboyni mot qoldirgan aslida Shum bolaning emas, uning «maʼnaviy otasi» — yozuvchining ijodiy kuchi emasmidi? «Dandon sopli pichoq»dan boshlangan gapni chuvalab kelib, boyning turmushga chiqmagan qizi — Adol opaning «oʻgʻil tugʻib bergani»ga ulash uchun faqat Gʻafur Gʻulomgagina xos ijodiy fantaziya kerak edi!

Bu yilgi adabiy saboqlar davomida bunday badiiy moʻjizalarga yana koʻp marotaba duch kelishingiz aniq.

Har bir zamonning oʻz qahramonlari, har bir avlodning oʻxshashga intiladigan badiiy personajlari boʻladi. Agar oʻtgan asrlar kishilari Tohir va Zuhra, Romeo va Julyetta, Farhod va Shirin munosabatlaridan qattiq taʼsirlangan boʻlsalar, XX asr boshlaridagi oʻzbek kitobxonni «Oʻtkan kunlar» romanini oʻqib behad ruhlangan. Yigitlarga Otabekning mardligi, tantiligi, millatsevarligi, qizlarga esa Kumushbibining iffati, jasurligi, goʻzal odobi ideal jihatlar hisoblangan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kun yigit-qizlari ham oʻz qahramonlarini kashf etishlari, ularga oʻxshab yashashga intilishlari, ulardan oʻrnak olishlari qanchalar muhimligini his qilamiz.

Hayotni turli muammolarsiz tasavvur etib boʻlmaydi, albatta. Muammolarning esa katta-kichigi, muhim va nomuhimi bor. Har qanday muammoni badiiy asar mavzusiga aylantirish mumkindek tuyulsa-da, bu ishning eʼtibor berilishi lozim boʻlgan muhim jihatlari ham bor.

Gap nima haqda ketmoqda?

Yuqorida eslatganimizdek, hayotda yuz bergan yoki yuz berayotgan voqealar ko'pchilik qatori yozuvchi-shoirlarni ham o'ziga jalb qilmasligi, tezroq ular to'g'risida yozishga undamasligi mumkin emas. (Ijodkor hayotiy hodisalarga nisbatan faol munosabatda bo'lishi, xalqona pozitsiyani egallashi lozimligi to'g'risida o'zimiz ham gapirdik.) Bularning barchasini inkor qilmagan holda esda tutishimiz kerak bo'lgan jiddiy bir masala bor. U ham bo'lsa, o'sha — «hammani qiziqtirib qo'ygan» voqea-hodisa, zamon masalasi qanchalar *badiiy voqea-hodisaga, abadiyat masalasiga* aylantirildi, degan muammodir. Bu borada adabiyot tarixi juda ko'p ijobiy va undan-da ko'proq afsuslanarli tajribaga egadir.

Uzoqqa bormay, yetmish yillik tarixni o'z ichiga olgan sho'ro davri o'zbek adabiyotiga nazar tashlash kifoya. Bu davrda milliy adabiyotimizning oltin xazinasidan munosib o'rin olgan o'nlab badiiy durdonalar yaratilishi bilan birga, o'z davri siyosati singari vaqt sinoviga dosh berolmagan minglab zaif asarlar ham yozilgan edi. (E'tibor bering: biz bu o'rinda «yaratilgan edi» degan iborani ishlatishga istihola qilyapmiz.)

Demak, yana o'sha qoida: ijodkor zamonaning o'tkinchi epkinlariga berilmay, hayotda yuz berayotgan voqealarning tub zamiriga nazar tashlashi, mana shu chuqurlikda yotgan asl sabab-mohiyatni ko'rishi va uni mukammal obrazlar hamda vositalar orqali badiiy hodisaga aylantira bilishi lozim. Zero, adabiyot-shunoslik fanida «abadiy muammolar» degan tushuncha mavjud. Bu shunday muammolarki, zamonlar o'tishi, bir-ikki davr kishilarining sa'y-harakatlari bilan ular yechilib, yo'q bo'lib ketmaydi. To odamzod bor ekan, bu muammolar unga doimiy va ajralmas hamroh bo'lib qolaveradi. Odamzodni qiziqtiraveradi, o'ylantiraveradi, qiynayveradi.

Muhabbat va nafrat, adolat va adolatsizlik, imonlilik va nafsga qullik, haqiqat va yolg'on, mardlik va qo'rqqoqlik, sadoqat va sotqinlik, vatanparvarlik tuyg'ularini o'z ichiga qamragan abadiy muammolarni yoritgan asarlargina umrboqiylik kasb etadi. Xuddi shu tufayli ham Tohir tilga olinganda Qorabotir («Tohir va Zuhra» dostoni), Farhod eslanganda Xusrav («Farhod va Shirin» dostoni), Kumush yodlanganda Zaynab («O'tkan kunlar» romani), Yo'lchi to'g'risida gap ketganda Mirzakarimboy («Qutlug' qon» romani) esga keladi kishini o'vlantiradi. Bu asarlar va ularning

qahramonlari yuqorida sanalgan o'lmis insoniy tuyg'ularni o'zida kuchli aks ettirgani bilan ham abadiyatga daxldor.

Badiiy mukammal asarlarning yana bir muhim xislati shundan iboratki, ularda muayyan millatning tili butun jozibasi bilan namoyon bo'ladi. Bu asarlar adabiy til normalarini mustahkamlabgina qolmay, balki uning boyishi, yana-da sayqallanishi, ta'sir doirasining kengayishiga ham sezilarli turtki beradi.

Navoiy o'z asarlari bilan turkiy til qaddini qanchalar yuksakka ko'targanidan xabardorsiz. Xuddi shu singari bizning ona tilimiz «Kuntug'mish» dostonida o'nlab, Lutfiy tuyuqlarida yuzlab, Nodira g'azallarida yana minglab yangi qirralarini ko'z-ko'z qiladi. G'afur G'ulom she'rlari va nasriy asarlari o'zbek tilining naqadar boyligini yana bir bor isbotlasa, Muhammad Yusuf she'rlaridagi xalqona ohang bu she'rlarning millionlab muxlislar qalbida qo'shiq bo'lib yangrab qolishiga sabab bo'ladi...

Demak, bugundan boshlab yana adabiyot atalmish ulkan xazinalar bog'iga kirib boramiz. Uning dur-u gavharlaridan ko'zimiz yashnab, yam-yashil yaproqlaridan, xandon ochilgan gul-u chechaklaridan ko'nglimiz yayraydi. Eng muhimi, ruhiyatimiz kundalik hayotning nisbatan rangsiz tuyuladigan olamidan bir muddat uzilib, xuddi shu hayotning badiiy bo'rttirilgan, ranglari tiniqlashtirilgan manzaralariga oshno tutinadi. Bu mo'jizalarga to'la bog'dan nimalar olib chiqish, qanday xazinalarning egasiga aylanish endi faqat o'zingizga, nafis adabiyotga bo'lgan e'tiboringizga bog'liq, aziz o'quvchi!



XALQ OG'ZAKI IJODI

«KUNTUG'MISH» DOSTONI

Xalq dostonlari har bir millatning ma'naviy qiyofasi, uning tarixi, qadriyatlarini mukammal aks ettiruvchi bamisoli oynadir. Ularda har bir xalqning urf-odatlarini, milliy o'ziga xosligi yaqqol ko'rinib turadi. Dostonchilik xalq og'zaki ijodida qadimiy epik an'ana hisoblanadi. Dostonlar asosan do'mbira jo'rligida aytiladi va ijrochidan ham badihada, ham ijroda juda katta ijodiy mahorat talab qiladi. Dostonning yana bir xususiyati, og'izdan og'izga o'tib avloddan avlodgacha yetib kelganidir. Bu o'z navbatida ustozshogirdlik an'analarining vujudga kelishiga, natijada yirik dostonchilik maktablarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Folklorshunos olim T. Mirzayevning ma'lumotlariga ko'ra, XV–XVI asrlarda yirik dostonchilik maktablari paydo bo'lgan, XIX–XX asrlar esa dostonchilik taraqqiyotida juda rivojlangan davr bo'lgan. XX asr boshlariga kelib baxshilarimiz ijodiy bisotida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo'lgan. Bu dostonlarni Tilla kampir, Sulton kampir, Jolmon baxshi, Bo'ron shoir, Jumanbulbul, Josoq, Yo'ldoshbulbul, Yo'ldosh shoir, Suyar shoir kabi mashhur baxshilar kuylaganlar. Keyinchalik ularning an'analari Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan, Islom shoir, Saidmurod Panoh o'g'li, Berdi baxshi, Umir baxshi shoir, Bola baxshi ijodida davom ettirildi. Baxshidan u yoki bu dostonni ijro etishda shunchaki voqea bayonini so'zlab berish emas, balki uni do'mbira jo'rligida tinglovchini rom etadigan darajada kuylab berish talab etilgan. Dostonchi baxshilar o'z san'atlarini tinglovchiga ma'qul qilish uchun turli usullarni qo'llaganlar (musiqiy qochirimlar, so'z o'yinlari, dostonning eng qiziq joyida tanaffusli chekinishlar kabi). Doston aytish ko'p hollarda raqobat asosida kechgan. Dostongo'ylik kechalarida bir necha baxshi ishtirok etib, o'z mahoratlarini namoyish etganlar, ijodiy bahs qilganlar.

XX asrning 50-yillarida xalq dostonlariga, shu jumladan, «Alpomish» dostoniga ham bu asarlar mehnatkash xalq manfaatini

emas, balki yuqori tabaqalar manfaatini aks ettiradi, shuning uchun ularni ommalashtirish zararlidir, degan mafkuraviy ayblar qo'yildi. Lekin bir qator olimlar bu ayblovlarning xato ekanligini, mazkur dostonlar xalq badiiy tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi, boy tilini aks ettiruvchi bebaho xazina ekanligini isbotlab berishdi va shu tariqa adabiy, milliy merosimizning muhim qismini g'oyaviy tazyiqlardan asrab qolishdi.

Dostonchilik an'anasi hozirgi kunda ham mavjud. Biroq endi kuylash, ijro, tinglovchilar bilan muloqot tarzining zamonaviylik kasb etayotganligini ko'ramiz. Dostonchilik fan va texnika asrida birmuncha o'zgarishlarga uchradi. Bugungi kun baxshilari o'z asarlarini konsert zallarida, katta-katta anjumanlarda, televideniye-da ijro etmoqdalar. Yurtimizda dostonchilikni rivojlantirishga va uning ijrochilari – baxshilar faoliyatini rag'batlantirishga katta e'tibor berilmoqda. 2000-yilda «Alpomish» dostonining ming yilligini jahon miqyosida nishonlanishi va hatto «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq baxshisi» unvonining ta'sis etilishi (2000-yil 14-mart) buning isbotidir.

Qadrlı o'quvchilar, Siz 7-sinf adabiyot darslaridan o'zbek xalq dostonlari, ularning go'zal namunalari bo'lmish «Go'ro'g'li», «Alpomish», «Ravshan» dostonlari haqida tasavvurga ega bo'lgansiz. 8-sinfda esa yana bir ajoyib asar – «Kuntug'mish» dostoni bilan tanishasiz. Ushbu doston o'zining qiziqarli voqealarga boyligi, o'ynoqi, ravon tili, nafisligi bilan o'quvchi va tinglovchini lol qoldiradi.

Dostonning yozib olingan va ijro etilgan variantlari juda ko'p. Darhaqiqat, «Kuntug'mish» dostoni o'zbek xalq dostonlari orasida g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlardan biridir. Uning xilma-xil ko'rinishdagi variantlari ko'pligining boisi shundaki, ilgari baxshilarning iste'dodiga, ushbu dostonni qanday aytishiga qarab baho berilgan, natijada barcha baxshilarimiz «Kuntug'mish» dostonini to'la o'zlashtirishga intilganlar. Dostonning Ergash Jumanbulbul o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Nurmon Abduvoy o'g'li, Egamberdi Ollamuroddan yozib olingan variantlari mavjud. Qo'lingizdagi darslikda esa mashhur baxshi bobomiz Ergash Jumanbulbul o'g'lidan yozib olingan nusxasi keltirilgan. Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha: No'g'ay yurtida Avliyoyi Qoraxon ismli, Qilichxon laqabli podsho bo'lib, Kuntug'mish uning yolg'iz o'g'li bo'ladi. Kuntug'mish o'n to'rt voshga to'lguncha ilm-hunar

qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko'pkari chopish kabi siphilik hunarlarini o'rganadi, xullas, har tomonlama komil shahzoda bo'lib yetishadi. Shahri Zangar degan shaharning Buvraxon degan podshosi bo'lib, uning Shoir va Tohir ismli vazirlari bor edi. Vazirlar bir-birlari bilan juda inoq edilar, ular: «Bizlarga farzand bersa, o'g'il bo'lsa qo'lqanot bo'lsin, qiz bo'lsa do'st bo'lsin», deya niyat qilar edilar. Kunlardan bir kuni Shoir vazirning xotini qiz ko'radi. Tohir vazir oilasida o'g'il tug'iladi. Qizning otini Xolbeka, o'g'ilning otini Xolmo'min qo'yishadi. Lekin Xolmo'minning onasi to'satdan vafot etadi, o'g'il go'dakni Xolbekaoning onasi emizishga majbur bo'ladi, natijada ular «shirxo'ra» (bir onani emgan) bo'lib, «nikoh yurmaydigan» bo'lib qoladilar. Xolbeka o'n to'rt yoshga yetgach, uning husni kamoli ovozasini olamga yoyiladi. U go'zal, ayni paytda aqlli, nard o'yiniga mohir qiz bo'lib yetishadi. Unga barcha mamlakatlardan sovchilar kela boshlaydi. Xolbeka sovchilarga: «Har kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard o'yinini qo'yaman, o'ynayman, utsa¹ tegaman, utdirdsa² so'yaman», deb shart qo'yadi. Hatto shahar podshosi Buvraxon ham shu javobni aytadi. Podsho g'azablanib, shaharga Xolbeka deb kelgan odamni tutib qatl qildirishga farmon beradi, shunday qilsam to'rt-besh yildan keyin menga tegishga majbur bo'ladi, deb o'ylaydi.

Xolbeka va Kuntug'mish tush ko'radilar, ular tushlarida bir-birlarining qo'liga uzuk taqishib, uylangan emishlar. Shundan so'ng Xolbeka bir mohir suratkashga o'z rasmini chizdiradi va uni sandiqqa solib, No'g'ay yurtiga oqizib yuboradi. Sandiq oqib borib daryo sohilida ov qilib yurgan Kuntug'mish qo'liga tushadi. Kuntug'mish Xolbeka visoliga yetish uchun Zangar yurtiga otlanadi, bu yurtga kelib Xolbeka bilan topishadi, so'ng ko'p sarguzashtlarni boshidan kechiradi: Buvraxon qo'liga tushib, o'limga hukm qilinadi, dahshatli ajdarni o'ldiradi, xiyonatkor Azbarxo'ja tufayli xotini, egizak o'g'illaridan vaqtincha judo bo'ladi. Doston so'ngida xotini, farzandlari Gurkiboy va Mohiboy, otasi Qoraxon bilan topishadi.

Dostonning bosh qahramoni — Kuntug'mish yolg'iz, erka o'g'il bo'lishiga qaramasdan, aqlli, bilimli, jasoratli, elga g'amxo'r, xotini, bolalariga mehribon, vafodor yigit. Kuntug'mish va Xolbeka bir mo'jiza bilan Buvraxon jazosidan omon qolib, sahroda och, tashna

qolishganda hayotdan umidini uzgan yori Xolbekinging «Meni tashlab ketaver, yo'qsa o'zing ham halok bo'lasan», degan iltijosiga «Bir g'ayrat qil, yo'limiz yaqin qoldi», deb dalda beradi, unga vafodorligini quyidagicha bayon qiladi:

Po'lat nayza qor ostida yotarmi,
Temir nayzang egovlasang o'tarmi,
Sening to'rang nomarlardan emasdir,
Mard o'g'lon sevdigin tashlab ketarmi?..

Kuntug'mish o'z maqsadiga sodiq, har qanday sharoitda tushkunlikka tushmaydigan inson. U nomsiz, poyonsiz tog' darasidan vataniga boradigan yo'lni rosa izlaydi, bu orada egizak farzandli bo'ladi, ular uch yoshga to'lganda ham biror bir el daragini topolmaydi. Xullas, Kuntug'mish fe'l-atvorida siz havas qiladigan, ergashadigan insoniy sifatlar juda ko'p. Dostonni sinchiklab mutolaa qilsangiz, bunga o'zingiz amin bo'lasiz.

Xolbeka siymosi ham dostonida baxshi bobomiz tomonidan alohida mehr, iliqlik bilan tasvirlangan. U o'z so'zida turadigan, barcha hunarlarga mohir qiz. O'zi qanchalik bir ishga mohir bo'lsa, bo'lajak jufti halolidan ham shuni talab qiladi. Shu ma'noda Xolbeka o'z xulqi va fazilatlarini bilan har jihatdan Kuntug'mishga teng va munosib bo'lgan inson. U haqiqiy muhabbatni tan oladi va unga ishonadi, e'tibor bering: u o'z suratini chizdirib, Kuntug'mish yurtiga yuborar ekan, agar «shu ko'rgan tushim rahmoniy bo'lsa, oshiq-ma'shuqlik avvaldan pok bo'lsa, Xudoyo xudovando shu sandig'im senga omonat, to'radan boshqasiga tegmasin», deydi.

Xolbeka hamiyatli, g'ururi baland qiz. Garchi u Kuntug'mishni tushida sevib qolgan, uchrashganda esa yigitni ko'rib biroz muddat ixtiyorini yo'qotgan bo'lsa-da, uning husniga talabgor barcha shoh-u shahzodalarga bergan va'dasi, ya'ni faqat nard o'yinida g'olib chiqqanga tegaman degan fikridan qaytmaydi. Kuntug'mish men uchun mashaqqat chekib kelibdi, deb unga tegib ketavermaydi, o'zi ko'ngil qo'ygan yigitning el-yurt oldida ham yuzi yorug' bo'lishini istaydi.

Dostonida Kuntug'mishning o'g'illari Gurkiboy va Mohiboy xarakterlari ham chiroyli va ta'sirchan tasvirlangan. Gurkiboy bosiq, vazmin, aql bilan ish ko'radigan bola bo'lsa, Mohiboy biroz shaddod, biroz quv yigit. Biroq ikki aka-uka bir-birlariga mehribon, ota-onalariga fidoyi yigitlar. Ular mehnatsevarlik va aql bilan ish ko'rganlari uchun boshlariga tushgan qiyinchiliklarni yengadilar.

Asarda Azbarxo'ja, Buvraxon, Zamonqul, Xolmo'min kabi qahramonlar qiyofasi o'ziga xos tarzda yoritilgan. Azbarxo'ja dastlab Kuntug'mish bilan do'stlashadi, so'ng o'z manfaatini deb unga xiyonat qiladi. Buvraxon o'ziga bino qo'ygan, qahri qattiq podsho, biroq uning ko'ngilchan ekanligini ham ko'ramiz. Buvraxon avval Kuntug'mish va Xolbekani o'limga mahkum etadi, keyinroq Azbarxo'ja xiyonati tufayli mashaqqatlarga duch kelishganini eshitib, ularni afv etadi. Azbarxo'jani jazolaydi. Dostondagi Qosim, Xolmo'min, Mullavachcha, Zamonqul va boshqa obrazlar ham asarda o'z o'rniga ega, ularsiz Kuntug'mish va Xolbeka taqdirini to'laqonli tasavvur qilish qiyin.

«Kuntug'mish» dostoni badiiy jihatdan nihoyatda yetuk asar. U yaxlit kompozitsiyaga ega, asarda kishini asosiy voqealardan chalg'itadigan o'rinlar uchramaydi, aksincha, har bir voqea, har bir epizod dostonni to'ldiradi.

Doston xalq og'zaki ijodidagi barcha she'riy qoidalar va uslublarni o'zida jamlagan asardir. Unda xalq dostonlarida bo'lganidek, voqealar, sarguzashtlar, asosan, nasriy bayon etiladi, qahramonlar tavsifi, ruhiy kechinmalari she'riy yo'l bilan ifodalanadi. Doston tili esa nihoyatda yengil va ravon. Unda rang-barang badiiy til vositalaridan unumli foydalanilgan, ayniqsa, hikmatli so'zlar darajasiga ko'tarilgan ayrim baytlar hech kimni e'tiborsiz qoldirmaydi:

«G'aribning ko'nglini ovlamoq savob», «Qilichdan seskanmas botirning tani», «Gavharni ne bilsin ushalgan sopol», «Zarning qadrini zargar bilar har yerda», «Kamlikning kamoli bordir, Manmanning zavoli bordir...», «Yaxshilarning yuzin ko'rsang jannatdir, Yomon odam qilgan ishi minnatdir», «O'zingdan kattani uchratsang pir bil, O'zingni er bilsang, birovni sher bil» va hokazo.

Shuningdek, asarda o'rni bilan ishlatilgan o'xshatish, mubolag'a, kinoya kabi badiiy unsurlar dostonning badiiy qimmatini oshiradi, qahramonlar qiyofasini yaxshiroq tasavvur qilishga yordam beradi.

«KUNTUG'MISH» DOSTONINING BAYONI

No'g'ay podsholaridan Avliyoyi Qoraxon degan bor ekan, laqablari Qilichxon ekan, shu vaqtning odamlari Avliyo ota deydi. Shul azizning bir volg'iz o'g'li bor edi. undan boshqa bolasi vo'a

edi. Otini Kuntug'mish to'ra der edi. O'n to'rtga kirguncha ilm-hunar, kasb-kamolot hosil qilib, o'n to'rt dan o'tgandan keyin, sipohilik ishlariga yuz keltirib, qilich chopmoq, miltiq otmoq, chirishbozlik, ko'pkaritzozlik, nayzadastlik, garovbastlik ishlariga ko'shish qilib, qirqta yigitni yoniga olib, goh toqqa, goh ovga shikor qilib yurar edi.

Shahri Zangar degan shahar podshosining otini Buvraxon der edi. Buvraxonning ikki vaziri bor edi. Birovini otini Shoir vazir der edi, birovini Tohir vazir der edi, ikkovi aka-uka edi. Bular irim qilib niyat qilib edi: «Bizlarga farzand bersa, o'g'il bo'lsa qo'lqanot bo'lsin, qiz bo'lsa do'st bo'lsin».

Kunlardan bir kun Shoir vazirning xotini qiz tug'di, Tohir vazirning xotini o'g'il tug'di. Qizning otini Xolbeka qo'ydi, o'g'ilning otini Xolmo'min qo'ydi. Lekin Xolmo'minning enasi qora bosib o'ldi, o'g'li etak ostida qoldi. Xolbekaning enasi emizib katta qildi. Bular shirxo'ra bo'lib, nikoh yurmaydigan bo'lib qoldi. Ikki vazirning avvalgi va'dalarini shaharning odamlari eshitgan edi. Mardumi shahar: «Xolbeka Xolmo'minning baxshandasi», — der edi, sut emishganini bilmas edi. Ammo Xolbeka o'n to'rtga kirgandan keyin... ovozasi olamga ketdi, dong'i Dog'istondan o'tdi. Xolbekaning tavsif-vasiyatini, husn zeboligini eshitgan podsho va to'ralar, polvon-botirlar har mamlakatdan, har yurt dan, har diyordan sovchi qo'ya berdi. Sovchilarga Xolbeka: «Har kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard o'yinini qo'yaman, o'ynayman, utsa tegaman, utdirsa so'yaman», — deb elga shuhrat berdi.

Har to'ra-kattalar, xonzodalar Xolbeka bilan nard o'ynab utdirib, ko'p kishilarni Xolbeka nobud qilib o'ldirib yubordi. Shu mamlakatda Xolbekaga oshiq bo'lmagan odam qolmadi. Kundan-kun Xolbekaning husni ziyoda bo'lib, shuhrat-ovozasi ortar edi.

Kunlardan bir kun Xolbeka qirq zinali ko'shkining ustiga chiqib, olamni tomosha qilib o'tirib edi, shu shaharning podshosi Buvraxon Xolbekaning jamolini ko'rib, yuz shaydoyi dil bilan oshiqi beqaror bo'lib, ixtiyorini qo'lidan oldirib, dilida sabr-u qarori qolmay, arkiga borib tushib, bostirib, sovchini qo'ya berdi. «Tegsa ham olaman, tegmasa ham olaman, boshqaning kelganini ko'raman», — deb odam yubordi. Xolbeka javob aytdi: «Podsho nomardlik qilmasin, o'ziday podsholarga ta'na-malomat bo'lmasin. Mening shu shartim, eshitmagan, bilmagan odam yo'q. Ayol bo'lsam ham qavlimdan qaytmayman, shohingdan qo'rqmayman.

Bizga oshiq bo'lgan bo'lsa, kelsin, nard o'ynasin; utsa tegaman, utdirsa podsho deb siylamayman, so'yaman, jonidan kechsa bizga kelsin», — deb sovchisini qaytardi. Sovchi bu voqealarni podshosiga bayon qildi. Podsho eshitib, hayron-lol bo'lib, arkoni davlatiga qarab, ulardan maslahat so'rab:

— E umarolarim, e vaziri donolarim, bu ishning oxiri qanday bo'ladi? Borib nardini o'ynasak, utdirsak, bizni shoh deb siylamasa, qo'yaylik desak, ishqibozlik yomon bo'lsa, borsa qo'ysak, bir kun... birov kelib utib olib ketsa, bu qanday bo'ladi? — dedi.

Arkoni davlat shu maslahatni aytdi:

— Taqdir podshoyim, buning iloji shulki, baxtini bog'lang, hech kim Xolbeka deb otini ayolmasin, balki bu shaharga kelolmasin, o'zi ham to'rt-besh yil o'tgandan kay¹, er talab bo'lib, sizga tegmay kimga tegadi, — deb ma'qul qildi.

Podsho ko'cha, guzarlarga jarchi qo'yib: «Har kim Xolbeka deb aytsa, olti oy zindonda boqdiraman, suyagini toshga chaqdiraman, terisini tiriklay so'yaman, ichiga somon tiqdiraman, ikki ko'zini o'yaman, tepasiga moyini quyaman», — deb qichqirta berdi. Hech kimning zahراسi yo'qki, Xolbeka deb aytsa.

Shu o'rtada to'rt-besh yil o'tib ketdi. Xolbeka ham podshoga bo'ysunmadi, qirquin qizi bilan, necha turli nozi bilan davrini surib o'tira berdi.

Kunlardan bir kun Xolbeka noz uyquda yotib edi, bir tush ko'rdi: chiltanlar va mardon g'oyiblar bir tongda suhbat qilib o'tirib edi, bir chiltan kelib Xolbekaning ruhini olib bordi, bittasi kelib, Kuntug'mishning ruhini olib bordi. Chiltanlar to'y qilib, Xolbekani to'raga topshirdilar. Ikkovi bir to'shakda yotib bir-biroviga so'z qotib, Xolbeka so'radi: «Sen kimsan, joy-manziling qayda, oting kimdir?» To'ra aytdi: «Otim Kuntug'mish, otamning oti Avliyoyi Qoraxon, otam No'g'ayga podsho, No'g'ay to'rasi bo'laman. Sen kimsan, oting kimdir, yurtning qayerda?» Xolbeka aytdi: «Otim Xolbeka, otamning oti Shoir vazir, yurtim shahri Zangarda».

Ikkovi bir-birovi bilan o'ynashib to'rasining uzugini² Xolbeka olib qo'lga soldi; Xolbekaning uzugini to'ra olib qo'lga soldi. (Shu kecha Kuntug'mish ham shunday bir tush ko'rdi.) Shu ishda ikkovi ham uyg'ondi³.

¹ Keyin.

² Shevada juzuk.

³ Qo'lyozmada uyondi.

To'ra bir oh tortib, bu dardini hech kimga aytolmay, nisinga qarasa, boshqa nigin; qog'ozga muhr qilib bossa, Xolbekaning oti chiqadi.

Xolbeka ham uyqudan uyg'onib, to'raning ishqida ilonday to'lg'anib, aslo orom-qarori qolmadi. Bu ham uzugini ko'rsa, o'ziniki emas; qog'ozga bosib ko'rsa, Kuntug'mish to'raning oti chiqadi.

Xolbekaning Bahragul degan kanizi bor edi, aksari sirlarini Bahragulga aytar edi. Bahragul Xolbekaning bezovtaligini anglab:

– Oybibim, seni ilgarilarday ko'rmayman, xotiringning mushavvashligini menga bildirsang, tanda jonim bor, tadorikini – ilojini qilsam kerak.

Xolbeka:

– E Bahragul, menga bir dard-e tekkan, iloji ne bo'lishi aslo sira yo'q, – deb niginni ko'rsatib, ko'rgan tushlarini Bahragulga bir-bir bayon qilib, yana aytdi: – Bir suratkashni keltirsang.

Bahragul suratkashni olib keldi. Xolbeka oyim o'zining suratini qog'ozga soldirib, bir sandiqcha tayyor qilib, ichini mumlab, sirtini tillo bilan berkitib, o'zining sochidan bir tola soch olib, to'raning uzugini o'zining suratiga o'rab, necha arzi hollarini ham arz qilib, sandiqni qulflab, kalitini sandiqqa bog'lab, Xolbeka shahardan chiqib, shu sandig'ini suvga (bir katta daryo shaharning ichidan o'tar edi) solib: «Shu ko'rgan tushim rahmoniy bo'lsa, oshiq-ma'shuqlik avvaldan pok bo'lsa, Xudoyo xudovando, shu sandig'im senga omonat, to'radan boshqaga tegmasin», – deb daryoga ravona qildi. Falakning sinoati bilan necha kun, necha vaqtlar oqib, hech kimning qo'liga tushmay, No'g'ayga doxil bo'ldi. Endi to'radan so'z eshiting.

To'ra qirq yigiti bilan daryoning yoqasida shikor qilib yurib edi. To'raning ko'ziga bir sandiq ko'rindi. Yigitlariga aytdi:

– Ot solib olib chiqinglar.

Yigitlar Kuntug'mishga arz qildiki:

– Daladan har narsa qo'limizga tushsa, siz podsholik deb olib qo'yasiz, biz xizmatkorlaringiz quruq qolamiz. Bu molni bir shart bilan olib chiqamiz, taqsir, shu sandiqni bo'lamiz, ichini olasizmi, yo tishini?

To'ra aytdi:

– Sizlar saylab olinglar.

Yigitlar bir-biriga qarab, ittifoq qilib:

– Tishi tilla ekan, bizlar tishini olamiz, – dedi.

To'ra aytdi:

– Biz ichini olamiz.

Bir yigit ot solib olib chiqdi. Kaliti ham og'zida ekan, ochib ko'rdilar. Ichidan bir qog'oz chiqdi, qog'ozni yozib ko'rsa, Xolbeka oyimning to'lgan kamoli, oyday jamoli munavvar bo'lib turibdi. Shahzoda ko'rgan hamono tushida ko'rgan mahbubini tanib, ichki dardini hech kimga aytolmay yurgan edi, suratini ko'rgandan kay, osang, ustiga posang, hazor ustiga pansad bo'lib, bir ishqi yuz bo'lib, toqat keltirolmay, behush bo'lib yiqildi. Qirq yigit shoshib, dami ichiga tushib, aqlidan adashib, barisi chuvlashib, to'rani o'rtaiga olib, hay-hayni solib:

– Ko'zingni och! – dedi. To'rani aslo o'ziga keltirolmadi. Oxir ikki otga saraja qilib, manzilga olib keldilar.

Qoraxon bechora yolg'iz farzandini bu holda ko'rib, yoqasini pora-pora qilib, qushnochni olib kelib qoqtirib, baxshini olib kelib boqtirib, mullani olib kelib o'qitib, eshonni olib kelib halqa qilib qarata berdi. O'g'liga aslo naf qilmadi. Qoraxon podsho o'g'lining oldida betoqat bo'lib:

– Nega ko'zingni ochib gapirmaysan? – deb shuncha iltijo qildi, o'g'li bilmadi, shu qushnochlardan bir ayyori bor edi. To'raning vujudidan kasal topmay, ishqdun gumon qilib, podshoga aytdi:

– Siz dalaga chiqib turing.

Qushnoch qirq yigitini hozir qilib, bir-ikki-uch piyola sharobni to'raga berdi. Sharobning kayfi bilan to'ra ko'zini ochib qarasa, qirq yigiti yig'lab, o'rtaiga olib o'tiribdi. To'ra ishq dardini pinhon tutolmay, yigitlariga qarab bir so'z aytib turibdi.

So'zi budir:

Bog' ichinda olma-anor istaydir,
Bo'yi mahbub, mushki dildor istaydir.
Qadrdonlar, birga yurgan beklarim,
Do'stlar-ay, ko'ngil bir yor istaydir.

Beklarim, qilmanglar bag'rimni kabob,
G'aribning ko'nglini ovlamoq savob.
Ertaroq podshodan olinglar javob,
Do'stlar-ay, ko'ngil bir yor istaydir.

Quloq songlar bu to'raning tiliga,
Bulbul oshno bo'lar bog'ning guliga.

Bir yigit ot solib olib chiqdi. Kaliti ham ogʻzida ekan, ochib koʻrdilar. Ichidan bir qogʻoz chiqdi, qogʻozni yozib koʻrsa, Xolbeka oyimning toʻlgan kamoli, oyday jamoli munavvar boʻlib turibdi. Shahzoda koʻrgan hamono tushida koʻrgan mahbubini tanib, ichki dardini hech kimga aytolmay yurgan edi, suratini koʻrgandan kay, osang, ustiga posang, hazor ustiga pansad boʻlib, bir ishqiy yuz boʻlib, toqat keltirolmay, behush boʻlib yiqildi. Qirq yigit shoshib, dami ichiga tushib, aqlidan adashib, barisi chuvlashib, toʻrani oʻrtaga olib, hay-hayni solib:

– Koʻzingni och! – dedi. Toʻrani aslo oʻziga keltirolmadi. Oxir ikki otga saraja qilib, manzilga olib keldilar.

Qoraxon bechora yolgʻiz farzandini bu holda koʻrib, yoqasini pora-pora qilib, qushnochni olib kelib qoqtirib, baxshini olib kelib boqtirib, mullani olib kelib oʻqitib, eshonni olib kelib halqa qilib qarataberdi. Oʻgʻliga aslo naf qilmadi. Qoraxon podsho oʻgʻlining oldida betoqat boʻlib:

– Nega koʻzingni ochib gapirmaysan? – deb shuncha iltijo qildi, oʻgʻli bilmadi, shu qushnochlardan bir ayyori bor edi. Toʻraning vujudidan kasal topmay, ishqdan gumon qilib, podshoga aytdi:

– Siz dalaga chiqib turing.

Qushnoch qirq yigitini hozir qilib, bir-ikki-uch piyola sharobni toʻraga berdi. Sharobning kayfi bilan toʻra koʻzini ochib qarasa, qirq yigiti yigʻlab, oʻrtaga olib oʻtiribdi. Toʻra ishq dardini pinhon tutolmay, yigitlariga qarab bir soʻz aytib turibdi.

Soʻzi budir:

Bogʻ ichinda olma-anor istaydir,
Boʻyi mahbub, mushki dildor istaydir.
Qadrdonlar, birga yurgan beklarim,
Doʻstlar-ay, koʻngil bir yor istaydir.

Beklarim, qilmanglar bagʻrimni kabob,
Gʻaribning koʻnglini ovlamoq savob.
Ertaroq podshodan olinglar javob,
Doʻstlar-ay, koʻngil bir yor istaydir.

Quloq songlar bu to‘raning tiliga,
Bulbul oshno bo‘lar bog‘ning guliga.
O‘zlaring chog‘langlar Zangar yo‘liga,
Do‘stlar-ay, ko‘ngil bir yor istaydir.

Alqissa, Qoraxon podsho o‘g‘lining dardini ishqdan bilib, ko‘ngli buzilib, yurak-bag‘ri ezilib, qaddi bukilib, ko‘zidan yoshi to‘kilib, o‘g‘liga qarab bir so‘z aytib turibdi:

Falak peshtoqidan uchgan yulduzim,
Ulug‘ daryolardan chiqqan qunduzim,
Har so‘zingdan tandagi jon aylansin,
Ne tilovman¹ tilab olgan yolg‘izim.

Ot chopmoqqa qoyim Xizrning dashi,
Xizr Ilyos doim mardning yo‘ldoshi,
Och ko‘zing, boshingni ko‘tar, yolg‘izim,
Bir yor uchun yotarmikan mard kishi?

Eshitib ol bu otangning so‘zini,
Do‘st-dushmanga tuban qilma yuzini,
Yig‘dirayin No‘g‘ayning uli-qizini,
Obberay qizlarning jodu ko‘zini.

Ko‘kragimga solma qayg‘u-alamni,
Ko‘zlari qambarday qoshi qalamni,
Bir yor uchun aslo, bolam, g‘am yema,
Obberay paridan ortiq sanamni.

Alqissa, Qoraxonning bu so‘zini o‘g‘li eshitib, yigitlariga buyurdi: «Kechagi qog‘ozdagi suratni otamga ko‘rsatinglar». Yigitlari suratni ko‘rsatdi. Qoraxon qarasa, qog‘ozda bir qiz turibdi qayqayib: qoshini kerib, labini burib, chikka bel bo‘lib, shirin qilib kulib, taraqqos boylab, suqsurday bo‘ylab, tovusday taranib, bellari buralib turibdi. Qoraxon insof qilib qarasa, No‘g‘ay yurtining qizi tugul², yer yuzining barnolari bir tola mo‘yiga arzimaydi. Qoraxon bildiki, to‘raning ilojini qilolmas,

¹ Tilak bilan.

² Qo‘lyozmada tuva.

to Zangar bormasa, Xolbekadan boshqani xohlamas. Podsho noiloj, nochor javob bermoqchi bo‘lib, lashkarlarini yig‘ib, har dastasidan bittadan, qirq yigit ayirib berdi. Qirq xachirga zar ortib, aytdi:

– Ey farzand, burungilardan bir so‘z bor: «Musofirchilikda yo zar yarar, yo zo‘r yarar kuningga», degan ekan. Zarga kelsa, xachirdagi pulni ayama, zo‘rga kelsa, qirq yigitga buyursang, Xudodan kelgan ajal bo‘lmasa, bandadan kelgan ajaldan bir-ikki-uchga dovur ayirib olar. Bor, bolam, Alloh yoring bo‘lsin, pirlar madadkoring bo‘lsin, sog‘ borgaysan, salomat kelgaysan, omin Allohu akbar, – deb oq fotiha berdi.

* * *

Kuntug‘mish qirq yigitini olib, xachirlarga mol-dunyo ortib Zangar yurtiga keladi. Bir bazzoz¹ qiyofasiga kirib, ko‘shk yo-nida mato sotib o‘tirganida Xolbeka o‘z kanizaklariga bu yigitni saroyga olib kirishlarini buyurdi. Kuntug‘mish saroyga kirgach, shartga binoan nard o‘ynatadi va Xolbeka yengiladi. Ikkalasi bazm-u suhbat bilan ovora bo‘lib, Xolbeka ko‘shkiga chiqmay qo‘yganini ko‘rgan Zangar podshosi Buvraxon undan xabar olgani o‘z jallodlari-yu mirg‘azablarini² jo‘natadi. Kuntug‘mish va Xolbeka qochib yashirinishadi. Biroq ayg‘oqchilar ular yashiringan joyni aytib berishgach, har ikkalisini ham ushlab, Buvraxon huzuriga bandi qilib olib borishadi. Buvraxon o‘z saroy a‘yonlariga bu ikkisi qanday jazoga loyiqligi borasida maslahat soladi.

* * *

Hamma umarolar maslahat qilib kengashdilarki: «Bu gapni shoh yaxshi aytdi. Bir ish-e qiling, shu begunohlar o‘lmasin. «Xon g‘azabi – Xudo g‘azabi», degan ekan. Bularni shahardan tirik chiqarib yuboraylik, bandi bo‘lsa ham tirik ketsa, ajali yetmasa, bir yerdan chiqar, agar o‘lib ketsa, gunohi shohning bo‘yniga-da, – deb arkoni davlat gurullab birdan arz qildiki: –

¹ B a z z o z – gazlama sotuvchi savdogar, gazlamafurush.

² M i r g ‘ a z a b – mahbus va bandilarni jazolaydigan, kaltaklab tergov qiladigan zindon nazoratchisi; bu yerda: mirshab ma‘nosida.

E taqsir podshohim: osib o'ldirdingiz – ko'rdik, bosib o'ldirdingiz – ko'rdik, minordan tashladingiz – ko'rdik, to'pga solib otdingiz – ko'rdik. Bu beadablarga shunday jazo buyuramiz: bir tuv biyani olib kelib so'ysangiz, terisini tulup qilib olsangiz, xom teriga ikkovini zich qilib tiqsangiz, bir asov baytalning dumiga taqib, cho'l-jaziraga haydab yuborsangiz, bularning o'ligini g'ajir-quzg'unlar yeb ketsa». Podshoga ma'qul qildilar. Podsho buyurib, bir tuv biyani tulup qilib so'yib, ikkovini zich qilib, xom teriga tiqib, darvozadan chiqarib, bir asovning dumiga taqib, bir cho'l-jaziraga qaratib, ko'p odam chuvlab hurkitib, haydab yubordi.

Asov baytal hurkib, ikkovini sudrab, cho'lga uloqib ketdi. Baytalning dumi bir tol, yarim tol uzila-uzila, olti kun deganda [tulup] bir yerda tushib qoldi. Xom teri oftobning harorati bilan qurib, chunon qisdiki, temirday berkitdi.

Yoronlar, Xudoning qudrati kuchli,
Hu tog'dan bir quzg'un davr olib uchdi,
U jonivor parvoz aylab osmonga,
Nogahondan ko'zi qudoqqa¹ tushdi.
Qanotin chimirib qo'nib ustiga,
Amri Xudo bo'ldi, cho'qidi, teshdi.
Qo'lin solib ikkalasi yirtishdi,
Sog'-salomat shu qudoqdan chiqishdi.

Shahzoda omon-eson, sihat-salomat yori bilan qudoqdan chiqib qarasalar, bir cho'l-jazira, qo'rqinchli changalzorda tushib qolibdilar. El qayoqda, yo'l qayoqda – hech narsani bilmadilar. Atrofga qaraydi, na tog' va na boshqa hech narsa ko'rinmaydi. To'raning ko'ziga uzoqdan soyaday qorayib bir narsa ko'rinadi. Shahzoda ko'nglida: «Shu qora yo tog' bo'lg'ay, yo bir qora daraxt el bo'lg'ay», – deb ikkovi qo'l ushlab shu tarafga qarab ravona bo'ldi.

Alqissa, shahzoda issiq qumda oyoqlarini oldirib, yo'l yurolmay, jaziraning haybatidan badanlarida nam qolmay, tashnalik-suvsizliklari g'olib bo'lib, ko'zlari tinib, boshlari aylanib, gi-

¹ Q u d o q – tulup ma'nosida.

yohlarning tomirlarini qazib soʻrib: «Shu suv boʻlarmi?» – deb, baʼzi tomirlarni qazib: «Ovqat boʻlarmi?» – deb necha kunlar och, suvsiz choʻllarda kezib, quvvatdan madori ketib, avvalgi kunlari yodlanib, falakdan shikoyat qilib, bir soʻz dedi; shikoyati bu turur:

Bir vaqtinda edim Noʻgʻayning shoyi,
Xizmatimda edi uch lak sipoyi.
Qancha xor aylasang, falak, rizoman,
Boʻldim endi qultum suvning gadoyi.

Oh urganda esga kelar boyagʻim,
Burungiday ermas mening siyogʻim,
Suvsiz choʻlda giyoh boʻlib ovqatim,
Yuray desam bostirmaydi oyogʻim.

Shahzoda olti kun och, tashna ketib borayotib edi. Xolbeka oyim tashnalib, lablari gazarib, tanda majoli qolmay qumga yiqildi. Shunda toʻrasiga qarab: «Men senga iyarolmayman, bir manzilga yetolmayman, qumda oʻlib qolaman, menga qarab sen ham nobud boʻlma, sen elga yetib, odamlarga qoʻshilsang, yurtingga borsang, men sendan roziman, zinhor menga qayrilma, orqangga boqmay keta ber, mening kasofatimga shuncha ranjlar koʻrding, qattiq mashaqqatlar koʻrding, mening uchun koʻrding. E mard toʻram, mendan rozi boʻl, men ham sendan roziman, ket», – deb bir soʻz dedi:

Gapirsam keladi gapning maʼquli,
Mard oʻgʻlonning pirga boʻlar doxili,
Qaramayin keta bergin orqangga,
Baxtim qora, yaramayman shikili.

Toza gulday soʻlar boʻldim men emdi,
Daryoday boʻp toʻlar boʻldim men emdi,
Sendan judo boʻlar boʻldim men emdi,
Suvsiz choʻlda qolar boʻldim men emdi.

Armon bilan oʻlar boʻldim men emdi,
Gʻarib mozor boʻlar boʻldim men emdi,

Qaramayin keta bergin orqangga,
Taqdirimga ko‘nar bo‘ldim men emdi.

Alqissa, Xolbeka oyim yig‘lab yiqilib qoldi. Shunda to‘rasi Xolbekaning boshiga soya solib, yorini suyab, ko‘nglini ovlab: «Bir g‘ayrat qil, yo‘limiz yaqin qoldi», – deb ko‘nglini ko‘tarib bir so‘z dedi:

Uzog‘dan chopilar otning sarasi,
Ko‘rinadi bir narsaning qorasi,
Bir faslga g‘ayrat qilgin, bo‘yingdan,
Yaqin qoldi manzilimning orasi.

Bandadirman, Alloni yod etarman,
Yolborib haqqa munojot etarman,
Bir faslga g‘ayrat qilgin, bo‘yingdan,
Ko‘zim bilan qaytib tashlab ketarman.

Po‘lat nayza qor ostida yotarmi,
Temir nayzang egovlasang o‘tarmi,
Sening to‘rang nomardlardan emasdir,
Mard o‘g‘lon sevdigin tashlab ketarmi?..

Ilohi kelmasin senga mahosil,
Qaytayin, bo‘lmadi maqsudim hosil,
Yurarga quvvating, holing qolmasa,
Kel, orqamga ko‘tarayin bir fasl.

Kuntug‘mish to‘ra yoriga g‘ayrat berib, shu qora tarafga tasmollab, oqshom yurib, kunduzlar issiq bo‘lsa changallarning soyasida orom olib, bo uch kun deganda Mug‘olning tog‘iga yetdilar. Ikkovlari ham xursand bo‘lib: «Shukur, ajalimiz yetgani yo‘q ekan, o‘lmay shu toqqa keldik, albatta, chashmazor suvlar, har alvon mevalar bo‘lsa kerak», – deb chunon g‘ayrat qilib yurdilar. Tog‘ darasining ichiga kelib ko‘rsalar, yovvoyi yong‘oqlar, pistalar, jiydalar va yovvoyi toklar – har alvon mevalar pishib turibdi. Ikkovlari qorinlarini to‘yg‘azib, bir joydan oqmaydigan bir chashma ham topdilar. Shu chashmaning

bo'yini manzil qilib o'tira berdilar. Kuntug'mish: «El daragini topamanmi, yo'l daragini topamanmi?» – deb har kun chiqib shu tog'larni izlar edi. Mug'ol shunday tog' edi... Yovvoyi meva chunon ko'p edi. Yoz kunlarida yovvoyi mevalarni qurutib, bir yerni qazib, qishlik ovqatini berkitib olar edi.

Kuntug'mish to'ra ertangisin turib ketar edi, bir baland cho'qqiga chiqib qarar edi, el topolmas edi. Shu qish-u yoz shu yerda qoldilar. Xolbeka oyimning bo'yida homila paydo bo'lib, oyi kuni yetib, vaqti-kuni yaqin bo'ldi. Shahzoda doyimgi odatini qilib, toqqa chiqib ketib edi.

Xolbeka ikkita o'g'il tug'ib, bolalarini qo'liga olib, avvalgi kunlari esiga kelib: «Ochdan o'ldirib qo'ysam qanday qilar ekanman?» – deb yig'lab o'tirib edi. Qarasa, Kuntug'mish to'ra ham el-yo'l daragini topolmay g'amgin bo'lib kelayotib edi.

* * *

Kuntug'mish, nihoyat, eng baland cho'qqiga chiqib, pastga qarasa, bir katta karvonga ko'zi tushadi. Sevinib quyiga tushadi va bir kosa suv, bir non so'rab karvonchilar yoniga boradi. Karvonboshi Azbarxo'ja degan xasis, xudbin, razil kimsa edi. U Kuntug'mishga bir kosa suv va bir non evaziga buloqni egallab yotgan ajdahoni o'ldirish shartini qo'yadi. Kuntug'mish bu shartni ado etadi. Azbarxo'ja Qur'oni karimni o'rtaga qo'yib, Kuntug'mish bilan do'st tutinadi. Xolbeka va bolalarini ham topib kelishadi. Xolbekaning husni jamolini ko'rib, Azbarxo'janing fe'li ayniydi. Kuntug'mishni ziyofatda mast qilib, kigizga o'rab, ikki o'g'lini (go'dagini) ham shu sahroda qoldirib, Xolbekani bandi qilganicha Zangar yurtiga olib ketadi. Karvonda Qosim ismli yosh bir insofti, diyonatli yigit bor edi. U, agar Kuntug'mish zora o'ziga kelsa, bizning izimizdan yo'lga tushsa deb, bir kunlik-yarim kunlik yo'lga bir ko'za suv, ozroq ovqat qoldirib ketaveradi. Darhaqiqat, Kuntug'mish o'ziga kelib, ikki go'dagini olib, karvon izidan tushadi. Yo'lda bir daryoga duch keladi. Azbarxo'ja daryodan kechadigan qayiq'larni ham suvga cho'ktirib ketgan edi.

Shahzoda u yoq-bu yoqqa yugurib ko'rdi, kema-qayiq topolmadi. Oxir ilojini topmay, ikki bolasini yo'rgaklab, o'zin suvga chog'lab, daryodan yuzib o'tmoqchi bo'ldi. Bittasini og'ziga tishlab, u bittasini shu daryoning labiga qo'yib, daryoga kirib biror o'ttiz quloch urib edi. Endi baxti qaytgan to'rani ko'ring, «Davlat ham egiz, mehnat ham egiz», shu bachchani¹ qo'ygan yerning oldida bir tup g'isha bor edi, shuning ostida bir qizil iyak qari bo'ri pisib yotib edi. Shahzodaning daryoga tushganini ko'rib, to'ra uzagandan keyin, bachchani belidan tishlab olib keta berdi. Bola qo'rqib: «Ota!» – dedi. Shahzoda qarasa, bo'ri tishlab olib borayotibdi. «Voh!» – deyman deb edi, og'zidagisi ham suvga tushib ketdi, bir baliq yutib o'ta chiqdi. Shahzoda aytdi: «Bu-ku o'ldi, ana usiga yetar ekanmanmi?» – deb suvdan chiqib quvdi. Ikki oyoqligiga to'rt oyoqli nega yetqizsin, u ham qutulib ketdi...

Shahzoda farzand dog'iga toqat keltirolmay, nolishiga osmon-yer tebranib, yig'lab turib edi. Shu vaqtda to'raning nolasini eshitib, bir cho'pon kelib qoldi. Qarasa, bir odam, sher haybatli, yo'lbars sifatli bir kishi, falakdan shikoyat qilib yig'laganiga tog'-u toshlar suv bo'lib turibdi. Cho'pon bechora qo'yni qo'yib, to'raning oldiga kelib: «Nega muncha yig'laysan?» – deb bir so'z dedi:

E, yor, alam ko'rgan, qaydin kelasan, ayg'il,
Ko'p ranj-u sitam ko'rgan, qaydin kelasan, ayg'il.

Kim erding guli so'lgan, shum paymonasi to'lgan
Yoki bolasi o'lgan, qaydin kelasan, ayg'il.

Diyoridan ayrilgan, qanotidan qayrilgan,
Yo yoridan ayrilgan, qaydin kelasan, ayg'il.

Sen muncha bo'lib shaydo, muncha qilib vovaylo,
Yusufmisan Zulayxo, qaydin kelasan, ayg'il.

¹ Sheva xususiyatlariga ko'ra dostonda «bola», «bolalar» so'zlari «bachcha», «bachchalar» tarzida ham ishlatilgan.

Sen muncha bo‘lib purxun, ko‘z yoshing oqar Jayhun,
Yo Laylimisan Majnun, qaydin kelasan, ayg‘il.

Yig‘laysan bozi-bozi, ko‘kka chiqar ovozi,
Yo Zebomisan Yozi, qaydin kelasan, ayg‘il.

Yoinki qalandarsan, yo mardi dilovarsan,
Qilgin buni bovarsan, qaydin kelasan, ayg‘il.

Ayg‘il menga¹ otingni, bergil bayon zotingni,
Qo‘y endi uyotingni, qaydin kelasan, ayg‘il.

Anda shahzoda dilovar cho‘pondan xabari yo‘q, o‘z hollariga yig‘lab turgan edi, ko‘zlarini ochib qarasa, bir qo‘y quvuvchi kelib, «Qaydan kelasan?» – deb so‘z so‘rab turibdi. Anda shahzodaning tutun-olovlari jo‘sh qilib, ko‘ngillari qaynab, bir dardmand topolmay, ichi g‘amga to‘lib turgan emasmi, cho‘ponni mungdosh bilib: «E bechora, beri kel», – deb cho‘ponga qarab, boshidan o‘tgan mashaqqatlarini aytib, bir-bir bayon qilib, bir so‘z dedi:

No‘g‘ay yurti – o‘sgan joyim,
Ko‘kka chiqar qilgan ohim,
Qoraxon der qiblagohim,
Otam elga sulton bo‘ldi.

No‘g‘aydadir mamlakatim,
Qayrilib sindi qanotim,
Kuntug‘mish der mening otim,
To‘ra nomi nishon bo‘ldi.

Quloq solgin nolishima,
Yo‘q savdo tushdi boshima,
Men kirdim o‘n to‘rt yoshima,
Bir kuygur tushdi tushima,
Xotirim parishon bo‘ldi.

¹ Qo‘lyozmada meg‘an.

Shul bo‘ldi Haqning taqdiri,
Ayrilmay manglayning sho‘ri,
Bittasin op ketdi bo‘ri,
Uni ko‘rmak gumon bo‘ldi.

Qarorim yo‘q, turay desam,
Madorim yo‘q, yuray desam,
Uyim yo‘qdir, boray desam,
Vatanim yo‘q, kiray desam,
Yorim yo‘qdir, ko‘ray desam,
Qo‘zim yo‘q, o‘rgilay desam,
Ajaj yetmas, o‘lay desam,
Cho‘pon, boshim sarson bo‘ldi.

Cho‘pon: «E bechora», – deb o‘tib ketdi. Anda shahzoda Xolbekani ham unutib, borayotgan yo‘lini ham qo‘yib, boshqa bir yomon yo‘lga tushib, ko‘ngli jo‘sh urib: «Bor dunyongdan kechdim», – dedi.

Shahzodani keta bermoqda qo‘ying, endi so‘zni kimdan eshiting? To‘raning qo‘lidagi bolasini yutgan baliq mug‘dor o‘n gaz yer ham borgan yo‘q edi. Olim sayyod degan qatag‘anlik katta sayyod bir katta to‘rni yozib o‘tirib edi. Shu baliq boruvi bilan to‘riga tushdi. Ko‘tarib olsalar, bir katta baliq tushibdi. Ichini yordi, «Ota», – deb ichidan bir bola chiqqa keldi. Olim sayyod hayron qolib: «Ajab qudratlaring bor», – deb bolani uyiga olib borib, farzandi yo‘q edi, tarbiya qilib boqa berdi.

Endi bo‘ri olib qochgan boladan so‘zni eshiting.

Bo‘ri to‘raning bolasini olib qochdi, bir, ikki qirdan oshdi. O‘nta cho‘pon itiga osh pishirib yotib edi, bo‘rining guzari ustidan tushdi. Cho‘ponlarning ko‘zi tushdi, itni qo‘shdi, bo‘ri shoshdi, bachchani tashlab qochdi. Cho‘ponlar bolani tushirib olib, hayron qolib, birovi aytadi: «Qirga chiqqan xotinning bolasi.

Birovi aytadi: – Mo‘ltonining bolasi.

Birovi aytadi: – Qozoqning bolasi.

Birovi aytadi: – Bir uyquchi befarq xotinning bolasi».

Shu yerda o‘n bir cho‘ponning qo‘shi doyim bir edi. Kunda kechkisin bari yig‘ilib kelar edi. Erta turib, qo‘ylarni har tarafga haydab ketar edi. Kechkisin boyagi to‘raga uchrashgan cho‘pon

qo'yini haydab kelsa, jo'ralari: «E birodar, bizlar bukun bo'ridan bir bola tushirib olib qoldik», – deb o'rtaga olib o'tiribdi. Cho'pon ko'nglida aytdi: «Haligi sho'rlining bolasi».

Oradan bir-ikki kun o'tmay ovoza bo'lib qoldi: «Olim sayyod qatag'an baliqning ichidan bitta tirik bolani topgan emish». Buni ham haligi cho'pon eshitdi. «Haligi sho'rlining bolasi», – deb yurdi. Cho'ponlar bo'rini gurk der ekan, o'z oti o'zi bilan, bolaning otini Gurkiboy qo'ydilar. Baliqni sayyodlar mohi der ekan, unisining otini Mohiboy qo'ydilar. Bolalarni tarbiyatda qo'yib, endi so'zni Xolbeka oyimdan eshiting.

* * *

Shunday qilib, Gurkiboy va Mohiboy Zangar shahriga kirib boradilar. Ko'chada Xolmo'min yasovulboshiga duch keladilar. Xolmo'min ularni o'z uyiga xizmatkor qilib olib ketadi. Kuntug'mish ham shu shaharda, o'z niyatiga yetolmay, bir tadbir-chora topolmay, eski kuloh-jandalarni kiyib yurgan edi.

* * *

Bachchalarning borganiga besh oy-olti oy bo'lib edi, shu shaharning podshosi Buvraxon podsho o'ldi. U vaqtida podsholarga rasm shu edi: davlatqush degan qushini uchirar edi, kimning boshiga qo'nsa, podsho qilar edi. Shu davlatqushni uchirganiga uch kun bo'lib edi. Zangar shahrining jamiy katta-kichik odami dalada edi. Qush goh daraxtga, goh devorga qo'nib yurib edi. Banogoh shu vaqtda Kuntug'mish to'raning ham guzari shu yerga tushib qolgan ekan. Kuntug'mish to'ra katta bir chilimni beliga boylab olibdi, o'zini hech odamga o'xshatmay, yomon jandalarni kiyib, o'zini shaylab olibdi. Hech kim bilan ishi yo'q, odam bilan hushi yo'q, o'zidan boshqa kishi yo'q; chekadi bang, aytadi vadavang. Bir qurib qolgan daraxtning ostiga borib, ko'mir qilmoqchi bo'lib, olov yoqib, nashaning taraddudida edi, davlatqushi borib to'raning boshiga qo'ndi. Shahri Zangarning odamlari qushni quvalab borsa, qush bir devonaning boshiga qo'nib turibdi. Arkoni davlat otdan tushib, izzat-ikromlar bilan salom berib:

– Taqsir podshoyim, yurtingiz qutli bo‘lsin, – desalar, to‘ra teskariga qarab, dim indamaydi. Oxirda odamlar qushni olib ketdilar. Podshoning arkidan boz uchirdilar. Bo yana kelib (Kuntug‘mishga) qo‘ndi. Bu mavrud ham «Yurtingiz qutli bo‘lsin», – desalar, dim indamaydi. Tag‘i qushni olib ketdilar. Olib borib qushni yana arkdan uchirdilar. Boz kelib, uchinchi martaba ham bangining boshiga qo‘ndi. Bu mavrud shahri Zangarning ulamolari, fuzalolari, katta ulug‘lari kelib, muborakbod qilib: – Taqsir podshoyim, yurtingiz qutli bo‘lsin, – desa, teskariga qarab, javob bermadi.

Shunda kattalar turib aytdi:

– Ey yoronlar, uch debdi, uchdan keyin puch debdi. Endi shu odamni olib borib, podsho qilmoq darkor. Har vaqt bir odam podsho bo‘ladi-da¹. Shu ishga qaraganda, shu odam nazokatli odam, yo bo‘lmasa, qushni arvoh urgan. Agar bangi bo‘lsa, jinni bo‘lsa, bir kun podsholik taxtini tashlab ketib qolar. Biroving podsho bo‘lasan-da va agar bajarsa, shunday bir odam podsho bo‘ladi-da, – deb qo‘lidan chilimini tortib olib, otib yubordilar. Biroq kigizning ustiga chiqarib, chir tevaragidan ko‘tarib, jarchilar:

– Zamon kimning zamoni, Qalandarxonning zamoni, – deb ko‘cha-ko‘chalarga jar solib qichqira berdilar. To‘rani ko‘tarib, taxti shohiga keltirib, tilla taxt ustiga o‘tqizdilar. Ustiga podshohona xilvatlar kiygizib, boshiga tilladan bo‘lgan tojni qarqara qilib, o‘tqizib, hukumat niginni qo‘liga solib, jamiy mardumi shahar dasti bay‘at berdilar. Ana Kuntug‘mish to‘ra bir qarichdan beri yurt so‘rab yurgan emasmi, jamiy olamni uzukday changaliga olib, chirsillatib so‘rab keta berdi. Anda jamiy chulonxo‘r umarolariga farmon bo‘ldiki: «Mening chulon oshimga kelgan amaldorlarkim, bir hafta-bir haftadan jilovxonamda istiqomat qilib ketsin». Avval navbat Xolmo‘min yasovulboshiga tegdi.

Yasovulboshi hovlisiga kelib, avval bachchalariga tayin qildiki:

– O‘ bachchalar, men yangi bo‘lgan podshoning jilovxonasida bir hafta turib kelaman, lekin sizlar oqshom uxlamanglar, kunduz uxlanglar. Sipoyi xalqining dushmani ko‘p

¹Qo‘lyozmada bo‘lata.

bo'ladi, namozdigardan keyin aslo darvozani ochmanglar, mabodo bachchalik qilib, g'ofil qolib, bir hodisa ro'y bermasin, – deb ko'p tayinladi. Andin keyin ichkariga kirib ayoliga tayin qildiki: – O' xotin, men ikkita yetim bola saqlab qo'yibman, ilgari yetimlarday beparvo qolib ketib qolmasin, holi ahvolidan ko'p xabardor bo'l, e, yetim-da, dema. Men bularning oxirini ko'raman, deb yuribman. Umidim shulki, bular soyasi yerga tushmagan xonzoda chiqar, agar hech nima bo'lmasa, bir asl sayyidzoda chiqar. Bularni aslo yetim demagaysan, – deb xotiniga ko'p tayinladi. Andin so'ng hovlisidan chiqib, podshoning davlatxonasiga ketdi.

Xolbeka oyim chechasiga aytdi:

– O' yanga, akam sira yetimni yetim demas edi, ikki yetim bor, deb og'zidan tushirmaydi. Shu yetimlarni bir ko'rsak, qaytadi?¹

Xolmo'minning xotini aytdi:

– Akang bo'lsa chiqib ketdi, ko'rsang yur esa ko'rsatib kelayin, – deb bitta non, bir kosa suv olib mehmonxonaning eshigidan uzatib edi, Mohiboy kelib qo'lidan olib ketdi. Anda o'tirib nonni o'rtaqa qo'yib yemakchi bo'lib turib edi. Xolbeka oyim mehmonxonaning tokcha teshigining ichidan qarab, ikki go'dakni ko'rdi. Ikkovini ko'rgan hamono, uvuz eti uv bo'lib, to'la badani suv bo'lib, jamiy a'zosida larza paydo bo'lib, emchagiga sut kelganday bo'ldi.

Xolmo'min yasovulboshinikida xizmat qilib yurgan Gurkiboy va Mohiboy xo'jayin uyda yo'qligida bo'za ichib, og'zi qizib turganida Gurkiboy ukasiga sirni ochib qo'yadi.

Gurki bechora avval aytar edi: «Podsho xalqining dushmani ko'p, agar aytsam, bu o'zi yengil ekan, birovga aytib qo'yar», – deb aytmas edi. Bul vaqtda o'zini to'xtatolmay, yuragi toshib, Mohiboyga: «E go'dagim, kishining zoti-zuryodi, o'tanasi, eli yurti bo'lmasmi? San go'daksan. Yurting No'g'ayda san bedarak emassan», – deb bir so'z dedi:

Bilmaganing bildirayin, bilmasang,
Bayakbor maqsadga yetsang, o'lmasang,

¹ Qanday bo'ladi?

Men senga zotingni bayon aylayin,
Ertangman birovgga aytib solmasang.

Uzoqda, Mohiboy, oʻsgan diyorim,
Bexabar qolgandi koʻp ichkuyarim,
Ikkovimiz sut emishgan shirxoʻra,
Men akangman, sen boʻlasan jigarim.

Bu yetimlik seni qildi sargardon,
Choʻpchak terib, tilab yeysan parcha non,
Zotingni aylasam men senga bayon,
Tub bobongdir Avliyoyi Qoraxon.

Maydon-maydon otam otin yelgandir,
Mard oʻlgʻondir, shirin jonin boʻlgandir,
Noʻgʻaydan otamiz Zangar kelgandir,
Nard oʻynab enamni utib olgandir.

Musofirlik, shohga bandi boʻlgandir,
Tanimay bularga zulm qilgandir,
Bir teriga tikib ikki oshiqni,
Asovga sudratib choʻlga solgandir.

Bizni deb zor-zor boʻlgan otamiz,
Baloga giriftor boʻlgan otamiz,
Ikkovimiz uch yoshlarga kirganda,
Koʻp karvonga duchor boʻlgan otamiz.

Quloq solgin alvon-alvon tillarga,
Bulbul oshno boʻlar bogʻda gullarga,
Enamizni karvon olib ketgandir,
Ikkovimiz qola bergan choʻllarga.

Shunday boʻp ayrilgan ikkovginamiz,
Gʻam bilan sargʻaygan gulday tanamiz,
Ikkovimiz sut emishgan shirxoʻra,
Shu bebaxt Xolbeka bizning enamiz.

Bu soʻzni Gurkiboy Mohiga aytdi,
Xolbeka xatosiz barin eshitdi,

Bollarini bu soʻzini eshitib,
Quvongandan bebaxt oʻzidan ketdi.

Soʻz eshiting suxanvarning soʻzidan,
Yosh quyilib ikki qora koʻzidan,
Vo bolam, deb tomdan oʻzin tashladi,
Bolam dedi, shoʻrli ketdi oʻzidan...

Alqissa, Xolbeka oyim bolalari bilan topishdi. Aytdi:

– Ey goʻdaklarim, men sizlarni oʻldi deb edim, sira tirik demas edim. Nima uchunki, sizlar juda yosh edinglar, hech murabbiylaring yoʻq edi, oʻldi demakka tilim bormas edi. Xayolim bilan tirik qilar edim. Endi menga bola qayoqda, deb umidimni uzgan edim. Ming-ming shukur, sizlar tirik bor ekansizlar. Otangning oʻlganiga endi xafa boʻlmayman, – deb bolalari bilan topishib, ogʻzi-burnini oʻpishib, xumori tarqashib, gaplashib oʻtirdi.

* * *

Xolbeka Kuntugʻmishning podsho boʻlganidan bexabar, Zangar otalaringga vafo qilmadi, sizlarga ham vafo qilmaydi, deya oʻgʻillariga ot-ulov, qurol-yarogʻ berib, bobolarining yurti Noʻgʻayga joʻnatadi. Ular Zangar shahridan chiqishda darvozabon qoʻrboshi bilan janjallashib, uni oʻldirib ketishadi. Sak-kiz kecha-kunduz yoʻl bosib Olatogʻ degan joyga yetishadi. Olatogʻda oʻn ming uyli qul yilqi boqib yurar edi. Yilqilarni koʻrib Mohiboyning feʻli aynaydi va bir toʻp yilqini haydab keta boshlaydi. Oʻrtada choʻponlar bilan qattiq jang boʻladi. Jangda aka-uka gʻolib chiqib, barcha yilqilarni Noʻgʻay yurtiga haydab ketishadi. Besh kunlik yoʻl yurgach, ikkalasi ham horib-charchab, bir yerga qoʻnib uxlab qolishadi. Bu orada choʻponlarni ikki yigit oʻldirib, yilqilarni haydab ketganini eshitib, ular ortidan lashkar joʻnatgan edi. Lashkar yetib kelib, uxlab yotgan Gurkiboy va Mohiboyni bandi qilib Zangar shahriga olib ketishadi.

Bu ikki go'dakni bandi qilib, o'n kun yo'l yurib, o'n kun deganda Zangar shahriga olib bordi. Gurkiboy tavakkal qilib ketib borayotibdi, Mohiboy so'zlab, yig'lab borayotibdi. Shunda bularning kelayotgani Zangar shahriga ovoza bo'ldi. Hech bir eshitmagan odam qolmadi. «Yangi bo'lgan podsho yangi bo'lgan bandisini to'xtovsiz dorga tortadi», – deb ovoza bo'lib, yaxshi-yomon, yugruk-chobon, xurd-u kalon, qiz-u juvon ko'chako'ylarda, tomlarning ustiga chiqib, ko'rmagan odam qolmadi. Bu ikkovini ko'rib, yig'lamagan odam bo'lmadi. «Hay attang, dunyosi qursin, shunday yosh bachchalar o'lib ketsa. «Xon g'azabi – Xudo g'azabi», degan, chiqmasak bo'lar ekan, chiqib alamimiz ziyoda bo'ldi», – deb mardumi shahar yig'lashib, orqasidan ergasha berdilar. Endi yangi bo'lgan podshodan eshiting.

Arkoni davlat, umaro, vazir-vuzaro, qozi-fuzalo, mufti-ulamo, mahram, yasovul, og'achi, shig'ovul – jamiy sipohilari bilan o'tirib edi. Ikki go'dakni olib borib, manzur qildi. Ikki bandiga ikki yangi dor tuzab, qurdirib turib edi. Podsho ko'rgandan mehri toblab, otalik mehri qaynab, bachchalarni ko'rgandan uvuz eti uv bo'lib, to'la badani suv bo'lib, ko'ngli buzilib, bag'ri ezilib, ko'zining yoshi tizilib, avvalgi aytib o'tirgan gaplariga pushaymon yeb: «Kel-e, bu bachchalarning og'ziga bir luqma solay, agar bizlar qilganimiz yo'q desa, ozod qilay, bu bolalar o'ldiradigan bola emas ekan-ku», – deb ikki bolasiga qarab bir so'z dedi:

Yurgan yering balandmidi, pastmidi,
Ko'p odam bandi qip senga qasdmidi,
Oqsuvdan ne deb haydading yilqimni,
Haydaganing yolg'onmidi, rostmidi?

Yosh bachchalar, ko'nglingni shod aylayin,
Bu foniy dunyodan faryod aylayin,
Munkir kelsang, bollar ozod aylayin,
Haydaganing yolg'onmidi, rostmidi?

Bachchalar podshoning bu so'zini eshitdi. «Munkir kelsa ozod bo'lar ekan, lekin mardlik qo'ldan ketadi», – deb Mohiboy:

– E podshoyim, mardlar o‘laman deb so‘zidan qaytmabdi, – deb otasiga qarab bir so‘z dedi:

O‘laman, deb mard qavlidan toyama,
Yo‘qchilik jo‘mardning ko‘zin o‘yama,
Oqsuvdan yilqingni o‘zim haydadim,
Qo‘lingdan kelganing qilgin, ayama.

Mardlarning parvoyi bo‘lmas o‘limdan,
Musulmonman, kalma kelar tilimdan,
O‘laman, deb mard ham ikki so‘zlarimi,
Munkir kelsam, mardlik ketar qo‘limdan.

Shu bolalarni haydab borgan o‘n ikki ming lashkar birdan chuvlab arz qildi:

– Taqdir podshoyim, bunday bo‘yni yo‘g‘on bola yerning yuzida yo‘q; taqdir, o‘n kundan beri haydab kelyapmiz-a, ertadan-kechga davur bizlar bilan o‘rlashib, o‘r yog‘ini bizlarga bermay kelayotibdi. Bunday bo‘yni yo‘g‘on bolani bizlar sira ko‘rmay kelayotibmiz. Buning bo‘ynini podsho ingichkartsin, – deb olib keldik.

Shunda podsho hayron bo‘lib, nima deyarini bilmay qoldi. Avvaldan hukm bo‘lgan emasmi, jallod-mirg‘azablar urib-so‘kib yangi tikilgan dorga qaratib olib keta berdi. Shunda Xolbeka bechora ham ayollar bilan dorning oldidagi tomning ustiga chiqqan ekan, shunday tiklab qarasa, ikki bolasini ham jallod-mirg‘azablar olib kelayotibdi. Bolalarini tanib, ichi o‘tday yonib, chirqirab, tomdan o‘zini tashladi...

Alqissa, Xolbekaning aqli shoshib qolgan edi. Jallodlardan ko‘p tayoq yeb, nima derini bilmay, dorni ko‘rgandan, ayol emasmi, joni chiqib qo‘rqib, ha derga holi, yurarga majoli bo‘lmay, dorga qarab bir so‘z dedi:

Qaladin qalampir yuklar qalachi,
Durdonadan anbar tog‘ning og‘ochi,
Analhaq deb Mansur senga osildi,
Assalom alaykum, dorning og‘ochi.

Shonaman taralar qizlarning sochi,
Madad qiling Bobo Zangi podachi,
Analhaq deb Mansur senga osildi,
Assalom alaykum, dorning og'ochi...

Enasining bu soʻzlariga Gurkiboyning achchigʻi kelib, enasiga qarab: «E shoʻrli, qismati qattiq enam. Bu dunyoga kelib biror shod boʻlmay yigʻlab oʻtgan enam, taqdiringga koʻn-da, bu ogʻochning qoʻlidan nima keladi», – deb bir soʻz dedi:

Bizlar chiqdik, ena, Zangar elidan,
Bogʻbon uzar bogʻning toza gulidan,
Yigʻlasang Xudoga yigʻla, enajon,
Nima kelar quv ogʻochning qoʻlidan...
Podsholar tolibdir taxt bilan tojga,
Koʻngli ketar doyim zakotman bojga,
Nima kelar quv ogʻochning qoʻlidan,
Kofirmiding, elanasan ogʻochga?..

Gurkiboy qarasa, jallodlar Mohining boshida, Mohini oʻldirmoqchi boʻlayotibdi. Shunda enasiga aytayotgan soʻzini qoʻyib: «Oʻ, jallodlar, avval meni oʻldiringlar, mening oldimda Mohi oʻlmasin, mening koʻzim koʻrmasin. Mening yoshim katta, yoʻl meniki», – deb jallodlarga qarab, bir soʻz aytayotibdi:

Beklar minar bedov oting tolmasin,
Hech kimsa dunyoda bizday boʻlmasin,
Mendan burun Mohi bebaxt oʻlmasin,
Mohining oʻligin koʻzim koʻrmasin.
Zolim jallod, bilmaganim bildirgin,
Yigʻlatma Mohini, oʻynab-kuldirgin,
Meni oʻldir, Mohini qoʻy, jallodlar,
Yoshim ulugʻ, avval meni oʻldirgin.

Shunda Mohi zor yigʻlab: «E jallodlar, gunohni men qilganman, Gurkiboy meni shuncha qaytardi, aytganini qilmadim. Gurkining gunohi yoʻq, meni oʻldiringlar, Gurkini ozod qilinglar, men Gurkining qoniga zomin boʻlmayin», – deb jallodlarga qarab bir soʻz dedi:

Qonlar oqsin mening ikki ko‘zimdan,
Yangilmadim aslo aytgan so‘zimdan,
Bu ishda Gurkining yo‘qdir gunohi,
Qancha gunoh bo‘lsa yolg‘iz o‘zimdan...
Hech odam dunyoda bizday bo‘lmasin,
Bizday bo‘lsa bu dunyoga kelmasin,
Meni o‘ldir, Gurkini ozod aylanglar,
Qoraxonning yurti sabil qolmasin;
No‘g‘ayning yurti besohib bo‘lmasin,
Mening kasodimga Gurki o‘lmasin.

Anda Kuntug‘mish to‘ra taxtidan tushib, aqlidan adashib, nima qilarini bilmay shoshib, chopib dorning ostiga kelsa, tomoshabin zich-to‘p bo‘lib turibdi, yo‘l bermaydi. Shunda to‘ra zor yig‘lab, tomoshabinlarga qarab qoch, deb bir so‘z dedi:

Bolam kepti necha tog‘lardan osha,
Ikki zulfi gardaniga yarasha,
Po‘st-a, po‘st, tomoshabin jonlarim,
O‘lganning nesin qilasizlar tomosha.
Qo‘ldan ketib davr ilan davronlarim,
Vayron bo‘lib ko‘shk ilan ayvonlarim,
O‘lganning nesin qilasizlar tomosha,
Yo‘l beringlar, tomoshabin jonlarim.
Bolamning oldida men dod aylayin,
O‘z holima necha faryod aylayin,
O‘lganning nesin qilasizlar tomosha,
Qochinglar, bolamni ozod aylayin...
Quloq soling gapinning payvastiga,
Mayiblarday ingranadi Kuntug‘mish,
Bo‘zlab bordi zolim dorning ostiga.

Odamlar podsho keldi deganiga jallodlar shoshib: «Shu vaqtga davur o‘ldirmabsan, deb bizlarni o‘ldiradi. Shuning uchun kelgan-da podsho», – deb Mohiboyga pichoq solmoqqa shoshib, bo‘ynida arqon bilan kurmak boylab, mirg‘azablarga «tort» deb yubordi. Tortib yubordi. Kuntug‘mish to‘ra chopib kelib, Mohiboyni suyab, jallodlarga: «Qo‘yib yubor ipni», – dedi. Jallodlar ipni qo‘yib yubordi. Mohining dami tutilib, dami ichiga tushib

qoldi. Kuntug‘mish to‘ra Mohini ko‘kragiga olib: «Shamolni ochinglar», – deb har ko‘zidan yetmish qatra yoshini to‘kib, qaddi bukilib, Mohining betiga tiklab turibdi. Gurkiboy ham yig‘lab, ukasining oldiga borib: «Voh, ukamdan ayrildim», – deb yig‘lab turgan mahalda, Xolbeka sho‘r ham: «Voh, bolam», – deb qarasa, Kuntug‘mish to‘ra Mohini ko‘kragiga olib, ko‘tarib yig‘lab turibdi. Shunda Xolbeka oyim to‘rasini yulmalab, erini qarg‘ab: «Podsho bo‘lmay bo‘luvsiz qolgur», – deb erini mushtlab qoldi. Xolbeka bechora bilsa, Zangarga yangi bo‘lgan podsho Kuntug‘mish to‘ra ekan. Shunda erini tanib, bir so‘z dedi:

Men seni shahzoda dedim, mard dedim,
Sen qanday siynamga qo‘ygan dard eding,
Chiqsin ko‘zing, tanimading bolangni,
Ne tilingman buni dorga tort, deding...
Armon bilan bilmaganim bildirding,
Zor yig‘latib, ko‘zim yoshga to‘ldirding,
Ne tilingman buni dorga tort deding,
Podsho bo‘lib, o‘z bolangni o‘ldirding.
Yura bilmay yurar yo‘ldan toyrildim,
Ucha bilmay qanotimdan qayrildim,
Chiqsin ko‘zing, tanimading bolangni,
Armon bilan men bolamdan ayrildim.
Men seni shahzoda dedim, mard dedim,
Sen qanday siynamga qo‘ygan dard eding.

Xolbeka bechoraning: «Voh, Mohi», – deb yig‘laganiga hech kimda tob-toqat qolmadi. Kuntug‘mish to‘raning: «Bolam», – deb na‘ra tortgan dovushi osmonga yetdi. Gurkiboyning: «Voh, ukam», – deb yig‘laganiga hech kim toqat qilolmadi...

Alqissa, shu turgan xaloyiqlar qarasalalar, shu qalandarxon Kuntug‘mish to‘ra ekan, o‘g‘ri bo‘lib qo‘lga tushgan bachchalarda qumda qolgan go‘daklar ekan. Arkoni davlat, Xolmo‘min bosh bo‘lib kelib, Mohiboyini suyab ko‘tarib, arkka olib chiqib ketdilar. Bir soatdan keyin Mohiboy ko‘zini ochib, o‘ziga keldi. Xolbeka bechora Mohini bag‘riga olib, quvonib, yuragi yorilib qolay dedi. Mohiboyning boshidan tovoq-tovoq tilla-kumushlarni sadaqa, deb chocha berdi.

Endi turgan katta-kichiklar, umarolar, amaldorlar, podshoning oldida turgan in'omli kishilar Kuntug'mish to'ra bilan qayta boshdan ko'rishib, ixlos-e'tiqodi ziyoda bo'lib, Gurkiboy bilan Mohiboyni izzat-hurmat qilib, shohona kiyimlar kiygizib, toji xisravni boshiga qo'yib, qayta boshdan muborakbod qildilar. Kuntug'mish to'ra ham ko'hna xazinalarini ochirib, tillakumushni elatiyasiga in'om-ehson qila berdi. Endi Zangar eliga podshoh qirq kun to'y berdi.

Zangarning katta-kichigini yig'ib, hammasini o'zidan rozi qilib turgan vaqtida, arkoni davlat turib arz qildi: «Buvraxon podsho Azbarxo'jani zindon qilgan edi, hali o'lgani yo'q, zindonda yotibdi. Farmoyishlari nima?» Kuntug'mish to'ra buyurdi: «Olib chiqinglar!»

Azbarxo'jani zindondan olib chiqdilar. Kuntug'mish ikki o'g'liga buyurdi: «Mening «do'stimdan» o'chlargini olinglar. Men do'stlik otini tutganman, qoshiga bormayman, yuzini ko'rmayman...»

Shunda Mohiboy bilan Gurkiboy qo'llariga xanjarni olib, Azbarxo'janing qoshiga bordi. Aytdi: «Huv otamning «do'sti», bizlarni taniysanmi? Bizlar Zarchamanning cho'lida emaklab yig'lab qolgan bolalar bo'lamiz. Sening shu qilgan «yaxshiligingni» qaytarmoqchi bo'lib keldik», – deb ... ikki bola Azbarxo'jani bosib oldi. Baqirtirib, tilini ko'maklayidan kesib oldi. Azbarxo'ja gapirolmay, ho'kizday bo'kirib-bo'kirib, itday bo'lib o'lib qoldi. Gavdasini o'tda kuydirib, kulini shamolga uchirib yubordi. Azbarxo'janing ishi tamom bo'ldi.

Kuntug'mish to'ra qirq kun, qirq tun to'y berib, to'yi tamom bo'ladigan kuni jamiy arkoni davlatini yig'ib, Xolmo'minni Zangarga podsho qildi. Zangar shahrining jamiy bek, umarolari Xolmo'minga dasti bay'at berdi.

Endi Kuntug'mish to'ra No'g'ay elga bormoqchi bo'lib, yo'l jabdug'ini tayyorlay berdi. Qatorda nori bilan, xazinada zari bilan, ikkita bolasi qoshida, Xolbeka yori bilan, qancha xizmatkor, qul, cho'ri, kanizaklari bilan jo'nadi. Shunda Xolmo'min Zangarning ulug', akobirlari bilan o'n kunlik yerga billa kelib, Kuntug'mish to'ra bilan xo'shlashib, jiyanlari bilan ko'rishib, yig'lashib Zangarga qarab qaytdi.

Kuntug‘mish to‘ra omon-eson, sihat va salomat yurtiga bo-rib, qavm-u qarindoshlari bilan, o‘zining yor-u jo‘ralari bilan, elining ulug‘, kattalari bilan ko‘rishib, o‘ynab-kulishib, otasi Qoraxonning toj-taxtiga ega bo‘lib, davrini sura berdi.

Lekin Qoraxon podsho necha yillardan beri o‘zining o‘rniga qushbegisini qo‘yib, Kuntug‘mishning o‘tiga kuyib, tagizaminga kirib, toat-ibodatga mashg‘ul bo‘lib yotib edi. Bechora ibodatxonasidan chiqib, yolg‘iz farzandini ko‘rib, ko‘rishib, nabiralarini ko‘rib, Xolbeka bilan ko‘rishib, jamiy elini yig‘ib, ko‘hna xazinalarini ochib, qirq kecha-qirq kunduz podshohona to‘y qilib berib, o‘zining taxtiga Kuntug‘mish to‘rani chiqarib, o‘zi boshidan muborakbod qilib, podsho qildi. Kuntug‘mish to‘ra shunday qilib murod-maqsadiga yetdi.

Nazariy ma‘lumot

ISHQIY-QAHRAMONLIK DOSTONLARI

Doston xalq og‘zaki ijodi va o‘zbek mumtoz adabiyotida keng foydalanib kelinayotgan epik shakllardan biridir. «Doston» so‘zi xilma-xil ma‘noni bildirib kelgan. Masalan, «doston»forschada epik asar nomini anglatadigan so‘z bo‘lib, u hatto qissa, romandek katta nasriy asarlarga ham nisbat beriladi. Siz bilan biz o‘rganayotgan doston esa xalq og‘zaki ijodida yaratilgan va yaratilayotgan muayyan kompozitsion yaxlitlikka ega bo‘lgan xalq dostonlaridir. Ular yozma adabiyotdagi «Suhayl va Guldursun», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi dostonlardan fantaziya ko‘lami, ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan voqealar, aql bovar qilmaydigan qahramonliklar tasviri bilan farq qiladi. To‘g‘ri, yuqorida nomlari tilga olingan dostonlarda ham fantastik unsurlar, mubolag‘ali o‘rinlar mavjud. Biroq ularning birortasi sujet erkinligi, favqulodda qiziq voqealar borasida xalq dostonlari bilan tenglasha olmaydi.

Dostonlarimizda xalqimizning baxtli kunlar, ro‘shnoliklar haqidagi orzu-umidlari, faqat yaxshilikka, yorug‘ kunlarga erishish istagi yotadi. E‘tibor bersangiz, dostonlar muvaffaqiyatli yakun bilan tugaydi. Asar qahramonlari juda katta fojialarni, qiyinchi-

liklarni boshlaridan kechiradilar, og‘ir sinovlarga bardosh beradilar, oxir-oqibat murod-maqsadlariga erishadilar.

Xalq dostonlarining ko‘pchiligiga xos xususiyat – ularda ishq-muhabbat mavzusining ustunligidir. Dostonlardagi voqealar qahramonlarning ishqiy sarguzashtlari fonida kechadi. Masalan, dunyoga mashhur «Alpomish»ni olasizmi, «Ravshan» yoki «Kuntug‘mish» dostonlarini olasizmi – bari-barisida muhabbat mavzusi ustuvorlik qiladi. Darhaqiqat, muhabbat – muqaddas tuyg‘u. Bekorga xalqimiz «Ishqsiz eshak – dardsiz kesak», demaydi. Sevimli shoiramiz Nodirabegim ta‘biri bilan aytganda esa:

«Muhabbatsiz kishi odam emasdur,
Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et».

Muhabbat insonni ezgulikka yetaklaydi, sevgan kishi har qanday qahramonlikka qodir hisoblanadi. Biz o‘rgangan «Kuntug‘mish» dostoni sevishganlar haqida chiroyli asar, uning janrini ishqiy qahramonlik dostoni, deb belgilash mumkin.

Chunki Kuntug‘mish dostonida katta qahramonliklar ko‘rsatadi: yurtga qiron keltirgan ajdarni yengadi, tosh bostirib qo‘yilgan kigiz ostidan chiqib ketadi. Bu qahramonliklar shunchaki o‘zini ko‘rsatish emas, avvalo xalqni ajdar ofatidan qutqazgan bo‘lsa, sevikli yori, bolalarini deb g‘oyat tang bir holatda yovlari o‘rab-chirmab, ustidan tosh bostirib ketgan kigiz orasidan xalos bo‘lib chiqadi.

Umuman, Kuntug‘mishning dostonidagi hayoti qahramonlik bilan kechadi. Uning Xolbeka visoliga yetishish uchun uzoq sa-farga o‘tlanishi, yo‘lidagi barcha to‘siq-g‘ovlarni yengishi haqiqiy insoniy jasorat, fidoyilikdir. Dostonidagi Xolbeka, Gurkiboy va Mohiboy harakatlarida ham qahramonlik belgilari mavjud. Axir Xolbekaning sevgan yori, bolalari uchun jonini berishga tayyorligi, Gurkiboyning ukasi uchun o‘zini fido qilishga shayligi (uning dor ostidagi so‘zlarini eslang) qahramonlik emasmi?!

Birgina «Kuntug‘mish» dostoni emas, boshqa dostonlarda ham asar personajlari turli qahramonlik namunalari ko‘rsatadilar, bu qahramonliklar odamlarning og‘irini yengil qiladi, el-yurtga ro‘shnolik keltiradi. Baxshi bobolarimiz sevib

kuylagan «Kuntug‘mish» kabi ishqiy-qahramonlik dostonlari bizni muhabbatdek ezgu tuyg‘uni qadrlashga undaydi, fidoyilik, qahramonlikka chorlaydi, chunki ishq-muhabbat, qahramonlik, jo‘mardlik doimo egizak tushunchalardir.

Savol va topshiriqlar

1. Xalq dostonlari haqida nimalar bilasiz?
2. Dostonchilik maktabini yaratgan qaysi mashhur baxshilarni bilasiz?
3. Dostonchilik maktablari qachon paydo bo‘lgan va qaysi asr uning juda rivojlangan davri bo‘lgan?
4. Yurtimizda dostonchilikni rivojlantirish, baxshilar ijodini qo‘llab-quvvatlash uchun nima ishlar qilinyapti?
5. «Kuntug‘mish» dostonini ko‘proq qaysi baxshilar ijro etganlar?
6. Siz tanishgan «Kuntug‘mish» dostoni qaysi baxshidan yozib olingan? Baxshi haqida nimalar bilasiz?
7. Kuntug‘mish o‘n to‘rt yoshgacha nimalar bilan shug‘ullandi, o‘n to‘rt yoshdan so‘ng qaysi amallarni egalladi?
8. Xolbeka kimning farzandi? Uning kamolga yetguncha bo‘lgan hayotini batafsil gapirib bering.
9. Kuntug‘mish va Xolbeka g‘ayritabiiy sharoitda (tushda) tanishadilar. Shunga o‘xshash holatlarni (tush, ko‘zgu, uzuk orqali tanishish) yana qaysi dostonlarda uchratgansiz?
10. Zangar shahri podshosi Xolbekaga oshiq bo‘lib, o‘z niyatiga erishish uchun qanday «choralar» ko‘rdi?
11. Kuntug‘mishning Xolbeka suratini ko‘rib, hushidan ketib yiqilishi holatini tasvirlashda Ergash Jumanbulbul qaysi badiiy unso‘rni qo‘llagan, deb o‘ylaysiz?
12. Qosim Kuntug‘mishni halokatdan saqlab qolish uchun qanday chora ko‘rdi?
13. «Shirxo‘ra» so‘zi qanday ma‘noni anglatadi? Izohlang.
14. Kuntug‘mish asarda yana qaysi nom bilan eslanadi?
15. Azbarxo‘ja Kuntug‘mishni halok qilish uchun qanday hiyla ishlatdi?
16. Kuntug‘mish o‘g‘illari ismlarining ma‘nosi: Gurkiboy va Mohiboy so‘zlari nimani anglatadi? Sababini tushuntiring.
17. Adabiyot daftaringizga shevaga oid so‘zlarni yozib oling va ularni adabiy tildagi shakli bilan taqqoslang.
18. Doston matnidan hikmatli so‘zlar, maqollar darajasidagi yoki ularga yaqin iboralarni toping. Ularning ma‘nosini tushuntirishga harakat qiling.
19. Dostondagi qahramonlarning qaysi sifatlaridan ibrat olish mumkin, deb o‘ylaysiz?
20. Ishqiy-qahramonlik dostonlari deganda qanday asarlarni tushunasiz?
21. O‘zbek dostonlarining yakunlovchi qismiga xos xususiyat nima?
22. Ishqiy-sarguzasht va ishqiy-qahramonlik dostonlarining farqi nimada ekanligini tushuntiring.

O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXIDAN

YUSUF XOS HOJIB BOLOSOG‘UNIY

(XI asr)



Yusuf Xos Hojib XI asrda yashab, turkiy tilda ijod etgan buyuk shoir hisoblanadi. Yusuf – asl ismi. Aynan «Qutadg‘u bilig» dostoni zamon hukmdori tahsiniga sazovor bo‘lgani uchun muallifga «xos hojib», ya’ni eshik og‘asi rasmiy lavozimi berilgan. Shoir buni o‘ziga taxallus qilib olgan. Yusuf qadimiy Bolosog‘un shahrida tug‘ilgan. Bolosog‘uniy deyilishi – shundan. Ba’zi manbalarda bu shahar Quzo‘rda deb ham tilga olinadi.

Bizga Yusuf Xos Hojibning birgina «Qutadg‘u bilig» asari yetib kelgan. Shoir hayotiga oid ma’lumotlarni ham faqat shu dostonidagina topamiz. Asar hijriy 462, ya’ni milodiy 1069–1070-yili Koshg‘arda yozib tugallangan. Hajmi – 6 ming 409 baytdan iborat. Muallifning o‘zi uni bir yarim yil mobaynida bitganini aytadi:

Tegurdi menga algi ellik yoshim,
Qug‘u qildi quzg‘un tusitek boshim.
Oqir ellik emdi mengar kel teyu,
Pusug‘ bo‘lmasa, bordim emdi naru.

*(Ellik yoshim menga qo‘l tegizdi,
Qora quzg‘un tusidek boshimni oq (qush) qildi /ya’ni sochim oqardi/.*

*Ellik /yosh/ endi men tomon kel, deb chorlamoqda,
Pistirma /ya’ni nogahoniy o‘lim/ bo‘lmasa, endi u tomon boraman.)*

Shu misralarga tayanib, olimlar, *Yusuf Xos Hojib bu kitobini ellik yoshlarida yozgan*, deb hisoblashadi.

Doston yaratilgan XI asr Qoraxoniylar davlatining eng gullagan davri edi. Yuqori Chindan Kasbiy dengiziga qadar boʻlgan juda katta hudud shu saltanat hukmi ostida edi. Koshgʻar (ikkinchi nomi Oʻrdukent) shu ulugʻ saltanatning poytaxti edi. Bolosogʻun mamlakatning muhim markazlaridan biri hisoblanardi.

Yusuf Xos Hojib dostonini tugallagach, uni zamon hukmdori (elig) Tavgʻachxon Ulugʻ Bugʻra Qoraxonga taqdim etadi.

Asar garchi XI asrda yaratilgan boʻlsa-da, u haqida oʻzbek adabiyotining keyingi asrlardagi namunalarida hech qanday maʼlumot uchramaydi. Hatto, turkiy tildagi har bir asarga alohida mehr va eʼtibor bilan munosabatda boʻlgan buyuk Alisher Navoiy, shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur ham «Qutadgʻu bilig» yoki uning muallifini mutlaqo tilga olmagan. Shundan kelib chiqib, bu bobokalon shoirlarimiz «Qutadgʻu bilig» haqida bilgan-bilmagani borasida bir narsa deyish qiyin.

Bunga sabab – asarning bor-yoʻgʻi quyidagi uch nusxasigina saqlanib qolganligi:

1.Vena nusxasi. U milodiy 1439-yili (Alisher Navoiy tavalludidan ikki yilgina oldin) Hirotda uygʻur yozuvi bilan koʻchirilgan. (Uygʻur yozuvi arab alifbosi asosida shakllantirilgan sof turkiy yozuv edi.) Kitob Turkiyaning Tugot shahriga, 1474-yili esa Istanbulga keltirilgan. Uni keyinchalik Istanbulda mashhur sharqshunos Hammer Purgstall sotib olib, Venadagi Saroy kutubxonasiga keltiradi. 1823-yili fransuz sharqshunosi Jaubert Amadee bu buyuk asar haqida maʼlumot eʼlon qilib, uni ilm ahliga tanishtiradi.

2.Qohira nusxasi. 1896-yili asarning arab yozuvi asosidagi turkiy alifboda koʻchirilgan nusxasi Qohirada topildi.

3.Namangan nusxasi. Sharqshunos Valizoda 1914-yilning 20-aprelida Qozon universiteti qoshidagi Arxeologiya, tarix va etnografiya jamiyatiga Fargʻona ekspeditsiyasi haqida yozgan hisobotida namanganlik Muhammad hoji Eshon Lolaresh degan kishining qoʻlida «Qutadgʻu bilig»ning yana bir nusxasi mavjudligi haqida maʼlumot beradi. Atoqli adabiyotshunos Ab-

durauf Fitrat 1924-yili Muhammad hoji Eshon Lolareshdan shu qo‘lyozmani olishga muyassar bo‘ladi.

«Qutadg‘u bilig» zamonning ijtimoiy-siyosiy ehtiyoji yanglig‘ yaratilgan. Ya‘ni Qoraxoniylar davlati va bu mamlakat xalqining bir g‘oyaviy-mafkuraviy, ma‘naviy-axloqiy dasturga, o‘ziga xos milliy ta‘limotga katta zarurati bor edi. Shoir ana shu buyuk va sharaffli vazifani bajarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Asarning tub mohiyatida markazlashgan davlatni idora qilish, yana-da mustahkamlash, turli xon va beklar o‘rtasida o‘zaro og‘iz birchilikka erishish, adolatli va oqilona siyosat yuritish, umrning o‘tkinchiligi, ma‘naviyat, yashash tartib-tamoyillari bilan bevosita bog‘liq g‘oyalarni badiiy tarzda bir qomusiy dastur sifatida ilgari surish niyati yotadi. Unda qaysidir ma‘noda xalqning maqsad-muddalari, orzu-intilishlari, maslak-g‘oyalari ifodalangan. Shu nuqtayi nazardan u qoraxoniylar davrining mafkuraviy ta‘limoti sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

Doston masnaviy, ya‘ni o‘zaro qofiyalangan ikki misradan iborat baytlar yo‘li bilan yozilgan. Vazni – mutaqoribi musammani mahzuf, ya‘ni «*faulun-faulun-faulun-faul*» (V – – / V – – / V – – / V –) yoki maqsur, ya‘ni «*faulun-faulun-faulun-faol*» (V – – / V – – / V – – / V ~). Mutaqoribi musammani maqsur vazniga tushadigan misralarda oxirgi hijo o‘ta cho‘ziq – «*sabr*», «*qand*», «*tog‘*», «*tor*» kabi so‘zlardan tashkil topadi. Masalan, asardagi: Biliglik, biligsiz, chiqay bar ya bay, Uqushliq, uqushsiz, otun bir gaday, – bayti mutaqoribi musammani mahzuf, ya‘ni «*faulun-faulun-faulun-faul*» (V – – / V – – / V – – / V –) vaznida bitilgan bo‘lsa, mana bu qo‘shmisra mutaqoribi musammani maqsur, ya‘ni «*faulun-faulun-faulun-faol*» (V – – / V – – / V – – / V ~) vaznida yozilgan:

Qayu begda bo‘lsa bu arquq qilinch,
Ishi barcha tetru sevinchi saqinch.

Turkiy va forsiy mumtoz adabiyotda shohlar haqidagi asarlar, davrlar mobaynida shakllangan an‘anaga ko‘ra, asosan, shu

vaznda bitilgan. Masalan, Firdavsiyning «Shohnoma»si, «Xamsa» turkumining Iskandar Maqduniy (Aleksandr Makedonskiy) hayoti va faoliyatini asos qilib olib yaratilgan oxirgi dostonlari, jumladan, Abdurahmon Jomiyning «Xiradnomayi Iskandariy» («Iskandar aqlnomasi»), Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» asarlari ham aynan shu vaznda yozilgan.

«Qutadgʻu bilig» kam nusxada saqlanib qolgan boʻlsa ham, muallif uning oʻz davrida ancha mashhur ekani haqida faxrlanib soʻz yuritadi. Chinliklar uni «Adab ul-muluk» («Podshohlar odobi»), mochinliklar «Amin ul-mamlakat» («Mamlakat omonliklari»), Sharq elining ulugʻlari «Ziynat ul-umar» («Amirlar ziynati»), eronliklar esa «Shohnoma»yi turkiy («Turkiy «Shohnoma»), turonliklar «Qutadgʻu bilig», baʼzilar esa «Pandnomayi muluk» («Podshohlar pandnomasi») deb atayotganini alohida qayd etadi.

«Qut» – baxt, saodat, «bilig» esa bilim degani. Shunga koʻra, asarning nomini «Baxtga eltuvchi bilim» yoki «Saodatga yoʻllovchi bilim» deb tarjima qilish mumkin. Abdurauf Fitrat uni «Baxtliklanish bilimi» deb oʻgiran.

Albatta, XI asrga qadar ham tilimizda dostonlar bitilgan boʻlishi kerak. Lekin hozircha bizgacha yetib kelgan ilk turkiy doston – aynan ana shu «Qutadgʻu bilig».

Dostonda toʻrt asosiy qahramon bor. Ularning har biriga ramzan muayyan bir ezgu tushuncha – maʼnaviy qadriyatning timsoli yangligʻ qaralib, alohida maʼno-mazmun yuklatilgan. Kuntugʻdi (chiqqan Quyosh) – elig, yaʼni hukmdor. U adolat ramzi boʻlib kelgan. Oytoʻldi (toʻlgan Oy) – vazir. U baxt va davlat ramzi hisoblanadi. Oʻgdulmish (aqlga toʻlgan) – vazirning oʻgʻli. U aql va zakovat ramzi yangligʻ tasvirlangan. Oʻzgʻurmish (uygʻongan) – vazirning qarindoshi. U asarda qanoat, ofiyat, yaʼni sogʻlomlik ramzi sifatida qalamga olingan. *Men shu toʻrt tushuncha ustida fikr yuritdim*, deydi shoirning oʻzi:

Bu toʻrt nang uza soʻzladim men soʻzug,
Oʻqisa ochilgʻay yetig qil koʻzug.

(Soʻzni shu toʻrt narsa ustida yuritdim,
Uni oʻqib, tushunilsa, roʻshnolik boʻladi, koʻzingni och.)

Doston – sof badiiy asar. Bunday deb urgʻu berib aytishimiz bekorga emas. Adabiyot tarixida Kaykovusning forsiy tilda yozilgan «Qobusnoma»si kabi nasihatnomalar ham, Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»si singari tarixiy-memorial asarlar ham mavjud, ularning ham badiiy ahamiyati – juda katta. Biroq «Qutadgʻu bilig» – pandona (didaktik) ruhdagi, taʼlim-tarbiya, odo-axloq mavzusiga bagʻishlangan tipik badiiy asar. Unda, shaxs tarbiyasi, uning jamiyatdagi oʻrni, komillik shartlari, umrni bekorga oʻtkazmaslik, turli ijtimoiy tabaqaga mansub kasb-kor egalarining maʼnaviy-axloqiy mezonlari, davlatchilik qatʼiyat va tamoyillari asosiy yoʻnalishga aylangani bilan, bu gʻoyalarning bari badiiy boʻyoq va timsollarga burkangan holda taqdim etilgan.

Asar, nasriy hamda sheʼriy muqaddimadan tashqari, 71 maxsus bobdan tashkil topgan. Boblarda koʻproq savol-javob, munozara olib boriladi. Shu tariqa shoir oldiga qoʻygan masalalarga oʻz hissiy munosabatini bildirib boradi. Koʻtarilgan masalalarning barida aynan qanday bilim kishini baxt-saodat sari yetaklashi oydinlashadi. Bu esa asar nomi naqadar oqilona tanlanganini koʻrsatadi.

Yalpi olib qaraganda, bu doston orqali XI asrda xalqimizning qanday yuksak maʼnaviy mezonlarni ulugʻlab yashaganini ham toʻliq tasavvur qilish mumkin.

QUTADGʻU BILIG **(Dostondan parcha)**

BEGLIKKA SAZA BOʻLGʻUTEK BEG NEKUTEK **KERAKIN AYTUR**

(Beklikka loyiq bek qanday boʻlishini aytadi)

Elig aydi emdi ayitgu soʻzim,
Bu yerda muni emdi aytur oʻzum.

(Elig aytdi: mening soʻraydigan soʻzlarim
Ushbular edi, endi shularni soʻrayman).

Toʻrutti ara oʻqlanin bir Bayat,
Uluq bir, kichig bir, esiz edi at.

(Odam bolasini yolgʻiz Xudo yaratdi,
Ular orasida ulugʻ, kichik, yomon, yaxshi bor).

Biliglik, biligsiz, chiqay bar ya bay,
Uqushliq, uquhsiz, otun bir gaday.

(Dunyoda ilmli-yu ilmsiz ham, qashshogʻ-u boy ham,
Uquvli-yu uquvsiz ham, nochor-u gadoy ham bor).

Nekutek kerak beg muni baglasi?
Javi barsa ati, ishin ishlasa.

(Bularga bosh boʻlish uchun bek qanday boʻlmogʻi kerak?
Toki uning ovozası yoyilsa, ishlariga rivoj bersa).

Etilsa edi qam, bayusa budun,
Ati edgu boʻlsa, ul artar budun.

(Eli yashnasa hamda xalq boyisa,
Ezgu nom chiqarsa, ulus koʻpaysa).

Xazina urunsa kumush ham agʻi,
Yagʻi boyni yanchsa, ketarsa chogʻi.

(Xazinani kumush-u javohirlar bilan toʻldirsa,
Yov boʻynini yanchsa, adovatga barham bersa).

Yumutsa, erat boʻlsa kuchlug alig,
Yuritsa toʻr-u tuz, yetursa bilig.

(Lashkar toʻplasa, qoʻli baland boʻlsa,
Toʻgʻri siyosat olib borsa, bilimga amal qilsa).

Javiqsa ajunda, yadilsa ati
Bedusa kuninga koʻtursa quti.

(Jahonga ovozasi, nomi yoyilsa, taralsa,
Kundan-kunga yuksalsa, davlati ziyoda bo'lsa).

Erajin avinsa, yesa el uzun,
Butun jan uzulsa, yesa ul ajun.

(Rohat-farog'atda yashasa, uzoq yillar elga bosh bo'lsa,
Bor joni uzilgach, u dunyoligini topsa).

O'GDULMISH JAVABI ELIGKA

(O'gdulmishning Elikka javobi)

Yanut berdi O'gdulmish aydi elig,
Edi ters aytitti menga bu bilig.

(O'gdulmish javob berib: «Elig mendan
Juda qiyin so'zlarni so'rardi», – deb aytdi).

Bu beglik ishin barcha beglar bilir,
To'r-u, o'ndi, qilq yang ulardin kelir.

(Beklikning ishini beklargina yaxshi biladi,
Siyosat, nizom va qoidalarni ham ular chiqaradi).

Bayat kimka bersa bu beglik ishi,
Berur o'g ko'ngul ko'r ul ishka tushi.

(Xudo kimniki beklikka loyiq ko'rsa,
Unga bu ish uchun idrok va ko'ngil ham beradi).

Kimi beg to'rutmak tilasa Bayat,
Berur ash-n-u qilq, yang uqush yug qanat.

(Xudo kimni bek qilib yaratishni istasa,
Oldin unga aql-u uquvdan qanot beradi).

Bu beglik ishi bo'ldi beglar ishi,
Bu beglar ishin bildi beglig kishi.

(Beklar yumushi bu – mamlakat ishi,
Beklik neligin bilar bek kishi).

ELIG JAVABI O'GDULMISHKA

(Eliging O'gdulmishga javobi)

Elig aydi: «Uqtum, bu soʻz barcha chin,
Koʻni soʻzlading soʻz yipar burdi kin».

(Elig aytdi: «Uqdim, barcha soʻzlaring chin,
Yaxshi soʻzlading, goʻyo taralganday kun»).

Bu ish qilquchi yer qilur oʻz ishi,
Mun yerdan biligli koʻrugli kishi.

(Ish qiluvchi oʻz ishin qilar,
Uning kimligini bilimli bilar).

Men ish qilquchimen, sen ish koʻrguchi,
Ishig koʻrguchidin bilur qilquchi.

(Men ish qilguvchiman, sen ish koʻrguvchi,
Koʻrguvchidan ish oʻrganar qilguvchi).

Bayat berdi emdi senga oʻg, koʻngul,
Uqush qam bilig birla boʻldung amul.

(Xudo senga aql bilan koʻngil berdi,
Uquv hamda bilim bilan omilkor boʻlding).

Menga-oʻq tapundung kichikda beru,
Koʻr-u, oʻgran-u, bilding edgu toʻru.

(Kichikligingdan boshlab menga xizmat qilding,
Koʻrib, kuzatib, adolatni oʻrganding).

Qamugʻ ishni uqtung ma bilding oʻzun,
Menga ma baqirsaq-sa qilqin soʻzun.

(Barcha ishni uqding-u bilding o‘zing,
Menga sodiq bir ishing-u so‘zing).

Bag‘irsaqqa aytur kishi o‘z so‘zin,
Bag‘irsaq yulug‘lar kishika o‘zin.

(Kishi o‘z so‘zini sadoqatliga aytadi,
Sadoqatli odamga u jonini fido aylaydi).

Bag‘irsaq uchun sen bitar men senga,
Bag‘irsaqliqin ay bu so‘zlar menga.

(Sodiqlicing uchun umid bog‘layman senga,
Bu so‘zlar ma‘nisin aytib ber menga).

Neku ter eshitgil bag‘irsaq kishi,
Bag‘irsaqliq ul ko‘r kishilik bashi.

(Nelar der, eshitgin, sodiq kishi,
Sadoqatda aziz kishilik boshi).

Bag‘irsaqni o‘gdi uqushlug‘ o‘kush,
Bag‘irsaq kishilar kishika ko‘shush.

(Zakovatli kishilar sodiq kishilarni ko‘p maqtagan,
Sodiq kishilar – odamga juda aziz).

Bag‘irsaqni bulsa, bag‘irqa urun,
Menga mundag‘ aydi bilik ham uqush.

(Sadoqatlini topsang, bag‘ringga ol,
Bilim va aql menga shunday deb o‘rgatdi).

Yanut berdi O‘gdulmish, aydi elig,
Esan, inch tirilgil, ey ustag alik.

(O‘gdulmish javob berib-aytdiki: «Elig,
Eson va tinch yashagin, ey qo‘li baland»).

Bu beglikka ashn-u tub asli kerak,
Atim alp qatigʻ qurch yana toʻng yurak.

(Bek kishining nasli asil boʻlishi kerak,
Boʻlsin u mergan-u, qoʻrqmas-u botir yurak).

Atasi beg ersa, oʻgʻul tugʻdi beg,
Oʻgʻul tugʻsa, beg ham atalaritek.

(Otasi bek boʻlsa, oʻgʻil erur bek,
Oʻgʻil ham boʻladi otalaridek).

Uqushlugʻ kerak ham biliglik kerak,
Aqiliq kerak ham siliglik kerak.

(Uquvli ham bilimli boʻlishi kerak,
Saxovatli ham oliyjanob boʻlishi kerak).

Bilig birla beglar budun bashladi,
Uqush birla el kun ishin ishladi.

(Bilim bilan beklar elga boshchilik qiladi,
Zakovat bilan el-yurt ishlarini yuritadi).

Beg ati bilig birla bagʻligʻ turur,
Bilig «lam»(i) ketsa, beg ati qalur.

(Bek oti «bilik» bilan bevosita bogʻliq,
«Bilik»dan «lom» ketsa, bek qoladi)¹.

Kad oʻglug kerak ham bilimli oʻkush,
Biliglig kishining yagʻisi oʻkush.

(Bek juda aqlli, bilimli, hunarvar boʻlishi kerak,
Bunday kishining yovi koʻp boʻladi).

Neku ter, eshitgil, bilig bilmish er,
Bashinda kechurmish oʻkush uqmish er.

¹Bu yerda «bilik» soʻzining arab yozuvidagi shakli koʻzda tutilgan. «Bilik» soʻzidagi «lom» («l») harfi tushirib qoldirilsa, «bek» soʻzi hosil boʻladi.

(Bu bilimli er nelar deyyotganiga quloq sol,
Chunki u ko'p narsani boshidan kechirgan, uqqan).

Biliglig kerak beg uqushlug', udug',
Angar tegmasa, bir mofaja yudug'.

(Bek bilimli, uquvli, ziyrak bo'lsin,
Unga nogahoniy biron balo yetmasin).

Qiling edgu erdam kerak ming tuman,
Ati edgu bo'lsa, tutunsa bodug'.

(Er ming turli ezguliklar qilsin,
O'zini to'g'ri tutib, ezgu nom qozonsin).

Apa o'g'lani barcha asli bedug,
Bilig birla bo'ldi ko'r o'drum kad o'g'.

(Barcha asli ulug' odamlarning bolasi
Bilim tufayligina yetuk bo'ldi, qara).

Urug' edgu bo'lsa, er edgu bo'lur,
Er edgu bo'lib o'tru to'rka barur.

(Urug'i yaxshi bo'lsa, er yaxshi bo'lar,
Kishi yaxshi bo'lsa, to'rdan joy olar).

Iduq ul beglik arig'liq tilar,
Arig'liq bila elda saqliq tilar.

(Bu beklik muqaddas, u poklik talab qiladi,
Poklik bilan birga sergaklik talab qiladi).

Budunqa talusi kerak alp atim,
Bedug ishka o'tru bu bo'lsa tatim.

(Xalq sarvari bahodir va abjir bo'lishi kerak,
Shunda u buyuk ishlarga qo'l ursa, arziydi).

Neki ter eshitgil O'tukan begi,
Sinab sozlanish so'zni yetru o'gi.

(Eshitgin, Oʻtukan begi nelar der,
U aql bilan sinalgan soʻzlarni aytar).

Budunqa begi artuq oʻdrum kerak,
Koʻngil til koʻni qilqiy koʻdrum kerak.

(Xalqning begi yetuk, sara boʻlishi kerak,
Koʻngli va tili ezgu, oʻzi xushfeʼl boʻlishi kerak).

Biliglik uqushliq budunqa talu,
Aqi qam, koʻzi toʻq, ne koʻngli toʻlu.

(Bilimli, uquvli, xalqining baxti,
Saxiy ham koʻzi va koʻngli toʻq boʻlishi kerak).

Qamuq eduk-u boʻlsa algi uzun,
Uvutluq silig qam qilinchi tuzun.

(Turli yaxshiliklar qilishga qoʻli uzun boʻlsa,
Andishali, xushroʻy va toʻgʻri ish qiluvchi boʻlsa).

Saza beg boʻlur bu budunqa ulugʻ,
Munundin kelir oʻtru edge urugʻ.

(Bunday kishi xalqqa kiroyi ulugʻ bek boʻladi,
Soʻng undan yaxshi urugʻ-avlod taraladi).

Bilig birla bashlar kishi ish bashi,
Uqush birla uqsa oʻngarur ishi.

(Kishi har qanday ishni bilim bilan boshlaydi,
Aql bilan harakat qilinsa, har qanday ish oʻnglanaveradi).

Budunugʻ bilig birla basti begi,
Bilig boʻlmasa, ishka yaqmas oʻgi.

(Bek xalqni bilim bilan tutib turadi,
Bilim boʻlmasa, ishga aqli yetmaydi).

Yangilsa bu beglar, ey elig quti,
Aning begliki iglar etgu oʻti.

(Bu beklar yanglishsa, ey baxtiyor elig,
Uning bekligi zaiflashadi, uni tuzatish kerak bo'ladi).

Bu beglik iginga o'ti o'g bilik,
Uqush birla emla, ey qilqi silig.

(Beklikka tekkan dardning davosi – aql bilan bilim,
Uni aql bilan emla, ey xushxulq).

Biliglig, uqushlug' kerak beg, tetig,
Anin qilsa o'tru iginga etig.

(Bek bilimli, zakovatli, epchil bo'lishi kerak,
Shular bilan uning dardini davolasa bo'ladi).

Biliglig, uqushlug', bo'gu, elchi beg,
Ekigun ajunda bo'lur o'mi yeg.

(Bilimli, uquvli, dono elparvar bekning
Ikki dunyoda ham o'mi aziz bo'ladi).

Ekigun ajunux buluqli kishi –
Edi qutluq ul bu tugel qut bashi.

(Ikki dunyo saodatiga erishgan kishi
Juda baxtli, uning boshi baxtdan chiqmaydi).

Mungar mengzatu aydi shair bu so'z,
Ko'ru barsa ma'ni biligsizka ko'z.

(Bunga o'xshatib shoir ushbu so'zlarni aytdi,
Ko'rsang, uning ma'nosi – bilimsizga bir ko'zdek gap).

Mengilig qayu ul, menga ay yera,
Kishi qutlug'i kim kishilar ara?

(Farog'atli kishi kimligini menga ochiq ayt,
Kishilar orasida baxtlisi kim?)

Yesa bersa dunya tirilsa qutun,
Taqi bir ajunda bu bo'ldi to'ra.

(Bu dunyodan bahra olib, baxtiyor yashasa,
U dunyoda ham toʻrdan joy oladi).

Qilinch oʻngay boʻlsa qilqi koʻni,
Sevinchin kechar ul oʻiul beg kuni.

(Feʼl-atvori maʼqul, axloqi yaxshi boʻlsa,
Oʻsha begning umri sevinch bilan kechadi).

Bayat kimka bersa bu edgu qiliq,
Bu edgu qiliq birla edgu yoʻriq,

(Xudo kimga shunday ezgu amal baxsh etsa,
Bu ezgu amal bilan birga ezgu yoʻriq ham bersa),

Aning boʻldi dunya bu neʼmat bila,
Tilasa, oʻzung ye, tilasa, ula.

(Bu neʼmatlar bilan dunyo uniki boʻladi,
Endi, istasa, uni oʻzi yesin, istasa, ulashsin).

Bayat bersa fazli qulinga qutun,
Boʻlur qilqi edgu, qilinch – butun.

(Xudo quliga shunday ezgu fazilatlar baxsh etsa,
Uning xulqi mukammal, ishlari qoidali boʻladi).

Qilinch edgu erdan kerak ming tuman,
Aning tutsa el kend, koʻtursa tuman.

(Erdan ezgu xulq va ming tuman hunar lozim,
U shu hunarlari bilan elni boshqarib, zulmatni koʻtaradi).

Ne edgu turur bu qilinch edgusi,
Qilinch edgu erka yegu kedgusi.

(Feʼl-atvor yaxshi boʻlsa, qanday zoʻr?!
Feʼl-atvorning yaxshiligi kishiga ham yemish, ham kiyim).

Bayat kimga bersa qilinch arquqi,
Ani emgatur bu zamana oʻqi.

(Xudo kinga yomon xulq bersa,
Uni bu zamona o'qi azobga soladi).

Qayu begda bo'lsa bu arquq qilinch,
Ishi – barcha tetru, sevinchi – saqinch.

(Qaysi bek yomon qiliqli bo'lsa,
Barcha ishi ters bo'lib, sevinchlari qayg'uga aylanadi).

Saqinuq kerak beg ne qilqi arig',
Arig'lig' tilar tutchi urg'i arig'.

(Bek andishali va pok axloqli bo'lishi kerak,
Asli toza kishilar doim poklikka intiladi).

Saqinuq kishi ko'ngli qo'rqliq bo'lur,
Ko'ngul qo'rqa, beglar ishig tuz qilur.

(Andishali kishining ko'nglida qo'rquv bo'ladi,
Ko'nglida qo'rquvi bor beklar ishini to'g'ri yuritadi).

Qali bo'lmasa, beg saqinuq suzug,
Arig'siz bo'lur barcha qilqi uzug.

(Agar bek andishali, sofdil bo'lmasa,
Barcha qilmishlari nopok, nuqsonli bo'ladi).

O'rugluk, amulluq bo'lur begka ko'rk,
Bu beglik ishinga bu ul bag'i o'rk.

(To'g'ri qaror chiqarish va sabr – bekka ko'rk,
Bu ikkisi bekklik ishlarini bog'lab turadi).

Ked o'glug kerak beg o'ngarsa ishin,
Bilib boshlasa o'tru ishlar ishin.

(Bek aql-idrok bilan ish yuritishi kerak,
Har ishini bilib boshlashi lozim).

Bu o'glug kishilar o'ngarur ishig,
Yiraq tutg'u ishta bu o'gsuz kishig.

(Aqlli kishilar ishini o'nglaydi,
Aqlsiz kishini ishdan yiroq tutish kerak).

Ko'ngul bo'lmasa, er ko'zi asg'i yo'q,
O'gi bo'lmasa, er o'gi o'sg'i yo'q.

(Er kishida ko'ngil bo'lmasa, ochiq ko'zdan foyda yo'q,
Er kishida aql bo'lmasa, uning ishida unum yo'q).

Neku ter, eshitgil, ey elchi bashi,
O'rug kad ko'ngullug sinamish kishi.

(Nelar der, eshitgin, elning boshi,
Ravshan, sof ko'ngilli – sinalgan kishi).

Qayu erda bo'lsa uqush birla o'g,
Ani er atag'il necha o'gsa o'g.

(Qaysi kishida uquv va aql bo'lsa,
Uni erkak husobla, qancha maqtasang, maqta).

Ukush, o'g, bilig kimda bo'lsa tugal,
Yavuz ersa, kad te, kichik ersa, o'g.

(Kimki zakovat, aql, bilim egasi bo'lsa,
Yomon bo'lsa ham, yaxshi de, kichik bo'lsa ham, maqta).

Ne edgu turur bu kishika o'ga,
O'gi bo'lsa, o'tru atag'u o'ga.

(Aql kishi uchun qanday yaxshi narsa!
Aqlli kishigina dono bo'ladi).

Evaklik, biling, ul qamug'qa yavuz,
Qali bo'lsa, begka yuzi bo'ldi bo'z.

(Yengiltaklik – barcha narsaning dushmani, biling,
Bek yengiltak bo'lsa, uning yuzi qora bo'ladi).

Evak qurg'u qilqi qilinchi bushi,
Biligsizka belgu bo'lur bu ishi.

(Shoshqaloqlik, yengiltaklik, tezfe'llik –
Nodon, bilimsiz kishilarga xos belgilar).

Eva qilmish ishlar bicha yig bo'lur,
Eva yesa ash-suv, bicha ig bo'lur.

(Shoshib qilingan ishlar picha ko'ngilsiz bo'ladi,
Osh-u suv shoshib yutulsa, kasallik keltiradi).

Qamug' ish ichinda amulluq o'dur,
Magar taat ersa, evingil, yugur.

(Barcha ishlarni shoshilmasdan boshla,
Lekin toat-ibodatga shoshil).

Ko'zi to'q kerak ham ovutlug' tuzun,
Ashuq ham yaziq bo'lsa, qilqin so'zun.

(Kishi ko'zi to'q, andishali, to'g'ri bo'lishi,
Uning ishi ham, so'zi ham ochiq bo'lishi kerak).

To'dumsuz bo'lur ul ko'zi suq kishi,
Ko'zi suqqa yetmaz bu dunya ashi.

(Ko'zi och, suqli kishi to'yimas bo'ladi,
Ko'zi ochga dunyoning bor ne'mati ham yetmaydi).

Bu suqluq ig ul bir o'ti yo'q emi,
Ani emlayumas bu dunyo qami.

(Bu suqlik ham – bir kasallik, uning dori-darmoni yoq,
Uni bu dunyo tabiblari davolay olmaydi).

Qamug' ach yesa-ichsa axir to'dur,
Ko'zi ach kishi o'lsa, achliq qo'dur.

(Barcha och odamlar yesa-ichsa, oxiri to'yadi,
Ko'zi och odamning ko'zi o'lgandagina to'yadi).

Ko'zi suq kishi nanga bo'lmas bu bay,
Qamug' dunya bo'lsa, axir suq chig'ay.

(Koʻzi och kishi mol-dunyo bilan boy boʻlmaydi,
Dunyoning boyligiga ega boʻlsa ham, ochligicha qoladi).

Uqushlugʻ kerak bek kishida talu,
Uqushlugʻ qilinchi izilmaz toʻlu.

(Bek kishilar orasida zakovatli inson boʻlishi kerak,
Zakovatli kishilarning ishi zavolsiz boʻladi).

Kimingda oʻvut boʻlsa qilqi silig,
Qamugʻ tengsiz ishka tegurmas alig.

(Kim andishali, yaxshi xulqli boʻlsa,
Har xil qingʻir ishlarga qoʻl uravermaydi).

Bayat kimka bersa oʻvut, koʻz suvi,
Angar berdi davlat tugal yuz suvi.

(Xudo kimga andisha, uyalish ato etgan boʻlsa,
Unga davlat va tugal izzat-obroʻy ham beradi).

Qamugʻ tengsiz ishin yigʻigʻli oʻvut,
Qamugʻ edgu ishka ulagʻli oʻvut.

(Uyat barcha nomunosib ishlardan tiyadi,
Barcha xayrli ishlarga yoʻllaydi).

Bu edgu nang ul bu oʻvut erka koʻrk,
Qamugʻ edgu ishka oʻvut boʻldi oʻrk.

(Andisha – kishi uchun bir koʻrk,
U barcha ezgu ishlarga belbogʻ vazifasini oʻtaydi).

Tili – chin, kerak boʻlsa koʻngli koʻni,
Budunqa asigʻ qilsa, tugʻsa kuni.

(Tili chin soʻzlasa, koʻngli toʻgʻri boʻlsa,
Xalqqa yaxshilik keltirsa, kuni tuqqani – shu).

Qali boʻlsa beglar xiyanat koʻngul,
Budunqa asigʻ boʻlmas andin toʻngul.

(Agar beklar xiyonat ko'ngilli bo'lsa,
Xalqqa yaxshi bo'lmaydi, umidni uzaver).

Ko'ngul til o'ng'ay bo'lmasa ko'r qiliq,
Ul eldin qachar qutqa, bo'lmas yo'riq.

(Ko'ngul, til va amal to'g'ri bo'lmasa, ko'rgin,
U eldan baxt qochadi, yo'riq qolmaydi).

So'zin qiyg'uchi begka tutma umunch,
Tiriglik yava bo'lg'a qilg'a o'kunch.

(So'zidan qaytuvchi bekka umid bog'lama,
Tirikliging zoye ketadi, bu o'kinch keltiradi).

Edi saq kerak beg yana kad udug',
O'sal bo'lsa beglar to'qinur yudug'.

(Bek nihoyatda hushyor va juda ziyrak bo'lishi kerak,
Beklar g'ofil bo'lsa, mehnat va mashaqqat ko'payadi).

Eki neng turur elka bag'i beki,
Biri saqliq ul, bir to'ru el ko'ki.

(Ikki narsa el uchun mahkam bog'ich va tayanch bo'ladi,
Biri – hushyorlik, biri – adolatli siyosat yuritish).

Qayu beg saq ersa, elin bekladi,
Yag'i bo'yni yanchti, uza igladi.

(Qaysi bek hushyor bo'lsa, elini saqlaydi,
Yov bo'ynini yanchadi, ustiga balolar yog'diradi).

Qayu beg to'ru bersa, elda ko'ni,
Elin etti qo'dti, yarutti kuni.

(Qaysi bek el orasida to'g'ri siyosat yuritsa,
U elni yashnatib qo'yadi, yorug'likka chiqaradi).

Bu beglik bag'i, ko'r, bu ekki bo'lur,
Bu ekki tugal bo'lsa, beglik turur.

(Beklikning bog'ichi – shu ikki narsa, koʻr,
Shular tugal boʻlsa, u bekklik barqaror turadi).

Neku ter, eshitgil, yag'ichi kur er,
Bu saqliq bila oʻz yag'isin urar.

(Botir jangchi nima deyayotganini eshit,
Kishi hushyorlik bilangina dushmaniga zarba bera oladi).

Aya elchi beglar, elig qulsa saq,
Bu saqliq bila sen tuzu elka baq.

(Ey elga bosh boʻlgan beklar, el hushyor boʻlishini istasangizlar,
Oʻzlaringiz elga hushyorlik bilan qaranglar).

Bu saqliq bila artti beglar eli,
Oʻsalliq koʻru buzdi beglik uli.

(Beklarning eli hushyorlik tufayli ortdi,
Gʻofillik sababli bekklik poydevori buzildi).

Bu saqliq bila sen yag'i boʻyni yanch,
Budunqa toʻru qil, tiril kengru inch.

(Sen hushyorlik bilan yov boʻynini yanch,
Xalqqa adolat qil, farogʻatda yasha).

Eki neng bila elchi beglik buzar,
Kirur egri yoʻlqa koʻnidin azar.

(El boshligʻi ikki narsa, yaʼni
Egri yoʻlga kirish, toʻgʻri yoʻldan ozish bilan yurtni buzadi).

Biri kuch, birisi oʻsalliq qilur,
Bu ekki bila beg elin artatur.

(Birinchidan, zoʻravonlik, ikkinchidan, gʻofillik qilsa,
Bek bu ikki narsa bilan elini buzadi).

Yag'i boʻyni yenchmak tilar ersa sen,
Qulaq kad kerak saq qilib tursa sen.

(Agar sen yovni yengmoq istasang,
Quloqni g'oyat hushyor tutishing lozim).

Bu saqliq bila senchti beglar yag'i,
O'salliq bila buzdi beglik bag'i.

(Beklar hushyorlik bilan yovni yanchdi,
G'ofillik bilan esa beklilik bog'ini buzdi).

O'sal bo'lsa, beglar ishin butrumaz,
O'sal beg butun bilgu beglik yemaz.

(Beklar g'ofil bo'lsa, ish bitirolmaydi,
G'ofil bek, yaxshi bilsinki, beklilik ishini yuritilmaydi).

Saq er tutchi etnib o'salig' bushar,
O'sal bo'lmag'incha, yag'ig' kim basar?

(Hushyor kishi doim hozir turadi, g'ofil bo'lsa,
Qo'qqisdan bo'lgan hujumni qanday qaytaradi?)

Saq ersa begi elka tegmas ilig,
Qali tegsa yetrur uqush o'g' bilig.

(Begi hushyor bo'lgan elga yov qo'l ko'tarilmaydi,
Agarda ko'tarsa ham, begi aql-u bilimini ishga soladi).

Bu kuchkay kishi kend va beglik yemas,
Bu kuchkay kuchini budun ko'trumas.

(Zolim kishi el-u yurtni so'ray olmaydi,
Chunki xalq zolim zulmini ko'tarmaydi).

Neku ter eshitgil biliglig so'zun,
Yeyumadi zalim elin kech uzun.

(Ne deydi, eshitgin, bilimli so'zin:
Zolim hokimligi bo'lmaydi uzun).

Kuyar o't turur kuch yag'usa kuyar,
To'ru suv turur, aqsa, ne'mat unar.

(Zulm yonib turgan oʻtday, yaqinlashsang, kuydiradi,
Adolat suv kabi narsa, oqsa, neʼmat unadi).

Uzun el yeyi teb tesa, ey boʻgu,
Toʻru tuz yuritgʻu budunugʻ koʻgu.

(Ey dono, elga uzoq vaqt bosh boʻlaman, desang,
Toʻgʻri siyosat yuritish, xalqni sharaflash kerak).

El artar toʻru birla etlur ajun,
El eksur bu kuch birla buzulur ajun.

(Adolat bilan el koʻpayib, olam yetiladi,
Zulm bilan el kamayib, olam buziladi).

Telim oʻrdular buzdi kuchkay kuchin,
Turu oʻldi axir bu kuchkay achin.

(Zolim zulmi bilan talay shaharlarni buzdi,
Oqibatda bu zolim ochlikdan tik turib oʻldi).

Koʻngul tuzsa beglar, yuritsa toʻru,
Bu beglik buzulmas, turur kech oʻru.

(Beklar koʻnglini toʻgʻri qilib siyosat yuritsa,
Bu bekklik buzilmaydi, uzoq muddat barqaror boʻladi).

Qamugʻda yaragʻsiz, ey elig quti,
Bu beglar uza qoʻpsa yalgʻan ati.

(Barchadan yaroqsizi – ey baxtiyor elig,
Beklarning yolgʻonchi deb ot chiqarishi).

Soʻzi chin kerak, beg ne qildi qutun,
Inansa angar xalq, tirilsa qutun.

(Bek soʻzi chin, qilgan har ishi toʻgʻri boʻlsa,
Xalq unga ishonadi va baxtiyor yashaydi).

Bu yalgʻan kishilar vafasiz boʻlur,
Vafasiz kishi xalqqa tengsiz qilur.

(Yolgʻonchi kishilar vafosiz boʻladi,
Vafosiz kishi xalqqa tengsizlik qiladi).

Neku ter eshitgil vafaligʻ kishi,
Vafa ul kishiga kishilik bashi.

(Nelar der, eshitgil, vafoli kishi,
Vafodor kishi insonlarga bosh boʻladi).

Tili yalgʻan erning jafa qilqi ul,
Jafa kimda ersa, oʻshul yilqi ul.

(Tili yolgʻon soʻylaydigan kishining qilmishi jafodan iborat,
Kim jafokor boʻlsa, uning yilqidan farqi yoʻq).

Kishi yalgʻaninda tilama vafa,
Bu bir soʻz sinamish oʻkush yilqi ul.

(Yolgʻonchi kishidan vafo kutma,
Bu koʻp yillardan buyon sinalgan narsa).

Yuraklig kerak er yema alp atim,
Yurak birla boʻldi yagʻiqa tatim.

(Kishi yurakli, jasoratli va mergan boʻlishi kerak,
Yurak bilan kishi jangga layoqatli boʻladi).

Su bashlar eran, koʻr, yuraklig kerak,
Yuraksiz erat alsa andin yurak.

(Lashkarni boshlovchi er yurakli boʻlishi kerak,
Toki yuraksiz lashkar undan yurak, yaʼni kuch olsin).

Yuraklig yuraksizka boʻlsa bashi,
Yuraklig boʻlur oʻtru tekma kishi.

(Yuraklik yuraksizlarga bosh boʻlsa,
Soʻng barcha kishi yurakli boʻladi).

Bu soʻzka tamuqi bu baytigʻ oʻqi,
Bu soʻzka anuq tut koʻngul oʻg taqi.

(Bu soʻzning isboti uchun ushbu baytni oʻqi,
Yana bu soʻzga koʻngul va aql koʻzi bilan boq).

Koʻr, arslan boʻlu bersa itqa bashi,
Bu it barcha arslan boʻlur oʻz tushi.

(Arslon itlarga bosh boʻlsa, itlar arslonga aylanadi,
It arslonlarga yetakchilik qilsa, arslonlar itlar kabi boʻlib qoladi).

Qali boʻlsa arslanqa it bashchisi,
Bu arslan boʻlur barcha it saqishi.

(Agar arslonlarga it boshchi boʻlsa,
Arslonlar bir it misoli boʻladi).

Aqiliq kerak begka qusqi koʻngul,
Bu qusqi koʻngul birla qilqi amul.

(Bek uchun saxovat va xushfeʼllilik kerak,
Xushfeʼllilik bilan birga, yuvoshlik kerak).

Aqi bolsa beglar ati javlanur,
Ati javi birla ajun beklanur.

(Beglar saxiy boʻlsa, nomi shuhrat topadi,
Ular nomining shuhratidan olam qaror topadi).

Aqa yigʻlu terlur erat su boʻlur,
Erat su bila er tilakin boʻlur.

(Har tomondan erlar yigʻilib, lashkar boʻladi,
Lashkar bilan kishi tilagiga yetadi).

Neku ter, eshitgul, urib yegli er,
Urub al, ey alp er, yana erka ber.

(Avval yigʻib, soʻng yoyuvchi kishi nima deganini eshit,
Yigʻib ol, ey botir er, yana odamlarga ber).

Aqi boʻl, bagʻishla, ichur ham yetur,
Qali eksusa ur yana al yetur.

(Saxiy bo‘l, in‘om et, ichir ham yedir,
Agar kamaysa, yana yig‘, yana ol, yedir).

Azig‘lig‘, ko‘r, erka bu neng eksumas,
Tug‘ug‘li o‘rung qushqa meng eksumas.

(Rizqli er kishining mol-dunyosi kamaymaydi,
Tug‘ilgan oqqushning doni kamaymaydi).

Qilich baldu o‘q va qavi kuch yurak,
Bar erkan kad er nenga qo‘rqmas kerak.

(Qilich, oybolta, o‘q-yoy, kuch-quvvat, yurak
Bor ekan, er kishi qo‘rqmasligi kerak).

Ajunchi bo‘gu beg nelug ganch urur,
Erat qayda bo‘lsa, anuq ganch urur.

(Jahongir, dono bek qanday qilib xazina yig‘adi,
Lashkar qayda bo‘lsa, xazina o‘sha yerda bo‘ladi).

...Qayu elka bo‘lsa bu yanglig‘ begi,
Qutuldi ul el budni ketti igi.

(Qaysi elning begi shu yanglig‘ bo‘lsa,
O‘sha el barcha xavfdan xalos bo‘ladi).

Tug‘ar qut kuni elka inchlig bo‘lur,
Darig‘a, bu yanglig‘ kishilar o‘lur.

(Shunda elning baxti kuladi, u farog‘at topadi,
Afsuski, bunday kishilar ham bir kun dunyodan o‘tadi).

Bu erdi, ey elig, mening bilmishim,
Munuqi o‘tundum senga uqmishim.

(Mening bilganlarim shular edi, ey elig,
Mana, bilganlarimni senga o‘tindim).

«Beklikka loyiq bek qanday bo'lishini aytadi» deb nomlangan bu qism dostonning 31-bobi bo'lib kelgan. Unda jamiyatni boshqarish uchun hukmdorga, ya'ni bekka katta muhtojlik borligidan kelib chiqib, shoir bu lavozimga loyiq shaxsda aynan qanday insoniy fazilatlar shakllangan bo'lishi lozimligi masalasini atroflicha badiiy-axloqiy tadqiq va tahlil qiladi.

Bob, odatdagidek, savol-javob tarzida davom ettirilgan. Elig, ya'ni Kuntug'di vaziri bo'lmish O'gdulmishdan beklikka loyiq shaxs aynan qanday fazilatlarga ega bo'lmog'i kerakligi haqida so'raydi: u qanday qilsa, yosh-u qari, boy-u kambag'al, bilimli-yu bilimsiz – barchaga barobar siyosat yurita oladi, el-yurt orasida nom chiqaradi, xalqi to'q yashaydi, jahonga ovozasini tarqaydi, davlati ziyoda bo'ladi, bu olamdan o'tgach, u dunyoligini ham topadi?..

Bundan ming yilcha burun o'rtaga qo'yilgan bu savollar hozir ham ahamiyatini aslo yo'qotgani yo'q. Chunki jamiyatni boshqarish ehtiyoji mavjud ekan, rahbar ma'naviyatini shakllantirish va takomillashtirish masalasi kun tartibidan tushmay kelaveradi.

Shuni ham unutmasligimiz kerakki, bu yerda bek – bir timso'l. Bekka qo'yilayotgan jiddiy ma'naviy talablarni amalda har qanday kishiga qo'yilayotgan yuksak insoniy mezonlar tarzida qabul qilishga to'la haqqimiz bor. Adabiyotning adabiyotligi aynan shunda namoyon bo'ladi.

Chunki, san'atning har qanday turida bo'lgani kabi, adabiyotda ham muayyan shartlilik mavjud. Bu yerdagi shartlilik shundan iboratki, shoir bek qanday bo'lishi zarurligini bayon etish bahonasida o'zining umumiy ruhdagi axloqiy-ma'naviy qarashlari majmuasini ilgari suradi.

Bu qarashlarning ahamiyatini endi tor doirada tushunish, bino-barin, uni faqat beklik bilangina bog'liq holda talqin etish mumkin emas. Kishini, umuman, har taraflama ma'naviy barkamollik sari yetaklaydigan bunday talqinlarni, hattoki, aniq bir zamon yoki makon bilan chegaralab qo'yish ham mumkin emas.

Endi O'gdulmishning javoblari tub mag'zini chaqib ko'raylik.

O'gdulmishning hayotdan kelib chiqqan xulosalari-yu qat'iy amaliy aqidalariga ko'ra, beklik – avvalo, asl odamning ishi. U

mohir mergan, botir, baquvvat, aql-zakovatli, bilimli, saxovatli, oliyjanob, ko‘p hunar egasi, xushxulq, to‘g‘riso‘z, sabrli, ko‘zi to‘q, andishali, bir so‘zli, ziyrak, hushyor, adolatli, o‘tkir zehnali, vafoli, dovyurak... va shu kabi ko‘plab xislatlarga ega shaxs bo‘lishi kerak. *«Agar, – deydi O‘gdulmish, – arslon itlarga bosh bo‘lsa, itlar arslonga aylanadi, lekin it arslonlarga yetakchilik qilsa, arslonlar itlar kabi bo‘lib qoladi».*

Beklik mustahkam bo‘lishi uchun to‘rt narsaga – birinchisi, kuchli lashkarga; ikkinchisi, kuchli lashkarni saqlash uchun ko‘p boylikka; uchinchisi, ko‘p boylikni to‘plash uchun badavlat xalqqa; to‘rtinchisi, boy-badavlat xalqqa ega bo‘lish uchun adolatli siyosat yuritishga katta ehtiyoj bor.

Bek, o‘zida shunday ko‘p fazilatlarni kamolga yetkazishi bilan birga, mana bu besh illatdan ehtiyot bo‘lmog‘i zarur: birinchisi – shoshqaloqlik, ikkinchisi – ochko‘zlik, uchinchisi – jaholat (aql bilan emas, jahl bilan ish ko‘rish, bilimsizlik), to‘rtinchisi – buzuq fe‘llilik, beshinchisi – yolg‘onchilik.

Yuqorida qayd etilgan sifatlarni o‘zida shakllantirgan, sanalgan illatlarni o‘zidan forig‘ aylagan kishigina sarvar, ya‘ni boshliq, yetuk va komil bo‘ladi. Rahbar har taraflama boshqalardan ustun bo‘lmog‘i darkor.

Bobning tub mohiyatida yotgan masala – bugun uchun ham juda dolzarb. Hozirgi zamonda boshqaruv ilmi, rahbarga qo‘yiladigan talablar mukammal bir ilm darajasiga ko‘tarilgan. Bu masalalar o‘zbek adabiyotida bundan o‘n asrlar ilgari shu darajada tahlil etilganining o‘zi jahon tamadduniga xalqimiz nechog‘li buyuk hissa qo‘shganini yana bir karra isbotlab turibdi.

Shuning uchun ham G‘arb dunyosi Sharq didaktik adabiyotiga juda-juda qiziqadi. Shuning uchun ham «Qutadg‘u bilig»ni Yevropa olimlari atroflicha o‘rgangan, o‘z tillariga tarjima qilgan. Bunday ilmiy-adabiy qiziqish hamon qizg‘in davom etyapti.

Asarning tili bugungi o‘quvchi uchun to‘la tushunarli emas, albatta. Shuning uchun filologiya fanlari nomzodi Qayum Karimov uni baytma-bayt bugungi o‘zbek tiliga ilmiy tabdil qilgan. Filologiya fanlari doktori, professor Boqijon To‘xliyev esa

dostonni she'riy yo'l bilan ommabop qilib o'zbekchallashtirgan. Adabiyotdan 8-sinf uchun darslik-majmua (2001) tuzgan filologiya fanlari doktori, professor Akrom Kattabekov, pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo'ldoshev, filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyevlar ham doston matnini soddalashtirib tushuntirishga tutangan.

Biz muhtaram o'quvchilarimiz manfaatlarini hisobga olib, baytlar mazmunini bugungi tilda bayon etishda ana shu nasriy bayonlardan ijodiy foydalandik.

Dostonning tili shoir badiiy mahoratidan dalolat beradi.

Asarda aruz vazni qoidalariga qat'iy amal qilinadi. Jami 6 ming 409 baytli katta bir asarni boshdan-oxir bir vaznga solib yaratish XI asrning turkiy adabiyoti uchun juda ulkan jasorat va yangilik edi. Chunki bu borada hali unchalar katta aruziy an'analar shakllanib ulgurmagan edi.

Qofiyalarda, asosan, turkiy so'zlar qo'llanishi ham dostonning butun o'zbek adabiyoti tarixidagi o'ziga xos badiiy o'rni borligidan dalolat beradi. Misol uchun quyidagi baytlar qofiyalariga diqqat qilaylik:

Bu beglik izinga o'ti o'g *bilik*,
Uqush birla emla, ey qilqi *silig*.

Biliglig uqushlug' kerak beg *tetig*,
Anin qilsa o'tru izinga *etig*.

Biliglig uqushlug' bo'gu elchi *beg*,
Ekigun ajunda bo'lur o'mi *yeg*.

Biroq dostonda shu singari to'q qofiyalar ko'p uchrasa-da, bu borada, o'zbek xalq og'zaki she'riyatida bo'lgani kabi, quyidagilarga o'xshash och qofiyalar ham bemalol qo'llanaveradi:

Eki neng turur elka bag'i *beki*,
Biri saqliq ul, bir to'ru el *ko'ki*, –

yoki:

Bu erdi, ey elig, mening *bilmishim*,
Munuqi o'tundum senga *uqmishim*, –

yoki:

Mengilig qayu ul, menga ay *yera*,
Kishi qutlug'i kim kishilar *ara?* –

yoki:

Yuraklig yuraksizka bo'lsa *bashi*,
Yuraklig bo'lur o'tru tekma *kishi*.

Ba'zan, hatto, vaznning mukammal, ya'ni bexato, saktasiz qo'llanganigagina suyanib, misralarni vazn jihatidan mos-u, lekin o'zaro ohangdosh bo'lmagan so'zlar bilan ham yakunlayveradi:

Qiling edgu erdam kerak ming tuman,
Ati edgu bo'lsa, tutunsa bodug', –

yoki:

Kishi yalg'aninda tilama vafa,
Bu bir so'z sinamish o'kush yilqi ul, –

yoki:

Ukush, o'g, bilig kimda bo'lsa tugal,
Yavuz ersa, kad te, kichik ersa, o'g.

Holbuki, mumtoz she'riyatimizning keyingi davrlarida bunday och qofiyalar ishlatilmaydigan bo'la bordi.

Radif qo'llaganda ba'zan shoir, shu ohangdoshlik bayt uchun yetarli, deb hisoblab, radifdan oldin qofiya keltirib o'tirmaydi:

Aqi bo'l, bag'ishla, ichur ham yetur,
Qali eksusa ur yana al yetur.

Turkiy tilimiz shakldosh (omonim) so'zlarga boyligi bilan ajralib turadi. Yusuf Xos Hojib shu imkoniyatdan ham unumli foydalangan. Masalan:

Qilinch edgu erdan kerak ming *tuman*,
Aning tutsa el kend, ko'tursa *tuman*.

Baytning birinchi misrasida «*tuman*» so'zi raqamni anglatib kelgan. Eski tilimizda bu hozirgi tushunchadagi o'n ming-

ni bildirgan, «*ming tuman*» esa aynan o'n millionni anglatadi. Ikkinchi satrda kelgan «*tuman*» so'zi bo'lsa tabiat hodisasi bo'lgan tuman (zulmat, qorong'ilik) ma'nosida kelgan. Shuning uchun bu bayt mazmuni quyidagicha bayon etildi: «*Erdan ezgu xulq va ming tuman hunar lozim, U shu hunarlari bilan elni boshqarib, zulmatni ko'taradi*».

Shu tahlillardan ham ko'rinib turibdiki, «Qutadg'u bilig» dostoni o'z davrining badiiy mahsuli hisoblanadi va unda o'sha zamondagi turkiy she'riyatning eng muhim xususiyatlari har taraflama aks etgan.

Savol va topshiriqlar

1. Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodi haqida mavjud ma'lumotlarni aytib bering.

2. «Qutadg'u bilig»ning yozilish tarixi, sabablari, unga asos bo'lgan haqiqiy omillar haqida so'zlang.

3. Dostonning nusxalari, ularning topilish tarixi va qayerda saqlanayotgani haqida nimalarni bilasiz?

4. Asarning vazni, nomlari, bundagi an'anaviylik, o'z zamonasidagi shuhrati to'g'risida fikr yuriting.

5. Dostondagi asosiy qahramonlar, ularning ramziy ma'nolari, ularga yuklatilgan badiiy vazifalarni izohlang.

6. «Qutadg'u bilig»ning mavzu yo'nalishiga ko'ra tipi, ichki tuzilishini tahlil eting.

7. Beklik shart va talablari bayon qilingan bobning asardagi o'rni, hozirgi paytdagi ahamiyatini izohlang.

8. Bu bobda aynan qanday ma'naviy fazilatlar ulug'lanib, aynan qanday illatlar qoralanganini misollar asosida tushuntirib bering.

9. Dostonning tili, qofiya va radif qo'llashdagi o'ziga xosliklari, shoirning badiiy mahorati xususida fikr yuriting.

10. Bobdagi hikmatli so'z kabi jaranglaydigan baytlarni ko'chirib olib, yodlang.

Nazariy ma'lumot

DIDAKTIK ADABIYOT HAQIDA TUSHUNCHA

«*Didaktika*» – yunoncha «*didakticos*», ya'ni «*ibratli*» degan so'zdan olingan. Demak, «*didaktik adabiyot*» deganda nasihat, o'git, ibrat ruhidagi asarlar tushuniladi. Bu Sharqda ham, G'arbda ham bo'lgan. Sharq so'z san'atida pand-nasihat ruhi

ustunroq, ochig‘i, u shunisi bilan G‘arb adabiyotidan farq qiladi ham. X asrdayoq buyuk Abu Ali ibn Sino Sharq ko‘proq nasihat yo‘li bilan, G‘arb esa hayotni real ko‘rsatish orqali kishini tarbiyalashga moyilligini maxsus qayd etib o‘tgan edi.

Og‘zaki va yozma adabiyoti, axloqiy-diniy merosi pand-hikmatga o‘ta boyligi uchun ham Sharqni jahonda donishmand deb bilishadi. Bizda she‘riyatning bu darajada ravnaq topib, xalq orasida katta mavqe egallashiga sabab bo‘lgan omillardan biri ham – shu. O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov: «*Sharqqa she‘riyatni o‘rgatib bo‘lmaydi*», – deganida ham aynan shu jihatlarni ko‘zda tutgan.

Shunga qaramay, *Sharq, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotini, tamoman pand-nasihat ruhidagi asarlardan iborat*, deb tushunish – mutlaqo xato. Sharqda maxsus didaktik adabiyot yuzaga kelgan. Uni, adabiy shakliga ko‘ra, quyidagicha nisbiy tasnif qilish mumkin:

1. *Nasriy didaktik asarlar.*

Masalan, milodiy IV asrda Hindistonda sanskrit tilida mashhur «Panchatantra», ya‘ni keyinchalik «Kalila va Dimna» nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan buyuk didaktik asar dunyoga keldi. Uning butun Sharq, qolaversa, jahon adabiyotiga katta ta‘siri bor. Bu kitob asrlar mobaynida bir necha tillarga tarjima qilingan. Arab ertaklari asosida shakllangan «Ming bir kecha»da ham mohiyatan didaktik ruh juda ustun turadi. Keyinchalik Kaykovusning mashhur «Qobusnoma»si yozildi.

XVI asr o‘zbek adibi Xoja (Podshoxoja binni Abdulvahobxoja)ning «Gulzor» hamda «Miftoh ul-adl» («Adolat kaliti») asarlari ham sof nasriy yo‘lda bitilgan didaktik adabiyot namunari hisoblanadi.

2. *Nasriy-she‘riy didaktik asarlar.*

Shayx Muslihiddin Sa‘diy Sheroziyning bag‘oyat mashhur «Guliston» asari aynan shu guruhga mansub. U ham nasriy, ham she‘riy, ya‘ni aralash yo‘lda bitilgan.

Alisher Navoiy ham pandnoma ruhidagi «Mahbub ul-qulub» asarini aynan nasriy-she‘riy shaklni o‘zaro omixta qilib yozdi.

Garchi majoziy timsollar, hayvonlar, asosan, qushlar mi-solida bitilgan bo‘lsa ham, Gulxaniyning «Zarbulmasal»i ham

didaktik adabiyotning ana shunday nasriy-she'riy, ya'ni aralash turiga kiradi.

3. *She'riy didaktik asarlar.*

Sharqda faqat nazmiy usulda yaratilgan maxsus didaktik she'riyat ham shakllangan. Aytaylik, o'zbek mumtoz she'riyatida Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Haydar Xorazmiyning Nizomiy Ganjaviy «Maxzan ul-asror»ini erkin tarjima qilish asnosida bitgan «Gulshan ul-asror», Alisher Navoiyning «Xamsa»ga birinchi asar sifatida kiritilgan «Hayrat ul-abror» dostonlari aynan o'zbek didaktik she'riyatining yorqin namunalari hisoblanadi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonida axloqiy-ma'naviy fazilatlarining hayotiy hikoya-tasvirlar, mantiqiy tahlil-xulosalar orqali berilishi, birinchidan, muallif nuqtayi nazarini nihoyatda tiniqlashtirib ifodalash imkonini beradi, shu tariqa uning aynan qanday g'oyani ilgari surayotganini aniq bilib turasiz, ikkinchidan, bu ta'sirchanlikni sezilarli darajada oshiradi, uchinchidan, ko'tarilgan masala-muammolar bugun uchun ham o'z ahamiyati, ya'ni dolzarbligini aslo yo'qotmaganidan dalolat beradi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida ham didaktik ruhdagi asarlar yaratilib turadi. Masalan, O'zbekiston xalq shoiri Shukurullo qalamiga mansub «Javohirlar sandig'i» aynan shunday asarlar sirasiga kiradi. U nasriy yo'l bilan bitilgan.

Savol va topshiriqlar

1. Didaktik adabiyot nima, u qanday o'ziga xosliklarga ega?
2. Didaktiklik xususiyatiga ko'ra, Sharq va G'arb adabiyotlari o'rtasidagi o'xshashlik va farqli tomonlar nimalarda ko'rinadi?
3. Sharq, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida didaktik asarlarning qanday turlari bor?
4. O'zbek didaktik adabiyotida qaysi asarlar mashhur?
5. Didaktik asarlarning qanday afzalliklari mavjud?
6. «Qutadg'u bilig» didaktikasining bugun uchun ahamiyatini aytib bering.
7. «Qutadg'u bilig»dagi bekka qo'yilgan talablarda qanday shartlilik mavjud?
8. Zamonaviy o'zbek adabiyotidagi qaysi didaktik asarlarni bilasiz?

LUTFIY (1366 – 1465)



Lutfiy – o‘zbek adabiyotining XV asr ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrlardagi eng mashhur lirik shoiri. Shuning uchun ham zamonasining ahli adabi va ahli fuzalosi uni «malik ul-kalom», ya’ni «so‘z podshosi» deb e’zozlagan. Manbalarda taxallusi oldidan «ulug‘ ustod» ma’nosidagi «Mavlono» sifatining qo‘shib tilga olinishi ham – shundan. Obro‘yi va shuhrati juda yuksak darajaga yetgan edi. Alisher Navoiy uni o‘zining ustozlaridan biri deb biladi. Buni shoirlar haqidagi «Majolis un-nafois» tazkirasidagi bu ulug‘ shoir haqida aytilgan quyidagi iliq so‘zlar ham isbotlaydi: «Mavlono Lutfiy o‘z zamonasining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo‘q erdi... va turkcha devoni ham mashhurdur».

Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvat» degan tasavvuf vakillari – shayx-avliyolar to‘g‘risidagi tazkirasida esa Lutfiyning uzoq umr ko‘rgani va qabri haqida ham qimmatli ma’lumot beriladi: «...To‘qson to‘qqiz yoshida olamdin o‘tdi. Qabri Dehikanordadir, o‘z maskani erdi».

Bundan shoir Hirotda tug‘ilib-o‘sgani, o‘zi yashagan Dehikanor degan qishloqda dafn etilganini bilib olamiz. Biroq Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqandda yashab, ijod etgan o‘zbek adabiyotshunosi Ahmad Taroziyning keyingi yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlaridan topilgan adabiyot nazariyasiga bag‘ishlangan «Funun ul-balog‘a» asarida bu shoir «Lutfiyi Shoshiy» deya tilga olinganiga asoslanib, olimlar uning Toshkentda tavallud topgan bo‘lishi mumkinligini ham aytishyapti. Chunki Shosh hozirgi Toshkentning qadimiy nomi bo‘lganini yaxshi bilasiz.

Lutfiy milodiy 1366-yili tug‘ilib, 1465-yili vafot etgan. Bu ustoz shoir dunyodan o‘tganda Alisher Navoiy 24 yoshda edi.

XV asrning birinchi yarmida o‘zbek tilida yaratilgan «Gul va Navro‘z» dostoni sho‘rolar davrida uzoq yillar Lutfiyning

asari sifatida xato taxmin etib kelingan edi. Ammo keyingi tadqiqotlar bu doston o'sha davrda yashab, ijod etgan shoir Haydar Xorazmiy qalamiga mansub ekanini ko'rsatdi.

Lutfiy – lirik shoir. Alisher Navoiy uni o'zigacha bo'lgan o'zbek she'riyatining eng kuchli, eng taniqli shoiri sifatida baholaydi. U Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy, Gadoiy kabi o'zbek shoirlarini sanay turib, o'zbek she'riyatida «*mashhur forsiy shoirlar muqobalasida* (qarshisida) *kishi paydo bo'lmagan*»ini aytadi. Ammo ular orasida Lutfiyni alohida ajratib ko'rsatadi: «... *Bir Mavlono Lutfiydin o'zgakim, bir necha matla'lari borkim, tab' ahli* (nozik didli adabiyotchilar) *qoshida o'qusa, bo'lur*». Bundan anglashiladiki, Lutfiy Navoiygacha bo'lgan davrning eng oldi o'zbek shoiri edi. U fors-tojik tilida ham go'zal she'rlar bitgan zullisonayn (ikki tilli) ijodkor edi.

Bizgacha Lutfiy turkiy (o'zbekcha) devonining XVI – XX asrlar mobaynida ko'chirilgan jami 33 nusxasi yetib kelgan. Bu qo'lyozmalar dunyoning turli shaharlaridagi e'tiborli kutubxona va qo'lyozmalar xazinalarida saqlanadi.

Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra, shoir merosining umumiy miqdori 2 ming 774 baytdan ortiq. Buning 2086 baytini, ya'ni 60 foizga yaqinini g'azal janri namunalari tashkil etadi. Shoir, g'azaldan tashqari, qit'a, ruboiy, tuyuq va fard janrlarida ham ijod qilgan.

Lutfiy lirikasi faqat o'zbek she'riyati vakillarigina emas, boshqa turkiy xalqlar, jumladan, turkman, ozarboyjon, usmonli turk shoirlari ijodiga ham sezilarli ta'sir qilgan.

Xalqaro Bobur jamg'armasi tashabbusi bilan 2006-yili Hirot yaqinida joylashgan Dehikanor qishlog'idagi Lutfiy qabri aniqlashtirilib, u yerda o'zbek milliy uslubida ayvonli yangi maqbara bunyod etildi.

Shoirning, xususan, g'azal va tuyuqlari XV asr o'zbek lirikasining go'zal namunalari hisoblanadi. Hozirgi paytda ham shoirning ko'plab g'azallari qo'shiq qilib kuylanadi. Ular xalqimizning sevimli ashulalari safidan joy olgan.

G'AZALLAR

«XOH INON, XOH INONMA» RADIFLI G'AZAL

Sensen sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey Moh,
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

Haqqoki, qilich kelsa boshimg'a, eshikingdin
Yo'qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.

Usruk ko'zing ashkolina har gah nazar etsam,
Qolmas xabarim, xoh inon, xoh inonma.

Yoqub bikin ko'p yig'idin qolmadi sensiz
Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.

Oy yuzung'a ko'z solg'ali o'zga kishi birla,
Yo'qtur nazarim, xoh inon, xoh inonma.

Ishq o'tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,
Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma.

Bu g'azal tamoman turkona ruhda bitilgan. Tilimizda kelib chiqishi jihatidan sof o'zbekcha bo'lgan so'zlardan tashqari, fors-tojikcha hamda arabcha kalimalar ham ko'p uchraydi. «*Turkona*» degani shuki, she'rda o'zbekcha so'z va iboralar qo'llash asosiy o'rin tutadi.

G'azal an'anaviy yetti baytdan iborat. U aruzning nisbatan murakkab turlaridan biri bo'lmish hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf (yoki maqsur), ya'ni *maf'uvlu* – *mafoiylyu* – *mafoiylyu* – *faulun* (yoki *mafoiylyl*) vaznida bitilgan. Taqte'si: – V / V – – V / V – – V / V – – (yoki V – ~).

G'azalda ishq mavzusi qalamga olingan. Lirik qahramon oshiq nomidan so'zlaydi. To'g'ridan-to'g'ri ma'shuqaga murojaat qiladi. Biroq bu yerda zimdan ilohiy ishq ko'zda tutilganini unutmazlik kerak.

Qofiyasi («*sevarim – jigarim – saharim – guzarim – xabarim – basarim – nazarim – siymbarim*») va radifi («*xoh inon, xoh inonma*») – juda jarangdor. Asar qurilishida ularning alohida oʻrni bor. Xususan, radifning toʻrt soʻzdan tashkil topgani, amalda sakkiz misrada ularning qaytarilishi ohang ustuvorligini kuchaytirgan. Radifning oʻzida tazod bor: «*xoh inon*» bilan «*xoh inonma*» oʻrtasidagi oʻzaro zidlik asarga alohida badiiy joziba baxsh etgan.

«*Inonma*» – hozirgi tilimizda mavjud «*ishonma*» soʻzining XV asrdagi shakli. Mamlakatimizning ayrim hududlarida (masalan, Buxoro viloyatida), shuningdek, Afgʻonistondagi oʻzbek shevalarining baʼzilarida hozir ham «*ishonma*» oʻrniga «*inonma*» shakli ishlatiladi.

Gʻazalning tili – sodda, ravon. Murakkab, falsafiy-tasavvufiy soʻz va timsollar uchramaydi hisob. Shuning uchun gʻazal mazmuni – bugungi oʻquvchi uchun ham tushunarli. Baytlar yengil kayfiyat, ayricha bir ishqiy zavq bilan oʻqiladi. Hozirgacha hofizlarimiz bu gʻazalni qoʻshiq qilib kuylayotgani ham shundan boʻlsa kerak. Bu gʻazal ham mumtoz yoʻlda, ham zamonaviy estrada usulida ashula qilingan.

Matlaʼda, radif («*xoh inon, xoh inonma*»)dan tashqari, toʻrttagina («*sensen*», «*sevarim*», «*qondur*» va «*jigarim*») soʻz ishtirok etgan. Bu birinchi bayt amalda yorga oshiqlikni anglatadi, xolos. Lekin qoʻshmisra mazmunidan uning toʻgʻridan-toʻgʻri yorga murojaat ekani bilinib turibdi.

Ikkinchi baytda ustalik bilan oshiqning hijron (ayriliq) kechasida sahargacha oh chekkani, bu charxi falakka yetgani aytiladi. Birinchi misra oxiridagi «*Moh*» soʻzi bilan ikkinchi misra boshidagi «*oh*» oʻzaro ohangdoshlik paydo qilganki, bu ham shoirning yuksak badiiy mahoratidan dalolat beradi.

Uchinchi bayt alohida izoh talab qiladi. Buning uchun «*guzar*» soʻzining ayni matndagi xos maʼnosini tushunib olish kerak. Agar bu soʻzni «*oʻtish*» deb anglasak: «*Xoh ishon, xoh ishonma, Xudo haqqi, boshimga qilich kelsa ham, eshiging oldidan oʻtmayman*», – degan gʻazaldagi umumiy mantiqqa zid maʼno-mazmun kelib chiqadi. Shuning uchun bu soʻzni «*ketish*» maʼnosida tushunish lozim. Shunda: «*Xoh ishon, xoh ishonma,*

Xudo haqqi, boshimga qilich kelsa ham, eshiging oldidan nari ketmayman», – degan to‘g‘ri ma‘no anglashiladi.

Xuddi ikkinchi baytdagi kabi, to‘rtinchi qo‘shmisra birinchi satrida «*nazar*» so‘zi ham bekorga qo‘llanmagan: uning g‘azal qofiyasidagi so‘zlarga (ular orasida «*nazarim*» ham uchraydi) hamohangligi bor.

Beshinchi baytda talmih san‘ati ishlatilgan. Talmih san‘ati deganda asarda biror voqea-hodisa, tarixiy fakt, adabiy yoxud afsonaviy qahramon nomini tilga olish tushuniladi. Dinimiz tarixidan yaxshi bilamizki, Yusuf degan o‘g‘lidan ayrilgani uchun yig‘layverganidan Yoqub payg‘ambarning oxiri ko‘zlari butkul ko‘r bo‘lib qoladi. Bu mumtoz she‘riyatimizda ko‘p bor tilga olinadigan, ishora qilinadigan voqealardan biri hisoblanadi. Lirik qahramon yori ishqida yig‘layverib, ko‘zdan qolganini aytish uchun shu talmihdan foydalanadi.

Oltinchi baytda shoir yorni «*Oy yuzli*» deb ta‘riflagani uchun ham shunga mutanosib ravishda maqta‘da uni «*siymbarim*» deydi. Oyni oqligi bilan siym, ya‘ni kumushning oqligi o‘rtasida vobastalik bor. Bu ikki qo‘shmisra aro yana bir mutanosiblikni sezmaslik mumkin emas. Oltinchi baytda yor yuzi tilga olingan edi. Maqta‘da lirik qahramon g‘azaldagi maqsad-muddaosidan kelib chiqib, o‘z yuzi haqida ham unga eslatib qo‘yishni unutmaydi: Lutfiyning yuzi azbaroyi hijron azobini chekaverganidan sarg‘ayib ketib, oltinni yashiradigan darajaga yetdi, ya‘ni shunchalik sarg‘aydiki, buning oldida tilloning sariqligi hech narsa bo‘lmay qoldi!

Lutfiy g‘azallari bunday go‘zal badiiy topilmalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotimizda mashhur g‘azallarga naziralar bitish, ya‘ni uning qofiya va radifidan foydalanib, o‘xshatmalar yozish an‘anasi shakllangan. Lutfiyning bu g‘azali ta‘sirida Boborahim Mashrab (1640 – 1711) ham bir g‘azal yaratgan.

Savol va topshiriqlar

1. G‘azal hajmi va mavzusi haqida ma‘lumot bering.
2. Asar vazni, qofiyasi va radifini tahlil qiling.

3. Gʻazal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
4. Ikkinchi baytda «oh» va «Moh» soʻzlari oʻrtasidagi bogʻliqlik, shuningdek, toʻrtinchi baytdagi «nazar» soʻzining gʻazal qofiyasiga olingan soʻzlar bilan ohangdoshligi qay darajada ahamiyatga ega ekanini tushuntiring.
5. Beshinchi baytdagi Yoqub timsoli bilan bogʻliq talmihni izohlang.
6. Maqtaʼda Lutfiyning yuzi oltinni yashirgani zamirida qanday maʼno koʻzda tutilgan?
7. Gʻazalni yodlang.

«BU KOʻNGULDUR, BU KOʻNGUL» RADIFLI GʻAZAL

Meni shaydo qiladurgʻon bu koʻnguldur, bu koʻngul,
Xor-u rasvo qiladurgʻon bu koʻnguldur, bu koʻngul.

Oʻqdayin qomatimizni qora qoshligʻlar uchun
Muttasil yo qiladurgʻon bu koʻnguldur, bu koʻngul.

Meni yozgʻurma «sevar» debki, mening haddim emas,
Ul tamanno qiladurgʻon bu koʻnguldur, bu koʻngul.

«Borma», derlar, «eshiki sori damo-dam», netayin,
Koʻp taqozo qiladurgʻon bu koʻnguldur, bu koʻngul.

Tori moʻyin havasi birla qorongʻu kechada
Jonni savdo qiladurgʻon bu koʻnguldur, bu koʻngul.

Dushman-u doʻst orasinda men gʻofilni mudom,
Besar-u po qiladurgʻon bu koʻnguldur, bu koʻngul.

Oʻzgardin koʻrmaki koʻzung yoshini, ey Lutfiy,
Ayni daryo qiladurgʻon bu koʻnguldur, bu koʻngul.

Gʻazal anʼanaviy ishqiy mavzuda bitilgan. U yetti baytdan iborat. Vazni – ramali musaddasi mahzuf (yoki maqsur), yaʼni *foilotun – foilotun – foilotun – foilun* (yoki *foilon*). Taqteʼsi: – V – – / – V – – / – V – – / – V – (yoki – V ~).

Bu asarida shoir endi besh soʻzdan iborat radif qoʻllagan («*qi-ladurgʻon bu koʻnguldur, bu koʻngul*»). Gʻazal

radifidagi barcha soʻzlar – turkiy («*qiladurgʻon bu koʻnguldur, bu koʻngul*»). Qofiyasi – arabiy-forsiy kalimalardan («*shaydo – rasvo – yo – tamanno – taqozo – savdo – po – daryo*») tashkil topgan.

Koʻngil mumtoz sheʼriyatimizning asosiy tasvir manbai hisoblanadi. Chunki, tasavvuf taʼlimotiga koʻra, Alloh kishining koʻnglidagina aks etadi. Ishq ham – koʻngul ishi.

Lirik qahramon ishq bobida barcha «ayb»ni koʻngliga qoʻymoqchi: uni shaydo, xor-u rasvo (matlaʼ), qora qoshliklar uchun oʻqdayin tik qomatini yoydek egik qiladigan (ikkinchi bayt) ham – shu.

Meni sevdi deb ayblama, buni istayotgan ham – koʻngul (uchinchi bayt), deydi lirik qahramon. U mulohazalarini davom ettiraveradi: *eshigiga tez-tez boraverma, deyishadi, lekin koʻngul shuni istasa* (taqozo etsa), *nima qilay* (toʻrtinchi bayt)?

Qorongʻi kechada sochining tolasiga jonni savdo qiladigan ham (beshinchi bayt), *doʻst-u dushman ichida men gʻofil bandani qoʻlsiz-oyoqsiz qilib qoʻyadigan ham* (oltinchi bayt) – *shu*.

Maqtaʼda lirik qahramon Lutfiyga murojaat etib, *bu ishni boshqadan koʻrma, koʻz yoshlaringni daryodek toʻkayotgan ham aynan «bu koʻnguldur, bu koʻngul»*, deydi.

Bu gʻazal hozirgacha xonandalarimiz tomonidan sevib kuylanadi. Oradan toʻrt yuz yil oʻtib, XIX asrning birinchi yarmida Nodira Lutfiyning shu gʻazaliga oʻxshatma yozdi.

Savol va topshiriqlar

1. Gʻazal hajmi va mavzusi, ulardagi anʼanaviylik va oʻziga xoslik haqida soʻzlab bering.

2. Lirik qahramon ishqqa muhtalo boʻlganini nimaga toʻnkayapti va bunga sabab nima?

3. Asar vazni, qofiyasi va radifini tahlil qilib bering.

4. Gʻazal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.

5. Bu gʻazalning keyingi shuhrati haqida nimalar deya olasiz?

6. Gʻazalni yodlang.

«AYOQINGG'A TUSHAR HAR LAHZA GISU...» G'AZALI

Ayoqingg'a tushar har lahza gisu,
Masaldurkim:¹ «Charog' tubi – qorong'u».

Tuturmen ko'zki, ko'rsam orazingni, –
Ki derlar: «Oqqan ariqqa oqar su(v)».

Yuzungni tuttum ortuq Oy-u Kundin,
«Kishining ko'zidur, ore, tarozu».

Ko'zing qonimdin iymanmas, ajabtur, –
Ki: «Qo'rqar, qaydakim qon ko'rsa, hindu».

Tilar vaslingni, Lutfiy, qil ijobat, –
Ki ayturlar: «Tiloganni – tilogu».

Lutfiy – yozma adabiyot vakili. Biroq so'z san'ati tarixidan yaxshi bilamizki, dastlab og'zaki adabiyot yuzaga kelgan. Yozma adabiyot ana shu folklor zaminida paydo bo'lgan. Shuning uchun o'zbek mumtoz she'riyati taraqqiyotini xalq og'zaki ijodi ta'siridan ayri tasavvur qilish aslo mumkin emas.

O'qiganingiz g'azal buning yorqin bir isboti yanglig' jaranglaydi. Uni muallif tamoman o'zbek xalq maqollari asosiga qurgan. Har bir baytda shoir bittadan maqol qo'llaydi. Maqollar go'yo baytlar birinchi misrasida aytilgan fikrga bir isbotdek keltiriladi. Shuning uchun barcha baytlarning ikkinchi satri maqol bilan tugaydi. Shundan ham bilib oldingizki, shoir beshta bir-biriga qofiyadosh so'z bilan tugaydigan maqol topgan. Demak, g'azal besh baytdan iborat ekan.

G'azal hazaji musaddasi mahzuf (yoki maqsur), ya'ni «*mafoiylun – mafoiylun – faulun* (yoki *mafoiyl*)» vaznida yozilgan. Taqte'si: V – – – / V – – – / V – – (yoki V – ~).

Matla' nihoyatda go'zal, Lutfiyga xos lutf bilan qog'ozga tushgan: har lahza soching oyog'ing ostiga tushadi, shuning uchun, maqolda aytilganidek, «*Chirog' tubi – qorong'u*». Bu yerda yorning yuzi aytilmagan holda oppoq nur taratib, yonib

¹M a s a l – maqol.

turgan chiroqqa qiyoslanyapti. Baytda keltirilgan maqol – juda mashhur. Biroq hozirgi zamonda shamchiroq deyarli ishlatilmagani uchun bu maqol kam qo‘llanadi. Holbuki, sham yoqilganda kuzating, rostdan ham uning tubiga nur tushmaydi, shuning uchun u yer qorong‘i bo‘ladi.

Ikkinchi baytda lirik qahramon yorning yuzini (orazini) ko‘rishga ko‘z tutayotganini aytadi, axir, maqol bor-ku: «*Oqqan ariqqa oqar su(v)*». Bu maqol hozir ham ko‘p ishlatiladi. Faqat endi u «*Oqqan daryo oqaveradi*» shaklini olgan.

Uchinchi baytda ham yuz tasviri izchil davom etadi. Shoir uni Oy bilan Quyoshdan ham ortiq deb ta‘riflaydi, chunki «*Kishining ko‘zi – tarozi*» degan maqol bor-ku.

Shu tariqa to‘rtinchi baytda tasvir yuzdan ko‘zga o‘tib oladi. Lirik qahramonning yor ko‘zi oshiq qonidan iymanmayotgani, ya‘ni qo‘rqmayotganiga ajablanayotgani bejiz emas, axir: «*Hindi qayda qon ko‘rsa, qo‘rqadi*» degan maqol bor edi-ku! Bu yerda «*ko‘zing – hindi*» deyilayotgani yo‘q, lekin ko‘z tasviri bilan maqolda «*hindi*» so‘zi kelishi zimdan shuni yuzaga chiqazgan.

Lutfiyning dardi – yor vasliga yetish, sababi u «*Tiloganni tilogu*» («*Tilagan kishi tilagiga yetadi*») degan maqolga umid bog‘layapti.

Ko‘rinib turganidek, asarda boshdan-oxir irsoli masal san‘atidan mahorat bilan foydalanilgan. Buning badiiy-tab‘iy (badiiy-estetik) jozibasi bor. Bir qofiya tizimiga tushadigan shuncha maqolni topib, ularni ustalik bilan qo‘llashi shoirning yuksak mahoratidan dalolat beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Yozma adabiyotning xalq og‘zaki ijodi bilan vobastaligi haqida nimalarni bilasiz?
2. G‘azal mavzusi, vazni, qofiyasini tahlil qiling.
3. Matla’dagi tasvir go‘zalligi va so‘z nazokati haqida gapirib bering.
4. Baytlar mazmunini va ulardagi xalq maqollarini birma-bir sharhlang.
5. G‘azaldagi o‘zbek xalq maqollarini daftaringizga yozib oling, ularning hozirgi tilimizda mavjud yoki mavjud emasligini, o‘zgargan bo‘lsa, hozirgi shaklini aniqlang.

MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

G‘AZALLAR

«BU KECHAR JAHONDA, SOQIY, CHU EMAS VAFO NISHONI...» G‘AZALI

Bu kechar jahonda, soqiy, chu emas vafo nishoni,
Bari aysh birla kechsa kerak ushbu umri foniy.

Qadahe keturki, sendek Xizr-u Masih elindin,
Kishiga mayi muravvaq¹ erur obi zindagoniy.

Mayi la’li javharedurki, qilur nashot g‘amni,
G‘am ila kechurma umrung, topilur chu shodmoniy.

Manga bexabarlig‘imdin ne g‘ami hisob bo‘lg‘ay,
Chu boshimda bo‘lg‘ay ul kun bu sharobi arg‘uvoniy.

Qaridi g‘amingda Lutfiy, kel agar vafo qilursen, –
Ki kishiga qolmas oxir bu latofati javoniy.

«HOLIYOKIM, DAVRI ISHRATTUR ILIKTIN JOMNI...» G‘AZALI

Holiyokim, davri ishrattur iliktin jomni
Solmag‘ilkim, ko‘rdum asru bevafo ayyomni.

Husn davroni g‘animattur, yigitlik bot kechar,
Yaxshiliqtin banda qilg‘il emdi xos-u omni.

Bodaningki, lazzatini bilgay erdi Xizr, agar
Ichgay erdi obi hayvontek² mayi gulfomni³.

Gar so‘ngaktek bo‘lmag‘aylar ul og‘iz, ko‘z fikrida, –
Kim og‘izg‘a olg‘ay oxir pista-yu bodomni.

Chun sabo kelsa qilurmen gar o‘zumni kuch bila,
Ikkilay chorlab degay to sendin ul dashnomni.

¹M u r a v v a q – tozalangan, sof.

²O b i h a y v o n – abadiylik suvi, obi hayot.

³M a y i g u l f o m – gul rangli (qizil) may.

Chun duo qildim raqibgʻa, berdi dashnom ul manga,
Hayf emish ablahga qilmak izzat-u ikromni.

Kecha-kunduz chun tilarsen, Lutfiy, ul dilbar yuzin,
Zulfitek oʻt uzra qilgʻil doimo oromni.

**«HAQ UL KUNKIM, JAMOLING BOR ETIBDUR...»
GʻAZALI**

Haq ul kunkim, jamoling bor etibdur,
Jahon husnin borin sizga beribdur.

Pari-yu odami mundoq xoʻb ermas,
Farishta goʻyiyo koʻktin enibdur.

Quyosh Oydek yuzungning xijlatidin,
Qochib, toʻrtinchi koʻk uzra chiqibdur.

Yuzung nogah koʻrib Oydek sogʻindim,
Magar¹ hush-u xirad² mendin ketibdur?

Xirad ketmay netar mendek gadodin,
Qoshimgʻa ul shahi xoʻbon kelibdur?

Qilur daʻvoyi nur ul shamʻi majlis,
Magar parvona shomimdin olibdur.

Necha bu Lutfi(y) qulgʻa javr etarsen,
Vafo qilkim, jafu haddin oshibdur!

«NE BOʻLURSAN» RADIFLI GʻAZAL

Ey odami(y)lar joni, parigʻa ne boʻlursan?
Bu jism ila gulbargi tariygʻa ne boʻlursan?

Sendin manga nazzora tegar ul daxi gah-goh,
Sen charxi falakning qamarigʻa³ ne boʻlursan?

¹M a g a r – hozirgi tilimizdagi «-mi» soʻroq yuklamasiga toʻgʻri keladi.

²X i r a d – aql.

³Q a m a r – Oy.

Raftor ila bir yo'li muningdek dog'i o'xshash,
Ey sarvi sihi, kabki dariyg'a ne bo'lursan?

Yusuf kebi shirindurur asru harakoting,
Sen Misr nabot-u shakarig'a ne bo'lursan?

Sendek saname ko'rman Lutfi(y) chig'atoyda,
Chin so'yla, Xito xo'blarig'a ne bo'lursan?

«QILG'ALI» RADIFLI G'AZAL

Ulki husn etti bahona elni shaydo qilg'ali,
Ko'z gudek qildi seni o'zini paydo qilg'ali.

Qosh-u ko'zungdin qaro ko'rguzdi bildirmay o'zin,
Fitnae ul boshladi olamni yag'mo qilg'ali.

«Kof»u «nun» naqshi yo'q erdi andakim ushshoq uchun,
Ishq ila husning birikti sho'r-u g'avg'o qilg'ali.

Gavhari yak¹ dona qildi zoti bahrinda seni,
Ahli dillar ko'zini hasratta daryo qilg'ali.

Og'zing-u yuzung sabab bo'ldi azal naqqoshina,
Olami g'aybiy shahodatni huvaydo qilg'ali.

Siz o'tarsiz Oydek ko'z tungluki yonida ruh, –
O'turur har go'shadin sizni tamosho qilg'ali.

Gar qaro qayg'u nasibim bo'lmasa yuz soridin,
Men kim erdim jon bila zulfungni savdo qilg'ali.

Sensiz emgakin manga bo'ldi o'lum jon rohati,
Qaydadur, yo Rab, ajal, borsam taqozo qilg'ali.

Chun saloting'a alik bermas ko'zung nazzorasi,
Lutfi(y) qul kimdur visolingni tamanno² qilg'ali.

¹Y a k – bir.

²T a m a n n o – orzu.

«NOZUKLIK ICHRA BELICHA YO‘Q TORI GISUYL...»
G‘AZALI

Nozuklik ichra belicha yo‘q tori gisuyi¹,
O‘z haddini bilib, belidin o‘lturur quyiy.

Zulfi shikastasinda u kun ongladi o‘zi,
Oylarda sinmadi bu ko‘ngulning bir orzuyi.

Mundoqki yaxshi yerga tushubtur topib qabul,
Shak yo‘qki, muqbil ul dudog‘ing xoli hinduyi.

Qush og‘zi tegsa la‘l o‘la minqori to‘tided,
Yoqutung uchun onda ko‘roqsa ko‘zum suyi.

Ko‘rguzmading tushumda biror zulfi orazin,
Ey baxt, dedikim senga kim, tun-u kun uyi.

Javr etsa, mehr umidi tutarmen hanuzkim,
Bir tavr qolmas odamining xislat-u xo‘yi.

Lutfiy boshin evurdi sochi inichka bel ila,
Ul hindu rishta birla magar qildi joduyi?

«SURATINGDA XOMAYI SUN‘ ERDI TAHRIR USTINA...»
G‘AZALI

Suratingda xomayi sun‘² erdi tahrir ustina,
Chunki etti ko‘zunga, sehr etti tasvir ustina.

Garchi bosh birla tikildi vasfi zulfungda qalam,
Ul qaro tillik ko‘rar o‘zini taqsir³ ustina.

Husnungiz oni ne teb kirsun iboratqaki, aql
Dam-badam bexud bo‘lur sharhinda taqrir⁴ ustina.

¹G i s u – soch.

²X o m a y i s u n’ – yaratish qalami.

³T a q s i r – qusur, xato, nuqson.

⁴T a q r i r – tasdiqlash, so‘zlash, bayon etish.

Ish agar afsunga yetsa koʻzlaring ashkol ila,
Yuz xatoni yuklagay joduyi Kashmir ustina.

Qosh-u koʻz-u kirpugungning fitnasidin yoʻq kalom¹,
Ul balodin, netayin, kelmasa bir-bir ustina.

Chiqmadi zulfung savodindin koʻngul yoʻl bor uchun,
Muncha umr etib uzun tunlarda shabgir² ustina.
Lutfi(y)ni oʻlturma sensiz oʻlmagan jurmi uchun, –
Kim yurumas bandaning farmoni taqdir ustina.

TUYUQLAR

Koʻngluma har yonki boqsam, *dogʻi bor*,
Har necha dardimni desam, *dogʻi bor*.
Qilcha tanga bori ishqing yor edi,
Bir sori boʻldi firoqing, *dogʻi bor*.

Tuyuqni tushunib, undan zavq olish uchun, avvalo, misralar zamiridagi maʼnolarni obdon anglab olish lozim. Chunki qofiyalarda kelgan bir shakldagi soʻzlar yoxud soʻzlar turkumi anglatgan maʼnolar bir-biridan farq qilgani sababli tajnis yuzaga kelgan. Agar oʻquvchi aynan bir xil shakldagi soʻzlar yoxud soʻzlar turkumidagi maʼnolarni ajratib ola bilmasa, asar oʻz vazifasini oʻtamagan, muallifning maqsadi amalga oshmay qolgan boʻlib chiqadi.

Shu jihatdan ushbu tuyuqning qofiyalarida quyidagi maʼnolar yashirin:

- *dogʻi bor* – *dogʻi bor*;
- *dogʻi bor* – *otashi bor*;
- *dogʻi bor* – *yana (tagʻin) bor*.

Natijada tuyuqdan mana bunday talqin kelib chiqadi:

Koʻnglimga har tarafdin boqsam, dogʻi bor, har qancha dardimni aytsam, otashi bor. Qildekkina tanamga bori ishqing yor edi, firoqing (sendan ayriliq) bir taraf boʻldi, yana bor.

Uchinchii misrada ham «*bori*» soʻzi bekorga ishlatilmagan.

¹Kalom – soʻz.

²Shabgir – tong, sahar.

* * *

Men sening ilkingdin, ey *dil*, *bandamen*,
Vah, qachon yetkaymen ul *dilbanda men*.
Bevafolarg'a meni qilding asir,
Sen menga sultonsen, ey *dil*, *banda men*.

Ushbu tuyuqda, odatdagidek, tajnisli so'zlar qofiya bo'lib kelgan va ular quyidagi ma'nolarni anglatadi:

– *dil*, *bandamen* – *yurak*, (men) *bandaman* (bog'lanib qolganman);

– *dilbanda men* – *dilbandga men*;

– *dil*, *banda men* – *yurak*, *banda men* (man).

Misralar talqin etilsa, quyidagicha ma'no kelib chiqadi:

– *Men sening dastingdan, ey dil, bandaman* (bog'lanib qolganman), vah, men qachon u dilbandga yetgayman?

Meni bevafolarga asir qilding, sen menga sultonsan, ey dil, banda (fuqaro) – *men*.

* * *

Charxi kajraftor elidin *yozamen*,
Chiqmadim hijron qishidin *yoza men*.
Bir meni yorliq bila yod etmas ul,
Har necha ul shahg'a qulluq *yozamen*.

Bu tuyuqda quyidagi tajnislarga duch kelamiz:

– *yozamen* – *yozg'iraman* (shikoyat qilaman);

– *yoza men* – *yoza men*;

– *yozamen* – *yozaman* (bitaman).

Satrlar ketma-ketligi asosida talqin etilganda quyidagicha fikrlar ilgari surilgani ma'lum bo'ladi:

Charxi kajraftor (egri aylanuvchi charx, zamon) *elidan noroziman*, (Chunki) *hijron* (ayriliq) *qishidan yozga chiqa olmadim*. *Har qancha u shohga qulluq* (iltifotli maktub) *yozganim bilan* (to'rtinchi misra), *meni bir yorliq* (maktub) *bilan u yod etmaydi* (uchinchi misra).

MUSTAQIL O'QISH UCHUN

TUYUQLAR

Ko'z yoshim tuproq ila gar qotila¹,
Kelmagayman javridin, Haqqo, tila².
G'amzasi o'lturdi-yu ul bexabar,
Men agar o'lsam, ne g'am ul qotila³?!

Kechti umr-u tushmadi ul yor⁴ ila,
Qo'rqaram ko'nglum bu g'amdin yorila⁵.
Bu vafosizliqki, sendin ko'rmisham,
E'tiqodim qolmadi hech yor⁶ ila.

Ey ko'ngul, yorsiz sanga ne bor⁷ bor?
Qaydakim ul zulfi anbarbor⁸, bor.
Chek jafo-u javr-u nozi borini,
Bir kun o'lg'aykim, degaylar: «Bor-bor!»

Bir nazar qildim, qul o'ldum Oya⁹ men,
Ul sababdin jon-u dilni oyamen¹⁰.
Gar meni shohing'a etkursa Xudoy,
Hazratingda sarguzashtim oyamen¹¹.

To ishim tushti bir og'zi tor ila,
Ko'nglumi asrar g'ami bir tor¹² ila.
Ko'z tutarmenkim, ko'zumning suyidini
Ko'ngli, vah, tuxmi muhabbat torila¹³.

¹Q o t i l a – qo'shiladi, qoriladi.

²H a q q o, t i l a – Xudoyo, tilasang ham.

³Q o t i l a – qotilga.

⁴Y o r – suyukli.

⁵Y o r i l a – yoriladi.

⁶Y o r – do'st, yor-u do'st.

⁷B o r – yuk; bu yerda tashvish, g'am ma'nosida.

⁸A n b a r b o r – xushbo'y hidlarga to'la.

⁹O y a – Oyga.

¹⁰O y a m e n – ayayman.

¹¹O y a m e n – aytaman.

¹²T o r – tola, ip.

¹³T o r i l a – taraladi.

IRSOLI MASAL

Gapda yoki she'rda xalq og'zaki ijodida mashhur bo'lib ketgan biror maqol, matal, ibora yoxud hikmatli so'z keltirib, nutq ta'sirchanligini oshirish usuliga *irsoli masal san'ati* deyiladi.

Bu yerdagi *irsol* – *keltirish*, *masal* – *misol*, *tamsil*, *maqol*, *matal*, *ibora* ma'nolarini anglatadi. Eski o'zbek tilida maqol, matal va iboralar *masal* yoki *zarb ul-masal* deyilgan. Hozirgi tilshunosligimizda maqol, matal va iboralar *frazeologizmlar* deb yuritiladi.

Irsoli masal san'ati o'zbek yozma adabiyotining eng qadimgi namunalarida ham uchraydi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarlarida bu ifoda va tasvir vositasining yuksak namunalariga duch kelamiz.

Xususan, Mavlono Lutfiy she'riyatida irsoli masal juda ko'p uchraydi. Shunga ko'ra, *irsoli masal qo'llash – shoir ijodiyotining yetakchi uslubiy fazilatlaridan biri*, deyish mumkin.

Irsoli masalda muallif o'z fikr-mulohazasini tap-tayyor maqol, matal, ibora yo hikmatli so'z orqali quvvatlab oladi, shu tariqa o'quvchini ishontirishni kuchaytiradi, ifoda ta'sirchanligini oshiradi.

Mumtoz adabiyotimiz vakillari asarlarida irsoli masal san'atining eng yorqin namunalari mavjud. Qalam ahli, xususan, shoirlarimiz tilning shunday zo'r imkoniyatidan mumkin qadar ustalik bilan foydalanishga harakat qilishgan.

Ayni jihatdan Mavlono Lutfiy ijodi o'zigacha bo'lgan davr shoirlari ichida alohida ajralib turadi. Bu qalam sohibi merosida shunday g'azallar ham borki, ular boshdan-oxir badiiy-uslubiy tarafdin tamoman ana shu irsoli masal san'ati asosiga quriladi. «Ayoqingg'a tushar har lahza gisu...» g'azali xuddi shunday asarlar sirasiga kiradi. Undagi mavjud besh baytning bari aynan ana shu san'at ishtirokida yaratilgan. Bu qo'shmisralarning hammasida maqol ikkinchi satrda kelgan. Amalda u birinchi qator-dagi fikrning tasdig'i yanglig' qog'ozga tushgan. Shu tariqa shoir fikrini ikki karra mustahkamlagandek bo'ladi.

1. Irsoli masal san'atining badiiy nutqdagi asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. Irsoli masal san'atining xalq og'zaki adabiyoti bilan aloqasini aytib bering.
3. Irsoli masal qaysi o'zbek shoirlari ijodida ko'proq uchraydi?
4. Irsoli masal haqidagi nazariy ma'lumotlar asosida bu badiiy san'at ishtirok etgan asarlarni qayta o'qib chiqing.

QOFIYA

Arabcha «qofiya» so'zi ergashish, izidan borish degan ma'nolarni anglatadi. Adabiyotshunoslik istilohi (termini) sifatida u she'riy misralarning muayyan o'rnida o'zaro ohangdosh so'z yoki so'zlarning izchil takrorlanib kelishini anglatadi. Qofiyaga olingan so'z yoki so'zlar o'zak bilan o'zak yoxud qo'shimcha bilan qo'shimcha o'rtasida yuzaga keladi.

O'zbek mumtoz she'riyatida qofiyaning tartibi janr tabiatidan kelib chiqadi. Masalan, masnaviyda faqat ikki misra o'zaro qofiyalashadi. Shuning uchun bunda har bir bayt alohida-alohida qofiyaga ega bo'ladi. Mabodo, ketma-ket ikki bayt qofiyalari bir-biriga ohangdosh bo'lib kelganda ham ular alohida-alohida qofiyalar hisoblanadi. Masalan, Navoiyning «Farhod va Shirin»ida ketma-ket kelgan mana bu baytlarda, *alohida-alohida ikki qofiya bor*, deb hisoblanadi:

Ko'p o'lsa mehribon xudkomlig'din,
El ichra vahm etib badnomlig'din.

Vale chun bilmish erdi ishq pokin,
Bu yanglig' ishq aro dardi halokin, –

baytlari qofiyalaridagi to'rt so'z («*xudkomlig'din* – *badnomlig'din*», «*pokin* – *halokin*») o'zaro ohangdosh bo'lgani bilan bu yerda ikkita alohida-alohida qofiya ishlatilgan. Keyingi baytning qofiyasi birinchi baytning qofiyasiga bog'liq emas. Ya'ni shoir keyingi baytni tamoman boshqa qofiya bilan yozaverishi mumkin edi.

G'azalda qofiya *aa*, *ba*, *da*, *ea*, *fa* va hokazo tarzda davom etadi. Qit'ada esa g'azalning matla'sidagi kabi juft qofiyali bayt bo'lmaydi. Shuning uchun uning qofiyalari *ab*, *vd*, *eb*, *fb* va

hokazo tarzda davom etadi. Ruboiy va tuyuqning *aaaa* yoki *aaba* tarzda, ya'ni ikki xil qofiyalanish imkoni bor.

Mumtoz adabiyotshunosligimizda qofiya qoidalarini o'rganadigan soha «*ilmi qofiya*» deb yuritilgan.

Mumtoz she'riyatimizda qofiyadagi takrorlanib keladigan asosiy tovush (ya'ni harf) «*raviy*» deyilgan. Raviy – so'z o'zagidagi, yasama so'zlarda esa negizdagi oxirgi undosh, cho'ziq unli, ba'zi hollarda esa qisqa unli sifatida aynan qaytariladigan tovush. Masalan, «*gul – bulbul*» so'zlaridagi «*b*», «*or – zor*» so'zlaridagi «*r*», «*vafo – jafo*» so'zlaridagi «*o*», «*bahona – zamona*» so'zlaridagi oxirgi «*a*» raviy hisoblanadi.

Qofiya she'rda ko'p vazifa bajaradi. Avvalo, she'r ritmi va musiqiyiligini ta'minlaydi. G'oyaviy mazmuni kuchaytirib ifodalashga xizmat qiladi. G'oya yuki tushadigan so'zlarning misralar oxirida kelishi shuni ta'minlaydi. Xususan, g'azal, qit'a, muxammas, musaddas va hokazo janrlarda qofiya asarning kompozitsion qurilmasida asosiy mavqe tutadi. Boshqacha aytganda, bunday janrlarda qofiya go'yoki she'rni boshqaradi. Masalan, badiiy san'atlarning o'nga yaqini – bevosita qofiya bilan aloqador.

Aslida, qofiya ham – alohida bir badiiy san'at. Ammo shunday san'atki, Sharq mumtoz adabiyotida qofiyasiz she'r bo'lmaydi. Boshqa birorta badiiy san'atga bunday shart qo'yilmaydi. To'g'ri, san'atlar, ya'ni badiiy vositalarsiz she'riy asarni ham tasavvur qilish qiyin. Biroq aynan olingan bir san'atni ishlatish yo ishlatmaslik – tamoman shoirning inon-ixtiyorida.

Mumtoz she'riyatda qofiya qoidalari buzilmaydi. Shuning uchun qofiya ilmini olimlar shoir va she'rxonning alifbesi hisoblashadi. Shu sababdan ham qofiya mumtoz adabiyotshunosligimizda boshqa san'atlardan ajratib, maxsus o'rganilgan.

Savol va topshiriqlar

1. «*Ilmi qofiya*» haqida nimalarni bilasiz?
2. Qofiyaning o'zbek mumtoz she'riyatidagi o'rni va vazifalari nimalardan iborat?
3. Qofiyaning radif bilan bog'liq jihatlari haqida so'zlang.
4. G'azal janrida qofiyaning o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi?
5. Nima uchun olimlar qofiyani shoir va she'rxonning alifbesi deb hisoblashadi?

RADIF

Arabcha «*radif*» soʻzi, aslida, otda suvoriyga mingashgan kishini anglatib, arab tilida «yoʻldosh», «hamroh», «ketma-ket» degan maʼnolarda ham qoʻllanadi. Shunga koʻra, sheʼrda hamma vaqt qofiyadan keyin, yaʼni unga «*mingashib*» yoki «yoʻldosh boʻlib» kelgan bir soʻz yoki soʻzlar turkumining takrori «*radif*» deb ataladi.

Radifning qofiyaga bogʻliq joyi – koʻp. Birinchidan, u hamisha qofiya bilan yonma-yon, birga, unga ergashib keladi. Qofiyasiz radif radif emas. Faqat ayrim sheʼrlardagina radifdagi soʻzlar miqdori koʻpayib ketgani evaziga qofiyaga qatʼiy amal qilinmaydi. Ikkinchidan, radif qofiya bilan birgalikda sheʼriy ohangdoshlikka xizmat qiladi.

Koʻpincha radif bir soʻzdan tashkil topadi. U «*qisqa radif*» deyiladi. Ammo baʼzan u bir necha soʻzdan tashkil topishi ham mumkin. U «*yoyiq radif*» deb yuritiladi. Shunday sheʼrlar ham uchraydiki, unda butun boshli misrada bir soʻz qofiya-yu, qolganlari radif boʻlib keladi. Boburning mana bu ruboiysi bunga yorqin misol boʻla oladi:

Tuz, *oh Zahiriddin Muhammad Bobur,*
Yuz, *oh Zahiriddin Muhammad Bobur,*
Sarrishtayi ayshdin koʻngulni zinhor
Uz, *oh Zahiriddin Muhammad Bobur.*

Radif nazmda oddiygina takror emas. Bu musiqiylik va ohangdorlik xuddi kuy kabi kishiga oʻzgacha huzur bagʻishlaydi.

Radif sheʼriy asarda maʼnoni kuchaytirishga xizmat qiladi. Koʻpincha baytdagi fikrning asosiy yuki shu badiiy vosita zimmasiga tushadi. Boshqacha aytganda, shoir fikrda nima-ga koʻproq urgʻu bermoqchi boʻlsa, oʻsha soʻz yoki soʻzlarni radifga oladi. Koʻp gʻazallarda radif sheʼrning butun qurilmasini belgilovchi asosiy ustun oʻrnida keladi. Bunday gʻazallarda hamma gap shu radifga bogʻlangan boʻladi. Mavzu ham, badiiy tasvir ham, demakki, gʻoya ham shu radif atrofida aylanadi. Mabodo, bunday gʻazaldan radif chiqarib tashlansa, u oʻzining

butun g‘oyaviy-badiiy qimmatini yo‘qotadi. Chunki bunday g‘azalda shoir butun yukni shu radif ustiga ortgan bo‘ladi. Shuning uchun muayyan shoirning radif qo‘llashdagi o‘ziga xosligini aniqlash, pirovardida, uning uslubini belgilashning mezonlaridan biri hisoblanadi.

Janr hajman kichraya borgan sayin, buning aksi o‘laroq, radif zimmasiga yuklatiladigan badiiy vazifa shunchalik orta bo‘radi. Masnaviydan boshqa she‘riy turlar, masalan, g‘azal, qit‘a, murabba‘, muxammas, musaddasda bir band doirasida ahamiyati jihatidan bir-biridan farq qiluvchi ikki xil – ichki va asosiy radif ishlatilishi mumkin.

Aytaylik, Bobur g‘azalining:

Hamdard yore *qonikim*, bir g‘amgusore *qonikim*,
Abri bahore *qonikim*, Bobur kibi yig‘lay *bila*, –

baytidagi «*qonikim*» yoki Navoiy muxammasining:

Ul parikim, telbalarga ishqidin monand *edim*,
Zulfi zanjirida Majnundek asiri band *edim*,
Javriga qone‘ bo‘lub, vasliga hojatmand *edim*,
Shavqidin dam urmayin bedodiga xursand *edim*,
Vahki, bo‘ldum hajridin rasvoyi davron *oqibat*, –

bandidagi «*edim*» so‘zlari – ichki radif, keltirilgan misollardagi «*bila*» hamda «*oqibat*» so‘zlari esa – asosiy radif.

She‘rlar radif qo‘llash mahorati, jumladan, asarda ularning miqdoriga ko‘ra ham bir-biridan farqlanadi. Masalan, Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni – jami 5 ming 782 qo‘shmisradan iborat. Shundan 965 tasi (17 foizi)ni muraddaf (radifli) baytlar tashkil qiladi. Bu radifning dostonidagi eng asosiy badiiy san‘atlardan biri ekanini ko‘rsatadi. Radiflarning ishlatilishi jihatidan shoirning boshqa biror dostoni uning «Farhod va Shirin» ichalik rang-baranglikka ega emas.

1. Radif haqida ma'lumot bering.
2. Bu istilohning atalishi bilan she'rdagi o'rni va vazifasi o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
3. Radifning qofiyaga bog'liq jihatlarini tushuntirib bering.
4. Radifning turlarini sanang.
5. Radifning she'riy janrlar bilan aloqadorligi aynan nimalarda ko'rinadi?

TUYUQ VA TAJNIS

Tuyuq – lirik janr. U arabiy va forsiy adabiyotda yo'q. Bu janr namunalarini faqat turkiy she'riyatdagina uchratamiz.

Tuyuqlar aslan turkiy xalqlar og'zaki adabiyoti ta'sirida shakllangan, takomil topgan. Keyinchalik yozma adabiyotga o'tib, muayyan qoidalarga bo'ysungan, talablari qat'iylashgan.

Bir necha adabiy-badiiy talab tuyuq janrining asosiy qoidasiga aylangan:

Tuyuq, albatta, to'rt misradan iborat bo'lishi kerak.

Tuyuq misralari, xuddi ruboiydagi kabi, *a-a-a-a* yoki *a-a-b-a* tarzida qofiyalanishi zarur.

Tuyuq, albatta, ramali musaddasi mahzuf (yoki maqsur) vaznida, ya'ni «*foilotun-foilotun-foilon* (yoki *foilon*)» tarzida bo'lishi shart. Taqte'si: – V – – / – V – – / – V – (yoki V – ~).

Tuyuqda qofiyaga olingan so'zlar, albatta, tajnisli bo'lishi, ya'ni omonim so'zlardan yoki shakldosh so'zlar turkumidan tashkil topishi darkor.

Ilgari tuyuqlar janrning ana shu talablaridan dastlabki uchta-siga javob bergan, xolos. Lekin keyinchalik janrning to'rtinchi sharti yuzaga kelgan. Shu tariqa tuyuqlarni tajnissiz tasavvur qilib bo'lmay qolgan.

Tajnis – badiiy san'atlardan biri. Lug'aviy jihatdan *jinsdosh*, ya'ni *shakldosh* degan ma'noni anglatadi. Bu *nutqda shakli bir xil, ammo ma'nosi har xil so'zlar yoki so'zlar turkumini qo'llash*, degani.

Ammo bu san'atni oddiygina qilib, *omonimlar ishlatish ekan-da*, deb hisoblamaslik kerak. Chunki omonimlar – tilda

qat'iy lashgan shakldosh so'zlar. Tajnisni yuzaga keltirish uchun esa muallif bir necha so'zlar ishtirokida ohoriy (original, ya'ni birmartalik) shakldoshliklar yaratishi mumkin. Masalan, *ul Oy, u loy, uloy (ulay)* so'z birikmalari tilda o'zaro omonim emas. Shoir she'rda ularni shunday qo'llaydiki, natijada bir gal *ul Oy (u Oy)*, boshqa safar *u loy*, uchinchi ko'rinishda esa *uloy (ulay)* ma'nolarini anglatadi. Shundan ifoda go'zalligi kelib chiqadi. O'quvchi yo tinglovchi shuurida ajib bir badiiy zavq paydo bo'ladi.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili – tajnis yaratish uchun juda katta imkoniyatlarga ega. Hatto, tilimizdagi shu qulaylik adabiyotimizda tajnis ishlatish shart qilib qo'yilgan alohida, maxsus bir janrning paydo bo'lishiga olib kelgan.

Tuyug – shunday janr. Unda qofiyaga olingan so'z yoki so'zlar turkumi o'zaro shakldoshlik paydo qilishi shart.

Lutfiyning mana bu tuyug'i qofiyasida tajnis bo'lib kelgan so'zlarni ko'rib o'taylik:

Ko'ngluma har yonki boqsam, *dog'i bor*,
Har necha dardimni desam, *dog'i bor*.
Qilcha tanga bori ishqing yor edi,
Bir sori bo'ldi firoqing, *dog'i bor*.

Birinchi misradagi *dog'i bor* so'zlari ko'ngildagi *dog'ni* ko'zda tutadi. Ikkinchi misrada esa xuddi shu so'zlar *otashi bor* degan ma'noni anglatadi. To'rtinchi misrada bu so'zlar *yana (tag'in) bor* ma'nosida kelgan.

Tajnis qofiyaga olinganda shuning o'zi qofiya vazifasini o'taydi. Ya'ni ma'nosi har xil bo'lgani uchun bu yerda tajnisli so'zlarning takrorlanishi qofiya o'rnida qabul qilinadi.

Shoir tajnisda aynan *bor* so'zi mavjudligidan foydalanib uchinchi, ya'ni qofiyasiz misrada ham ataylab *bori* so'zini qo'llaydi. Zimdan bu kalima bilan qofiyadagi so'zlar o'rtasida ham boshqa bir tajnis yuzaga keladi.

Savol va topshiriqlar

1. Lirik janrlarning sof milliy turlari bo'ladimi?
2. Tuyuq janri shakllanishi, tadriji haqida nimalar bilasiz?
3. Tuyuq janrining asosiy adabiy-badiiy shartlari nimalardan iborat?
4. Tuyuqda ta'sirchanlikni oshiradigan, kishiga o'zgacha zavq bag'ishlaydigan asosiy badiiy vosita nima?
5. O'zingiz mustaqil o'qigan tuyuqlardagi tajnislar qo'llash mahoratini tahlil qiling.
6. Tajnis va omonimning bir-biriga aloqador va farqli jihatlari nimalardan iborat?
7. Tajnisning tuyuq janri uchun ahamiyatini tushuntiring.

ALISHER NAVOIY

(1441 – 1501)



Muhtaram o‘quvchi! Oldingi sinflarda siz buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri, o‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy tarjimai holi, u yozgan o‘lmas asarlar, ulardan ba’zilarining mazmun-mohiyati, badiiy jozibasi bilan atroflicha tanishgan edingiz.

Yaxshi bilasizki, Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda temuriylar hukmronligida bo‘lgan Xuroson davlatining poytaxti Hirot shahrida saroy amirlaridan bo‘lmish G‘iyosiddin Kichkina xonadonida tavallud topdi. Kichik yoshidan ta‘lim olib, maktabda o‘qib yurgan kezlari forsiy tildagi tasavvufiy adabiyotning asoschilaridan biri hisoblanmish Farididdin Attorning mashhur «Mantiq ut-tayr» («Qush nutqi») dostonini sevib, berilib o‘qidi. Ota-onasi mazkur asarga yoshlayin bu qadar mashg‘ul bo‘lib ketganidan qo‘rqib, kitobni undan olib, yashirishdi. «*Biroq*, – deydi oltmish yoshlarida shu dostonga javob tariqasida yozgan «Lison ut-tayr» («Qush tili») asarida shoir, – *men «Mantiq ut-tayr» matnini to‘liq yodlab olgan edim...*»

Siyosiy vaziyatlar taqozosi bilan Navoiylar oilasi Mashhad shahriga ko‘chib, bir necha yil o‘sha yerda yashaganidan ham xabardorsiz.

1466–1469-yillari yosh shoir Samarqand shahridagi madrasalarda ta‘lim oldi. Davlat ishlarida xizmatda ham bo‘ldi, faol ijod ham qildi. 1469-yilning bahorida do‘sti temuriyzoda Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallaganidan so‘ng shoirni yoniga chaqirdi.

Ulug‘ qalam sohibi bir necha yil Husayn Boyqaro saroyida oliy martabali lavozimlarda xizmatda bo‘ldi. U buyuk amallardan iste‘foga chiqib, erkin ijodiy ishlar bilan mashg‘ul bo‘lgan kezlari ham ijtimoiy-siyosiy faoliyatdan chetlashgan emas. Unga Husayn Boyqaro «Muqarrabi shohiy», ya’ni shohning eng yaqin

kishisi martabasini bergan edi. Bu sharaffi martabaning hukmdor oldidagi imtiyozi shu ediki, u podshohga bir masala yuzasidan ketma-ket yetti martagacha murojaat qilish huquqiga ega edi.

1483–1485-yillari shoirning eng buyuk asari – besh doston-dan iborat «Xamsa» yaratildi.

Umrining soʻnggi oʻn yili mobaynida ham Navoiy juda koʻp badiiy, ilmiy, tarixiy asarlar bunyod etdi.

Bu ulugʻ zot 1501-yilning 3-yanvari kuni Hirotda vafot etdi. Oʻsha kuni butun mamlakat motam tutdi. Qabri – Hirotda. Oʻzbekiston hukumati bobokalon shoirimiz qabrini obod qilish rejasini tuzyapti. 1991-yilning 26-sentabr kuni mamlakatimiz poytaxtidagi Oʻzbekiston milliy bogʻida Alisher Navoiyning ulugʻvor haykali qad rosladi. Xalqimiz vakillari, dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan mehmonlar shoir haykali poyiga guldasta-yu gulchambarlar qoʻyadi. Haykal ustida bino qilingan baland toq girdiga uning bir gʻazalidan olingan:

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanligʻ,
Yor oʻlung bir-biringizgaki, erur yorligʻ ish, –

degan misralari yozib qoʻyilgan. U butun bashariyatga qarata aytilgan shior yangligʻ jaranglaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur toʻgʻri taʼkidlaganidek, tarixda hech kim turkiy tilda Navoiychalik «*koʻp va xoʻb (yaxshi)*» asarlar yozgan emas.

Shoir butun turkiy adabiyotda eng katta lirik merosga ega qalamkash hisoblanadi.

Keyingi yillarda Tokio, Moskva va Boku shaharlarida ulugʻ oʻzbek shoiri haykali qad rosladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch» asarida Alisher Navoiy haqida shunday deyilgan: «*Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.*»

GʻAZALLAR

Alisher Navoiy – gʻazal mulkingning sultoni. Faqat oʻzbek sheʻriyatidagina emas, butun turkiy adabiyotda hech kim un-gacha ham, undan keyin ham u yaratganchalik koʻp va xoʻp gʻazal yozmagan.

Navoiy – avvalo, lirik shoir. U bolalik chogʻlaridan umri-ning oxirigacha sheʻrlar ijod qildi. Shoir eski oʻzbek va fors-tojik tillarida oʻzidan boy lirik meros qoldirdi. Xususan, oʻzbek lirikasini tamoman yangi bir pogʻonaga olib chiqdi. Shoir lirikasining asosiy janri esa gʻazal edi.

Uning lirik sheʻrlari jami sakkiz devonga jamlangan. Shundan yettitasi turkiy, bittasi forsiy lirikadan tashkil topgan.

1465–66-yili shoirning muxlislari tomonidan uning ixtiyori-siz tuzilgan devon navoiyshunoslikda «Ilk devon» nomi bilan yuritiladi. Taxminan 1472–1476-yillar orasida esa bevosita zamona shohi Husayn Boyqaroning iltimosi bilan Navoiy oʻzining birinchi devoni – «Badoyiʻ ul-bidoya»ni tuzdi. Bu devonga maxsus «Debocha» yozib, oʻzining sheʻriyatga, xususan, gʻazalga nisbatan qarashlarini, ijodiy qatʻiyatlarini bayon etdi. «Debocha» Navoiyning turkiy sheʻriyatga oʻta yuksak mezonlar bilan yon-dashadigan sohibi qalam sifatida boʻy koʻrsata boshlaganidan dalolat beradi.

1486-yili shoir oʻzining ikkinchi devoni – «Navodir un-ni-hoya» («Behad nodirliklar»)ni tuzdi.

Navoiy 1493-yili forsiyda bitilgan barcha lirik sheʻrlarini yigʻib, «Devoni Foniyy» («Foniyy devoni»)ni tartib berdi. Chunki shoir fors-tojik tilidagi lirik sheʻrlarida «Foniyy» taxallusini qoʻllagan. Bu devonda jami 554 gʻazal mavjud.

1491–92-yildan eʼtiboran shoir barcha turkiy sheʻrlarini yigʻib, toʻrt devondan iborat «Xazoyin ul-maoniyy» («Maʼnolar xazinasini», u «Chor devon» nomi bilan ham mashhur) maj-muasini tuzishga kirishdi. Bu keng koʻlamli va jiddiy ish 1498–1499-yillargacha davom ettirildi.

«Xazoyin-ul-maoniyy»dagi har bir devonga alohida-alohida nom qoʻyilgan:

1.«Gʻaroyib us-sigʻar» («Bolalik gʻaroyibliklari»).

2.«Navodir ush-shabob» («Yigitlik nodirliklari»).

3.«Badoye' ul-vasat» («O'rta yosh yangiliklari»).

4.«Favoyid ul-kibar» («Qarilik foydalari» yoki «Qarilik xulosalari»).

Shu to'plamga yozilgan «Debocha»da kichik asarlarini nega aynan to'rt kitob qilganini aytib, uni yilning fasllariga qiyosan amalga oshirganini yozadi: «...Avvalg'i devonnikim, tufuliyat (bolalik) bahori g'unchasining ajib gullari va sig'ar (o'smirlik) gulzorining bog'chasining g'arib chechaklari bila orosta bo'lub erdi, «G'aroyib us-sig'ar» deyildi. Va ikkinchi devonnikim, yigitlig-u oshuftalig' va shabob-u oliftalig' yozi-yu dashtida yuzlangan nodir vaqoye' bila piyrosta bo'lub erdi, «Navodir ush-shabob» ataldi. Va uchunchi devonnikim, vasat ul-hayot (umrning o'rtasi) mayxonasida ishq bila shavq paymonasidin yuzlangan badi' nishotlar kayfiyatini yozilib erdi, «Badoye' ul-vasat» ot qo'yuldi. Va to'rtunchi devonnikim, umrning oxirlarida yuzlangan ishq dard-u ranji foydalarikim, jonso'z oh urmoq-u jon topshurmoq-durkim, anda sabt bo'lubtur, «Favoyid ul-kibar» laqab berildi».

Keyin shoir umrning bu to'rt davrini yoshga mos tarzda taqsimlab chiqadi:

– bolalik davri (*tufuliyat avoni*) – 7–8 yoshdan 20 yoshgacha;

– yigitlik davri (*shabob zamoni*) – 20 yoshdan 35 yoshgacha;

– o'rta yasharlik davri (*kuhulat ayyomi*) – 35 yoshdan 45 yoshgacha;

– qarilik davri (*fusulning qishi*) – 45 yoshdan 60 yoshgacha.

Ammo bu tartibga qarab, *shu to'rt devonga shoirning aynan shu yoshlarida bitgan asarlari kiritilgan*, deb tushunmaslik kerak. Bu yerda ramziylik ham bor.

«Xazoyin ul-maoniy» Navoiy umum merosining salmoqli qismini tashkil etadi. Undan jami 16 lirik janrga oid asarlar o'rin olgan. Majmuada g'azal eng asosiy janr hisoblanadi. Har bir devonga bir xil miqdorda, ya'ni aynan 650 tadan, jami 2 ming 600 ta g'azal kiritilgan.

«Chor devon» butun Sharq so'z san'atining ulkan yodgorligi hisoblanadi. Jahon adabiyoti xazinasida ham bu qadar yirik lirik meros yaratgan shoirlar u qadar ko'p emas.

«Xazoyin ul-maoniy»ga kirmay qolgan, ya'ni muallif umrining so'nggi yilida yaratilgan g'azallarini hisobga olmagan taqdirda ham, shoir ikki tilda yaratgan va devonlariga kiritgan g'azallarining umumiy soni 3 ming 154 tani tashkil etadi.

«QILG'IL» RADIFI G'AZAL

Qaro ko'zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg'il,
Ko'zum qarosida mardum kebi vatan qilg'il.

Yuzung guliga ko'ngul ravzasin yasa gulshan,
Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il.

Takovaringg'a bag'ir qonidin hino bog'la,
Itingg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.

Firoq tog'ida topilsa, tufroqim, ey charx,
Xamir etib yana ul tog'da ko'hkan qilg'il.

Yuzung visolig'a yetsun desang ko'ngullarni,
Sochingni boshtin-ayoq chin ila shikan qilg'il.

Xazon sipohig'a, ey bog'bon, emas mone',
Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.

Yuzida temi ko'rub, o'lsam, ey rafiq, meni
Gulob ila yuv-u, gul bargidin kafan qilg'il.

Navoiy, anjumane shavqi jon aro tuzsang,
Aning boshhoqliq o'qin sham'i anjuman qilg'il.

«G'aroyib us-sig'ar»ning 371-g'azali.

Sakkiz baytli bu g'azal asrlar osha el orasida mashhur bo'lib kelyapti. Radifi – sof turkiy (o'zbekcha) so'z. Qofiyasiga shoir arabiy («fan», «vatan», «rasan», «kafan»), forsiy («ko'hkan», «shikan», «anjuman») kalimalarga ohangdosh o'zbekcha so'z («tikan») ham topadi.

Ushbu gʻazal sakkiz baytdan iborat. U mujtassi musammani maxbun va maxbuni maqtuʻ, yaʼni *mafoilun-failotun-mafoilun-faʼlun* vaznida bitilgan. Taqteʼsi quyidagicha boʻladi: V – V– / V V – – / V – V – / – –.

Gʻazal oshiq qalbning yetuklik va kamolot timsoli boʻlmish komil insonga joʻshqin muhabbati ifodalangan mashhur sheʼrlardan biri hisoblanadi¹. XX asr boshlarida uni mashhur xonanda Toʻychi hofiz Toshmuhammedov «Shashmaqom» tarkibiga kiradigan «Ushshoq» («Oshiqlar») kuyi asosida qoʻshiq qilib aytadi. «Shashmaqom» tarkibidagi bu kuyning aynan shunday nomlanishi ham bejiz emas. Olimlar, *bu kuyda oshiq qalbning yor vasliga yetish yoʻlidagi iztirob-u nola-yu figʻonlari aks etgan*, deb hisoblashadi. Bir asr mobaynida bu gʻazalni koʻpdan-koʻp xonandalarimiz ijro etdi.

Matlaʼni sharhlashning oʻzidayoq bu gʻazalda qanchalar maʼno-mazmun yashirin ekani ayonlashadi. Lirik qahramon oshiq tarzida soʻz boshlab, yoriga toʻgʻridan-toʻgʻri «*qaro koʻzum*» deb murojaat qiladi, undan kelib odamgarchilik («*mardumligʻ*») qilishni, yana ham aniqrogʻi, oshiq koʻzi qorasida gavhar («*mardum kebi*») vatan tutishni soʻraydi. «*Mardum kebi*» ifodasida zimdan «*odamdek*» degan maʼno ham yashirin. Bilamizki, koʻz qorachigʻi ichida yana qop-qora gavhar («*gavharak*» ham deyishadi) bor. U eski tilimizda «*mardumak*» deb ham ishlatilgan. Hozir ham bu shakl ayrim shevalarimizda saqlanib qolgan. Demak, shoir birinchi va ikkinchi misralarda shakldosh (omonim) soʻzlar ishlatib, tajnisga erishgan.

Tasavvufiy adabiyotda uchraydigan timsol-istilohlar lugʻatlarida koʻz komil inson timsoli sifatida tushuntiriladi. Xuddi komillikka erishgan inson oʻzidan kechib, boshqacha aytganda, oʻzidagi barcha illatlarni bartaraf etib, faqat Yaratganni koʻrgani, uni

¹ Bu gʻazal koʻplab navoiyshunoslar tarafidan atroflicha sharhlangan. Ular orasida atoqli sharqshunos, filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilov yozgan sharh ilmiyligi, asarning dunyoviy va tasavvufiy maʼno-mazmuni keng talqin etilgani va teran xulosalarga boyligi bilan ajralib turadi. Tahlilda biz ana shu sharhdan ijodiy foydalandik. *Qarang*: K o m i l o v N. Maʼnolar olamiga safar (Alisher Navoiy gʻazallariga sharhlar). T.: «Tamaddun» nashriyoti. 2012. 174–188-betlar.

o'ylagani kabi, ko'z ham o'zini ko'rmaydi, o'zgalarni ko'radi. O'zi, umuman, yuzga ilohiy go'zallik (zuhurot) ramzi deb qaraladi. Ko'z esa – ana shu go'zallik jamlangan asosiy manba. Chunki yuzning bor jozibasi – ko'zda mujassam. Ko'zni sevish orqali ilohiy jamolni yaxshi ko'rish ifodalanadi.

G'azaldagi lirik qahramon ana shu ko'zda nazarda tutilgan komil insonni o'z ko'zining gavhariga aylantirmoqchi. Shu tariqa matla'dan quyidagicha ma'no-mazmun anglashiladi: «*Qora ko'zligim (go'zal yorim), kel endi, odamiylik muruvvatini ko'rsatishni o'rgan (odat qilgin), ko'zimning qorachig'iga (gavhariga) gavhar (qorachiq) kabi o'rnashgin (maskan tut)*». Baytni mana bunday talqin etsa ham bo'ladi: «*Qora ko'zligim, kelgin-da, mehr-muruvvat, vafo rasmini tuz (vafo qil), men uchun sen ko'zimning qorachig'iday azizsan, joying – ko'zim ichida*».

O'zbek tilida «ko'z» kalimasining o'z va ko'chma ma'nosidan foydalanib ishlatiladigan ko'plab so'z-u iboralar mavjud. Ular orasida, ayniqsa, «*ko'zlamoq*», «*ko'z tutmoq*» va «*ko'z tikmoq*» kabi ifodalarning ma'nosi bilan matla'da bayon etilgan mazmun o'rtasida muayyan o'xshashlik bor. Chunki lirik qahramon yorning (bu yerda ham komil insonning, ham Allohning) vasliga ko'z tikyapti.

Matla' – nihoyat darajada puxta-pishiq, ohoriy va ta'sirchan. Mumtoz adabiyotshunosligimizda bunday boshlanmalar «*husni matla'*» yoki «*shohbayt*» deyilgan.

Oshiq – yori uchun tamoman sadqa bo'lishga tayyor. G'azal baytlarida u buni bosqichma-bosqich isbotlab boradi.

Lirik qahramon matla'da yorning ko'zi o'z qorachig'idan o'rin olishini istagan bo'lsa, ikkinchi baytda uning yuzi ko'ngli jannatida, qaddi-qomati esa joni gulshanida joy tutishini orzulaydi.

Bu baytda birato'la to'rtta («*yuzung guli*», «*ko'ngul ravzasi*», «*qading niholi*», «*jon gulshani*») istiora qo'llangan. Lirik qahramon yori yuzining guliga ko'ngil jannatini gulshan, uning qaddu qomati niholiga esa jon gulshanini chaman qilishni istaydi. Shu tariqa oshiqning iltijosi yana-da kuchaytirilgan. Bu yerda zimdan «*jon*» so'zining arab alifbosida yoziladigan ko'rinishi ham nazarda tutilgan. Chunki bu so'z o'rtasida keladigan «*alif*» harfi

tik tayoqcha tarzidagi shaklga ega. Bu esa adabiyotda yorning tik qomatiga o'xshatilgan. Bu o'quvchi ko'z o'ngida gulzor oralab tik qomat yor yurgandagidek tasavvur uyg'otadi. Xuddi «jon» so'zini yozuvda ifodalaganda «alif» («o») harfi «jim» («j») va «nun» («n») harflari o'rtasidan o'rin olgani kabi, yorning qaddi ham – jon gulshani ichida.

Yuz timsoli tasavvufda ilohiy go'zallik ko'rinadigan makon (mazhar) tarzida talqin etiladi. Ko'ngil ravzasi bu yerda oshiqning intizor qalbini bildiradi. Baytda komil inson (pir) diydoridan bahramand bo'lgan oshiq dilining yayrab ketishi aks ettirilgan.

Uchinchi baytda lirik qahramonning tasavvurot olami kengayib, o'quvchi diqqat-e'tiborini kutilmagan tasvir sari yetaklaydi: «*Ey yor, yo'rg'a oting oyoqlariga bag'rim qonidan hino bog'lab, g'amingda qiynalib, azob-uqubat chekayotgan jon ipini itingning bo'yniga arqon qilib bog'la*».

Hino qo'yish – Sharq xalqlari, jumladan, o'zbeklarga ham xos qadimiy an'anaviy odatlardan biri. Bu xursandchilik kunlari qo'yilgan. Hining rangi qon rangiga o'xshaydi. Shundan foydalanib, lirik qahramon yorining o'z oti oyog'iga uning bag'ir qonidan hino bog'lashini istaydi. Bu bilan ishq yo'lida uning har qanday qiynashlari, hatto, xo'rlashlariga tayyor ekani bildiradi. Boringki (baytning ikkinchi misrasida), u yorining g'am chekayotgan joni ipidan o'z itiga arqon qilib olishiga ham rozi.

Lirik qahramonning hissiy-xayoliy tasavvuroti kengaygandan-kengayib boraveradi. Agar, deydi u to'rtinchi baytda, *ajralish* («firoq») *tog'ida tuprog'im topilsa, uni loy* («xamir») *etib, yana qaytadan tog'da tosh yo'nuvchi* («ko'hkan») *qilib yasa*.

Bu yerda Odam Atoning loydan yaratilganiga ishora mavjud. Shu tariqa shoir Haqqa bo'lgan ishq azaliy va abadiyligi, u Odam Atodan meros bo'lib qolganini bildirib o'tmoqchi. Shuningdek, baytda an'anaviy Farhod timsoliga ishora ham borligi ayon bo'lib turibdi.

Farhod ham «*ko'hkan*», ya'ni tosh yo'nuvchi edi. Shu mavzudagi dostonlarda u Shirin dardida tog'da halok bo'ladi. Farhod – adabiyotda ishqda sadoqat ko'rsatish, maqsadi yo'lida

oʻrtanish, gʻam-anduh chekish, hijron dardlarini haddi aʻlosida boshdan oʻtkazish timsoli sifatida mashhur. Bejiz emaski, Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida, *uning ismi «firoq», «ranj», «hajr», «oh» va «dard» soʻzlaridan* (arab alifbosi asosidagi imlododa bu soʻzdagi «a» tovushi yozuvda aks etmaydi) *tashkil topgan*, deb bitadi.

Bu bilan lirik qahramon: *«Mening ishqdagi dardim Farhod dardidan kam emas, hatto, ortiq ham, shuning uchun agar men maʼshuq ishqiy yoʻlida jon bersam, tuprogʻimni boshqatdan qorib, qayta yaratsang, ey falak, yana oʻsha ishq togʻida togʻ yoʻmuvchi qilib yarat»,* – demoqchi.

Beshinchi baytga kelib lirik qahramon biroz «hovuridan tushganday» boʻladi, endi yana bevosita yorga murojaat yoʻliga oʻtadi. Bu yerda avvalgi baytlardagi yalinib-yolvorish ohangi yoʻq. Lirik qahramon: *«Bordi-yu, koʻngullar yuzingning visoliga yetsin, desang, unda sochingni boshdan-oyoq oʻrabchirmab tashla»,* – deydi.

«Yuz» timsoli ilohiy goʻzallik manbasi ramzi ekanini bilib oldik. Baytning tub mohiyatiga tushunib yetish uchun endi «soch», «chin» va «shikan» timsollarining ham dunyoviy, ham tasavvufiy maʼnolaridan yaxshi xabardor boʻlish kerak.

«Soch» tasavvufiy timsol-atama sifatida sheʼriyatda mavjud dunyo ramzi hisoblanadi. Albatta, mavjud dunyoni ham Alloh yaratib, uni harakatga keltirgan, unga oʻz ilohiy nurini sochgan (tajalli etgan). Biroq dunyo kasrat, yaʼni koʻplikni anglatadi. Soch – yuzga nisbatan qora. Shunga koʻra, tasavvufiy talqinda u Iloh manbasiga nisbatan qorongʻi va bepoyon (chunki soch – uzun). Sochning chin-u shikanlari (jingala-yu halqalari) solik ruhi ovora va band boʻladigan dunyo tashvishlarini anglatadi. Inson ham – tajalliyot mahsuli, aniqrogʻi, uning oxiri. Shuning uchun u hayoti mobaynida ana oʻsha asl manbaga qaytishga intilaveradi. U ana shu chin-u shikanlarni (bu dunyo tashvishlarini) yengmasa, Mutlaq ruh, yaʼni Alloh jamolini (yuzini) koʻrish baxtiga musharraf boʻla olmaydi.

Oltinchi bayt – nihoyatda ohoriy: *kuz kelib, xazon sipohi yurish boshlasa, ey bogʻbon, bu bogʻ tomida ignadan*

tikan qilib qo'ysang ham, monelik qilolmaydi. Bu bilan zimdan umrning o'tkinchiligiga, ishq yo'lida oshiqning imkoniyatlari ozligiga, vaqt g'animatligiga ishora qilinyapti. Chunki dunyoga, mol-u mulkka qancha mehr qo'yma, baribir, u o'tkinchi, bebaqo va bevafo. Faqat Allohgina boqiy, abadiy, yolg'iz uning yodi bilangina yasha.

Baytdagi tasvirda shoir o'sha paytlardagi bog' va hovlilar devori ustini tikanakli butalar bilan o'rab chiqish odatidan badiiy vosita sifatida foydalangan.

Yettinchi baytga kelib shoir yana oldingi ishqiy tasvirga qaytadi. *Yorimning yuzida terni ko'rib, o'lsam*, deydi oshiq rafiqqa (do'stga, o'rtoqqa) murojaat qilib, *gulob bilan yuvib, gulning bargidan kafan qilgin!* Gulob – jaydari oq atirguldand (uni Toshkentda «qirqog'ayni», Buxoroda esa «gulbutta» deyishadi) tayyorlangan sharbat. Baytda «gul» timsoli zimdan oldingi qo'shmisradagi «xazon»ga qarama-qarshi qo'yilgan. «Ter» timsoli zamirida ham teran ramziy ma'nolar yashirin. Shoir nazdida u pokizalik, fayz, tarovat, yor jamolining porlashi, vafo alomati hisoblanadi va unda piri komil qalbining musaffoligi nazarda tutiladi. Gulob bilan gulga o'rash orqali esa oshiqning Alloh vasliga musharraf bo'lish bilan abadiy hayotga erishish istagi ilgari surilgan.

Maqta'da lirik qahramon, Navoiyga murojaat qila turib, *agar jon aro shavq anjumanini tuzsang, uning boshoqlik o'qini shu anjumanning shami qilgin*, deydi.

«Anjumani shavq» – zavqli-shavqli majlis-ma'rakani anglatadi. Bu oshiq qalbida yor vasliga musharraf bo'lish ishtiyoqining haddi a'losiga yetganini bildiradi. Zimdan u ichki qo'zg'alish yuzaga kelgani, ya'ni ruhiy hayajon kuchayganidan dalolat beradi. «Boshoqli o'q» – aslida, o'tkir uchli kamon o'qi. Ammo baytda u yorning kiprigini anglatib kelgan. U ham, xuddi boshoqli o'q kabi, to'ppa-to'g'ri yurakka borib qadaladi.

G'azalning ikkinchi baytida «jon» so'zi o'rtasida keladigan «alif» harfi bilan yorning tik qomati qiyoslanganini ko'rib o'tgan edik. Maqta'da yana «jon» so'zi ishlatilgan. Bu yerda endi shoir «boshoqlik o'q», ya'ni kiprikning anjumanda jon aro sham (u ham «boshoqlik o'q»qa, ham «alif» harfiga o'xshaydi)

bo'lishi tasviri orqali ikkinchi bor ana shunday o'xshashlikka asoslanadi.

E'tibor bergan bo'lsangiz, matla' ko'z atrofidagi tasavvurlar bilan boshlangan edi. Maqta'da ham undan uzoqlashilmadi – kiprik haqida so'z bordi. Bu mutanosiblik g'azalda *tanosib* san'atini yuzaga keltirgan.

Maqta'dagi xulosa boshqa baytlardagi mantiqqa asoslandi: *modomiki, yor diydori orzusi yuragingni band etib, tobora zo'raysa, shu ishq dardida to'lib-toshsang, uning kiprigini shu orzung avjga chiqqan anjumanning chirog'iga aylantir, ko'nglingni uning muhabbati shami bilan yorit, ana shunda ma'shuq dardiga giriftor diling doim yoniq, mash'alador bo'ladi.*

G'azalning boshidan oxirigacha har baytda kutilmagan timsol, ifoda va tasvir ishlatiladi. Baytdan baytga o'tgani sari lirik qahramonning oshiqlik o'ti balandlab borganini ko'ramiz. Oxirgi ikki baytda oshiq yor ishqida jondan kechishga tayyor turganini ham bildiradi. Bu ham ishqning kamolga yetganini ifodalashning bir yo'li edi.

Savol va topshiriqlar

1. G'azal hajmi va mavzusi haqida ma'lumot bering.
2. Asar qofiyasi va radifini tahlil qiling. Radif va qofiyada ishlatilgan so'zlar aslan qaysi tildan olingan?
3. Matla'dagi «*mardumliq*» va «*mardum*» so'zlari o'rtasidagi bog'liqlik va farq nimadan iborat?
4. Oshiqning yorga sadoqati baytlarda qanday badiiy vositalar orqali ko'rsatiladi?
5. G'azal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
6. «*Soch*» timsoli g'azalda qanday ramziy ma'noni ifodalab kelgan?
7. Oxirgi ikki baytda qaysi ma'noda lirik qahramon jon va o'lim tushunchalarini tilga oladi?
8. Matla' bilan maqta' o'rtasida qanday mantiqiy bog'lanish mavjud?
9. G'azalni yodlang.

«DEYIN» RADIFLI G‘AZAL

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin,
Ko‘ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?!

Ko‘zi qahrinmu deyin, kirpiki zahrinmu deyin,
Bu kudurat ora ruxsori safosinmu deyin?!

Ishq dardinmu deyin, hajri nabardinmu deyin,
Bu qatiq dardlar aro vasli davosinmu deyin?!

Zulfi dominmu deyin, la‘li kalominmu deyin,
Birining qaydi, yana birining adosinmu deyin?!

Turfa xolinmu deyin, qaddi niholinmu deyin,
Movi(y) ko‘nglak uza gul rangi qabosinmu deyin?!

Charx ranjinmu deyin, dahri shikanjinmu deyin,
Jonima har birining javr-u jafosinmu deyin?!

Ey Navoiy, dema qosh-u ko‘zining vasfini, et,
Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin?!

«Navodir ush-shabob»ning 483-g‘azali.

Bu shoiming mashhur g‘azallaridan biri. Qo‘shiq qilib kuylana-di ham. Chunki ohangdorligi – juda kuchli. Matla‘da (*«yosinmu – qarosinmu – balosinmu»*), shuningdek, maqta‘dan boshqa barcha baytlarning birinchi misralarida ichki qofiya (*«qahrinmu – zahrinmu»*, *«dardinmu – nabardinmu»*, *«dominmu – kalominmu»*, *«xolinmu – niholinmu»*, *«ranjinmu – shikanjinmu»*)ga ham qat‘iy amal qilingan.

7 baytli bu g‘azalda *«deyin»* so‘zi faqat radifdagina takrorlanib kelmaydi. Bu so‘z radifda 8 bor qo‘llanishidan tashqari, yana 12 (jami 20) bor takroriy tarzda qo‘llanadi. Radd ul-matla‘ (matla‘ni takrorlash) san‘ati asosida birinchi misra g‘azalning so‘nggi satri sifatida yana bir karra qaytariladi. Bu takrorlar ham g‘azal ohangi-yu jarangini, ham fikr ta‘kidini, ham oshiq his-hayajoni ifodasini kuchaytirgan.

Gʻazaldagi ohangdorlik faqat qofiya va radif orqaligina taʼminlanmagan. Baytlarning birinchi misralarida ham ichki ohangdorlik («yosinmu – qarosinmu», «qahrinmu – zahrinmu...» va hokazo) mavjud.

Gʻazalda boshdan-oxir qiyos usulidan foydalaniladi. Har bir qiyoslashda ikkitadan tushuncha ishtirok etadi. Birinchi baytda yorning «qoshi yosi» (yoyday egik qoshi) bilan «koʻzi qarosi» (koʻzining qoraligi), ikkinchi baytda uning «koʻzi qahri» bilan «kirpiki zahri», uchinchi baytda «ishqi dardi» bilan «hajri nabardi» (hajrining jangi), toʻrtinchi baytda «zulfi domi» (sochining domi) bilan «laʼli kalomi» (laʼdek qizil labining soʻzi), beshinchi baytda «turfa xoli» (har xil xoli) bilan «qaddi niholi» (yosh niholdek tik qomati), oltinchi baytda «charx ranji» (taqdir yetkazgan azob) bilan «dahri shikanji» (dunyo yetkazgan qiyinchilik), yettinchi baytda yana «qosh» bilan «koʻz» oʻzaro yonma-yon tilga olinadi.

Ammo bular baytlarning birinchi misralarida kelgan qiyoslar.

Qiyos baytlarning ikkinchi misralarida ham oʻziga xos tarzda davom etadi. Birinchi baytda «dard» bilan «balo», ikkinchi baytda «kudurat» (xafagarchilik) bilan yorning «ruxsori safosi» (toza yuzi), uchinchi baytda «qatiq dardlar» bilan yorning «vasli davosi», toʻrtinchi baytda biri («zulfi domi»)ning «qaydi» bilan yana biri («laʼli kalomi»)ning «adosi», beshinchi baytda «moviy koʻnglak» bilan «gul rangi qabo» (gulrang toʻn), oltinchi baytda «javr» bilan «jaf», yettinchi baytda yana yorning «qoshi yosi» bilan «koʻzi qarosi» oʻzaro baqamti qoʻllanadi.

Bir qarashda, gʻazal boshqa ishqiyy mavzudagi lirik sheʼrlardan keskin farq qilmagandek, oshiq maʼshuqaning, odatdagidek, chiroyni turli uzvlari, yaʼni qoshi, koʻzi, sochi, yuzi, labidan chiqqan soʻzlar va kiyimi, yaʼni moviy koʻylagi, gulrang toʻni taʼrifi orqali tasvirlab, ishqiyy iztiroblarini bayon etayotgandek tuyuladi. Biroq, aslida, buyuk shoir qalamining qudrati bilan ana shu soʻz va qiyoslar zamirida ajib bir badiiy goʻzallik yashiringan. Bu oʻquvchida ayricha zavq-shavq uygʻotadi.

1. Gʻazal hajmi va mavzusi haqida maʼlumot bering.
2. Muhabbat darajasini bildirish uchun nega shoir aynan yor goʻzalligi belgilarini taʼriflashni bosh masala qilib qoʻygan?
3. Asar vazni, qofiyasi va radifini tahlil qilib bering.
4. Gʻazal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
5. Gʻazalda soʻroqlarning ahamiyati, badiiylig darajasini koʻtarishdagi hissasini tushuntirib bering.
6. Maqtaʼdan tashqari baytlardagi birinchi misralarda mavjud ichki ohangdoshlikni misollar asosida tushuntiring.
7. Gʻazaldagi qiyoslarning badiiy vazifasini tushuntiring.
8. Gʻazalni yodlang.

«KELMADI» RADIFLI GʻAZAL

«Kecha kelgumdur», – debon ul sarvi gulroʻ kelmadi,
Koʻzlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqdim-u, chektim yoʻlida intizor,
Keldi jon ogʻzingʻa-vu, ul shoʻxi badxoʻ kelmadi.

Orazidek oydin erkanda gar etti ehtiyot,
Roʻzgorimdek ham oʻlgʻanda qorongʻu kelmadi.

Ul parivash hajridinkim, yigʻladim devonavor,
Kimsa bormukim, anga koʻrganda kulgu kelmadi.

«Koʻzlarimgdin necha su(v) kelgay?!» – deb oʻlturmang meni,
Kim bori qon erdi kelgan, bu kecha su(v) kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas, yoʻqsa kim qoʻydi qadam
Yoʻlgʻakim, avvalqadam maʼshuqe oʻtru kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla xurram et koʻnglung uyin,
Ne uchunkim, boda kelgan uyga qaygʻu kelmadi.

«Badoyeʼ ul-vasat»ning 608-gʻazali.

Gʻazal ishqiy mavzuda, oʻzbek tilidagi sheʼriyatda eng koʻp ishlatilgan ramali musammani mahzuf (yoki maqsur), yaʼni

«foilotun – foilotun – foilotun – foilun (yoki foilon)» vaznida yozilgan. Taqte’si: – V – – / – V – – / – V – – / – V – (yoki – V ~). G’azaldagi ko’pchilik misralar ramali musammani mahzuf, ya’ni «foilotun – foilotun – foilotun – foilun» vazniga tushsa-da, ikkinchi baytning «*intizor*» so’zi bilan tugagan hamda to’rtinchi baytning «*devonavor*» so’zi bilan tugagan birinchi misralari ramali musammani maqsur, ya’ni «foilotun – foilotun – foilotun – foilon» vaznida bitilgan.

G’azal – an’anaviy yetti baytdan iborat.

Radifida o’zbekcha so’z («*kelmadi*») ishlatilgan va qofiyasidagi sakkiz (*gulro’ – uyqu – badxo’ – qorong’u – kulgu – su(v) – o’tru – qayg’u*) so’zdan oltitasi – o’zbekcha, ikkitasi («*gulro’*» va «*badxo’*») – tojikcha.

G’azalda badiiy jihatdan shunday qat’iy bir qoidaga amal qilinganki, har bir baytda kamida bir tazod (zidlantirish, qarama-qarshi ma’nolardagi so’zlarni qo’llash) san’ati namunasiga duch kelamiz. Bu badiiy san’at g’azalda asosiy ifoda va tasvir vositasiga aylangan.

Matla’da lirik qahramon, *kecha* (buni «*kechasi*» deb ham, «*kecha*», ya’ni bir kun oldin deb ham tushunish mumkin) «*sarvi gulro’*» (gul yuzli sarv, ya’ni tik qomatli yor) *kelaman deb, kelmadi, shuning uchun tong otgunga qadar ko’zlarimga uyqu kelmadi*, deydi. Shuning o’zidayoq lirik qahramon holati, u chekayotgan iztirob ma’lum qilinadi.

Betoqat oshiq har zamon-har zamon chiqib, ma’shuq yo’liga intizor bo’ldi, hatto, jon uning og’ziga keldi-yu, u yomon fe’l-atvorga ega sho’x go’zal kelmadi (ikkinchi bayt). «*Ul sho’xi badxo’*» deganiga qarab: «*Yor yomon ekan, unda nega oshiq uni sevadi?*» – degan fikrga bormaslik kerak. Chunki shoirning bu ifodasida o’ziga xos erkalash ohangi ham bor. Yorning «*badxo’*»ligi va’da berib, va’dasida turmaganida, xolos.

Uchinchi baytda yorning orazi (yuzi) «*oydin*»(ya’ni oq) ligi bilan oshiq hayotining qorong’iligi bir-biriga zidlashtiriladi: «*Agar orazidek oydin bo’lganida ehtiyot qilib* (birov ko’rib qolmasin deb) *kelmagan bo’lsa, (kecha) hayotimdek qorong’u bo’lganda ham kelmadi-ku!*»

To'rtinchi bayt lirik qahramon holati yanada og'irlashganini ko'rsatadi: «*U paridek yor hajrida devonalardek yig'ladim, buni ko'rib, kulgisi kelmaydigan kimsa topilarmikan?*»

Beshinchi baytga kelib lirik qahramon bevosita ko'pchilikka (g'azalxonlarga) murojaat qiladi: «*Ko'zlaridan qancha suv kelar ekan deb, meni o'ldirmanglar, (chunki) bu kecha ko'zlarimdan faqat qon keldi, suv kelmadi*». Bu yerda qon bilan suv bir-biriga zidlantirilgan.

G'azalning oltinchi bayti alohida ajralib turadi. Unda lirik qahramon tolibi sodiq topilmasligidan shikoyat qilishga o'tadi. Baytning so'zlardan kelib chiqadigan ma'no-mazmuni quyidagicha: «*Sodiq tolib topilmaydi, shunday bo'lmasa edi, kimki yo'lga qadam qo'ysa, «avvalqadam», ya'ni undan oldin-roqda yuradigan bir ma'shuq ro'baro' kelmaydimi?!*»

Agar g'azalning dastlabki besh baytida boshdan-oxir va'da berib, so'zida turmagan yorni kuta-kuta chekkan azob-iztiroblari haqida gapirib kelingan bo'lsa, bu baytda birdan, kutilmagan-da lirik chekinish qilinadi. Lirik chekinish – keng tushuncha. G'azaldagi bunday lirik chekinish «*begona bayt*» deyiladi.

Bu yerda nozik falsafiy-tasavvufiy masala ko'tarilgan. «*Yo'l*» baytda tasavvufni, Alloh ishqini bildiradi. Bu yo'lda esa sadoqatli talabgor (oshiq) topilmayapti. Ayni gap bilan shoir pirga ishora qilgan. Chunki pir hamisha bu yo'lni murididan avvalroq bosib o'tgan, ya'ni u «*avvalqadam*» bo'ladi. Avvalqadam oshiq esa Alloh vasliga yetib, ma'shuqqa aylanadi. Murid ana shu shayxning etagidan tutib, unga ergashmoqchi. Chunki Allohni sevish uchun murid avval pirini sevishi kerak. Boshqacha aytganda, Allohga muhabbat yo'li bevosita pir qalbi orqali o'tadi. Chunki tasavvufda pirga komillik timsoli sifatida qaraladi.

Shuning uchun ushbu g'azalda majoziy tasvir orqali ilohiy ishq kuylangani, lirik qahramon begona baytda ishqda undan ko'ra «*avvalqadam*» bo'lgan «*tolibi sodiq*», ya'ni pir izlayotganiga hech qanday shubha bo'lmasligi kerak.

Navoiy g'azallarining yozilgan yillari ma'lum emas. Ammo uning «Xazoyin ul-maoniy»dagi uchinchi devon bo'lmish «Badoye' ul-vasat»dagi ushbu g'azali dastlab muxlislar tomonidan tartib berilgan «Ilk devon»ga ham, muallif o'zi tuzgan ikkinchi devon –

«Navodir un-nihoya»ga ham kiritilganidan ma'lum bo'ladiki, u shoirning yoshlik davri lirikasi mahsuli hisoblanadi.

Maqta' ham – juda tahlil talab. Chunki unda ikki karra «boda» so'zi tilga olinadi. Shaklan, ya'ni yuzaki qaraganda, o'quvchida mayparastlik targ'ib etilayotgandek tasavvur tug'ilishi ham mumkin. Holbuki, Navoiy buyuk islom shoiri edi. Islomda esa mast qiluvchi ichimliklar harom hisoblanib, man etilgan.

May, sharob, boda, chog'ir...

O'tmishda ajdodlarimiz iste'mol etgan kayf beruvchi ichimliklar shunday so'zlar bilan nomlangan. Albatta, bu to'rt ichimlik nimadan hozirlangani, tayyorlanish usuli, tarkibidagi spirt miqdori jihatidan o'zaro bir-biridan farq qilgan bo'lishi kerak. Biroq shoirlarimiz bu so'zlarni o'zaro ma'nodosh (sinonim) sifatida qo'llayvergan.

Nega?

Gap shundaki, adabiyot, xususan, she'riyatda bu so'zlar o'z ma'nosida emas, aksaran ko'chma ma'noda – badiiy timsol (obraz) sifatida ishlatilgan.

Xo'sh, badiiy timsol nima?

Timsol – asli, surat, rasm degani. Surat esa narsaning o'zi emas, u haqda ma'lumot beradi, tasavvur uyg'otadi, xolos. Uni ko'rib, o'sha narsaning o'zini xayolga keltirasiz. Badiiy timsol ham – shunga o'xshash. Shoir bir nimani ko'zda tutadi, o'sha narsani o'quvchi yaxshiroq, osonroq ko'z oldiga keltirsin uchun uning o'rniga biror timsol ishlatadi.

May, sharob, boda, chog'ir timsollarini ham mumtoz shoirlarimiz shu maqsadda qo'llagan.

Endi asosiy masalani o'rtaga tashlasak bo'ladi: bu timsollar nimani anglatadi? Boshqacha aytganda, mumtoz she'riyatimizda *may, sharob, boda, chog'ir* so'zlari uchrasa, o'quvchi may, sharob, boda, chog'irni emas, boshqa narsani ko'z oldiga keltirishi kerakmi?

Bu masalada shoshilmaslik zarur. Xususan, Alisher Navoiy ijodi ana shunday ehtiyotkorlikni taqozo etadi. Agar bu so'zlar shoirning she'riy ijodida uchrasa – ular badiiy timsol. Bordiyu, bu so'zlarni muallif ilmiy yoki, umuman, nasriy asarlarida

ishlatsa, vaziyat o'zgaradi: endi uni badiiy timsol deb emas, aynan o'sha spirtli ichimlikning o'zi deb hisoblashimiz – shart.

Bobokalonimiz ijodida unisi ham, bunisi ham uchraydi.

Avval o'sha o'z ma'nosida qo'llangan asarlariga to'xtab o'taylik.

«Holoti Sayyid Hasan Ardasher» asarida tasvirlanishi-cha, Sayyid Hasan Ardasher xos ma'naviy suhbatlar chog'ida bodaxo'rlik qilishni xush ko'rganlar. Lekin har gal ichkilikbozlikdan keyin Yaratganga iltijo qilib, mayxo'rlikdan tavba berishini so'rganlar... Bu yerda o'z ma'nosidagi mastlik ko'zda tutilgan.

Navoiy zamondoshlariga yo'llagan xatlarini yig'ib, «Munshaot» nomi bilan to'plam qilgan. Shu asardagi hukmdorlardan biriga jo'natilgan maktubda ikki narsa maslahat tariqasida qattiq shart qilib qo'yiladi: birinchisi – Haq taolo amriga to'la itoatda bo'lib, buyurgan ishlarini so'zsiz bajarish; ikkinchisi – Tangri man etgan ishlar(nahy)ni qilmaslik. Odamlar ustidan hukm yuritish baxtiga muayassar bo'lgan kishi uchun Alloh amriga itoat etishda adolatga teng keladigani yo'q. Man etilgan ishlardan tiyilishning hech biri esa «*chog'ir tarkicha bo'lmas*».

Navoiy bu gaplarning o'zi bilan ham cheklanib qolmaydi. Adolatning qadrini ham, may ichmaslikning foydasini ham Muhammad payg'ambar(s. a. v.)ning so'zlari bilan mustahkamlab tushuntiradi: «...*Hazrat risolat* (ya'ni Muhammad) *sallallohu alayhi vasallam buyurubturkim*, «*Adlun saatun xayrun min ibodat is-saqalayn*» («Bir soatlik adolat ikki dunyo – insonlar va jinlar dunyosi ibodatidan yaxshiroq») va *chog'irni* «*umm ul-xabois*» («yaramasliklar onasi») *debdurlar*, *'jam'i yomonlig' andin mutavallid bo'lurkim* (ya'ni tug'iladikim), *borcha yaxshilig va yomonlig bu ikki nima zimmida mundarijdur* (ichiga kiradi)».

Bundan ma'lum bo'ladiki, ulug' mutafakkir hech ikkilanmasdan chog'irxo'rlikni Xudo man etganini, barcha yomonliklar shu ichkilikdan kelib chiqishini ta'kidlab turibdi. Shunday so'zlarni she'r qilib emas, asar deb emas, to'g'ridan-to'g'ri hukmdorga nasihat tarzida bitgan kishining o'zi ichkilik tarafdori bo'lishi, uni maqtashi mumkinmi?

Masalani shu tarzda juda aniq qilib qo‘ygan paytimizda beixtiyor shoirning ana shu mashhur g‘azali maqta’sida aytilgan fikr yodimizga tushadi.

Ana shunda bu parchadagi «*boda*» aslo o‘z ma’nosida emasligini to‘la tushunib olamiz.

Adabiyotda islom ta’sirisiz ham dunyoviy ma’nodagi mastlik kayfiyatini tarannum etish, mayni ta’riflash bor edi. Tasavvuf adabiyoti shu shaklni saqlab qoldi. Ammo endi mayni Xudoga ishqning timsoli qilib oldi. Shuning uchun tasavvuf she’riyatida ham shaklan, ya’ni tashqi tarafdin aynan dunyoviy adabiyotdagidek may va mastlik tilga olinaveradi, mohiyatida esa ilohiy ishq ko‘zda tutiladi.

Boda kelgan uyga qayg‘u kelmasligining dunyoviy asosi bor: ichgan kishining, sun‘iy ravishda bo‘lsa ham, kayfiyati ko‘tariladi, qayg‘usi, vaqtincha bo‘lsa ham, esdan chiqadi. Tasavvufiy ma’noda esa Yaratganning ishq bilan kuyib-yonib yashayotgan kishining g‘am chekishiga o‘rin qolmaydi. Shuning uchun ham lirik qahramon yorining kelmaganiga, ochiqroq ifodalaganda, bu dunyoda Alloh vasliga yetolmayotganiga ko‘p ham g‘am chekavermay, Yaratgan zotni sevishini davom ettiraversin, shunda barcha kulfatlar bartaraf bo‘laveradi...

Shoirning may, sharob, boda, chog‘ir haddi a’losida ta’riflangan she’rlari shu qadar ko‘pki...

Bayt – asli oshiqona g‘azalning maqta’si. Lekin boda tilga olindimi, demak, g‘azalga rindonalik ruhi ham qo‘shildi. May ta’rifida kelgan g‘azallar *rindona g‘azallar* deyiladi. Ko‘rinib turibdiki, bu g‘azalda oshiqonalik bilan rindonalik o‘zaro uyg‘unlashgan.

Ulug‘ shoir asarlari mohiyatini tushunib olishga qiynalmaslik, xususan, so‘zlarning o‘z ma’nosi bilan ko‘chma, ya’ni badiiy ma’nosini fahmlashda adashib ketmaslik uchun shoirning timsollar olamidin boxabarlik talab etiladi.

Demak, Navoiy asarlari mag‘zini chaqishda ilm juda kerak.

Bu shoirning o‘ta mashhur g‘azallaridan hisoblanadi. Ho-zirgacha ham qo‘shiq qilib kuylanadi. Ko‘p hofizlarimiz shu g‘azal ijrosida o‘z kuchini sinab ko‘radi. Kuyda haqiqiy yor, ya’ni Alloh vasliga yetolmaslik dard-u g‘ami, iztirobi aks etgan.

Bu gʻazal mumtoz qoʻshiqchiligimizda oʻta mashhur «Munojot» kuyiga solib aytiladi. Oʻzbekiston Qahramoni, Oʻzbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning «Munojotni tinglab» sheʼri shu qoʻshiq taʼsirida bitilgan. Bu sheʼr:

Kuyi shunday boʻlsa, gʻamning oʻziga
Qanday chiday oldi ekan odamzod?! –

deya tugallanadi.

«Munojot» kuyining ogʻir-bosiqqligi, gʻam-iztirob ruhiga moyilligi bilan gʻazal mazmunidagi oshiqning yor vasliga yetolmaganidan chekayotgan gʻam-iztiroblari oʻrtasida kuchli hamohanglik bor.

Savol va topshiriqlar

1. Gʻazal hajmi va mavzusi haqida maʼlumot bering.
2. Muhabbat misolida mohiyatan nima koʻzda tutilgan?
3. Asar vazni, qofiyasi va radifini tahlil qilib bering.
4. Gʻazaldagi asosiy ifoda va tasvir vositasi nima? Uning asardagi oʻrni va vazifasini tushuntirib bering.
5. Gʻazal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
6. «Begona bayt» – qanday bayt? Bu gʻazaldagi begona baytning oʻrni va mavqeyi nimalarda koʻrinadi?
7. Maqtaʼda qoʻllangan «boda» timsolining ikki maʼnosini tushuntirib bering.
8. May timsolining tasavvufiy adabiyotdagi oʻrni va mavqeyi haqida soʻzlang.
9. Gʻazal mazmun-mohiyati bilan u qoʻshiq qilib aytiladigan «Munojot» kuyi oʻrtasida qanday bogʻliqlik bor?
10. Gʻazalni yodlang.

«JONGʻA CHUN DERMEN: «NE ERDI OʻLMAKIM KAYFIYATI?..» GʻAZALI

Jongʻa chun dermen: «Ne erdi oʻlmakim kayfiyati?»
Derki: «Bois boʻldi jism ichra marazning shiddati».

Jismdin soʻrsamki: «Bu zaʼfingʻa ne erdi sabab?»
Der: «Anga boʻldi sabab oʻtluq bagʻiming hirqati».

Chun bagʻirdin soʻrdum, aytur: «Andin oʻt tushti manga, –
Kim koʻngulga shuʼla soldi ishq barqi ofati».

Ko'ngluma qilsam g'azab, ayturki: «Ko'zdindur gunah,
Ko'rmayin ul tushmadi bizga bu ishning tuhmati».

Ko'zga chun dermenki: «Ey tardomani yuzi qaro,
Sendin o'lmish telba ko'nglumning balo-yu vahshati».

Yig'lab aytur ko'zki: «Yo'q erdi manga ham ixtiyor, –
Kim ko'rundi nogahon ul sho'xi mahvash tal'ati».

Ey Navoiy, barcha o'z uzrin dedi, o'lguncha kuy, –
Kim sanga ishq o'ti-o'q ermish azalning qismati.

«Favoyid ul-kibar»ning 597-g'azali.

Bu g'azalda she'riyatdagi savol-javob usulidan unumli foydalanilgan. Bunda birov savol beradi, ikkinchi taraf shu savolga javob qaytaradi. Shoirning «Farhod va Shirin» dostonida Xusrav bilan Farhodning aytishuvi ham aynan ana shu yo'lda qog'ozga tushirilgan.

To'liq bir g'azalni savol-javob tarzida bitish Navoiydan oldin yashab, ijod qilgan qalam sohiblari ijodida ham uchraydi. Ammo bu g'azal ayni san'atni oliy darajada qo'llashi va mantiqiy asoslanganligi bilan alohida ajralib turadi.

G'azalning lirik qahramoni – oshiq. U ishq otashining zo'ridan o'lim yoqasiga kelgan. Shuning uchun u matla' dayoq to'g'ridan-to'g'ri jonidan: «*O'lishimning sababi nima?*» – deb so'raydi. Jon esa unga: «*Bunga jismdagi kasallikning shiddati sabab bo'ldi*», – deya javob qaytaradi.

Ikkinchi baytda lirik qahramon jismga murojaat qilib, undan: «*Bu vaziyatga tushib qolishingga nima sabab bo'ldi?*» – deb so'raydi.

Jismning javobi esa quyidagicha: «*Bunga o'tlik bag'irning hirqati sabab bo'ldi*». Baytdagi «*hirqat*» so'zi kuyish, yonish degan ma'noni anglatadi.

Uchinchi baytda savol endi bag'irga beriladi, u esa: «*Menga ko'ngildan o't tushdi, chunki ko'ngilga ishq chaq-nog'ining ofati shu'la soldi*», – deb javob aytadi.

To'rtinchi baytda mantiqan lirik qahramon ko'ngilga «g'azab qiladi», shu tariqa u gunohni ko'zga yuklaydi: «*Agar*

ko'z ko'rmaganida edi, biz bu ishning tuhmatiga qolmagan bo'lar edik».

Beshinchi baytda oshiq endi ko'zning «yoqasidan oladi»: «*Ey etagi ho'l-u yuzi qora, ko'nglimning balo-yu vahshati sendan ekan-ku*».

Oltinchi baytda ko'zning yig'lab aytgan javobi berilgan: «*Menda ham ixtiyor yo'q edi, nogahon ul sho'xi Mahvash (Oysifat) tal'ati ko'rinib ketgan bo'lsa, men nima qilay?*»

Maqta'ga kelganda lirik qahramon shoirga murojaat qilib: «*Ey Navoiy, barcha o'z uzrini aytdi, sen o'lganingcha kuy, chunki ishq o'ti senga azalning qismati ekan*», – deydi.

G'azalning har bir baytida o'ziga xos ohoriy (original) badiiy ifoda va tasvirlarga duch kelamiz. Muallif hech kimning xayoliga kelmagan tarzda baytlarni baytlarga mantiqan bog'laydi. Jon (birinchi bayt), jism (ikkinchi bayt), bag'ir (uchinchi bayt), ko'ngil (to'rtinchi bayt), ko'z (beshinchi va oltinchi baytlar) bilan bo'lib o'tgan savol-javoblarda kuchli izchillik va o'zaro ketma-ketlik bor. Jon aybni – jismga, jism – bag'irga, bag'ir – ko'ngilga, ko'ngil – ko'zga yuklaydi. Oxiri, lirik qahramon ishqda yonish uning azaliy qismati ekani ni tan oladi.

G'azal ramali musammani maqsur (yoki mahfuz) vaznida bitilgan. Uning ohangi *foilotun – foilotun – foilotun – foilon* (yoki *foilon*) bo'ladi. Taqte'si: – V – – / – V – – / – V – – / – V– (yoki – V ~).

Savol va topshiriqlar

1. G'azal hajmi, mavzusi, vazni va qofiyasi haqida ma'lumot bering.
2. G'azalda ishq tasviri uchun qanday ohoriy badiiy usul qo'llangan?
3. Baytdan baytga mantiqiy bog'liqlik qanday amalga osha boradi?
4. G'azal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
5. Lirik qahramon ishqiga haqiqiy «aybdor» kim?
6. G'azalni yodlang.

«YO'Q» RADIFLI G'AZAL

Yordin ayru ko'ngul – mulkedurur, sultoni yo'q,
Mulkkim, sultoni yo'q, jismedururkim, joni yo'q.

Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim, ul
Bir qaro tufrog‘dekdurkim, gul-u rayhoni yo‘q.

Bir qaro tufrog‘kim, yo‘qtur gul-u rayhon anga,
Ul qorong‘u kechadekdurkim, Mahi toboni yo‘q.

Ul qorong‘u kechakim, yo‘qtur Mahi tobon anga,
Zulmatedurkim, aning sarchashmayi hayvoni yo‘q.

Zulmatekim, chashmayi hayvoni oning bo‘lmag‘ay
Do‘zaxedurkim, yonida ravzayi rizvoni yo‘q.

Do‘zaxekim, ravzayi rizvondin o‘lg‘ay noumid,
Bir xumoredurki, anda mastlig‘ imkoni yo‘q.

Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki, bor
Hajrdin dardi-yu lekin vasldin darmoni yo‘q.

«G‘aroyib us-sig‘ar»ning 310-g‘azali.

Baytlardagi mantiqiy bog‘liqlik nuqtayi nazaridan bu g‘azal ham «Jong‘a chun dermen: «Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?...» g‘azaliga o‘xshaydi.

G‘azal ramali musammani mahfuz (yoki maqsur), ya’ni *foilotun – foilotun – foilotun – foilon* (yoki *foilon*) vaznida bitilgan. Uning taqte’si quyidagicha bo‘ladi: –V– – / – V – – /– V– – / – V – (yoki – V ~).

Matla’ning o‘zidayoq muallif avval yordan ayri ko‘ngilni sultoni yo‘q mamlakatga, keyin esa sultoni yo‘q mamlakatni joni yo‘q jismga o‘xshatadi.

Ikkinchi baytda mulohaza shu tarzda davom etadi: «*Ey musulmonlar, jonsiz jismdan qanday hosil unadi, u gul-u rayhoni yo‘q bir qora tuproqning o‘zginasi-ku*».

Uchinchi baytda aytiladiki: «*Agar gul-u rayhoni yo‘q bir qora tuproq bo‘lsa, u bir porlab turgan Oyi yo‘q qorong‘i kecha ekan-da*».

To‘rtinchi baytda aynan ana shu qorong‘i kecha ta’rifi ketadi: «*Porlab turgan Oyi yo‘q qorong‘i kecha bo‘lsa, u hayot sarchashmasi yo‘q zulmat ekan-da*».

Beshinchi bayt da aynan ana shu hayot sarchashmasi yo‘q zulmat lirik qahramonni do‘zaxiy kimsaning jannatdan noumidligi haqida so‘zlashga undaydi, do‘zax esa shunday bir xumordirki, unda mastlikning imkoni yo‘q. (*Mastlik* deganda shoir ishqni, ya‘ni Yaratganga intilishni ko‘zda tutgan.)

Maqta‘da lirik qahramon Navoiyga murojaat qilib: «*Unga shunday uqubatlar yuborilganki, hajridan dardi, lekin vaslidan darmoni yo‘q*», – deydi.

Savol va topshiriqlar

1. Matla‘ badiiy go‘zalligini ta‘minlagan asosiy omil, mantiqiy asos nima?
2. Baytdan baytga qaysi so‘zlar o‘tyapti va buning g‘azal umumiy qurilmasidagi o‘rni va mavqeyi nimadan iborat?
3. G‘azal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
4. G‘azaldagi tahlilga tortilgan so‘z-timsollarni daftaringizga yozib olib, ular talqinlarini o‘zaro qiyoslab chiqing.
5. G‘azalni yodlang.

«BO‘LDUM SANGA»¹ RADIFLI G‘AZAL

Ko‘rgali husnungni zor-u muftalo bo‘ldum sanga,
Ne baloliq kun edikim, oshno bo‘ldum sanga.

Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko‘ngul,
Vahki, kun-kundin batarrak muftalo bo‘ldum sanga.

Men qachon dedim: «Vafo qilg‘il manga», zulm aylading,
Sen qachon deding: «Fido bo‘lg‘il manga», bo‘ldum sanga.

«Qay pari paykarg‘a, – dersen, – telba bo‘lding bu sifat?»
Ey pari paykar, ne qilsang, qil manga, bo‘ldum sanga.

Ey ko‘ngul, tarki nasihat ayladim, ovora bo‘l,
Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo‘ldum sanga.

Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo‘ldum sanga.

¹Alisher Navoiy devonlari nashrlarining ko‘pida bu g‘azaldagi ushbu so‘z «sango» tarzida yozilgan. Ammo vazn uni «sanga» tarzida o‘qish ham mumkinligi va shu to‘g‘riligini taqozo etadi. Biz shu yo‘lni tutdik.

G'ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro,
To Navoiydek asir-u benavo bo'ldum sanga.

«G'aroyib us-sig'ar»ning 16-g'azali.

Navoiyning oldingi g'azallari tahlilida ko'rdingizki, shoir bu janrga oid asarlarida har bir baytga olam-olam ma'no yuklaydi, kutilmagan, ohoriy, jozibador ifoda, bayon va tasvir vositalaridan foydalanadi, qalamining kuchini ko'rsatadi.

An'anaviy yetti baytdan iborat «Bo'ldum sanga» radifli g'azal ham bundan mustasno emas. U turkiy she'riyat uchun eng an'anaviy bo'lgan ramali musammani mahzuf (yoki maqsur), ya'ni *foilotun-foilotun-foilotun-foilon* (yoki *foilon*) vaznida yozilgan. Taqte'si: – V – – / – V – – / – V – – / – V – (yoki – V ~).

G'azal baytlari mazmunini bir-bir tahlil etishning asar umum mohiyatini bilishda alohida o'rni bor. Shuning uchun baytlar ma'no-mazmuni bilan tanishib, ulardagi badiiy ifoda va tasvir xususiyatlarini aniqlash mumkin.

M a t l a 'da: «*Husningni ko'rish uchun senga zor-u asir bo'lib qoldim. Senga oshno bo'lgan kunim qanday balolik kun ekan?*» – deyilgan.

Bu yerda ko'ngilga ishq tushishi bilan oshiq uchun mashaqqatli jarayon boshlanishi ta'kidlangan.

Ikkinchi baytning ma'no-mazmuni quyidagicha: «*Sendan ko'ngil uzay deb har qancha uringanim bilan (bo'lmadi), kundan kunga badtarroq senga muftalo bo'lib qolaverdim*».

Mantiqiy jihatdan bu baytda tazod (zidlantirish) san'ati ishga solingan.

Uchinchi baytda: «*Men qachon senga: «Menga vafo qil», – deb aytgan bo'lsam (aksincha), menga ustma-ust zulm qilaverding, sen qachon menga: «Fido bo'lgin», – degan bo'lsang, senga fido bo'ldim-ku*», – degan fikr ilgari surilgan.

Bu qo'shmisrada tazod san'ati yana-da kuchliroq tus olgan: qachon oshiq yoridan vafo qilishni so'ragan bo'lsa, teskarisini qilgan, lekin, aksincha, qachon yor oshiqdan fido bo'lishni so'ragan bo'lsa, unga javoban yor, albatta, fido bo'lgan.

To'rtinchi baytda lirik qahramon aynan kimga oshiq-ligini aniqlashtirib oladi va bunda yorining o'zini «aybdor» qiladi: «*Qaysi pariga o'xshash qomatli go'zalga bunday dara-jada oshiqi devona bo'lib qolding?*» – deb so'rasang, ey pariqomatligim, menga nima qilsang, qilki, men seni sevib, devonang bo'lib qoldim».

Bu baytda shoir kam so'z qo'llab, ko'p ma'no chiqarish mahoratini ko'rsatgan. Chunki radifda kelgan «*bo'ldum sang-a*» so'zlari mantiqan «*telba bo'ldum sang-a*» deb tushunishni taqozo etadi. Chunki baytning birinchi misrasidagi savolda gap kim telba bo'lgani haqida ketayotgan edi. Mumtoz adabiyotshu-nosligimizda mahoratning bunday usuli *balog'at* deyilgan.

Beshinchi baytda lirik qahramon to'g'ridan-to'g'ri o'z ko'ngliga murojaatga o'tadi: «*Ey ko'ngil, men nasihatlarga quloq solmadim, (endi) sen ham ovora bo'ladigan bo'lding, (boshing-dagi) yuz balo yetmagandek, men ham senga bir balo bo'ldim*».

Ma'lumki, inson hayoti hech qachon mashaqqatsiz kechmaydi. Ammo u ishq yo'liga kirsa, mashaqqati yana-da ortadi. Bu yerda lirik qahramon ana shu mantiqqa suyanib, ko'ngliga ishq yo'liga kirgani uchun yuz balosiga yana bir balo orttir-ganini bayon etyapti.

Oltinchi baytda soqiyga murojaat qilinadi: «*Ey soqiy, mansab-lavozimlardan voz kechib, senga gado bo'lgunga qadar ham doim jomi Jam bilan Xizr payg'ambar suvi mening na-sibim bo'ldi*».

Shuni ta'kidlash kerakki, bu qo'shmisra g'azaldagi begona bayt hisoblanadi. Albatta, begona baytni asardan butunlay uzi-lib qolgan parcha tarzida tushunmaslik kerak. Har holda, shoir oldingi baytlardagi ma'no-mantiqdan kelib chiqilganda, nisbatan kutilmagan bir fikrni ilgari suradi. *Soqiy* timsolida ham piri komil, ham yori aziz ko'zda tutilgan.

Baytda talmeh san'ati qo'llangan. «*Jomi Jam*» – afsona-viy Jamshid podshoh yasattirgan qadah. Tasavvufiy adabiyot-da u vasl sarxushligi, ya'ni mastligini anglatadi. Bu timsolda ramzan ko'ngilda yor aks etishiga ishora ham mavjud. Sharqda, *Xizr payg'ambar abadiylik suvini ichgani uchun hamisha tirik yashaydi*, degan qarash hukmron. Shoir bu yerda shundan foy-

dalangan. *Jomi Jamda* ham, *Xizr suyida* ham ramzan piri komil qalbiga ishora bor. Aytilmoqchiki, Alloh ishqidan mast bo'lgan, abadiy, boqiy zot vasliga intilgan oshiq uchun mansab-lavozimlarning zarracha ahamiyati yo'q. Boshqacha ifodalaganda, *Alloh vasliga erishaman, abadiylik baxtiga musharraf bo'laman*, degan kishi mansab-lavozimlarga (ya'ni dunyoviy rag'batlarga) ko'ngil qo'ymasligi, ulardan voz kechishi, kamida, ustun turishi, ya'ni darvesh bo'lishi lozim.

Maqta' da oshiqlikning martabasi yana-da balandroq ko'tariladi: «*To Navoiydek senga asir-u benavo bo'lmaguncha g'am-g'ussa changi(sozi)dan biron-bir kuy eshitmadim*».

Bu baytning birinchi misrasidagi «*navoye*» («bir navo») so'zi bilan ikkinchi misrasidagi «*Navoiy*» so'zi o'rtasida o'zakkodoshlik bor. Bu ajib lisoniy joziba hosil qilgan. O'zaro o'zakkodosh so'zlarni ishlatish Sharq mumtoz badiiyati ilmida *ish-tiqoq san'ati* deyiladi.

Bu g'azal shoirning hofizlarimiz tomonidan sevib kuylanadigan she'rlaridan biri hisoblanadi. Ko'p o'zbek shoirlari asrlar davomida bu g'azalga naziralar bitgan, taxmislar bog'lagan.

Bu she'r misolida ishqiy mavzuni yoritishda g'azalning juda keng imkoniyatlari borligini ham his etamiz.

Savol va topshiriqlar

1. G'azal hajmi, mavzusi, vazni, qofiyasi va radifi haqida ma'lumot bering.
2. Lirik qahramon yordan ko'ngil uzmoqchi edi, lekin g'azalda keltirilgan qaysi asoslarga ko'ra, kundan-kunga uning oshiqligi ortib boryapti?
3. Uchinchi baytda qaysi so'zlar orasida tazod hosil bo'lgan?
4. G'azalda qanday undalmalar (murojaatnomalar) mavjud?
5. G'azal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
6. *Soqiy, jomi Jam* va *Xizr suyi* timsollari mohiyatida qanday ma'no yashirin?
7. Matla'ning badiiy go'zalligi nimada?
8. G'azalni yodlang.

“BO‘L” RADIFLI G‘AZAL

Ko'nglung istar yorlar birla hamesha shod bo'l,
Mendin-u, kimdinki, ko'ngling istamas – ozod bo'l.

Garchi sabrim uyi yangligʻ aylading vayron meni,
Doimo, yo Rabki, husnung mulkidek obod boʻl.

Men chekib anduh, oʻlay, el joni boʻlsun ul Masih,
Sovrul, ey charxi nigun, v-ey dahri dun, barbod boʻl.

Bevafolar zulmu bedodigʻa ermassen harif,
Ey sinuq koʻnglum, agar xud shisha, gar poʻlod boʻl.

Tuttum oʻlmakdin tirilmak hajrida, tengdur manga
Emdi gar bergil ziloli Xizr, agar jallod boʻl.

Chekma boshkim, emin ermassen xazon yagʻmosidin,
Bu chaman ichra agar savsan, agar shamshod boʻl.

Ey Navoiy, olam ahligʻa chu yoʻq ermish vafo,
Kel-u, mundin nori bekaslik bila moʻtod boʻl.

“Gʻaroyib us-sigʻar”ning 384-gʻazali.

Gʻazal – anʻanaviy tarzda yetti baytdan iborat. U ramali musammani mahzuf (yoki maqsur), yaʼni foilotun foilotun foilotun foilon (yoki foilon) vaznida bitilgan. Taqteʼsi: – V – – \ – V – – \ – V – (– V ~).

Shoir soʻzning kelib chiqishi jihatidan arabiy (“jallod”, “moʻtod”) hamda forsiy (“shod”, “ozod”, “obod”, “barbod”, “poʻlod”, “shamshod”) qofiyalar, turkiy radif (“boʻl”) qoʻllagan.

Mavzusiga koʻra, bu Navoiyning orifona gʻazallari sirasiga kiradi. Bunday gʻazallarda umrning oʻtkinchiligini taʼkidlash, ezgulikka daʼvat etish, bevosita hayotiy fikr-mushohada va xulosalarini ilgari surish ustunlik qiladi.

Anʻanaga koʻra, koʻp gʻazallar ikkinchi shaxsga murojaat tarzida bitiladi.

Xoʻsh, “sen” tarzida murojaat etilayotgan ana shu shaxs kim?

Albatta, gʻazal tabiatan yor vasfiga bagʻishlangan boʻlgani uchun koʻpincha “sen” deb murojaat qilinganda yor koʻzda tutiladi. Biroq, mohiyatan, shoir uchun ana shu yor timsoli ham –

bir vosita, ko'nglini bo'shatish, dard-u hasratini kitobxonlar bilan o'rtoqlashishning bir yo'li.

Ushbu g'azal matla'si ham bevosita ikkinchi shaxsga aytilgan so'z bilan boshlangan. "Yorlar" so'zi bu baytda aynan "do'stlar" ma'nosida kelgan. Lirik qahramon shu tariqa to'g'ridan-to'g'ri she'rxonga murojaat qilib, birinchi misrada: "Hamisha ko'nglingga yoqadigan do'stlaring bilan suhbat qilib, shod bo'l", – deyayotibdi. Ikkinchi misra esa ko'ngilga yoqmaydigan kishilar suhbatidan ozod bo'lish, ya'ni qochishga da'vat qiladi. Baytning oxoriyligi shundaki, lirik qahramon bu masalada odil turadi: "Agar o'sha senga yoqmaydigan kishi men bo'lsam, mendan ham voz kecha qol".

Shu tariqa g'azal bevosita sof insoniy ruhiy holat bayoni bilan boshlanadi. Shoir shu ikkigina misra orqali har bir kishi ko'nglida necha-necha bor kechishi mumkin bo'lgan bir nozik tuyg'uni ifodalaydi. Chunki bashariyat jamiyati shunday tuzilganki, hammavaqt ham bir kishining ko'ngliga ikkinchisi xo'sh yoqavermaydi. Ehtimol, siz suhbatdoshingizga yoqarsiz, u sizga yoqmas yoki, aksincha u sizga ma'quldur-u, siz unga – noma'qul¹.

Ko'ngil shu qadar nozikki, faqat o'ziga ma'qul odam suhbatidagina huzur topadi. Yoqmaydigan birovning oldida o'tirish esa – koni azob. Lirik qahramonning fikri qat'iy: bunday suhbatdan voz kechib qo'ya qolishdan yaxshiroq yo'l yo'q. Ko'rinib turibdiki, shoir, bir qarashda, juda oddiygina ko'ringan satrlar zamirida bir ajib qat'iy xulosani o'rta taqabga tashlagan. Xo'sh, shoirning murojaati aynan kimga qaratilgan? Ana shu savolga javob izlab, ikkinchi baytni o'qiydiz: "Ey Egam, garchi meni sabrim uyidek vayron qilgan bo'lsang ham, (sen o'zing) doimo husning mamlakati kabi obod bo'l".

Bu esa sabr-u bardoshning tugaganligini ifodalaydi. Xo'sh, bu qanday sabr-u bardosh? Kim u o'zi lirik qahramonni burchalar azoblarga qo'ygan?

¹Bu ruhiy holatni Navoiy "Badoe' ul-vasat"ning:

Meni men istagan o'z suhbatiga arjumand etmas,

Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas, –

deb boshlanadigan 238-g'azalida haddi a'losida aks ettirgan.

Ana'anaga ko'ra, aksar g'azallar shaklan yorga bag'ishlanishini yaxshi bilasiz. Bu yerda ham shu an'anaga qat'iy amal qilingan. Demak, birinchi bayt ham mohiyatan kitobxonga emas, ana shu – yorga bag'ishlangan ekan. Tantilikni qarangi, unga lirik qahramon, men yoqmasam, mendan ham voz kech, deydi. Bu yerda oshiqning ma'shuqqa loyqlikka kuchli intilishi mavjud. Yor husni mulki (mamlakati) esa – juda obod. Shuning uchun vayron bo'lib borayotgan oshiq ma'shuqiga Yaratgandan ("yo Rab") doimo ana shunday obodlik ato etishini tilaydi.

Matladagi "hamesha" va ikkinchi baytdagi "doimo" so'zlari ham o'quvchida abadiy go'zal, azalan va abadan mavjud yor, ya'ni Alloh haqida so'z ketayotgani xususida tasavvur tug'dira boradi.

Uchinchi baytda oshiq o'ziga g'am chekib o'lishni, yori esa o'lganlarni tiriltirgan Iso alayhi-s-salom kabi elning joni bo'lishini ravo ko'radi. Lekin o'zining bu tilagi uning otashinligini oshirib yuboradi. Teskari ("nigun") deb bilgani charxga: "Sovril!", pastkash ("dun") deb hisoblagani dunyoga esa: "Barbod bo'!" – deya nido chekadi, rad javobidan ko'ra o'limni afzalroq biladi.

Lirik qahramon o'zi aytgan gapga o'zi chiday olmaydi. Chunki u o'z ko'nglini yaxshi biladi. Bu nozik ko'ngil esa bevaforlar zulmi bedodliklari bilan oshnolik qila olmaydi. Shuning uchun lirik qahramon to'rtinchi baytda bevosita o'zining siniq ko'ngliga murojaat qiladi: "Ey siniq ko'nglim, agar shisha (oyna) yo po'latdan bo'lsang ham, bevaforlar zulm-u azoblariga chidolmay, (chil-chil sinasan)".

G'azalda yor tasviri bilan baqamti insonlararo munosabatlari bayoni ham birga ketaveradi. Shoir bu yerda faqat yor bevaforligidagina emas, umuman, "bevaforlar"dan noliydi. Chunki bunday odamlar uning ko'p zada qilgan. Kishining ko'ngli shisha emas, po'lat bo'lganida ham odamlar yetkazadigan dilxastaliklarga chidash bera olarmidi?..

Lekin Navoiy uchun g'azalda yor bilan bog'liq mantiqiylikni bo'shashtirish mumkin emas. Lirik qahramon yor hajrida kuyib, ado bo'lgan. Shu darajaga yetganki, beshinchi baytda tasvirlanishicha, hajr davom etar ekan: "Uni o'ldirish

ham, o'lganidan keyin tiriltirish ham – teppa-teng, (shuning uchun) endi Xizr alayhi-s-salomning abadiy tiriklik suvini bersa ham, jallod bo'lib, uni o'ldirsa ham, mayli – unga baribir”.

Shoir bu baytda yor hajrida adoyi tamom bo'lgan bir oshiq sifatida o'lim bilan tiriklikni teng ko'rdi. Endi buni mantiqan asoslash kerak. Oltinchi bayt go'yo ana shu fikrning “isboti” bo'lib keladi. Lirik qahramon shu qo'shmisradan boshlab zimdan bevosita shoirga murojaatga o'tadi: “O'limdan bosh tortma, bu chamanning savsani (guli safsari) yoki (bag'oyat tik o'sadigan chiroyli) shamdosh daraxti bo'lsang ham, kuz kelib, xazon boshlanganda sen ham omon qololmaysan”.

Bu baytda umrning o'tkinchiligiga urg'u berilyapti. Mumtoz adabiyotimiz, jumladan, Navoiy she'riyatida bu dunyoning foniyligi – vaqtinchaligi qayta-qayta uqtirilishi bejiz emas. Umrku – omonat narsa. Lekin odamlar shu qisqagina hayotlarini ham bir-birlarini aldash, yomonliklar qilish, bevafoqliklar bilan o'tkazishga, bir-birlarining ko'ngillarini qoldirishga bunchalar o'ch bo'lmasa?!

Bu juda qiyin masalaku-ya. Ammo lirik qahramon boshqacha yo'l topgandek bo'ladi. Maqta' da u taxallus qo'llab, unga nasihat qiladi: “Ey Navoiy, dunyo kishilariki bevafo bo'lsa, kel, (yaxshisi), bundan buyon kishisizlik(yolg'izlik)da yashashni o'zingga odat qilib ol”.

Lirik qahramonning bevosita shoirga murojaat qilishi orqali unda o'z fikru-o'yi, his-tuyg'usini go'yo ikki kishi suhbat tartida ifodalash imkoni paydo bo'ladi. Bu shaklan o'zi bilan o'zi gaplashishning bir yo'li ham. Shu narsa g'azallardagi “sen” deb murojaat qilgan boshqa baytlar mazmunini ham kengroq sharhlash imkonini beradi. Demak, matla'dagi, bir qarashda, yorga aytilgan: “Ko'ngling istagan kishilar bilan suhbat qur, ko'ngling istamasa, hatto, u men bo'lsam ham, undan qutul”, – mazmunidagi fikrni ham, lirik qahramonning shoirga, ya'niki Navoiyning o'ziga o'zi bergan maslahati, deb tushunish mumkin.

Shuni ham e'tibordan qochirmaslik kerakki, lirik qahramonning bu g'azal baytlaridagi murojaati obyektivi o'zgarib turadi: matla', beshinchi va oltinchi baytlar – ikkinchi shaxsga, ikkinchi bayt – Xudoga (“yo Rab”), uchinchi bayt – charxi nigun

bilan dahri dun(“ey charxi nigun, v-ey dahri dun”)ga, to‘rtinchi bayt – lirik qahramonning siniq ko‘ngli(“ey sinuq ko‘nglum”)ga, maqta’ esa – shoir(“Ey Navoiy”)ga aytilayotgan gap tarzida bitilgan.

Bu g‘azalda tazod san‘atidan mohirona foydalanilgan. Zidlantirish matla‘da “men” va “kim”, ikkinchi baytda “sabrim uyi” va “husnung mulki”, “vayron” va “obod”, uchinchi baytda “o‘lay” va “Masih” (u o‘lmagan, aqidaga ko‘ra, qiyomat yaqinlashganda tirik holda Yerga tushadi), uchinchi baytda “shisha” va “po‘lod” (po‘lat), to‘rtinchi baytda “o‘lmak” va “tirilmak”, “ziloli Xizr” (abadiy tirik payg‘ambar suvi) va “jallod” (u o‘ldiradi), beshinchi baytda “xazon” va “savsan”, “shamshod” (ular tirik o‘simliklar), maqta‘da “olam ahli” (ya‘ni ko‘pchilik) va “bekaslik” (ya‘ni yolg‘izlik) o‘zaro zidlantirilgan.

G‘azaldagi ishq hajrini, yori haqiqiy, ya‘ni Yaratganning vasliga etolmaslik, deb talqin etish kerak.

Savol va topshiriqlar

1. G‘azal hajmi, vazni, qofiyasi va radifi haqida ma‘lumot bering.
2. G‘azalning mavzu jihatidan turini sharhlang.
3. G‘azal baytlarini kimlarga murojaat qilinayotgani asosida tushuntirib bering.
4. G‘azalda qanday undalmalar (murojaatlar) mavjud?
5. G‘azal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
6. G‘azalda tazod san‘atining badiiy vazifasi haqida so‘zlang.
7. Xizr timsoli mohiyatida qanday ma‘no yashirin?
8. G‘azalni yodlang.

MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

«ETMAS» RADIFLI G‘AZAL

Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand etmas¹,
Meni istar kishining suhbatin ko‘nglum pisand etmas.

Ne bahra topqamen andinki, mendin istagay bahra,
Chu ulkim, bahrae andin tilarmen, bahramand etmas.

¹Arjumand etmoq – aziz etmoq, hurmat qilmoq, qadrlamoq.

Netay hur-u pari bazminki, qatlim yo hayotimg'a
Ayon ul zahrchashm aylab¹, nihon bu no'shxand etmas².

Kerakmas Oy ila Kun shaklikim, husn-u malohatdin
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.

Kerak o'z chobuki³ qotilvashi majnunshiorimkim,
Buzug' ko'nglumdin o'zga yerda javloni samand⁴ etmas.

Ko'ngul uz charx zolidin, firibin yemakim, oxir
Ajal sarrishtasidin o'zga bo'ynungg'a kamand⁵ etmas.

Ul Oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin deb ko'z,
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand⁶ etmas.

«MUVOFIQ KIYDILAR BO'LMISH MAGAR NAVRO'Z ILA BAYRAM?...» G'AZALI

Muvofiq kiydilar, bo'lmish magar Navro'z ila bayram,
Chaman sarvi yashil xil'at, mening sarvi ravonim ham?

Chaman sarvi qolib hayron, mening sarvim qilib javlon,
Aning shaydosi – bir dehqon, munga shaydo – bari olam.

Chaman sarvi qolib bebar, mening sarvim bo'lub dilbar,
Ani el aylabon muztar, bu eldin sekretib adham⁷.

Qo'nub ul sarv uza bulbul, chekib gul shavqidin g'ulg'ul,
Bu sarv uzra ochilib gul, anga terdin tushub shabnam.

Qilib ohim sari parvo, bu yon mayl etmading qat'o⁸,
Sabodin⁹, ey qadi ra'no, bo'lur ham sarv gah-gah xam.

¹Z a h r c h a s h m a y l a m o q – zaharli ko'z bilan qaramoq, xo'mraymoq.

²N o' s h x a n d e t m o q – shiringina kulmoq, kulib boqmoq.

³C h o b u k – chaqqon, tezkor, epchil.

⁴S a m a n d – sarg'il ot, chopqir ot.

⁵K a m a n d – sirtmoq.

⁶S i p a n d – isiriq.

⁷A d h a m – qora; bu yerda *qora ot* ma'nosida kelgan.

⁸Q a t' o – aslo, qat'iyon.

⁹S a b o – yoqimli shamol, Sharqdan esadigan shamol.

Bu bog‘ ichra may, ey soqiyki, bormen asru mushtoqi, –
Ki anda sarv ham boqiy emas, gul ahli ham mahkam.

Navoiy, ko‘yin et manzil, yuz-u qaddig‘a bo‘l moyil, –
Ki bog‘ etmas seni xushdil, gul-u sarv aylamas xurram.

«TO MUHABBAT DASHTI BEPOYONIDA OVRAMEN...» G‘AZALI

To muhabbat dashti bepoyonida ovoramen,
Har baliyat¹ kelsa ishq oshubidin² bechoramen,

El netib topqay menikim, men o‘zumni topmamon³,
Buylakim ishq-u junun sahrosida ovoramen.

Qaysi zaxming‘a⁴ qilursen chora chun men, ey rafiq,
Tiyr boroni baliyatdin sarosar yoramen.

Oh dudi ichra bir uchqun kebi ko‘rgan meni,
Bildikim, hijron tuniga kavkabi⁵ sayyora men.

Kecha o‘rtansam, sahar faryod qilsam, ne ajab,
Ishq aro parvona-u bulbulg‘a chun hamkoramen.

Ey xarobot ahli⁶, gar siz mast o‘lub, men bo‘lmasam,
Ayb emas, nechunki siz mayxora⁷, men xunxoramen⁸.

Ey Navoiy, bordi deb ahbob ta‘jil etma⁹ ko‘p,
It kebi men erishib ul korvonni boramen.

¹B a l i y a t – balolar.

²O s h u b – g‘avg‘o, fitna, betartiblik, besaranjomlik.

³T o p m a m o n – «topmayman», «topolmayman» fe‘lining eski o‘zbek tilidagi shakli.

⁴Z a x m – yara.

⁵K a v k a b – yulduz, k a v k a b i s a y y o r a – uchar yulduz.

⁶X a r o b o t a h l i – mayxona ahli; ramzan oshiqlar.

⁷M a y x o r a – mayxo‘r, may ichuvchi; ramzan oshiq.

⁸X u n x o r a – qon ichuvchi.

⁹T a ‘ j i l e t m o q – tezroq harakat qilishga undamoq.

«SHO‘X IKKI G‘IZOLINGNI NOZ UYQUSIDIN UYG‘AT...» G‘AZALI

Sho‘x ikki g‘izolingni¹ noz uyqusidin uyg‘at,
To uyqulari ketsun, gulzor ichida o‘ynat.

Tishlabki, soching o‘rdung, ochqanda parishon qil²,
Ofoq³ savodinda jon royihasin⁴ butrat.

Kulbamg‘a xo‘y afshon⁵ kel, zulfung qilib oshufta,
Anjum sipahin⁶ sindur, ofoq ulusin qo‘zg‘at.

Oraz⁷ Quyoshin ochib, ashki⁸ qurug‘an ko‘zni
Ko‘p hajrda yig‘latding, bir vaslda ham yig‘lat.

Bir oh ila kul bo‘ldum, ey charx, tilab, topib,
Farhod ila Majnung‘a oshiqliq ishin o‘rgat.

Xoro⁹ tubig‘a yotqung, yo‘q sud agar yuz yil,
Ko‘k atlasida ustida jisingni, yotib, ag‘nat.

Bazm ichra Navoiy ko‘p yig‘lar esa, ey soqiy,
Hush eltkuchi doru jomig‘a aning chayqat.

¹G‘ i z o l – g‘azol, kiyik. Bu yerda uning ko‘zi inobatga olinib, yor ko‘zlari ko‘zda tutilgan.

²P a r i s h o n q i l m o q – yoymoq, to‘zg‘itmoq.

³O f o q – ufqlar, osmon; o f o q s a v o d i – tun qorong‘iligi.

⁴R o y i h a – rayhon.

⁵X o ‘ y a f s h o n – parokanda tabiat bilan. Bu yerda *sochi to‘zg‘igan ma’nosida* kelgan.

⁶A n j u m s i p a h i – yulduzlar lashkari.

⁷O r a z – yuz.

⁸A s h k – ko‘z yoshi.

⁹X o r o – qattiq tosh, xarsang.

QIT'ALAR

KAMOL KASBIGA DALOLAT-U NUQSONIDIN IZHORI MALOLAT

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o'tmak biaynih
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

«G'aroyib us-sig'ar»ning 10-qit'asi.

Alisher Navoiy o'z qit'alarini «Xazoyin ul-maoniy» devonlariga kiritganda har biriga alohida-alohida sarlavha qo'yadi. Bu nasriy sarlavhalar qit'adagi ma'no-mazmun mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Yana ham aniqroq qilib aytilsa, kitobxonni she'riy asarni o'qishga tayyorlaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ushbu qit'aning sarlavhasidayoq kishi o'zini kamolga yetkazishni kasb qilib olishi g'oyasi ilgari surilib, aks holda, nuqson yuzaga kelishi izhor etiladi.

Birinchi baytdayoq shoir to'g'ridan-to'g'ri o'quvchiga murojaat qilib, uni o'zini kamolga yetkazishni kasb qilib olishga da'vat etadi. *Chunki*, deydi u, *senga olam uyidan g'amgin bo'lib chiqish farz hisoblanmaydi*.

Ikkinchi baytda shu fikrning isboti uchun hayotiy misol keltiriladi. Birinchi qo'shmisradagi *olam uyidin chiqmoq* so'z birikmasi ikkinchi juftlikdagi *jahondin hotamom o'tmak* bilan chambarchas bog'liq. *Ya'ni*, deyiladi keyingi ikki satrda, *bu dunyodan notamom, kamolga yetmasdan o'tmoq – xuddi hammomga kirib, chala yuvinib, nopok holda chiqqanday gap*.

Kamol et kasbkim so'zlarini ba'zilar *kasb o'rganishni kamolga yetkaz* deya talqin etadi. Aslida, bu yerda, *kamolga yetishni o'zingga kasb qilib ol*, deyilyapti.

Demak, qit'ada shoir kishilarni o'zini har taraflama o'stirishga undaydi. Hatto, bu umrning bosh mazmuni darajasidagi masala qilib qo'yilgan. Alisher Navoiy hammomga kirib, nopok chiqish qanchalar mantiqsiz bo'lsa, dunyoga kelib, kamolga yetmay o'tish ham shunchalar bema'nilik ekanini ochiq-oydin aytgan-qo'yg'an.

O‘zbekistonimizda mustaqillik yillarida barkamol avlod tarbiyasiga kelajak poydevori sifatida qaralib, boringki, bu hayot-mamot masalasi qilib qo‘yilayotgani ham bejiz emas. Ushbu g‘oya, ko‘rinib turganidek, asr-asrlik milliy ma‘naviyatimizning mag‘zi-mag‘ziga singib ketgan.

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun muallif qit‘aga nasriy sarlavha qo‘yishni ma‘qul topgan?
2. Qit‘ada qanday ilg‘or g‘oya ilgari surilgan?
3. Dunyoga kelib, o‘zini rivojlantirmagan kishi nimaga qiyoslanadi?
4. Qit‘aning bugun uchun ahamiyatini tushuntirib bering.
5. Qit‘a matnini yod oling.

FALOKATDIN AYOQ‘IG‘A KAFSH BO‘LMAG‘ANGA CHUN KAFSH UCHUN AYOQ‘I BOR, SHUKR VOJIBDUR

Ulki, iflosdin ayog‘inda
Kafsh yo‘li azmi chog‘i yo‘qtur oning,

Shukr qildik¹ boqib birav sori, –
Ki yururg‘a ayog‘i yo‘qtur oning.

«Badoye’ ul-vasat»ning 41-qit‘asi.

Milliy-ma‘naviy qadriyatlarimiz orasida shukrning o‘rmi – bo‘lak. Mohiyatan biz shukronasi kuchli xalqmiz. Ota-bobolarimiz noshukrlikni illat sanashgan. Mantiqan olib qaraganda ham, biror bir muammoni noshukrlik-u norozilik bilan yechib bo‘lmaydi. Shukr qilgan kishida kelajakka umid so‘nmagan, oldinga harakat to‘xtamagan bo‘ladi.

Shukr qilish uchun qanday sharoit hozir bo‘lishi kerak?

Kim shukr qilishga loyiq?

Xalqimizning tarixiy aqidasi ko‘ra, bandasi har bir o‘tgan lahzasiga shukr qilishi lozim.

Ammo adabiyotda shukr targ‘ibi borasida Alisher Navoiyning hozir o‘qiganingiz qit‘asidagi kabi hayotiy-tamsiliy namuna kam topiladi.

¹Qildik – qilsin.

Sarlavhadayoq, *oyoqqa kiyishga kavushi yo‘q kishi kavush kiyish uchun oyog‘i borligiga shukr qilsin, unga shu vojib* (lozim), degan g‘oya ilgari surilgan.

Birinchi baytda yo‘lga chiqqan bir kimsaning ifloslardan himoya qilish uchun oyog‘iga kiyay desa, kavushi yo‘qligi haqida ma‘lumot keltiriladi, xolos. Ammo ikkinchi baytda bor gap lo‘nda va ta‘sirchan qilib aytib qo‘ya qolinadi: *u odam shukr qilsin, chunki yurishga oyog‘i bor, ana, boshqa birovga boqsin, yuray desa, oyog‘i yo‘q uning.*

Bu qit‘a zamirida, *har qanday kishi o‘z ahvolidan shikoyat qilishdan oldin orqa-oldiga, yon-atrofiga qarasin, qiyoslasin, keyin xulosa chiqarsin,* degan oqilona o‘git – yashirin. *Mingni ko‘rib fikr qil, birni ko‘rib shukr qil,* degan xalq maqoli ham aynan shu g‘oyani ilgari suradi.

Ammo Navoiy yaratgan qit‘adagi qiyos – juda ta‘sirchan. Uni o‘qigan zahoti kishi ko‘z o‘ngida bir martalik umrni oyoqsiz o‘tkazayotgan, yo qo‘ltiqtayoqqa suyanib yurayotgan, yo aravachada birov surgalab ketayotgan nogiron kishilar gavdalanadi. Kiyishga poyabzali bo‘lmasa ham, to‘rt muchasi but odam – oyog‘i borligiga shukr qilishi shart, albatta. *Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi,* degan maqolda yaxshi aytilgani kabi, oyoq omon bo‘lsa, kavush topiladi.

Navoiy zamonidagi bunday shukronalik da‘vati bugun uchun ham birday ahamiyatga ega. Xalqning shukrigina mustaqilligimizni mustahkamlash, yurtimiz tinchligini ta‘minlash, Vatanni ravnaq toptirishga chinakam omil bo‘la oladi.

Savol va topshiriqlar

1. Qit‘aning nasriy sarlavhasida qanday fikr ilgari surilgan?
2. Qit‘ada qanday ilg‘or g‘oya o‘rtaga tashlanyapti?
3. Kishi shukr qilishi uchun qanday imkoniyatlar kerak?
4. Shoir fikr ta‘sirchanligiga erishish uchun nimani nimaga qiyoslagan?
5. Qit‘aning bugun uchun ahamiyatini tushuntirib bering.
6. Qit‘a matnini yod oling.

MUSTAQIL O'QISH UCHUN

QIT'ALAR

OLTUN, KUMUSHGA HIRS MAN'IKIM, TUTMOG'I ILIKNI QORA QILUR VA MUHABBATI – KO'NGULNI

Ko'p oltun, kumush sari qo'l sunmog'il¹, –
Ki tutsang, kafingni qora zang etar.

Ko'ngulda dog'i² maylini asrama, –
Ki ko'nglungni dog'i hamul rang etar.

DEVONDA MUHR BOSQONDIN NAFSIG'A SHIKAST YETMAGAN UCHUN MUHRG'A SHIKAST BERGANI

Chun manga lutf etti shah devonda muhr,
Bu edi eldin quyi muhr urmog'im, –

Kim g'ururi nafsi sarkash man'ig'a
Borchadin bo'lg'ay quyi o'lturmog'im.

Chun shikasti nafs hosil bo'lmadi,
Mundin o'ldi muhmi sindurmog'im.

YUQORI O'LTURMOQ TALASHQUCHILARKIM, HINDUYI DIDBON³ ALARDIN YUQORIROQDURUR, UCHAR QO'NG'UZ – ILGARIROQ

Yuqori o'ltururni kim tilasa,
Kishilikdin ani yiroq bilgil.

O'lturur safda yuqoriliqdin
O'lturur safda yaxshiroq bilgil.

YAMON YAMONLIG'INI QILMASA, YAXSHILIG'CHA BOR VA BIR YAXSHILIG' QILSA – O'N YAXSHI QILIQCHA

Har kishikim topsa davron ichra johu⁴ e'tibor, –
Kim aning zotida bedod-u sitam bo'lg'ay qilig'.

¹S u n m o q – cho'zmoq, uzatmoq.

²D o g' i – yana, tag'in.

³H i n d u y i d i d b o n – hind qo'riqchi, bu yerda to'ti ko'zda tutilyapti.

⁴J o h – mansab, lavozim, martaba.

Yaxshilig¹ gar qilmasa, bori yamonlig¹ qilmasa, –
Kim yamonlig¹ qilmasa, qilg¹ancha bordur yaxshilig¹.

AMIR UL-MO‘MININ ALI KARRAMALLOHU VAJHAHU SO‘ZIGA TARJIMAKIM – UNZUR LIMOQOLA LOTANZUR LIMANQOLA¹

Chun g‘araz² so‘zdin erur ma‘ni anga,
Noqil³ o‘lsa xoh xotun, xoh er.

So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini,
Ko‘rma kim der ani, ko‘rgilkim, ne der.

Nazariy ma‘lumot

G‘AZAL

G‘azal – musulmon Sharqi xalqlari adabiyotlarida eng ko‘p tarqalgan lirik janr. U dastlab arab she‘riyatida milodiy VI–VII asrlarda paydo bo‘lib, keyinchalik boshqa Sharq xalqlari so‘z san‘atiga ham o‘tgan. XIII–XIV asrlarga kelib she‘rning bu turi to‘la shakllangan va mukammal holga yetgan.

G‘azalning tuzilishi, mazmun-mavzusi va badiiy jihatlarini bo‘yicha bir necha talab va o‘ziga xoslik bor.

Avvalo, g‘azallar ko‘pincha ishqiy mavzuda bitiladi. Ammo ma‘no-mazmun jihatidan Allohni maqtashga (hamd), Muhammad payg‘ambar(s. a. v.)ni ta‘riflashga (na‘t) bag‘ishlangan, rindona (may va mayxona bilan bog‘liq tasvirlarga asoslangan), orifona (pand-nasihath ruhidagi), tabiat go‘zalliklaridan zavqlanish asosidagi (peyzaj) va boshqa g‘azallar ham yoziladi. Shuning uchun shoirlar bu janr namunalarida odam va olam, tabiat va jamiyatning turli-tuman murakkab tomonlarini ham yoritishga harakat qilgan.

Hajmi 3 baytdan 19, hatto, 27 baytgacha bo‘lgan g‘azallar uchraydi. Biroq Navoiy va boshqa ko‘p shoirlarimiz ijodida, asosan, bu janrning 7 va 9 baytli namunalariga duch kelamiz. Shu miqdor eng mukammal hajm deb qabul qilinadi.

¹Unzur limoqola lotanzur limanqola (arabcha) – Kim deganiga emas, nima deganiga qara.

²G‘araz – maqsad, niyat.

³Noqil – naql etuvchi, so‘zlovchi.

Bir gʻazal boshdan-oxir bir vaznda bitiladi. Garchi Navoiy ijodida aruzning turli bahrlarida yozilgan gʻazallar uchrasa ham, oʻzbek shoirlari gʻazallarining koʻpchiligi, asosan, ramal, bir qismi esa hazaj bahrida bitilgan. Boshqa bahrlarda juda kam yozilgan.

Gʻazalda bitta qofiya tizimiga amal qilinadi. Misralar *aa*, *ba*, *da*, *ea*, *fa* va hokazo tarzda qofiyalanadi.

Gʻazal baytlari – nisbiy maʼnoda mustaqillikka ega. Yaʼni har bir bayt imkon qadar til talablari boʻyicha tugallangan alohida jumladan iborat boʻlishi, umumiy matndan yulib olib oʻqiganda ham tugal maʼno-mazmunni anglatishi lozim. Gʻazallar, baytlar mustaqilligi, yaʼni qoʻshmisralarning oʻzaro bogʻliqligi, mantiqiy ketma-ketligi va bir-birini taqozo etishi darajasiga koʻra, quyidagi turlarga boʻlinadi:

a) parokanda gʻazallar (bunda baytlar bir-biridan oʻta mustaqil boʻladi, ularning oʻrni almashtirilsa ham, unchalar sezilmaydi);

b) yakpora gʻazallar (bunda baytlar mantiqan ketma-ketlikka ega boʻladi);

d) voqeaband gʻazallar (bunda baytlar ketma-ketligini sujet, yaʼni muayyan voqea tasviri boshqaradi);

e) musalsal gʻazallar (bunda baytlar oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻladi, maʼno-mantiq jihatidan kuchli tarzda biri ikkinchisini taqozo etib keladi).

Navoiy parokanda, yaʼni baytlar oʻrnini oʻzgartirib qoʻysang ham, hech narsa oʻzgarmaydigan gʻazallarni qattiq tanqid qilgan. Oldingi darslar jarayonida koʻrib oʻtilgan «Jongʻa chun dermen: «Ne erdi oʻlmakim kayfiyati?..» gʻazali musalsal gʻazalning yorqin namunasi hisoblanadi.

Gʻazalning aksaran oxirgi bayti (maqtaʼsi) yoxud baʼzan undan oldingi baytda shoir taxallusi qoʻllanadi. Lekin taxallus qoʻllash majburiy emas. Gʻazal taxallussiz ham yozilaverishi mumkin.

Istiqlol yillarida oʻzbek mumtoz sheʼriyati, xususan, Navoiy ijodidagi gʻazallar maʼnolarini har taraflama sharhlash kuchaydi, bu janr namunalarning tasavvufiy maʼnolarini ham ochib berishga harakat qilinyapti.

Gʻazal yozish anʻanalari hozirgi oʻzbek sheʻriyatida ham davom etyapti. Baʻzan barmoq vaznida bitilgan gʻazallar ham uchrayotir.

Koʻp asrlardan buyon gʻazallarga kuy bastalanib, ular ashula qilib kuylanib keladi. «Shashmaqom» tarkibidagi ashullar matnini ham, asosan, gʻazallar tashkil etadi. Hozirgi paytda gʻazallarni zamonaviy estrada yoʻlida aytish tajribasi ham kuchayyapti.

Gʻazaldagi uchta baytning alohida nomi bor: birinchi bayt «*matla*» deyiladi; oxirgi bayt «*maqta*» deyiladi; agar maqtaʼdan oldin (ayrim hollarda undan ham oldin) keladigan baytda lirik chekinish qilingan boʻlsa, bunday qoʻshmisra «*begona bayt*» deyiladi.

Matlaʼning oʻziga xosligi shundaki, birinchidan, uning ikkala misrasi oʻzaro qofiyadosh boʻladi, ikkinchidan, shu bayt vazni va qofiyasi (yoki radifli boʻlsa radifi ham) gʻazalning oxirigacha qatʼiy saqlanadi.

Maqtaʼning oʻziga xosligi shundaki, birinchidan, koʻpincha unda shoirning taxallusi qoʻllanadi (baʻzan taxallus maqtaʼdan oldingi baytda keladi ham), ikkinchidan, mantiqan u xuddiki asar xulosasi yangligʻ jaranglaydi.

«Begona bayt»ning oʻziga xosligi shundaki, u gʻazalning oldin kelgan baytlaridagi umumiy tasvir yoki bayonga bevosita bogʻlanmasligi, nisbatan erkinroq fikr-mulohazani ifodalashi mumkin. Ammo bu yerdagi «*begona*» soʻzini nisbiy maʼnoda tushunish kerak. Shoir «begona bayt»da ham oldingi baytlar umumiy maʼno-mazmuni imkon bergan darajada, boshqacha aytganda, qaysidir maʼnoda ulardan kelib chiqib lirik chekinish qiladi.

Faqat uning begonaligi shundaki, Oʻzbekiston Qahramoni, Oʻzbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov soʻzlari bilan aytganda, «*bu baytda shoir kimni maqtagisi kelsa, maqtaydi, kimni yomon koʻrsa, undan alamini oladi, gʻazal umum yoʻnalishiga u qadar bogʻlanmaydiganroq gapi boʻlsa ham, shu yerda aytib qoladi*».

Adabiyotshunoslikda hamma yaxshi biladigan «*lirik chekinish*» degan tushuncha mavjud. Asarda lirik qahramon (shoir emas!) qoʻqqisdan yurilayotgan asosiy yoʻldan biroz chetga chiqqanday boʻlib, kutilmagan bir fikr yoki mulohazani aytadi, bayon yo tasvirni kiritadi, ilmiy tilda ifodalansa, nimagadir simpatiya yoki antipatiyasini bildiradi.

«Begona bayt» ham – lirik chekinishning aynan o‘zi. Biroq bu yerda yanada teranlashish (differenziatsiya) bor: lirik chekinish – keng va katta tushuncha, u bor-yo‘g‘i to‘rt satrdan iborat ruboiyda ham bo‘lishi¹, hatto, liro-epik turda yozilgan dostonida (Navoiyning «Xamsa»sidagi dostonlar ham, «Lison ut-tayr» ham shunday asarlar sirasiga kiradi) ham uchrashi mumkin.

Ruboiyda lirik chekinish qilish uchun bir misradan ortiq imkon yo‘q. Lirik chekinish borasida g‘azaldagi imkoniyat – ruboiydagidan sal kattaroq. Chunki u kamida bir bayt doirasida amalga oshiriladi.

Hech bir lirik chekinish asarga yot unsur bo‘lmagani kabi, «*begona bayt*» atamasidagi «*begona*» so‘zini ham o‘z ma’nosida, ya’ni yalang‘och tarzda tushunmasligimiz, uning nisbiy begonalikni ifodalab kelayotganini yaxshi anglab olishimiz zarur.

«Begona bayt» – g‘azalgagina xos, aniqrog‘i, lirik chekinishning aynan g‘azaldagi ko‘rinishi hisoblanadi. Uning hajmi – aniq (ikki misra), o‘rni – tayin (asosan, maqta’dan oldin keladi).

G‘azalchiligimiz, xususan, Navoiy g‘azallaridagi bu tipik xususiyatni ko‘plab navoiyshunoslar kuzatgan, tahlil etgan. A. Hayitmetov buni umumiy qilib «*lirik chekinish*»², Y. Is’hoqov «*begona yoki qistirma baytlar*»³, N. Komilov esa «*gardish*», «*bozgasht*» («*qaytish*»)⁴ deb nomlaydi. Aslida, Navoiy g‘azallarida asar mazmuni bilan bog‘lanmagan bayt bo‘lmaydi. «Begona»lik – nisbiy tushuncha. U «*lirik chekinish*» ma’nosini muayyanlashtirgan holda ifodalab kelgan. «*Chekinish*» bilan «*begonalik*» – bir-biriga juda yaqin tushunchalar hisoblanadi.

¹Ruboiyshunoslikda bu janr namunalariidagi dastlabki ikki satrni t e z i s, uchinchi misrani a n t i t e z i s va to‘rtinchi qatorni s i n t e z (xulosa) tarzida sharhlash bor (Qarang: X a k k u l o v I. Ch. Rubai v uzbekskoy literature. AKD. T.: 1975. S. 11). Bizningcha, ana shu a n t i t e z i s sifatidagi uchinchi misradan shoirlar ko‘pincha kichik (mini) lirik chekinish sifatida foydalanadi.

²H a y i t m e t o v A. Navoiy lirikasi. T.: «Fan» nashriyoti, 1961. 144-bet.

³I s ‘ h o q o v Y. Navoiy poetikasi. T.: «Fan» nashriyoti. 1983. 62-bet.

⁴K o m i l o v N. Ma’nolar olamiga safar (Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar). T.: «TAMADDUN» nashriyoti. 2012. 48-, 54- va 64-betlar.

QIT'A

Qit'a – musulmon Sharqi, jumladan, o'zbek mumtoz she'riyatining lirik janrlaridan biri. *She'riy shakl sifatida u adabiyotda qasida va g'azaldan oldin paydo bo'lgan*, deb qaraladi. Qit'a mustaqil baytlardan tashkil topgani uchun g'azalga o'xshab ketadi. Ammo g'azaldan keskin farq qiladigan jihatlari bor.

Birinchidan, qit'ada matla' bo'lmaydi. Shuning uchun baytlarning hammasi bir xil – *ab, db, eb, fb* va hokazo tarzda qo'fiyalanadi.

Ikkinchidan, hajmi ham g'azaldagi kabi qat'iy emas. Eng kami ikki baytdan tashkil topadi. Biroq uning ko'p baytli, hatto, o'n to'qqiz qo'shmisradan iborat namunalari ham uchraydi.

Uchinchidan, g'azalda mavzular – chegaralanganroq. Lekin qit'alarda unaqa emas. Qit'ada shakl va mazmun jihatidan erkinlik – ko'p, mavzu doirasi chegaralanmagan.

To'rtinchidan, qit'ada shoir taxallus qo'llashi kamdan kam uchraydi. Navoiy ba'zi qit'alaridagina taxallus ishlatadi.

Beshinchidan, g'azallarga sarlavha qo'yilmaydi. Ammo Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy»ga kiritilgan barcha qit'alariga nasriy sarlavha qo'yilgan. Sarlavhalarda qit'a mazmunining bosh g'oyasi yoki yo'nalishi bayon etib qo'ya qolingan.

Oltinchidan, g'azal yaratish niyati bilan o'rta baytlari yozilgan, ammo matla' va maqta'si tugallanmagan parchalarni ham ayrim shoirlar devonlariga qit'a sifatida kiritavergan. Binobarin, «qit'a» so'zi arab tilida *bo'lak, qism, parcha* ma'nolarini anglatadi.

Qit'a yaxlit asar sifatida ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy va boshqa yo'nalishlardagi muayyan mavzuga bag'ishlanadi. Qit'alarda, umuman olganda, pand-nasihati ruhi ustunlik qiladi. Shoirlar bu janr namunalarida ba'zan hajv, hazil-mutoyiba, jiddiy tanbeh tarzida, ba'zi hollarda esa o'z hayotining turli lahzalari, ko'rgan-kechirganlari ta'sirida paydo bo'lgan mulohazalari va hukm-xulosalari sifatida fikr bayon etadi.

O'zbek adabiyotida qit'aning ilk namunalari Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida, Xorazmiy, Yusuf

Amiriy, Gadoiy, Lutfiy ijodida uchraydi. Biroq Alisher Navoiy bu janrning yetuk namunalari yaratib, o‘zbek qit‘achiligini yuksak pog‘onalarga ko‘tardi. «Xazoyin ul-maoniy»dagi to‘rt devonda jami 210 ta qit‘a mavjud. Ularning devonlardagi miqdori quyidagicha:

«G‘aroyib us-sig‘ar»da – 50 ta;

«Navodir ush-shabob»da – 50 ta;

«Badoe’ ul-vasat»da – 60 ta;

«Favoyid ul-kibar»da – 50 ta.

Bulardan tashqari, buyuk mutafakkirning «Mahbub ul-qulub», «Xamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Pahlavon Muhammad» va boshqa asarlarida ham qit‘a namunalari uchraydi.

Keyingi asrlarda Zahiriddin Muhammad Bobur, Poshshoxo‘ja, Munis Xorazmiy, Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy, Shukuriy Farg‘oniy, Muhammadrizo Ogahiy, Miriy, Avaz O‘tar, Almaiy va boshqa shoirlar qit‘achilikda Navoiy an‘analarini davom ettirdi. Ammo Navoiygacha ham, undan keyin ham hech kim mazkur janrni bu buyuk o‘zbek shoiri darajasida rivojlantira olgan emas.

XX asrda Habibiy, Sobir Abdulla, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Chustiy, Charxiy, Erkin Vohidovlar qit‘a bitgan. Hozirgi paytda barmoq vaznida ham qit‘alar yozilyapti.

NODIRA

(1792 – 1842)

Nodira – XIX asrning birinchi yarmida ijod qilgan taniqli o‘zbek shoirasi. Uning asl ismi *Mohlaroyim* bo‘lib, *Nodira* – adabiy taxallusi. Bundan tashqari, *Komila* taxallusi bilan ham o‘zbekcha she‘rlar bitgani ma‘lum. Bu qalam sohibasi – zullisonayn (ikki tilda ijod qilgan) shoirlarimizdan. Fors-tojik lisonidagi asarlarini *Maknuna* taxallusi bilan yozgan.



U ijod qilgan davrda Qo‘qon adabiy muhitida o‘zbek va fors-tojik tillarida badiiy asarlar yaratish qariyb teng darajada edi.

Nodira 1792-yili Andijonda tavallud topgan. U Andijon hokimi Rahmonqul otaliqning qizi.

Nodiraning ota-onasi buyuk Sohibqiron Amir Temur xonadoniga mansub edi. Buni uning ushbu baytlaridan ham bilib olish mumkin:

Siyodat xonadoni, shohi Bobur nasli pokimen,
Xudoyo, rahmat ayla barcha ajdodi izomimni.

Nodiraning onasi – Oyshabegim qizining soliha farzand, komila shaxs bo‘lib yetishuviga ko‘p hissa qo‘shdi. Bo‘lg‘usi shoira zamona xoni oilasiga yaqin qarindosh bo‘lgan xonadonda voyaga yetdi. Rahmonqul otaliq Qo‘qon xoni Olimxonning tog‘asi edi. Shuning uchun 1807-yili Olimxon ukasi Umarxonni tog‘asining qizi Mohlaroyimga uylantirdi. Umarxon Marg‘ilon begi lavozimiga tayinlanganidan keyin oilasini shu shaharga olib ketdi.

Oradan uch yil o‘tib, ya‘ni 1810-yili Qo‘qon xoni, ya‘ni Nodiraning qaynakasi Olimxon qatl etildi. Uning taxtiga ukasi Umarxon o‘tirdi. Shoiraning bundan keyingi hayoti mamlakat poytaxti bo‘lgan shu shaharda – xon saroyida kechdi. Bu

uning ijod bilan muntazam va unumli shug‘ullanishi, o‘zidan oldingi turkiy va forsiy shoirlar asarlarini qunt bilan o‘rganishi, ular an‘analarini o‘zlashtirib, izchil davom ettirishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Shoira yashagan zamonda Qo‘qon adabiy muhiti gullab-yashnagan edi. Umarxon uning umr yo‘ldoshi, mamlakat rahbarigina emas, ustoz shoir ham edi. U *Amiriy* taxallusi bilan she‘rlar ijod qilar, shoir sifatida mashhur edi. *Tarix takrorlandi*, degan gap bor. O‘xshash yerini qarangi, Nodira va Zulfiyaning turmushi ham qariyb bir xil kechdi. Ya‘ni Nodira 30 yoshligida, Zulfiya esa 29 yoshida umr yo‘ldoshidan ayrildi. Bu ayriliq tabiiy ravishda ana shu ikki shoira ijodida hijron motivini asosiy yo‘nalishga aylantirdi. Nodira va Zulfiya faqat adabiyotimizdagina emas, umuman, hayotda ham o‘zbek ayolining vafo va sadoqati timsoli bo‘lib tarixda qoldi.

Nodira ijodi haqida gap ketar ekan, yana bir nozik jihatni esdan chiqarmaslik kerak. Yor timsolida zimdan Alloh ko‘zda tutilishini, bu o‘zbek mumtoz g‘azaliyotida an‘anaviy bir hodisa ekanini yaxshi bilasiz. Modomiki, yor Xudo ekan, uning jinsi ma‘lum emas. Aksar erkak shoirlar yor deganda go‘zal bir qizni ko‘z oldilariga keltirib, uning chiroyini – qaddi-qomati, beli, sochi, yuzi, yonog‘i, ko‘zi, qoshi va hokazolarini qalamga olgan, bu borada bisotidagi bor yaxshi so‘z-u ifoda-yu tasvirlarini ishga solgan. Bu mantiqan o‘zini oqlagan. Chunki Alloh – husn shohi, ya‘ni go‘zallikning eng oliy namunasi, uni har qancha ta‘riflangiz ham, kamlik qilaveradi.

Biroq endi shoira yozgan g‘azal yo boshqa kichik lirik janrlar namunalarida yor timsoliga munosabat biroz o‘zgaradi. Birinchidan, ancha umumiy lashadi, ya‘ni endi uni xushro‘y bir qiz sifatida tasvirlab bo‘lmay qoladi. Ikkinchidan, g‘azal janri an‘anasiga ko‘ra, lirik qahramon – oshiq tarzida namoyon bo‘ladi, erkak shoirlar yozgan asarlar mantiqan ma‘shuqaga bag‘ishlanadi, shoirlalar qalamiga mansub satrlarda lirik qahramon oshiqqa aylanadi va g‘azal endi ma‘shuqaga emas, balki ma‘shuqaga bag‘ishlanadi, shuning uchun shoirlalar qalamiga mansub g‘azallarda yorning uzun sochi, ingichka beli, qalam

qoshi, uzun kipriklari... maqталavermaydi. Uchinchidan, shoirlalar yor(ya'ni ma'shuq)ni shunday umumiy tarzda tasvirlashi kerakki, undan Allohga ishora uzoqlashib ketmasin.

Nodira ijodi bu talablarga to'la javob beradi. Uning «Eshit» radifli g'azalida bir yo'la ham Amir Umarxon, ham Yaratganga ishora borligini sezish qiyin emas. Bu matla'dayoq ko'zga tashlanadi:

Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,
Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.

Chindan ham, xonni ham «salotin sarvari» (podshohlar boshlig'i), ma'shuqini «shah» deyishi, o'zini «benavo» hisoblashi mumkin, bu ta'riflar, *Xudoga qaratilgan*, deb hisoblansa ham, bo'laveradi. G'azal davomidagi «sarvi ozodim», «sarvi nozim», «parizodim», «tab'i noshodim» undalmalari ham xuddi shunday tarzda bir yo'la ikki obyektga qaratilgan holda qo'llangan.

Kelki, bir soat seni ko'rmoq uchun mushtoqmen,
Telba bo'ldim sendin ayru, ey parizodim, eshit, –

bayti esa she'rni yana-da hayotiyroq qilib, uning insoniy muhabbatga daxldorligini kuchaytirgan.

Nodira asarlari mumtoz shoirlarimiz ijodiyotining ana shunday o'ziga xosliklari borligini, ularni nozik tushunish zaruratini ko'rsatib turibdi.

«*Jilva ko'rsatdi chu ul sarvi diloru bog' aro...*», «*Fig'onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin...*», «*Kel, sanga, ey shahi jahon, mamlakati jahon fido...*», «*Na gul sayr ayla, na fikri bahor et...*» deya boshlanadigan va boshqa g'azallarini ham majoziy (insonning insonga muhabbati), ham ilohiy (insonning Allohga muhabbati) ishq jihatidan talqin etish zarur. Ana shunda asar mazmuni falsafiylashadi, u irfoniy-tasavvufiy ma'no-mazmun kasb etadi, uning badiiyligi, har zamon va makonga mosligi darajasi oshadi.

Shoira asarlarida mumtoz she'riyatimiz shart va talblarini mukammal o'zlashtirishga, shu yo'lda izlanishlar qilishga, yangiliklar yaratishga intilish sezilib turadi. Bu jihatdan uning

musammatlari¹ alohida diqqatga molik. Xususan, «Firoqnoma» musammati o‘zbek so‘z san’atining ajoyib namunasi hisoblana- di. Asar mazmun-mohiyati – shoira umum ijodidagi mavzu va motivlar bilan chambarchas bog‘liq.

Nodira chekkan g‘am, kulfat-u hijron azob-uqubatlari yetma- gandek, o‘zi va o‘g‘illarining hayoti ham fojiali yakun top- di. 1842-yili Buxoro amiri Nasrulloxon lashkar tortib kelib, Qo‘qonni bosib oldi. Uning buyrug‘i bilan Nodiraning o‘zi ham, uning o‘g‘illari Muhammadalixon, Sulton Mahmudxon ham, nevaralari ham vahshiyona qatl etildi.

Nodiradan xalqimizga ikki devon qoldi. Nisbatan to‘la deb hisoblanadigan turkiy devonida 189 g‘azal mavjud. Ulardan ayrimlari tojikcha. Forsiy she‘rlari «Devoni Maknuna»da jam- langan.

Sharqda sohibi devon shoir bo‘lish katta sharaf hisoblangan. Chunki devon tuzishi uchun shoir arab alifbosidagi barcha harf- lar bilan tugaydigan g‘azallar bitgan bo‘lishi kerak. Nodira ikki tilda ham ana shunday yuksak darajaga yetgan ijodkor edi. She‘riyat muxlislari orasida shuhrati juda baland edi. Bu haqda uning o‘zi faxr bilan:

Nodira, har so‘zki insho ayladim,
Aydi anga ahli davron: «Marhabo!» –

deb yozganida tamoman haq edi.

Chunki, mana, oradan bir yarim asrdan ko‘p vaqt o‘tgan bo‘lishiga qaramay, uning she‘rlari sevib o‘qiladi, hofizlarimiz tomonidan qo‘shiq qilib kuylanadi, hamon kishilarga ma’naviy- ma’rifiy, badiiy-tab‘iy (estetik) zavq va lazzat ulashadi.

Nodira ijodi o‘zidan keyingi ko‘plab shoirlar uchun ma- horat maktabi bo‘lib xizmat qildi. Zokirjon Furqatning ayrim she‘rlari aynan ana shu shoira asarlariga nazira (o‘xshatma) tar- zida dunyoga kelgan. XX asrda Nodira haqida drama sahnaga qo‘yildi, badiiy film ishlandi. Uning nomiga san’at va ta’lim maskanlari, ko‘chalar qo‘yilgan.

¹M u s a m m a t – har bandi uch (musallas), to‘rt (murabba’), besh (muxam- mas), olti (musaddas), yetti (musabba’), sakkiz (musamman), to‘qqiz (mutasne’ yoki tasne’) va o‘n (muashshar yoki mashru’) baytdan iborat lirik she‘r turi.

Savol va topshiriqlar

1. Nodiraning hayot yo'lini so'zlab bering. Umringing eng muhim nuqtalarini esdan chiqarmaslik uchun daftaringizga ularni alohida ketma-ketlik bilan qayd eting.

2. Nodira qanday oilada tarbiya topti? Bu uning shoira bo'lib yetishuvida qanday ahamiyat kasb etdi?

3. Nodira va Umarxon munosabatlari, buning shoira ijodiga ta'siri haqida batafsil so'zlab bering.

4. Shoira ijodida hijron motivi kuchayishining sabablari, ko'rinishlari haqida so'zlang.

5. Nodira va o'zbek shoiralari munosabatlari haqida gapirib bering.

6. Shoira ijodining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni aynan nimalarda namoyon bo'ladi?

«DODA KELDIM...» G'AZALI

Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,
Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.

Maddi ohim shu'lasini husning dabiristonida
Misrayi barjastadur, ey sarvi ozodim, eshit.

Sarvi nozim, sendin ayru naxli ohim bo'ldi xam,
Qomating hajrida sindi shoxi shamshodim, eshit.

Har nechakim sabr ta'mirini bunyod ayladim,
Ashk selobida vayron o'ldi obodim, eshit.

Barcha yor-u oshnodin aylading begonalig',
Necha kunlar bo'ldi, hargiz qilmading yodim, eshit.

Kelki, bir soat seni ko'rmoq uchun mushtoqmen,
Telba bo'ldim sendin ayru, ey parizodim, eshit.

Nodira bodi sabodin sanga irsol etgali
Qildi insho bu g'azalni, tab'i noshodim, eshit.

Yetti baytdan iborat bu oshiqona g'azal o'zbek mumtoz she'riyati uchun an'anaviy bo'lgan ramali musammanni mahzuf (yoki maqsur), ya'ni *foilotun foilotun foil-*

oun foilun (yoki *foilon*) vaznida bitilgan. Taqte'si: - V - - / - V - - / - V - - / - V - (yoki - V ~). G'azaldagi beshinchi baytning birinchi misrasi «*begonalig'*» so'zi bilan tugagani, ya'ni oxirgi bo'g'in o'ta cho'ziq hijodan tashkil topgani uchun ramali musaddasi maqsur (- V - - / - V - - / - V ~) vaznida bitilgan.

G'azalda turkiy so'z («*eshit*») radifga olingan. Qofiyadagi so'zlarning barchasi o'zbekcha egalik qo'shimchasi bilan kelgan forscha-tojikcha so'zlardan tashkil topgan (*dodim* - *faryodim* - *ozodim* - *shamshodim* - *obodim* - *yodim* - *parizodim* - *no-shodim*).

Lirik qahramon gapni to'g'ridan-to'g'ri yorga murojaatdan boshlaydi. Ammo g'azalning boshidan-oxirigacha biror joyda «*yor*» so'zi ishlatilmaydi. Chunki oshiq ma'shuqqa «*ey salotin sarvari*» («*ey podshohlar podshohi*», 1-bayt), «*ey sarvi ozodim*» («*ey sarv daraxtidek tik qomatligim*», 2-bayt), «*sarvi nozim*» («*mag'rur turadigan tik qomatligim*», 3-bayt), «*ey parizodim*» («*ey parilar avlodidan bo'lganim*», 6-bayt), «*tab'i no-shodim*» («*ta'bi xursand bo'lmaganim*», 7-bayt) undalmalari bilan murojaat qiladi. Besh baytda bunday undalmalarning kelishi g'azalning o'ziga xos uslubidan dalolat beradi.

Bulardan tashqari, lirik qahramon yorni «*shah*»ga, o'zini «*benavo*»ga o'xshatadi ham (matla').

Shu ifodalardan ham ko'rinib turibdiki, g'azal zimdan Nodiraning yostiqdoshi - Amir Umarxon (Amiriy)ga bag'ishlangan. Lekin bu ochiq-oydin oshkor qilinmagan. Bunda adabiyotning adabiyotligi, shoiraning badiiy farosati namoyon bo'lgan. Ya'ni she'r an'anaviy, ya'ni oshiqning yor sog'inchi ifodalangan ishqiyl g'azal tarzida qabul qilinaveradi.

G'azalda tazod san'atining go'zal namunalari ham uchraydi. Matla'dagi «*shah*» bilan «*benavo*» (muhtoj, bechora), 3-baytdagi «*sarvi noz*» bilan «*xam*» (egilgan), 4-baytdagi «*vayron*» (buzilgan) bilan «*obod*», 5-baytdagi «*oshmo*» (tanish) bilan «*begona*», 5- va 6-baytlarda kelgan «*necha kunlar*» bilan «*bir soat*» o'rtasida yuzaga kelgan ajib bir qarama-qarshilik fikrni kuchaytirishga, oshiq holatini yanada aniqroq tasvirlashga xizmat qilgan.

Gʻazaldagi baytlar maʼno-mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin:

*Ey podshohlar podshohi, arz qilib, (oldingga) keldim, arzimni eshit,
Sen shahsan-u, men bechoraman, mehr koʻrsatib, faryodimni eshit
(matlaʼ).*

*Ohimning choʻzilgan shuʼlasi husning devonxonasi(mirzoxonasi)da
(bir) munosib misra (boʻldi), ey sarvdek tik qomatli (yorim), eshit (2-bayt).*

*Magʻrur tik qomatli sarvdek yorim, sendan uzoqda xurmo daraxtidek
tik ohim xam boʻldi,*

Qomating hajrida shamshod shoxidek shoxim sindi, eshit (3-bayt).

Sabrimni har qancha taʼmirlamayin,

Koʻz yoshlarim selidan (bu) obodim vayron boʻlaverdi, eshit (4-bayt).

(Ishqing bilan) barcha yor-u oshnodan begona aylading,

Necha kunlar boʻldi, hech meni yodga olmaysan, eshit (5-bayt).

Kelki, bir soat seni koʻrmoq uchun mushtoqman,

Seni koʻrmayotganimdan telba boʻldim, ey parizodim, eshit (6-bayt).

Nodira sharqdan esadigan yoqimli shamoldan sanga yuborish uchun

Bu gʻazalni yozdi, taʼbi xursand boʻlmaganim, eshit (maqtaʼ).

Gʻazal maʼno-mazmuni bilan tanishib, uning yana bir xususiyatini sezish mumkin. Unda shoira yorining tik qomatini yoki, aksincha, ishqiy iztiroblari oqibatida oʻzining tik qomati bukilgani holatlarini tasvirlash maqsadida mumtoz sheʼriyatimizda anʼanaviy boʻlgan daraxtlar («sarvi ozod», «sarvi noz», «naxli oh», «shoxi shamshod») timsollaridan mahorat bilan foydalanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Gʻazalning hajmi, vazni, qofiya va radifi haqida maʼlumot bering.
2. Gʻazal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
3. Gʻazalning mavzusi, uni yoritishda qoʻllangan vositalar, jumladan, shoiraning undalmalar hamda daraxt timsollaridan foydalanish mahoratini tahlil qilib bering.

4. Gʻazaldagi manzillilik, yaʼni uning zimdan aynan kimga bagʻishlangani haqida soʻzlang.

5. Tazodlarning gʻazaldagi oʻrni va ahamiyatini tushuntirib bering.

6. Gʻazalni yodlang.

«VASL UYIN OBOD QILDIM...» GʻAZALI

Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat,
Seli gʻamdin bu imorat boʻldi vayron oqibat.

Qildi choki piyrahan dogʻi dilimni oshkor,
Qolmadi koʻnglimda zaxmi ishq pinhon oqibat.

Ahd-u paymonlar qilib erdi: «Vafo qilgʻum», – debon,
Ayladi tarki vafo ul ahdi yolgʻon oqibat.

Orzu qildim: «Tutarmen», – deb visoli domanin,
Pora boʻldi hajr ilgida giribon oqibat.

Zohido, ishq-u muhabbat ahlini maʼzur tut,
Yor koʻyida na boʻldi Shayx Sanʼon oqibat?

Baski, qon boʻldi yurokim gavhari ashk oʻrniga,
Qatra-qatra koʻzlarimdin tomda marjon oqibat.

Ohkim, boʻldi yana subhi nashotim shomi gʻam,
Chehra pinhon etti ul Xurshidi tobon oqibat.

Garchi bor erdi musaxxar devlar farmonida,
Poymoli xayli moʻr oʻldi Sulaymon oqibat.

Nodira, bulbul kabi to nola insho ayladim,
Navbahor oʻtti, xazon oʻldi guliston oqibat.

Bu gʻazal – toʻqqiz baytdan iborat. Vazni – oldingi gʻazaldagi kabi, oʻzbek mumtoz sheʼriyati uchun anʼanaviy boʻlgan ramali musammani mahzuf (yoki maqsur), yaʼni *foilotun foilotun foiloun foilun* (yoki *foilon*). Taqteʼsi: – V – – / – V – – / – V – – / – V – (yoki – V ~). Gʻazaldagi ikkinchi baytning birinchi mis-rasi «*oshkor*» soʻzi bilan tugagani, yaʼni oxirgi boʻgʻin oʻta

cho‘ziq hijodan tashkil topgani uchun ramali musaddasi maqsur
(– V – – / – V – – / – V – – / – V ~) vaznida bitilgan.

G‘azalda «*oqibat*» so‘zi radifga olingan. Bu so‘z har bir bayt mazmunini boshqarib turadi.

G‘azal ishqiy mavzuda bitilgan. Unda hijron iztiroblari tasviri asosiy o‘rin tutadi. Lirik qahramon yor vasliga yetolmagani oqibatida chekkan dard-u g‘amlarini turli-turli badiiy tasvirlar orqali bayon etadi.

Baytlar ma‘no-mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin:

*Vasl uyini obod qildim, (ammo) hijron oqibatda (uni) buzdi,
Oxir-oqibatda g‘am selidan bu imorat vayron bo‘ldi (matla’).*

*Ko‘ylagimning choki dilimning dog‘ini oshkor qildi,
Oqibatda ko‘nglimdagi ishq yarasi pinhon qolmadi (2-bayt).*

«*Vafo qilaman*», – deb ahd-u paymonlar qilgan edi,
(Ammo) vafoni tark etdi, oqibatda uning ahdi yolg‘on bo‘lib chiqdi (3-bayt).

«*Visoli etagini tutarman*», – deb orzu qilgan edim,
Oqibatda hajr qo‘lida yoqa bo‘lak-bo‘lak bo‘ldi (4-bayt).

*Ey zohid, ishq-u muhabbat ahlini kechir,
(Axir), yor ko‘yida oqibatda Shayx San‘on nima bo‘ldi? (5-bayt).*

*Bas, ko‘z yoshi gavhari o‘rniga yuragim qon bo‘ldi,
Oqibatda ko‘zlarimdan qatra-qatra marjon(dek yosh) tom-di (6-bayt).*

*Ohkim, xursandligim tongi yana g‘am shomi bo‘ldi,
Oqibatda u porloq Quyosh yuzini yashirdi (7-bayt).*

*Garchi devlar farmoniga bo‘ysungan bo‘lsa ham,
Oqibatda (oxirida) Sulaymon chumolilar to‘dasi oyog‘i ostida qoldi (8-bayt).*

*Nodira, bulbul kabi to nolamni yozib ulguranimga qadar
Oqibatda navbahor o'tib, guliston xazon bo'ldi (maqta')*

Tazod g'azaldagi eng muhim badiiy san'atlardan biri sifatida namoyon bo'lgan. «*Vasl uyi*» bilan «*hijron*», «*obod qildim*» bilan «*buzdi*» va «*vayron*» (matla'), «*oshkor*» bilan «*pinhon*» (2-bayt), «*ahd-u paymonlar*» bilan «*tarki vafo*», «*vafo qilg'um*» bilan «*yolg'on*» (3-bayt), «*Orzu qildim: «Tutarmen», – deb visoli domanin*» bilan «*Pora bo'ldi hajr ilgida giribon oqibat*» (4-bayt), «*qon*» bilan «*gavhari ashk*» (ko'z yoshi gavhari, 6-bayt), «*subhi nashotim*» bilan «*shomi g'am*» (7-bayt), «*devlar*» bilan «*xayli mo'r*» (chumolilar to'dasi, 8-bayt), «*navbahor*» bilan «*xazon*» (maqta') o'rtasidagi qarama-qarshi ma'no fikrni teranlashtirish, bevosita ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan.

G'azalda talmeh san'atining yorqin namunalari ham uchraydi. Fors-tojik shoiri Farididdin Attorning «*Mantiq ut-tayr*» hamda uning ta'sirida Alisher Navoiy bitgan «*Lison ut-tayr*» dostonlarida tarso (xristian) qizga ishqiy tasvirlangan Shayx San'on (5-bayt), shuningdek, Sulaymon payg'ambar (a. s., 8-bayt) tilga olinishida o'quvchiga oldindan tanish qahramonlar va ular bilan bog'liq voqealarga ishora mavjud.

Savol va topshiriqlar

1. G'azalning hajmi, vazni, qofiya va radifi haqida ma'lumot bering.
2. G'azal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
3. G'azalning mavzusi, uni yoritishda qo'llangan vositalar, jumladan, shoiraning tazod va talmeh san'atlaridan foydalanish mahoratini tahlil qilib bering.
4. G'azalda hijron iztiroblari qanday yo'llar bilan tasvirlangan?
5. G'azalni yodlang.

«KEL, DAHRNI IMTIHON ETIB KET...» G'AZALI

Kel, dahrni imtihon etib ket,
Sayri chamani jahon etib ket.

Bedardlaring jafolaridin
Faryod chekib, fig'on etib ket.

Dunyo chamanini(ng) bulbulisan,
Gul shoxida oshyon etib ket.

Ey ashk, ko‘zimni maktabidin
Hayrat sabaqin ravon etib ket.

Olam chamaniki, bevaforur,
Bir oh bila xazon etib ket.

Ushshoq maqomi bo‘stondur,
Azmi rahi bo‘ston etib ket.

Maqsad na edi, jahona kelding?
Kayfiyatini bayon etib ket.

Fosh etma ulusqa ishq sirrin,
Ko‘ngulda ani nihon etib ket.

Kel, ishq yo‘lida ko‘zlaringni,
Ey Nodira, durfishon etib ket.

Ushbu g‘azal – to‘qqiz baytdan iborat. Vazni – mumtoz she‘riyatimizda ko‘proq ruboiy bitiladigan an‘anaviy hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf, ya‘ni *maf‘ulu mafoilun faulun*. Taqte‘si: – – V / V – V – / V – –.

G‘azalda «*etib ket*» so‘zlari radifga olingan. Har bir bayt mazmuni ana shu ikki so‘z orqali boshqarilgan.

G‘azal ayriqcha zavq-shavq bilan o‘qiladi. Ohangi ham – shunga mos. Shu tariqa kuchli hayotsevarlik tuyg‘usi singdiriladi. G‘azalda umrni mazmunli, unumli o‘tkazish g‘oyasi ham targ‘ib etiladi.

G‘azal: «*Kel*», – degan undalma bilan boshlanadi. Maqta‘ boshida ham xuddi shu murojaat qo‘llangan. Maqta‘ning ikkinchi misrasida esa shoira taxallus ishlatib: «*Ey Nodira*», – degan yana bir undalma keltiradi. Ma‘lum bo‘ladiki, til mantig‘i jihatidan oldingi ikki bor takrorlangan undalma ham aynan Nodiraga qaratilgan. Demak, bu she‘r lirik qahramonning shoiraga murojaati tarzida bitilgan. Odatda ham g‘azalda lirik qahramon muallif tarzida namoyon bo‘ladi. Taxallus qo‘llansa,

demak, endi shoir timsoli lirik qahramon timsolidan alohida timsol hisoblanadi. Bu ikkalasini aslo adashtirib yubormaslik kerak.

Shuning uchun bunday gʻazallarni, shartli ravishda, muallifning oʻzi bilan oʻzi soʻzlashuvi tariqasida baholash ham mumkin.

Toʻrtinchi bayt: «*Ey ashk*», – degan undalma bilan boshlanadi. Shunday qilib, gʻazalda 4 bor undalma ishlatilgani bu ifoda usuli ushbu sheʼrning muhim uslubiy xususiyatlaridan biri ekanini koʻrsatadi.

Endi har bir baytning alohida-alohida maʼno-mazmuni bilan tanishaylik:

*Kel, dunyoni imtihon etib ket,
Jahon chamanini sayr etib ket (matlaʼ).*

*Bedardlarningning jafolaridan
Faryod chekib, figʻon etib ket (2-bayt).*

*Dunyo chamanining bulbulisan,
Gul shoxida oshyon etib (in qurib) ket (3-bayt).*

*Ey koʻz yoshi, koʻzimning maktabidan
Hayrat darsini ravon etib ket (4-bayt).*

*Olam chamani – bevafo,
Bir oh bilan uni xazon etib ket (5-bayt).*

*Oshiqlar maqomi (erishgan darajasi) – bir boʻston,
Ana shu boʻston orqali oʻtib ket (6-bayt).*

*Dunyoga kelishdan maqsading nima edi?
Shuni aytib, kayfiyatini bayon etib ket (7-bayt).*

*Ishq sirini odamlarga oshkor etma,
Koʻngulda uni nihon etib (yashirib) ket (8-bayt).*

*Kel, ishq yoʻlida koʻzlaringni,
Ey Nodira, dur sohadigan qilib ket (maqtaʼ).*

Sezgan bo'lsangiz, g'azalning ko'p misralarini bugungi tilimizga aylantirish uchun ortiqcha o'zgartirish qilishga to'g'ri kelmadi. Bu uning shu qadar ravon va xalqona til va uslubda bitilganidan dalolat beradi. Shu jihati bilan u oldin ko'rib o'tilgan ikki g'azaldan farq qiladi.

G'azalda muayyan ma'noda shoironing badiiy-tab'iy (estetik) dasturi, ya'ni o'z oldiga qo'ygan maqsad-muddaolari bayon etilgan.

Shoira hayot har bir inson uchun bir imtihon ekaniga urg'u beryapti. G'azalda garchi: «*Dunyoni imtihon etib ket*», – deyilgan bo'lsa ham, kishi dunyoni imtihon qilmasligini, aksincha, bu yerda dunyo shaxsni imtihondan o'tkazishi ko'zda tutilayotganini anglab olish kerak. Dunyo imtihonidan o'tish uchun jahonni sayr etish, chuqurroq ma'noda aytilsa, uni o'rganish lozim. Ammo endi bedard (beg'am, beparvo, loqayd) odamlar ham – ko'p. Ular kishiga jafõ yetkazadi. Bunga faryod chekib, fig'on etishga ham to'g'ri kelishi mumkin. Modomiki, o'zingni dunyo chamanining bulbuli deb hisoblasang, endi gul shoxida in qurishing zarur.

Bu da'vat insonni hayotda yuksak pog'onalarni ko'zlab yashashga undaydi. Dunyo – hayratxona. Uning sir-sinoati, go'zalligi, jozibasidan zavq olish kerak. Shu bilan birga, hayot – vaqtincha (bevafo). Shuning uchun unga ko'p ham bog'lanmasdan, undan yuksakroq narsaga (Allohga) muhabbat qo'ygan oshiq'larga ergashish lozim. Chunki inson bu dunyoda aniq maqsad bilan, unga intilib yashashi zarur. Biroq Allohga ishqni hammaga oshkor qilaverish shart emas. Modomiki, ishq yo'lga kirgan bo'lsang, endi ko'zlaringdan dur sochishing kerak. Bu yerda dur, aslida, ko'z yoshi ma'nosida kelgan. Biroq zimdan aytiyaptiki, shoira ishq yo'lida (demak, hayotda) ko'rganlarini dur kabi sochishi (asarlar yaratishi) zarur.

Savol va topshiriqlar

1. G'azalning hajmi, vazni, qofiya va radifi haqida ma'lumot bering.
2. G'azal baytlarini ketma-ketlikka amal qilgan holda sharhlang.
3. G'azaldagi hayotsevarlik g'oyasi targ'ibini uni yoritishda qo'llangan vositalardan foydalanish mahoratini tahlil qilib bering.

4. Gʻazalda qaysi maʼnoda shoiraning badiiy-tabʼiy (estetik) dasturi, yaʼni oʻz oldiga qoʻygan maqsad-muddaolari bayon etilgan?
5. Undalmalarning gʻazaldagi oʻrni va ahamiyatini tushuntirib bering.
6. Gʻazalni yodlang.

MUSTAQIL OʻQISH UCHUN

GʻAZALLAR

«QILMAGʻIL ZINHOR IZHOR EHTIYOJ...» GʻAZALI

Qilmagʻil zinhor izhor ehtiyoj, –
Kim aziz elni qilur xor ehtiyoj.

Hech kim olamda forigʻbol¹ emas,
Har kim oʻz miqdoricha bor ehtiyoj.

Ganji husningni(ng) zakotin ber menga,
Sen gʻaniysan,² menda bisyor ehtiyoj.

Koʻzlarim aylar yuzingni orzu, –
Kim erur koʻzguya diydor ehtiyoj.

Mustamand etti³ meni muhtojlik,
Qildi hojatmanding, ey yor, ehtiyoj.

Gar tilarsen obroʻ ahabob⁴ aro,
Aylama zinhor izhor ehtiyoj.

Qil ravo, albatta, oshiq hojatin,
Boqmagʻil, arz etsa agʻyor⁵ ehtiyoj.

Bir tarahhum⁶ zohir etsang, netgusi,
Qildi husningga meni zor ehtiyoj.

¹F o r i gʻ b o l – xotirjam.

²Gʻ a n i – boy, badavlat.

³M u s t a m a n d e t m o q – gʻamgin qilmoq.

⁴A h b o b – doʻstlar.

⁵A gʻ y o r – dushmanlar.

⁶T a r a h h u m – rahm.

Yor vaslini tilarman, Nodira,
Ayladi ko'nglimni afgor ehtiyoj.

«FIG'ONKIM, GARDISHI DAVRON AYIRDI SHAHSUVORIMDIN...»
G'AZALI

Fig'onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin,
G'amim cho'x¹, ey ko'ngul, sen bexabarsen holi zorimdin.

G'uborim ishq vodiysida barbod o'ldi, andog'kim,
Biyobonlarda Majnun to'tiyo izlar g'uborimdin.

Qizil qondur sirishkim,² za'farondur³ chehrayi zardim,⁴
Meni kim ko'rsa farq etmas, xazon birla bahorimdin.

Buzuldi ro'zgorim, xonayi ayshim xarob o'ldi,
Na rohat ko'rgamen emdi buzulg'on ro'zgorimdin.

Biyobonlarni izlab topmadim yorim so'rog'ini,
Berurman jon, sabo nogah xabar keltursa yorimdin.

Diyorim ahli mendin yorsiz begona bo'lmishlar, –
Ki men ham yorsiz ozurdamen⁵ yor-u diyorimdin.

Gahi yirtib yaqo, gah qon yutub, gohi fig'on ettim,
Nelar o'tdi bu aqshom, Nodira, joni figorimdin⁶.

«BO'LDI UL FURSATKI, TARKI SUHBATI OLAM TUTAY...»
G'AZALI

Bo'ldi ul fursatki, tarki suhbati olam tutay,
Qon to'kib ko'z mardumidin shevayi motam tutay.

¹Ch o' x – ko'p.

²S i r i s h k – tomchi; ko'z yoshi.

³Z a' f a r o n – xushbo'y sariq gulli o'simlik.

⁴Z a r d – sariq (rang).

⁵O z u r d a – ranjigan.

⁶F i g o r – ezilgan, jarohatlangan.

Shah Umar sulton jahondin ketdi ul shavkat ila
Emdi davron ahlidin chashmi¹ muruvvat kam tutay.

O'tti subhi vasl, keldi shomi anduh-u firoq,
Marhabo, ey dog'i hasrat, kelki bazmi g'am tutay.

Bodasiz mino-vu² jom oxir nashotafzo³ emas,
Emdi bodi g'unchayi gul bu chamanda kam tutay.

Qon bo'lur ko'ngul oning davrini yod etkan zamon,
Men nechuk tab'imni shod-u xotirim xurram tutay.

Furqatidin yig'lamoqdin qolmadi ko'z ichra yosh,
Emdi xuni⁴ dil ila ko'z safhasin purnam⁵ tutay.

Bazmi vaslin ko'rmaganlar furqatidin dog'dur,
Menki ko'rdim davlatin, o'zni nechuk beg'am tutay.

Topmog'im o'lmas muyassar ul guli xandon base,
Gar hama sayri jahon-u arsayi⁶ olam tutay.

Ko'nglumi hijron o'ti aylar damo-dam zaxmnok,⁷
Qil madad, ey sabr-u toqatkim, anga marham tutay.

Yodgor ul shohdin qoldi manga durdonasi,
Emdi oni(ng) davlatin shukrini mustahkam tutay.

Nodira, ketti ilikdin shahriyorem domani,
Emdi avlodin duo etmak yo'lin mahkam tutay.

¹Ch a sh m – ko'z.

²M i n o – shisha (idish).

³N a sh o t a f z o – xursandchilik bag'ishlovchi.

⁴X u n – qon.

⁵P u r n a m – sernam.

⁶A r s a – maydon; sahro.

⁷Z a x m n o k – yarali.

O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXIDAN

XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTIDAN

ABDURAUUF FITRAT

(1886–1938)



XX asr boshidagi o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotining yetakchi siymolaridan biri Abdurauuf Fitrat ko‘hna ilm-fan markazlaridan bo‘lmish Buxoro shahrida 1886-yilda tavallud topgan.

Uning otasi Abdurahimboy zamona-sining o‘ziga to‘q, o‘qimishli, dunyo ko‘rgan kishilaridan edi. Uning tirikchiligi sarroflik (pul maydalovchi, pul almash-tiruvchi) va savdogarlik bilan kechgan. Kasbi taqozosi bilan boshqa yurtlarga, hatto Turkiya, Eron, Qashqarga tez-tez bo-rib-kelib turgan.

Onasining ismi Bibijon (to‘la nomi Nastarbibi, ayrim man-balarda Mustafbibi deb aytiladi) bo‘lgan. Fitrat 1937-yilda «xalq dushmani» sifatida qamoqqa tashlanganda onasi hayot edi.

Bu oilada Abduraufdan keyin yana ikki farzand tug‘ilgan – Abdurahmon va Mahbuba.

Bo‘lg‘usi ijodkor avval shahardagi ko‘plab eski maktab-lardan birida, keyin mashhur Mir Arab madrasasida o‘qiydi. 18 yoshlarga yetganda, bir muddat otasining ishlariga yordam beradi, u bilan birga haj ibodatiga ham boradi. 1904–1907-yil-lar oralig‘ida ro‘y bergan shu safarlar davomida yosh Fitrat dunyoning Turkiya, Eron, Hindiston, Arabiston, Rusiya singari mamlakatlarini o‘zi uchun kashf qiladi. Albattaki, bu sayohat-

lar uning dunyoqarashi kengayishiga turtki bo'lad, o'z yurtidagi ahvolga chetdan turib nazar tashlash imkoniyatini beradi.

1909-yilda Abdurauf o'zining bir necha hamshaharlari bilan birgalikda Istanbul (Turkiya)ga o'qishga ketadi. 1913-yil oxirigacha Istanbuldagi «dorulmuallimin» – muallimlar gimnaziyasida tahsil oladi.

Juda yoshligidan badiiy ijodga qiziqib, uning turli janrlarida mashqlar qilib kelayotgan Fitrat 1909-yilda dastlabki yirik asarini e'lon qiladi. Bu Istanbulda chop etilgan «Munozara» kitobi edi. Mazkur asarning to'liq nomi «Hindistonda bir farangi ila buxorolik mudarrisning jadid maktablari xususida qilgan munozarasi» bo'lib, u fors tilida yaratilgan.

Shundan so'ng 1911–1912-yillarda birin-ketin uning forsiy tilda yozilgan she'rlari to'plami – «Sayha» («Na'ra»), nasriy asari – «Hind sayyohi qissasi» («Bayonoti sayyohi hindi») bosilib chiqadi. O'sha yillari Turkiya yoshlari orasida avj olgan hurfikrlik Fitratga ham kuchli ta'sir etgani, u uzoqda turib ona yurti Buxoroning ayanchli ahvoriga qanchalar achingani mazkur asarlarda o'z ifodasini topdi.

Biroq o'qishni tugallab yurtiga qaytgan Fitrat mavjud ahvorni o'zgartirish oson kechmasligini ich-ichdan his qiladi. Zero, butun Turkistonda bo'lgani singari Buxoroda ham diniy mutaassiblik, jaholat va qonunsizlik barcha jabhalarda hukm surar, kishilar ongida o'zgarish yasamay turib, jamiyatda biror ijobiy o'zgarish qilishning imkoniyati yo'q edi.

Shu tufayli ham Fitrat o'z davrining Ismoilbek Gasprinskiy (Rusiya ma'rifatparvari), Mahmudxo'ja Behbudiy, Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy singari fidoyilari tutgan yo'ldan borishga ahd qiladi. Shahrisabz va Karkida yangi usul – jadid maktablari ochadi, bolalarga zamonaviy ta'lim berishni joriy qiladi.

Fitrat nazarida millatni uyg'otish, uning ongini yuksaltirishning muhim yo'nalishlaridan biri – matbuot, adabiyot va san'at orqali xalqqa ta'sir etish edi. Shu maqsadda ijodkor publitsistika va adabiyotning turli janrlarida o'nlab asarlarni yozib, e'lon qildi. «Rahbari najot» (1915), «Oila» (1916), «Begijon» (1916), «Mavludi sharif» (1916), «Abo Muslim» kabi asarlari

shular jumlasidandir. Bunga qo‘shimcha Fitrat yangi maktablar uchun darsliklar ham ijod qiladi. Uning «Muxtasar islom tarixi» (1915), «O‘qu» (1917) va boshqa kitoblari Behbudiy, Avloniy, Hamza darsliklari singari bolalar ta‘lim-tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi.

Fitrat 1917-yil fevral inqilobidan keyin siyosiy harakatlarga yana-da faolroq aralasha boshlaydi. Buxoro jadidlarining «Yosh buxoroliklar» firqasiga sarkotib bo‘lib saylanadi. Samarqandda chop etiladigan «Hurriyat» gazetasida o‘zining o‘tkir maqolalari bilan ketma-ket chiqishlar qiladi. Fitrat 1917–1918-yillar oralig‘ida bu gazetaga bosh muharrir ham bo‘ladi.

1917-yil oktabrida Rusiyada bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan davlat to‘ntarishini har kim har xil kayfiyatda qarshi oladi. Kimdir unga katta umid bog‘lagan bo‘lsa, ko‘pchilik bo‘lib o‘tgan hodisaning asl ma‘nosini anglolmay, taraddudda qolgandi. Fitrat esa bu hodisaga o‘zining uzil-kesil bahosini shu kunning o‘zidayoq ochiq e‘lon qiladi. «Hurriyat» gazetasining 1917-yil 7-noyabr sonida u: «Rusiyada yangi bir balo bosh ko‘tardi: bolshevik balosi!» – deb yozdi.

5-sinfdagi adabiyot darsligidan bilasizki, xuddi o‘sha paytlar Fitrat «Yurt qayg‘usi» degan turkum she‘rlar yozib, bolsheviklar o‘z yurtiga yana-da ko‘proq qayg‘ular olib kelishini oldindan bashorat qilgan edi.

Shunday bo‘ldi ham: sho‘rolar 1917-yil 27-noyabrda tuzilgan Turkiston muxtoriyati qonuniy hukumatini oradan uch oy ham o‘tmay mahv etdilar. Buxoroda bo‘lsa, johil ulamolar so‘zidan chiqmagan, o‘z taxtidan ayrilib qolishdan cho‘chigan amir yosh buxoroliklarni qirg‘in qilish yo‘liga o‘tdi. 1918-yil bahorida Fitrat Toshkentga chaqirib olindi va bu yerda maorif va madaniy ishlarga jalb qilindi. Maktablarda, dorulfununda til va adabiyotdan saboqlar berdi.

1919-yilning boshida Fitrat Toshkentda birinchi bor Cho‘lpon bilan uchrashdi. Bu ikki buyuk iste‘dodning do‘stligi ular qatag‘on qilingan kunga qadar davom etdi.

Fitrat 1918-yilda Toshkentda «Chig‘atoy gurungi» deb nomlangan ilmiy-ma‘rifiy jamiyatni tashkil etadi. Bu tarixiy yig‘in

bor-yo‘g‘i uch yil faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa-da, yangi davr o‘zbek madaniyati, gumanitar soha fanlarining shakllanishida beqiyos rol o‘ynagandi.

Fitrat o‘zbek dramaturgiyasi rivojiga ham salmoqli hissa qo‘shgan adib hisoblanadi. Uning «O‘g‘uzxon», «Chin sevish» (1920), «Abulfayzxon» (1924), «Shaytonning tangriga isyoni» (1924), «Arslon» (1926) singari o‘nlab dramalari o‘zbek teatrlari sahnasida katta muvaffaqiyat bilan qo‘yilgandi.

1920-yil oxirlarida Fitrat o‘zining sadoqatli do‘sti Fayzulla Xo‘jayevning taklifi bilan Buxoroga qaytadi. Unga F.Xo‘jayev boshchiligidagi Buxoro hukumatining yirik lavozimlari ishonib topshiriladi. Fitrat va F.Xo‘jayev tashabbusi bilan o‘sha yillardayoq 60 nafardan ko‘proq yoshlar davlat yo‘li bilan Germaniyaga o‘qishga yuboriladi. 1921-yil mart oyidan e‘tiboran Buxoro Jumhuriyatida turk (o‘zbek) tili davlat tili deb e‘lon qilinadi. Buxoro teatri ish boshlaydi, ilmiy jamiyatlar tuziladi...

Yosh, mustaqil jumhuriyatning bu yutuqlaridan xavotirga tushgan bolsheviklar partiyasi markazqo‘mi 1923-yil 12-iyundagi o‘zining maxsus majlisida «Buxoro masalasi»ni muhokama qiladi. Mazkur majlisda «Buxoro hukumati nomi ostida ish ko‘rayotganlarning xalq va sovet hukumatiga hech bir aloqadorligi yo‘q» ekani, «bu yerda hokimiyatga boylar, savdogarlar tortilgani, birorta ham dehqon yo‘qligi» qattiq tanqid qilinadi. Oradan 11 kun o‘tgach – 23-iyunda Buxoroda bo‘lgan kommunistlar plenumida Buxoro hukumatining besh a‘zosi partiyadan o‘chirilib, ishdan haydaladilar. Ular orasida Xalq xo‘jaligi kengashi raisining o‘rinbosari Abdurauf Fitrat ham bor edi.

Fayzulla Xo‘jayevning ko‘magi bilan adib Moskvaga ketadi va 1923–1924-yillarda Sharq tillari institutida mehnat qiladi. Shuningdek, hozirgi Sankt-Peterburg universitetining sharq fakultetida sharq xalqlari tili, adabiyoti, madaniyatidan ma‘ruzalar o‘qiydi, professorlik unvoniga ega bo‘ladi.

Ilmiy faoliyatga jiddiy berilgan Fitrat shu yillari «Bedil» ilmiy-ommabop ocherkini, «O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba: Sarf (1-kitob), Nahv (2-kitob)», «Sarfi zaboni tojik», «Adabiyot qoidalari» singari darslik-qo‘llanmalarni e‘lon qiladi.

Adib O‘zbekistonga 1927-yilda qaytib keladi. Samarqandda tashkil etilgan Oliy Pedagogika instituti (hozirgi SamDU) da ishlay boshlaydi. Ilmiy izlanishlarining mevasi o‘laroq, birin-ketin uning «Eng eski turkiy adabiyot namunalari», «O‘zbek adabiyoti namunalari», «Sharq shaxmati», «O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi», «Fors shoiri Umar Xayyom» singari ilmiy asarlari dunyoga keldi.

Fitrat o‘nlab mumtoz shoirlarimizning ijodiy merosini izlab topish, tadqiq etish va nashr qilishda alohida jonkuyarlik ko‘rsatdi. U 1936-yilda «Aruz haqida»gi kitobini ham e‘lon qildi.

Afsuski, 30-yillardan e‘tiboran avj olib ketgan siyosiy ta‘qib – terror muhiti ko‘plab ziyolilar qatori professor Fitratni ham chetlab o‘tmadi. Vaqtli matbuotda, ketma-ket uyushtirilgan turli majlislarda Fitrat «millatchi», «turkparast», «islomparast», hatto «g‘arbning josusi» sifatida qoralandi, unga kurakda turmaydigan ayblovlar taqaldi. Nihoyat, 1937-yilning 24-aprelida u qamoqqa olindi.

Tergovning biror bir qonuniy talablariga amal qilinmay o‘tkazilgan so‘roq-savollardan so‘ng, Abdurauf Fitrat «xalq dushmani» sifatida ayblanib, 1938-yilning 4-oktabrida Toshkentda otib o‘ldirildi. Bu qotillikning g‘ayriqonuniy harakat ekani-ni shundan ham bilsak bo‘ladiki, Fitratning qatl etilishi e‘lon qilingan hukmga u ijro etilganidan bir kun keyin – 5-oktabrda imzo chekilgan.

Yurtimiz istiqloлга erishganidan keyingina millatparvar shoir-yozuvchilarimiz to‘g‘risidagi barcha haqiqat ro‘yobga chiqdi. Fitratshunos olimlarimizdan H.Boltaboyev, B.Qosimov, I.G‘aniyev, B.Ergashev va boshqalar adib hayoti va ijodi to‘g‘risida o‘nlab yangi tadqiqotlarni e‘lon qildilar.

«Ma‘naviyat» nashriyoti tomonidan 2000-yilda Fitratning 2 jildlik «Tanlangan asarlar» to‘plami chop etildi. Bugun Fitrat nomida respublikamizning barcha viloyatlarida ko‘chalar bor. Buxoroda uning yodgorlik muzeyi ochilgan, xiyobon barpo etilgan. Abdurauf Fitratga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti va «Bukuk xizmatlari uchun» ordeni berilgan.

1. Abdurauf Fitratning bolalik va o'smirlik yillari qanday muhitda kechdi? Bu muhit Fitrat shaxsiyatining shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatdi?

2. Xorijga qilingan sayohatlar bo'lg'usi ijodkorga qanday imkoniyatlar berdi? Bu nimalarda aks etadi?

3. Sinfdozlaringiz orasida xorijiy mamlakatlarga borgan do'stlaringiz bo'lsa, ulardan o'z taassurotlarini sinfda gapirib berishini iltimos qiling.

4. Fitratning dastlabki asarlari qachon e'lon qilindi?

5. Adib Rusiyada bo'lib o'tgan siyosiy hodisalarga qanday munosabatda bo'ldi? Uning bu munosabati o'zini oqladimi? Javobingizni misollar bilan isbotlang.

6. Jadidchilik harakati namoyandalari olg'a surgan asosiy g'oyalarni sanab bera olasizmi? Nima uchun ular xalq maorifiga bu qadar katta e'tibor bergandilar?

7. Fitratning serqirra faoliyat egasi bo'lganini nimalardan bilamiz?

8. O'zbek fani, madaniyati, maorifi, jurnalistikasi rivojiga Fitrat qo'shgan hissani qanday dalillar bilan isbotlasi bo'ladi?

9. Fitratning hayoti qanday yakunlandi? Bunda asosiy aybdor deb kimni yoki nimani ko'rsatgan bo'ladingiz?

10. Abdurauf Fitrat shaxsi, uning hayoti va ijodiy merosiga bugungi munosabat qanday ekanini misollar bilan isbotlashga harakat qiling. Sizing maktabingizda bu adibga bag'ishlangan ijodiy kecha yoki boshqa tadbirlar o'tkazilganmi?

MIRRIX YULDUZIGA

Go'zal yulduz, yerimizning eng qadrli tuqq'ani!
Nega bizdan qochib muncha uzoqlarg'a tushibsan,
Tuvg'aningga nechun sira gapurmasdan turibsan?
So'yla, yulduz, holing nadir? Nechuk topding dunyoni?
Bizning yerda bo'lib turgan tubanliklar, xo'rliklar,
So'yla, yulduz, sening dag'i¹ quchog'ingda bo'lurmi?
Bormi senda bizim kabi insonlar,
Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar.
O'rtoq qonin qonmay ichkan zuluklar,
Qardosh etin to'ymay yegan qoplonlar?
Bormi senda o'ksuz² yo'qsulning qonin –
Gurunglashib, chog'ir³ kabi ichkanlar?
Bormi senda butun dunyo tuzugin⁴
O'z qopchig'in to'ldirg'ali buzg'anlar.

¹ S e n i n g d a g ' i – s e n i n g h a m .

² O ' k s u z – b a x t s i z .

³ C h o g ' i r – s h a r o b , m a y .

⁴ T u z u k – n i z o m , t a r t i b , y a s h a s h t a r z i .

Bormi senda bir o'lkani yondirib,
O'z qozonin qaynatg'uchi xoqonlar.
Bormi senda qorin-qursoq yo'lida
Elin, yurtin, borin-yo'g'in sotqonlar?

Fitratshunoslarning ta'kidlashicha, «Mirrix yulduziga» she'ri 1920-yilda yozilgan. Xo'sh, bunchalik dard va fig'onga to'la she'r yozilishiga o'sha yillari nimalar sabab bo'lgan?

Kelasi o'quv yilining tarix darslarida Turkiston o'lkasining XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid tafsilotlar bilan batafsil tanishasiz. Biz hozir millatparvar ijodkorlar qalbini yaralagan o'sha davrning ayrim voqealarinigina aytib o'tamiz. Shundagina Fitrat she'riining mohiyatini, bu asarda mujassam bo'lgan millat qayg'usini anglash mumkin bo'ladi. Shundagina shoir Fitrat jasorati, uning insoniy fazilatlarini ko'z oldimizda yaqqolroq namoyon bo'ladi.

XIX asrning 60–70-yillari davomida Turkiston o'lkasi Chor Rossiyasi tomonidan istilo qilinadi. Bu paytda o'lka Qo'qon xonligi, Xiva xonligi, Buxoro amirligi singari uchta alohida davlat shaklida yashardi. Shu tufayli ham istilochilar uchun ularni yakka-yakka holda o'ziga bo'ysundirib olish nisbatan oson ko'chadi. Garchi, Buxoroda rasman amir saltanati saqlab qolingani bo'lsa-da, bu hukumat Rossiyaning chizgan chizig'idan chiqqan olmas edi.

1917-yilning oktabrida xuddi Petrograd (Rossiyaning o'sha paytdagi poytaxti)da bo'lgani singari Toshkentda ham hokimiyat sho'rolar (sovetlar) qo'lga o'tadi. Ular hukumat tepasiga juda katta va'dalar, mehnatkash ommaga yoqadigan chaqiriqlar bilan kelgan edilar. 1920-yilga kelib Buxoroda ham amir saltanati zo'rlik bilan ag'dariladi. Qizil qo'mondon – M.V.Frunze boshchiligidagi qo'shin qadimiy shaharni shafqatsizlarcha to'pga tutadi. Xuddi shu janglarda Turkiston o'lkasi tarixida ilk marotaba aeroplanlar – ibtidoiy samolyotlar yordamida shaharga bombalar yog'diriladi. Shahar xalqi vahshiyona qiriladi. Qadim Buxoroning ming yillik obidalari yer bilan yakson qilinadi.

Fitratning tarjimayi holidan bilamizki, bu paytda u Toshkentga chaqirib olingan, shu yerdagi ishlar bilan band qilingan

edi. Biroq millati taqdiriga kuyingan shoirga birgina Buxoroda emas, balki Toshkentda va Turkistonning boshqa chekkalarida bo‘layotgan xunrezliklar ham achchiq xulosalar chiqarishi uchun yetarli edi.

Bundan sal oldin – 1918-yilning fevralida sho‘ro hukumati-ning yolg‘on va‘dalariga ishonib tuzilgan Turkiston muxtoriyati hukumati va Farg‘ona vodiysining o‘n minglab fuqarosi qonga botirilgandi. Toshkent va Samarqandda, Andijon va Farg‘onada hali u, hali bu bahona bilan tinch aholi qirg‘inbarot qilinar, milliy rahbarlarga turli ig‘volar uyushtirilardi.

Bolsheviklar hukumati bergan va‘dalar birin-ketin puchga chiqar, o‘lka aholisi qayerdan va kimdan najot olishni bilmay, tang ahvolda qolgandi.

Endi, mana shu voqealarni ko‘ngildan his etgan holda, Fitratning «Mirrix yulduziga» she‘rini qayta mutolaa qilaylik.

Go‘zal yulduz, yerimizning eng qadrli tuqq‘ani!
Nega bizdan qochib muncha uzoqlarg‘a tushibsan...

Avvalo, asarning lirik qahramoni (bu o‘rinda shoirning o‘zi) mazkur she‘rda nega aynan Mirrix yulduziga murojaat etayotganiga e‘tiborni qarataylik.

Mirrix – Mars sayyorasi Shamsiy (Quyosh) yil hisobida Hamal (Mart) oyining homiy sayyorasi hisoblanadi. Bu oyning unsuri – xos belgisi – olovdir.

Xalqimiz 21-martdan boshlanadigan oyni (Navro‘zni) olqishlab, «Hamal keldi – amal keldi», deydi. Shoir xuddi shunga ishora qilaroq, Mirrix yulduzini «yerimizning eng qadrli tuqq‘ani» – qarindoshi deya ataydi.

Boya aytganimizdek, 1917-yilda yuz bergan fevral va oktabr to‘ntarishlaridan keyin Turkiston xalqi, nihoyat, ko‘ksiga oftob tegishini, bu zamin uzra ham ozodlikning iliq shabadalari esishini orzu qilgandi. Bilasizki, hamal oyida butun tabiat uyqudan bosh ko‘taradi. Yam-yashil maysalar chirkin xazonlar bag‘rini yoraroq quyoshga qarab talpinadi.

Fitratning nazarida, Chor hukumatining uzoq yillar davom etgan zulmi ostida ezilgan o‘lka, o‘z taqdirining hamal oyiga –

amal oyiga endigina qadam qo‘ydim, deb o‘ylagandi. Biroq birdan izg‘irin shamol turib bu orzularni yer bilan yakson qildi, o‘zining sovuq panjalari bilan yam-yashil umidlarni g‘ijimlab tashladi.

Chor hukumatidan-da vahshiyroq to‘da – qizillar hokimiyati o‘z hukmronligining dastlabki yillaridan boshlaboq o‘lka boshiga misli ko‘rilmagan ko‘rgiliklarni yog‘dirdi.

Bizning yerda bo‘lib turgan tubanliklar, xo‘rliklar,
So‘yla, yulduz, sening dag‘i quchog‘ingda bo‘lurmi?

Fitratning aynan Mars – Mirrix yulduziga murojaat qilishining yana bir ilmiy-mantiqiy sababi bor. Mars – Mirrix yulduzi, boshqa bir mifologik qarashlarga ko‘ra, jang-u jadal ramzi, yunonlarda urush xudosi hisoblanadi.

Shoir o‘z o‘lkasida bo‘lib o‘tayotgan xunrezliklar ko‘lamini urg‘ulab ifodalamoq uchun uni jang-u jadallar makoni – Mirrix (qonday qizil sayyora!) bag‘ridagi hodisalarga qiyoslaydi. Uning nazdida, Turkistonda yuz berayotgan adolatsizliklar olovi, hatto Mirrix yulduzini-da uzoqlarga qochmoqqa majbur etgan, indamay lol qotishiga sabab bo‘lgan.

Bormi senda butun dunyo tuzugin
O‘z qopchig‘in to‘ldirg‘ali buzg‘anlar...

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, marksizm-leninizm mafkurasi asosida ish ko‘rgan sho‘rolar hukumati «butun dunyo tuzugini» – insoniyatning asrlar osha sinovdan o‘tgan yashash tarzini o‘zgartirishga kirishgandi. Bu hukumat odamlarning xususiy mulkka bo‘lgan haq-huquqini bekor qilish, har bir millatning o‘z tarixiy an‘analari asosida yashash huquqini mensimaslik yo‘lidan bordi.

Kechagina tinch-osoyishta yashayotgan yagona xalq vakillari birdaniga «boy» va «kambag‘al»ga ajratilib, ularni bir-biriga qarshi gij-gijlashga zo‘r berildi. Natijada, ming yillar davomida amal qilinib kelingan hayot qonuniyatlari buzildi, bir millat vakillari birodarkushlik urushi oloviga tortildi.

Bularning bari, aslida, bir maqsad yo'lida – «o'z qopchig'in to'ldirg'ali» – turli xalqlar boyliklarini talash, ularni yangicha shakldagi qullik iskanjasiga olish maqsadida amalga oshirilgandi.

Fitrat «Mirrix yulduziga» she'rida o'zimizdan chiqqan sotqinlar – yurtfurushlarni ham dadil fosh qiladi. Kelgindi hukumat qutqusiga – va'dalariga uchib, o'z millati va xalqini bosqinchilarga ipsiz bog'lab berishdan toymagan, «qorin-qursoq yo'lida elin, yurtin, borin-yo'g'in sotqonlar» shoirning o'tli naf-ratiga duchor bo'ladilar. Ular el-u yurtni o'zgalarga sotish bilan «borin-yo'g'in» – imonin, vijdonin, millatin sotdilar.

1920-yilda – sho'rolar hukumati barcha jabhalarda rahbarlikni qo'lga olayotgan, har qanday qarshilikni shafqatsizlarcha bostirayotgan bir pallada «Mirrix yulduziga»dek o'tli she'rlarni yozish ijodkordan juda katta qahramonlikni, jasurlikni talab etar edi. Bunday misralar bilan omma oldiga chiqish – o'z boshini kundaga tutib berish bilan barobar edi.

Buni juda yaxshi his qilgan Fitrat xavf-xatardan qo'rqib o'tirmadi. Uning yurtiga bo'lgan farzandlik muhabbati, tilda emas, qalbda yashagan Vatanga fidoyilik hissi har qanday xavf-dan ustun keldi. Fitratning o'tgan asrning boshlarida yozgan o'tli bu misralari hanuz unutilmay yashayotganining chin sababi ham ayni shundadir!

Savol va topshiriqlar

1. Fitrat va unga zamondosh ijodkorlarning millatparvarlik ruhidagi asarlar yozishiga sabab bo'lgan tarixiy hodisalar to'g'risida nimalarni bilasiz?

2. Sho'ro (sovet) tuzumining dastlabki yillarida o'zingiz istiqomat qiladigan hududlarda ro'y bergan hodisalar to'g'risida keksalardan so'rab, bilib olishga harakat qiling.

3. O'z oilangiz taqdirida bu tuzum qanday iz qoldirganini bobo va buvilaringiz esdaliklari asosida hikoya shakliga keltirib, sinfda o'qib bering.

4. «Mirrix yulduziga» she'rini yozib e'lon qilish bilan Fitrat qanday maqsadni ko'zlagan, deb o'ylaysiz?

5. «Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar» faqat Fitrat zamoniga xos kimsalar edi, desak, to'g'ri bo'ladimi? Yaqin va uzoq tarixdan olingan misollar bilan fikringizni isbotlashga harakat qiling.

6. Shoir kimlarni «Qardosh etin to'y may yegan qoplonlar»ga o'xshatyapti?

7. Nega bir o'lkaya yonsa, kimlarningdir qozoni qaynaydi? Dunyodagi shunday «tartib»ni adolatli deb hisoblaysizmi? Sizningcha, chinakam adolatli tartib qanday bo'ladi?

8. Bugungi kunda ham dunyoning qay bir burchidagi o'lkalarga o't qo'yib, o'z qozonini qaynatishga urinishlar bo'lyaptimi? Misollar bilan isbotlang-chi!

9. XX asrning 20–30-yillarida yaratilgan asarlar orasida «Mirrix yulduziga» she'riga mazmunan yaqin turadigan yana qanday asarlarni o'qigansiz?

10. «Mirrix yulduziga» she'rini o'qishli qilib turgan jihatlar nimalardan iborat?

11. Badiiy asar pafosi deganda nimalar tushunilishi to'g'risida o'qituvchingizdan so'rab, bilib oling.

O'GUT

Og'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda
Bu millatning saodatin, baxtin o'qudim.
O'ylashingda, turishingda hamda o'zungda
Bu yurt uchun qutulishning borlig'in ko'rdim.

Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal,
Hurkma – kirish, qo'rqma – yopish, yo'rilma¹ – qo'zg'al!
Yel yo'lini to'sib turgan eski bulutlarni
Yondirib qo'y, yirtib tashla, barchasin yo'q et.
Qilolmasang shu ishlarni,
Sening uchun xo'rlikdir bu...
Yiqil, yo'qol, ket!

Shoirning «O'gut» she'ri bundan oldin tahlil qilingan «Mirrix yulduziga» asarining mantiqiy davomidek yangraydi.

Xo'sh, buni nimalarda ko'ramiz?

Guvohi bo'ldikki, «Mirrix yulduziga» she'rida Turkiston o'lkasi XX asr boshlarida tushib qolgan g'oyat achinarli holat o'z ifodasini topgan. Jafokash Vatan vujudiga joylashib olib, qonini zulukdayin so'rgan kimsalar kirdikoridan ozorlangan lirik qahramon xayolan Mirrix yulduziga murojaat etadi. Bu murojaat boshdan-oyoq achchiq savollardan tashkil topgan. Afsuski, «yerimizning eng qadrlil tuqg'ani» – go'zal Mirrix ham bu holdan lol qotgan – sira gapirmaydi, gapirolmaydi. Tabiatan o't-olovga

¹ Yo' r i l m a – charchama, o'tirma.

qiyos beriladigan shu yulduz ham yer yuzida bo'layotgan adolatsizliklardan bezib uzoqlarga qochgan...

Shoir «O'gut»da o'zi va millati dardlariga najotni topganday bo'ladi. Bu najot – xalqning og'ir-vazmin, mulohazakor, biroq ko'zlari yoniq farzandlari – yigitlaridir!

Bu yigitlarning nurli ko'zlarida shoir millatning ertangi kuni-ni, baxt-u iqbolini ko'radi. Zero, har qanday xalqning kelajagi uning bag'ridan yetishib chiqajak avlodga, bu avlodning millat orzularini qanchalik chuqur anglashiga bog'liqdir. Oradan yillar o'tib, o'zbekning boshqa bir iste'dodli ijodkori «Yigitlarga» degan mashhur she'rni yozadi. Bu she'rdan shunday hikmatli misra ham o'rin oladi:

Yigit omon bo'lsa, xavf-u xatar yo'q...

(G'afur G'ulom)

Yigitning omonligi esa faqat uning sog'ligi, to'rt muchasi butligi bilan o'lchanmaydi. «Yigitning omonligi» degan tushuncha o'z bag'riga nihoyatda ko'p mazmunni, talabni jamlaydi. Devday yigitlari bo'laturib, yovga yengilgan – do'stga zor, dushmanga xor, nomardga muhtoj bo'lgan xalqlarni ham juda ko'p ko'rdi bu olam.

Yigitning omonligi – uning imoni butligi, millatga fidoyiligi, mushfiqlarga shafqati, do'stlarga sadoqati, yorga vafodorligi, dushmanga nafratidir!

Bunday yigitning nigohi ma'nosiz va so'lg'in emas, balki nurga, yog'duga to'la bo'ladi! Bunday o'g'lonning tili ming'irlashga, g'iybat-u mayda gapga aylanmaydi. U so'zlaganida xalq jon-u dilini berib tinglaydi, uning ortidan ergashadi.

Jo'mard farzand o'z or-u nomusini o'zgaga toptatib, bu holga bahona izlab o'tirishdan o'limni afzal biladi. Chinakam xalq farzandi uchun millat va mamlakat taqdiri har narsadan muhimroqdir!

Shoir ayni shunday avlodni ko'rgandek – najotni topgandek bo'ladi. Va yuragi orziqib, bu avlodni shiddatga – harakatga undaydi:

Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal,
Hurkma – kirish, qo‘rqma – yopish, yo‘rilma – qo‘zg‘al!

Zero, shoirning shoshganicha, shoshtirganicha bor edi. Uni muvozanatdan chiqargan, qo‘liga qalam, ko‘ngliga olov bergan hodisalar zarracha vijdoni bo‘lgan insonni befarq qoldirishi mumkin emas! Bu hodisalarning ayrim manzaralari, aytganimizdek, uning «Mirrix yulduziga» she‘rida jonli ifodasini topgan.

«O‘gut» she‘rining sarlavhasi zamirida «pand», «nasihat», «maslahat» ma‘nolari emas, balki ko‘proq «chaqiruv», «da‘vat», «uyg‘otish» ma‘nolari yotibdi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Qolaversa, «og‘ir yigit»ga qaratilgan bu murojaatda bir shoir iltijosi, da‘vatigina emas, bu haroratli ovozda kamida bir millatning asriy istagi, qalb chaqirig‘i eshitilmayaptimi?!

...Qilolmasang shu ishlarni,
Sening uchun xo‘rlikdir bu...
Yiqil, yo‘qol, ket!

Savol va topshiriqlar

1. Nega shoir «O‘gut» she‘rida o‘z murojaatini aynan yigitlarga qaratganini izohlab bering.

2. O‘zbek she‘riyatida chaqiriq, murojaat shaklida bitilgan yana qanday asarlarni bilasiz? O‘sha she‘rlar bilan Fitrat asarining o‘xshash va farqli jihatlarini topishga harakat qiling.

3. Sizingcha, she‘riy chaqiriq, da‘vatning odamga tez va samarali ta‘sir ko‘rsatishining asosiy sababi nimada?

4. «O‘gut» she‘ri lirik qahramonini nimalar umidlantiradi?

5. «Bu yurt uchun qutulishning borlig‘in ko‘rdim...» deganda ijodkor nimalarni nazarda tutadi?

6. She‘riy asarda «Yel yo‘lini to‘sib turgan eski bulutlar» shaklini olgan tarixiy hodisalar nimalar edi? («Mirrix yulduziga» she‘ri tahlilida aytilgan faktlarni esga oling.)

7. «Bulutlarni yondirish», «yirtib tashlash», «barchasin yo‘q etish», aslida, nimaning «vazifasi»? Shundan kelib chiqib, shoir yigitlarni nimaga o‘xshashlarini orzu qiladi?

8. Lirik qahramon talab etgan ishlarni qilolmaslik yigit uchun nega xo‘rlik bo‘lishi kerak? Bu xo‘rlikning ortida nimalar turishini mulohaza qilib ko‘ring-chi.

9. Ixtiyor Sizda bo'lganida, bu she'rga yana qanday sarlavhani taklif etgan bo'lardingiz?

10. Avvalgi sinflarda Fitratning yurtparvarlik ruhida yozilgan qanday asarlarini o'rganganingizni eslang. Bu asarlar bilan «Mirrix yulduziga», «O'gut» she'rlari orasidagi o'xshash jihatlarni izohlashga urining.

11. «O'gut» she'ri bugungi yoshlar uchun ham da'vat bo'la oladimi? Fikringizni misollar bilan kengroq ifodalashga harakat qiling.

12. Shoir zamondoshlari uning o'gutiga to'liq quloq solib, amal qildilarmi? Natijasi nima bo'ldi?

«GO'ZALIM, BEVAFO GULISTONIM...»

Go'zalim, bevafo gulistonim,
Bog'i umrimda toza rayhonim,
G'am-u qayg'ularim hujumidan
Sen eding mehribon nigahbonim.
Meni behuda tashlading-ketding,
Nega o'ldirmading-da, tark etding.
Kel, gulim, kel, ayoqingg'a yiqilay,
Bir zamon qo'y: to'lib-toshib yig'lay.
Qo'y, biroz qo'yki, xoki poyingni
Surmadek yoshli ko'zuma suray.
Ketma, tur, tingla arzi holimni,
Arz etay holi purmalolimni.
Qani ul damki, sen eding yorim,
Munisim, hamdamim, madadkorim.
Sening og'ushi iltifotingda
Rohat etmishdi jismi bemorim.
Meni behuda tashlading-ketding,
Nega o'ldirmading-da, tark etding.
Kel, ayoqingg'a qon bo'lub to'kulay,
Bir nafas dardi hajrdan qutulay.
Kel, go'zal dilbarim, kel, sochingni
Bir taray, bir o'pay-da, so'ngra...
Meni behuda tashlading-ketding,
Nega o'ldirmading-da, tark etding.

Abdurauf Fitratning ko'p qirrali ijodkor ekanini ta'kidlagan edik. Uning lirik merosi ham she'riyatning turli janrlaridan tashkil topgani va bu asarlar mavzusi rang-barang insoniy hisslarni o'zida mujassam etganini alohida ta'kidlamog' lozim.

Avvalgi darslarda Siz bilan shoirning ijtimoiy-siyosiy mavzusidagi she'rlariga to'xtalgan bo'lsak, bugun uning ishqiy lirikasiga oid ajoyib bir asar bilan tanishamiz.

Bu she'rning yozilish tarixi alohida bir qissa bo'lib, hozir uni to'liq hikoya qilib berishning mavridi emas. Faqat bir narsani aytamizki, shoir hayotida chuqur iz qoldirgan iztirobli sevgi tarixi bu she'rning yozilishiga turtki bergan. Unda ko'nglining suygan do'stidan ayrilgan lirik qahramon iztiroblari quyuq badiiy bo'yoqlarda ta'sirli ifodalangan. Garchi, mazkur she'r barmoq vaznida bitilgan bo'lsa-da, unda mumtoz lirikamizga xos bo'lgan badiiy o'xshatishlar, jonlantirish, istiora, qochirim singari adabiy san'atlardan keng foydalanilgani diqqatni tortadi. Bu narsa shoir tarjimai holidan aytganimiz – Fitratning Sharq mumtoz adabiyotining katta bilimdoni bo'lgani ta'siridir.

She'r lirik qahramoni uchun suyuqli yor faqat ko'ngil quvonchi, dildorlik ramzi emas. Uning ruhiyatini tinimsiz qaqshatadigan g'am-u qayg'ulardan pano, qalbini yupatib taskin beruvchi mehribon ham u!

U bilan o'tgan kunlar munis kunlar edi, dilga hamdam, ruhga madadkor bor edi. Dunyo va tiriklik tashvishlaridan zada bo'lib ketgan jism-u jon faqat yor og'ushidagina orom topar, bir muhlat hayot og'riqlarini unutardi.

Ayriliq iztiroblari oshiq ko'ngilni mutlaqo abgor – xor qildi: u bunday ko'rgilikdan o'limni – barcha azoblardan birdaniga qutulmoqni afzal biladi. Agar yor qaytsa, u yana bir dildorlik ko'rsatsa, oshiq uning oyoqlariga nafaqat o'tli yosh, balki qon bo'lib to'kilishga – uning amri-la qurbon bo'lmoqqa rozi...

Fitratning bu she'ri uning ijodkor do'sti Cho'lponning ishqiy mavzudagi asarlariga hamohang ekanini ham e'tiborga olaylik. Go'yo ikki buyuk qalb va qalam egalari bu borada ham ijodiy raqobatga kirishib, yangi vazn – barmoqda o'zbek she'riyatining nodir namunalarini yaratgandilar...

Xulosa qilib aytganda, o'zbek milliy she'riyati, prozasi, maorifi, tilshunosligi, adabiyotshunosligi, jamiyatshunosligi singari o'nlab sohalar oyoqqa turishiga, rivojiga ulkan hissa qo'shgan Abdurauf Fitratning hayoti va ijodiy yo'li barcha zamonlar uchun ibrat namunasi bo'lib qolishi shubhasizdir.

Siz bilan biz bu alloma faoliyatidan Vatanni, Millatni, Xalqni qanday sevmok lozim, uning taqdiriga daxldor masalalarga qanday yondashib, ularni qay taxlit yechish to'g'ri bo'lishini o'rganishimiz ham qarz, ham farzdir!

O'tgan ajdodlarimiz merosidan faxrlanish, albatta, kerak. Biroq bu merosning mazmun-mohiyatini chuqur bilmay, his qilmay, u bilan og'izdagina maqtanib yurish durust ish emas. Qachonki, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy singari millatparvar bobolarimiz qalbida yongan yurt ishqiy yuraklarimizga ko'chib o'tsa, biz bu olovni asrab-avaylab, u bilan kelgusi nasllar ko'nglini yoritsak, shundagina o'tmish ajdodlarimiz xotirasiga munosib avlod sanalamiz!

Savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi she'rlar va ishqiy mavzudagi asarlarga xos bo'lgan xususiyatlarni sanab bering. Sizga qaysi mavzuni yoritgan she'riyat ko'proq yoqadi?

2. Yorga murojaatning mumtoz adabiyotimizdagi va «Go'zalim, bevafo gulistonim...» she'ridagi ko'rinishlarini o'zaro taqqoslashga harakat qiling.

3. Fitrat she'ridagi samimiyatni qaysi misralar yordamida isbotlash mumkin, deb o'ylaysiz?

4. Nega shoir o'z umrini «bog' umrim» deb atayapti? Kishi umri boshqacha atalishi ham mumkinmi? Fikringizni misollar bilan isbotlang.

5. «...Xoki poyingni surmadek yoshli ko'zuma suray» misrasini izohlang. Oshiqning ko'ziga surma surishi g'alati emasmi? Shoshilmay, tarixga, xususan, dinimiz tarixiga murojaat orqali javob topishga harakat qiling.

6. «Kel, ayoqingg'a qon bo'lub to'kulay» misrasida qanday badiiy san'at ishlatilgan?

7. Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati qaysi jihatlari bilan bizga ibrat bo'la oladi?

8. Fitrat she'rlaridan olgan eng katta taassurotingiz, eng muhim xulosalaringiz nimalardan iborat bo'ldi?

9. Adabiy merosimizga tengdoshlaringizning munosabati Sizni qoniqtiradimi? Javobingizni aniq misollar bilan asoslashga urining. Bu masalada Siz nimalarni taklif qilgan bo'lur edingiz?

GʻAFUR GʻULOM

(1903–1966)

Oʻzbek adabiyotining yirik namoyandasi, Oʻzbekiston xalq shoiri, akademik Gʻafur Gʻulom hayoti va ijodi toʻgʻrisidagi umumiy maʼlumotni Siz avvalgi sinflardan yaxshi bilasiz. Shunday boʻlsa-da, bu ijodkor tarjimai holiga oid ayrim tafsilotlarni eslab oʻtsak, foydadan xoli boʻlmaydi.



Gʻafur Gʻulom 1903-yilning 10-may kuni azim Toshkentning Qoʻrgʻontegi mahallasida, kambagʻal oilada dunyoga keldi. U toʻqqiz yoshga yetganda otasi vafot etadi. Oradan hech qancha vaqt oʻtmay onasidan ham ayriladi.

Ota-onadan yetim qolgan bu kabi bolalar taqdiriga achinadigan, ularning boshini silaydigan odam u paytlari kamdan-kam topilardi. Chunki hamma Birinchi jahon urushi tufayli abgor holga kelgan oʻz roʻzgʻori tashvishi bilan ovora edi. Siz oʻsha kunlar nafasini 6-sinfda oʻqiganingiz «Shum bola» qissasi orqali yaxshi his qilgansiz, albatta. Gʻafurjon avval ibtidoiy maktabda, keyin esa, yaqin qarindoshlari koʻmagi bilan rus-tuzem maktabida xat-savodini chiqaradi. Muallimlar tayyorlaydigan kurslarni bitirib, maktablarda dars beradi. 1917-yildagi oktabr toʻntarishi bilan boshlangan bosh-boshdoqlik, ochlik muhiti shundoq ham koʻpayib ketgan yetim-yesir bolalar sonini yana-da oshirgandi. Hukumat majbur boʻlib, bunday bolalarni oʻz qaramogʻiga olar, ulardan shoʻro hukumatiga xizmat qiladigan kadrlarni tayyorlashga umid bogʻlardi. 1923-yildan Gʻafur Gʻulom mana shunday yetim bolalar uyida tarbiyachi, hatto bir muddat mudir boʻlib ham xizmat qiladi.

Yozish-chizish ishlariga tugʻma iqtidori boʻlgan Gʻafur Gʻulom oʻz davrining mashhur nashrlari boʻlmish gazeta va jurnallar bilan yaqin aloqa oʻrnatadi, tahririyatlarda xizmat qiladi. Oʻsha yillari «Kambagʻal dehqon», «Qizil Oʻzbekiston», «Sharq haqiqati» singari gazetalarda, «Mushtum» jurnalida uning yuzlab katta-kichik maqolalari, felyetonlari bosiladi.

O‘zining iste‘dodi adabiy ijodda ko‘proq namoyon bo‘lishini sezgan G‘afur G‘ulom davrning yangi urfga kirayotgan she‘riy shakllari (barmoq, sarbast)da ko‘p mashqlar qiladi. Buning hosilasi bo‘lib, dastlabki she‘riy to‘plami 1931-yilda «Dinamo» nomi ostida chop etiladi. 1932-yilda esa «Tirik qo‘shiqlar» degan ikkinchi to‘plami nashr qilindi.

Albatta, bu kichik to‘plamlarga jamlangan ko‘pchilik she‘rlar o‘z davri mafkurasining kuchli ta‘siridan xoli bo‘lmagan. Aksariyat tizmalar zamonning o‘tkinchi mavzulariga bag‘ishlangan. Ularda sho‘ro hukumati barcha joyda targ‘ib qiladigan mavzular she‘riy shaklga solingan, she‘rlarning badiiy darajasi ham u qadar yuksak emas edi.

Shunga qaramasdan, bu urinishlar izsiz ketmadi. Sekin-asta G‘afur G‘ulom ijodida milliy ruh ifodasi kuchli namoyon bo‘lishi, u she‘riyatda hali qo‘l urib ko‘rilmagan badiiy usullardan dadil foydalana olish qobiliyatiga ega ekani ma‘lum bo‘la bordi. Garchi, yuqorida aytilganidek, davr mafkurasini ta‘siri sezilib tursa-da, masalan, «Turksib yo‘llarida», «Yalovbardorlikka» singari o‘nlab she‘rlari o‘zining badiiy topilmalari, lirik pafosi, kuchli samimiyati bilan o‘quvchini o‘ziga jalb qilar edi. Bunday xulosani 1930–1935-yillar oralig‘ida liro-epik janrda yaratilgan «Ko‘kan» poemasi, «To‘y», «Ikki vasiqa» balladalari to‘g‘risida ham aytish mumkin.

Jahon va milliy adabiyotimiz tarixini kuzatib bir qonuniyatni o‘zingiz uchun kashf etgan bo‘lsangiz, ajab emas. U ham bo‘lsa, aksariyat ijodkorlar adabiyotning muayyan bir yo‘nalishidagi ijodiy yutuqlari bilan ko‘proq dovrug‘ qozonganidir. Ya‘ni, kimdir she‘riyatda, kimdir nasrda, boshqa bir ijodkor esa dramaturgiyada o‘zini erkin his qiladi, ijodiy qanotlarini keng yozadi. Xuddi shu tufayli ham Lev Tolstoy, Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor deganimizda ko‘z oldimizda epik (nasriy) janr ustalari namoyon bo‘lsa, Sergey Yesenin, Abdulla To‘qay, Usmon Nosir, Hamid Olimjon nomi tilga olinganda, beixtiyor, she‘r musiqasi qulog‘imizga chalinadi.

G‘afur G‘ulom misolida esa bu yozilmagan qonuniyatning har doim ham amal qilavermasligiga guvoh bo‘lamiz. Ya‘ni,

Gʻafur Gʻulom ham sheʻriy, ham nasriy janrlarda birdek muvaffaqiyat bilan qalam tebratdi, har ikki yoʻnalishda oʻzidan nodir namunalarni qoldirdi.

Uning XX asrning 30-yillarida yaratgan «Netay», «Yodgor», «Tirilgan murda», «Shum bola» singari qissalari, oʻnlab hikoyalari milliy prozaning rivojida beqiyos rol oʻynadi.

Ikkinchi jahon urushi voqealari, koʻrguliklari Gʻafur Gʻulom qalbida oʻchmas iz qoldirdi. Agar u Birinchi jahon urushi yillarida bolaligiga borib, urushning butun dahshati va asoratlarini toʻliq his qila olmagan boʻlsa, yangi urushni va uni qoʻzgʻaganlarni ijodkor oʻzining shaxsiy, ashaddiy dushmani deb bildi. Shu yillari shoirning «Sen yetim emassan», «Oltin medal», «Kuzatish», «Vaqt», «Sogʻinish», «Bizning koʻchada ham bayram boʻlajak», «Men – yahudiy» singari tom maʼnodagi mumtoz sheʼrlari dunyoga keldi.

Shoir urush yillarida yozilgan sheʼrlari jamlangan «Sharqdan kelayotirman» toʻplami uchun 1946-yilda Davlat mukofotiga sazovor boʻladi. Gʻafur Gʻulomga, oʻzbek fani va madaniyati rivojiga qoʻshgan ulkan hissasi inobatga olinib, ijodkor doʻsti Oybek bilan birga akademik unvoni ham berilgan edi (1943-yil).

Gʻafur Gʻulom urushdan keyingi yillarda ham faol ijod qildi. Uning mumtoz va zamonaviy adabiyot bilimdoni sifatida yozgan maqolalarini, turmushning turli jabhalariga oid publitsistik chiqishlarini, felyeton va kulgili hikoyalarini xalq jon-dili bilan kutib olar, shoirga hamma joyda yuksak eʼzoz koʻrsatilar edi. Gʻafur Gʻulom 1963-yilda «Oʻzbekiston xalq shoiri» unvoniga sazovor boʻlgandi.

Yuqorida aytilganidek, Gʻafur Gʻulomning hayoti va ijodiy faoliyati bir tekis, sokin-osoyishta kechmadi. U zamonning, mafkuraning kuchli tazyiqlariga birda bas kelsa, birda u bilan hisoblashishga majbur boʻlgan edi. Bu koʻrgiliklar ijodkor qalbiga bitmas jarohatlar yetkazar, u oʻylagan, his qilgan barcha haqiqatlarini ochiq-oshkora yozolmaslikdan benihoya iztirobga tushar edi. Bu iztiroblar esa shoir koʻnglinigina emas, vujudini ham ichdan kemirib borar, u 60 yoshga yetar-yetmas, moʻysafid qiyofasiga kirib qolgan edi.

Shu tariqa, 1966-yil 10-iyul kuni o‘zbek adabiyoti yana bir buyuk namoyandasidan ayrildi – G‘afur G‘ulom 63 yoshida og‘ir xastalik tufayli vafot etdi.

Mustaqillik yillarida G‘afur G‘ulom xotirasi va merosiga katta diqqat-e‘tibor qaratilmoqda. 2003-yilda adib tavalludining 100 yilligi respublikamiz miqyosida keng nishonlandi. Toshkent shahridagi istirohat bog‘laridan biriga uning nomi berilib, muazzam haykali o‘rnatildi. G‘afur G‘ulom qissa va hikoyalari asosida qator spektakllar, badiiy va videofilmlar yaratildi. Uning nomi metro bekatini, ko‘plab ko‘chalar va xiyobonlarni bezab turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 2000-yilda G‘afur G‘ulomga «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berilgan.

Savol va topshiriqlar

1. G‘afur G‘ulomning bolalik va o‘smirlik yillari qanday sharoitda kechgan?
2. Adibning qaysi asarlarida bolalik davri voqealari yoritilganini eslang va hikoya qilib bering.
3. «Sen yetim emassan» she‘ridagi:
«Yetimlik nimadir, bizlardan so‘ra, O‘ninchi yillarning sargardonligi, Isitma aralash qo‘rqinch tush kabi Xayol ko‘zgidan o‘chmaydi sira...» – kabi satrlarda shoir qanday armonlarini ifodalagan edi?
4. Shoirning dastlabki she‘riy to‘plamlaridagi yutuq va kamchiliklar nimalardan iborat bo‘lganini o‘qituvchingizdan so‘rab bilib oling.
5. Insoniyat urushni nima uchun qoralashini mulohaza qilib ko‘ring. Fikringizni misollar bilan asoslashga harakat qiling.
6. G‘afur G‘ulomning urushga, fashizmga bo‘lgan nafrati qaysi she‘rlarida, ayniqsa, kuchli namoyon bo‘lgandi?
7. G‘afur G‘ulom asarlari asosida qanday spektakllar, kino va videofilmlar yaratilganini bilasizmi?
8. Adib va uning zamondoshlari boshidan o‘tkazgan davr sinovlarini qanday misollarda ko‘rsatish mumkin?
9. G‘afur G‘ulom xotirasi va adabiy merosiga bugungi munosabat to‘g‘risida sinfdoshlaringizga gapirib bering.
10. Maktabingizda G‘afur G‘ulomga bag‘ishlangan qanday tadbirlar o‘tkazilgan? Bu tadbirlarda Siz ham ishtirok etganmisiz? Ularning yuqori saviyada o‘tishiga nima bilan hissa qo‘shgansiz?

SOG'INISH

Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek,
Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh.
Eng kichik zarradan Yupitergacha
O'zing murabbiysan, xabar ber, quyosh.

Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas,
Shunchalar mustahkam xonayi xurshid,
Bugun sabza bo'ldi qishdagi nafas,
Hozir qonda kezar ertagi umid.

Xoki anjir tugab, qovun g'arq pishgan,
Baxtli tongotar chog' uni kuzatdim,
Bir mal'un gulshanga qadam qo'ymishkan,
Joni bir jondoshlar qolarmidi jim.

Unda yetuk edi meros mard g'urur,
Ostonani o'pib, qasamyod qildi.
Ukalarin erkalab o'zimday mag'rur,
Ya'ni obod uyimni u dilshod qildi.

Iblisning g'arazi bo'lgan bu urush
Albatta, yetadi o'zin boshiga.
O'g'lim omon keladi, g'olib, muzaffar,
Gard ham qo'ndirmasdan qora qoshiga.

Ne qilsa otaman, meros hissiyot...
Jondan sog'inishga uning haqqi bor,
Kutaman uzoqdan ko'rinsa bir ot,
Kelayapti, deyman ko'rinsa g'ubor.

...Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam,
Qo'msayman birovni – allakimimni.
Doimo umidim bardam bo'lsa ham,
Ba'zan vasvasalar bosar dilimni.

Balki bir g'alat o'q yo xavf-u xatar
Xazinai umrimdan yo'qotdi olmos...

Yo‘q, u o‘lmas, qadami olam yaratar,
Hayotiy bu olam siz-u bizga xos.

Tong otar chog‘ida juda sog‘inib,
Bedil o‘qir edim, chiqdi oftob.
Loyqa xayolotlar chashmaday tindi,
Pok-pokiza yurak bir qatra simob.

O‘rog‘-u gulqaychi, istak ko‘tarib,
Hovrimni bosishga boqqa jo‘nadim.
Hasharchi qo‘shni qiz – uning sevgani,
Ma‘yus bosar edi orqamdan odim.

...Dur bo‘lib taqilar yoring bo‘yniga,
Sadafday ko‘zimda behuda bu yosh,
Ikkoving ikki yosh, labing labiga
Qo‘yar. Vasvasamdan kuladi quyosh.

...Sizlarni keldi, deb eshitgan kuni
O‘zing to‘qib ketgan katta savatda
To‘latib shaftoli uzib chiqaman,
G‘alaba kunlari yaqin albatta.

Yayov, ko‘ksim ochiq, boshda shaftoli,
Xuddi mo‘ylovingdek mayin tuki bor.
Har bitta shaftoli misoli kulgu,
Shafaqday nimpushti, sarin, beg‘ubor.

Suyganing labida reza ter kabi,
Unda titrab turar sabuhiy shabnam.
Munchalik mazani topa olmaydi
Uyquda tamshangan chaqaloqlar ham.

Ye, o‘g‘lim, jonginang salomat bo‘lsin,
O‘z bog‘ing, o‘z mevang danagin saqla.
Shu meros bog‘ingni o‘z qo‘lingga ol,
Menga topshirilgan merosiy haq-la.

Bog‘da tovus kabi xiromon bo‘lib,
Umid danagini birga ekingiz.

Siz «oʻzbek onasi» degan ibora anglatadigan mazmun-mohiyatni, har qalay, yaxshi anglaysiz. Uni eshitganingizda farzandi uchun jonini berishga tayyor, butun fikr-zikri bolasining baxt-u iqboliga qaratilgan munis ayol qiyofasi koʻz oldingizda gavdalanadi.

Yaxshi bilasizki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan poytaxt Toshkentdagi Mustaqillik maydonida Ikkinchi jahon urushi qurbonlari xotirasiga soʻlim xiyobon barpo etilgan. Oʻzbekona ayvonlar bilan oʻralgan Xotira xiyobonining toʻrida urushga ketgan bolasini intizor kutayotgan ona siymosi gavdalandirilgan. «Oʻzbek onasi» tushunchasining koʻz oʻngimizda aniq reallashuvida bu siymo beqiyos rol oʻynaydi.

Endi shunga yaqin boshqa bir tushuncha toʻgʻrisida oʻylab koʻraylik. Bu – «oʻzbek otasi» tushunchasidir.

Albatta, bu iborani eshitishingiz bilan koʻz oldingizda oʻz padari buzrukvoringiz siymosi gavdalanishi bor gap. Otangizning Sizga boʻlgan eʼtibori, Sizni boqib katta qilish yoʻlida qilayotgan mehnatlari, kun-u tun oila tashvishlari bilan band yurishi... bularning bari mana shu tushunchada jamuljamdir.

Biroq «oʻzbek otasi»ning boʻrtma, umumiy, hamma uchun tanish, yaxlit siymosini aynan Gʻafur Gʻulom hozirgina oʻqiganimiz «Sogʻinish» sheʼrida aks ettirgan desak, hech mubolagʻa boʻlmaydi.

Bu sheʼrda otalarimizga xos boʻlgan jamiki fazilatlar oʻzining yorqin ifodasini topgan. Ularning samimiyligi, jonsarakligi, har doim ham oshkor qilinavermaydigan farzandga mehr-u muhabbati, kuzatuvchanligi, tantiligi, andishasi... barcha-barchasi shu sheʼrda namoyon boʻladi.

Asar misralari ichra urushga ketgan oʻgʻlidan bir mujda – nendir yaxshi xabar kutayotgan Otaning bezovta yuragi gupillab urib turibdi. Uning koʻngliga goh vahima-vasvasa koʻlanka soladi. Atrofga har kuni yuzlab «qoraxat» qoʻnayotgan tahlikali

kunlarda bu bezovtalikka, albatta, o‘rin bor – «Ne qilsa otaman, meros hissiyot...»

Ko‘pchiligingizga sog‘inch hissi hozircha bir qadar uzoqroq bo‘lishi tabiiy. Negaki, hozir ota-onangiz, aka-ukalaringiz yonidasiz – har kuni ularni ko‘rish, diydoridan bahramand bo‘lish imkoniyatingiz bor. Lekin harbiy xizmatdami, uzoqroq xizmat safaridami bo‘lgan otangiz yoki boshqa qarindoshlaringiz suhbatiga quloq solsangiz, ular uyni, yaqin qarindoshlarni, Vatanni qanchalar qo‘msaganliklarini hikoya qilishadi. Ayniqsa, tunlari oyga qarab, «uyimdagi ota-onam ham uni ko‘rishayotgandir, men ham qarab turibman, demak, bir-birimizni ko‘rgandek bo‘lyapmiz», – degan ilinj mana shu sog‘inch taftini, biroz bo‘lsa-da, bosadi...

«Sog‘inish» she‘rining lirik qahramoni – Otaning sog‘inchi shunchalar zo‘rki, u har bir narsadan umidlanadi, najot so‘rab to quyoshga qadar zorlanadi:

Eng kichik zarradan Yupitergacha
O‘zing murabbiysan, xabar ber, quyosh.

She‘rning:

Tong otar chog‘ida juda sog‘inib,
Bedil o‘qir edim, chiqdi oftob.
Loyqa xayolotlar chashmaday tindi,
Pok-pokiza yurak bir qatra simob.

degan bandiga e‘tibor bering. Nima uchun Ota sog‘inch o‘rtagan paytlari aynan Bedilni o‘qiydi? Nega uni o‘qigach, «loyqa xayolotlar chashmaday» tinadi?

Gap shundaki, asli nasli turkiylardan bo‘lgan fors shoiri Bedil she‘riyati o‘zining falsafiy chuqurligi, o‘quvchini o‘tkinchi dunyo g‘am-tashvishlaridan yuqoriroq turib fikrlashga undashi bilan ajralib turadi. Bedil mutolaasi Otaga abadiy haqiqatlardan, o‘lmas va yuksak tuyg‘ulardan saboq beradi. Abdulqodir Bedil she‘riyatida, jumladan, shunday misralarni uchratamiz:

Maqomi zolim oxir bar zaifonast arzoniy,
Agar otash furu aftad baxokistar dehad jaro...

(Mazmuni: Zolimning maqomi – qudrati, zulmi oxir-oqibat zaiflashib, kuchdan qoladi. Lovullab yonayotgan olov ham bir kun kelib kulga aylanadi.)

Endi bu fikrning G‘afur G‘ulom she‘ridagi ifodasiga e‘tibor beraylik:

Iblisning g‘arazi bo‘lgan bu urush
Albatta, yetadi o‘zin boshiga...

Bedilning Otaga – shoirga bergan daldasi, yupanchi, loyqa xayolotlarini chashmaday tindirishi shu emasmi?

Aytadilarki, shoirlar yarim avliyodirlar. Bu qarashning naqadar to‘g‘riligini G‘afur G‘ulomning «Sog‘inish» she‘ri ham to‘la isbotlaydi.

Qarang, bu she‘r 1942-yilda yozilyapti. Urushning tugashiga hali uch yil bor. O‘zbek otasi esa:

...Sizlarni keldi, deb eshitgan kuni
O‘zing to‘qib ketgan katta savatda
To‘latib shaftoli uzib chiqaman,
G‘alaba kunlari yaqin albatta. –

deydi. Urush esa 1945-yilning mayida tugagan, unda tirik qolgan jangchilar ayni shaftoli pishig‘ida uylariga qayta boshlaganlar...

Xulosa qilib aytganda, G‘afur G‘ulomning «Sog‘inish» she‘ri nafaqat urush davri va nafaqat o‘zbek she‘riyati, balki insoniyat badiiy tafakkurining eng yuksak cho‘qqilarida turishga arzigulik, o‘zida eng pokiza insoniy hislarni badiiy mukammal tarzda mujassam etgan noyob badiiy asardir.

Savol va topshiriqlar

1. O‘qituvchingiz yordamida G‘afur G‘ulomning «Sog‘inish» she‘ri yozilishiga sabab bo‘lgan hayotiy faktni bilib oling.

2. Nima deb o'ylaysiz: agar shoirning o'z farzandi urushga ketmaganida bu she'r yozilmasligi mumkinmidi?

3. «Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek, Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh», – misralarida tasvirlangan manzarani ko'z oldingizga keltirib, sinfdoshlaringizga aytib bering.

4. Ota o'g'lini yilning qaysi faslida urushga kuzatganini aniqlash mumkinmi?

5. «Hasharchi – qo'shni qiz»ning holatini izohlab bering-chi. Nega u «ma'yus odim bosadi?»

6. Nima deysiz, «Yayov, ko'ksim ochiq, boshda shaftoli» satrlarida ifoda etilgan ota siymosini «o'zbek otasi» siymosi sifatida qabul qilish mumkinmi?

7. She'rning qaysi bandlarida avlodlararo azaliy davomiylik o'z ifodasini topgan?

8. «Sog'inish» she'rining umidbaxshligi, shoirning kelajakka bo'lgan sobit ishonchi to'g'risida mulohaza yuriting.

9. «G'afur G'ulom she'riyatida milliy ruh ifodasi» mavzusida uy inshosi yozing. O'qituvchingiz yordamida insholar muhokamasini uyushtiring.

VAQT

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik,
Ba'zida bir nafas olgulik muddat
Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.

Yashash soatining oltin kapgiri
Har borib kelishi bir olam zamon.
Koinot shu damda o'z kurrasidan
Yasab chiqa olur yangidan jahon.

Yarim soat ichida tug'ilib, o'sib,
Yashab, umr ko'rib o'tguvchilar bor.
Ko'z ochib-yumguncha o'tgan dam – qimmat,
Bir lahza mazmuni bir butun bahor.

Bir onning bahosin o'lchamoq uchun
Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.
Nurlar qadami-la chopgan sekundning
Barini tutolmas ayhannos ovoz.

Yigit termiladi qizning ko'ziga,
Kiprik suzilishi, mayin tabassum...

Qo'sha qarimoqqa muhr bo'ladi
Hayotda ikki lab qovushgan bir zum.

Yashash darbozasi ostonasidan
Zarhal kitob kabi ochilur olam,
Tiriklik ko'rkidir mehnat, muhabbat,
Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram.

...Reyxstag ustiga g'alaba tug'in
Qadashda otilgan jangchining o'qi
Yalt etgan umri-la barqaror qildi
Basharning muqaddas, oliy huquqin.

G'alaba amri-la mag'lub nemisning
Generali qo'l qo'ydi. Uch sekund faqat...
Shu mal'un imzoda odamlar o'qir
Million yil fashistning umriga la'nat.

Aziz asrimizning aziz onlari
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.
Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la
Bezamoq onidir umr daftarin.

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek
Diana ma'budin yoqmoq shart emas.
Ko'plarning baxtiga o'znikin jamlab
Shu ulug' binoga bir g'isht qo'ysak, bas.

Har lahza zamonlar umridek uzun,
Asrlar taqdiri lahzalarda hal.
Umrndan o'tajak har lahza uchun
Qudratli qo'l bilan qo'yaylik haykal.

Hayot sharobidan bir qultum yutay,
Damlar g'animatdir, umrzoq soqiy.
Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.

1945

Urushda qozonilgan g'alaba to'g'risida har kim har xil yozi-shi tabiiy hol. Kimdir bu g'alabani ko'tarinki ohang, ko'tarinki so'z bilan ifoda qiladi. Kimningdir ichiga sig'magan quvonchi g'alabani olqishlash shaklida qog'ozga to'kiladi.

G'afur G'ulom ijodiy tafakkuriga faylasufona mulohazakorlik, kichik tuyulgan hayotiy detallardan katta umumlashmalar yasay olish xos edi. Bu noyob fazilatlar shoirning 1945-yilda fashizm ustidan qozonilgan g'alaba munosabati bilan yozgan «Vaqt» she'rida yaqqol ifodasini topdi.

Shoir mazkur she'rda lahza(sekund)ning mohiyatiga nazar tashlaydi.

Darhaqiqat, yuzaki qaraganda, lahza nima? Ko'z ochib yumguncha o'tadigan fursat. Go'yo e'tiborga, diqqatga arzimaydi. O'z umrini poyonsiz deb o'ylaydigan aksariyat odamlar uchun lahzaning sariq chaqalik qimmatini bo'lmasligi ham mumkin. Biroq...

Biroq shoir ijodiy tafakkuri butun insoniyat hayoti – uning quvonch-u tashvihlari, hatto qismati ham mana shu lahzalarga jo ekanini favqulodda misollar bilan isbotlab beradi:

Bir onning bahosini o'lchamoq uchun

Oltindan taroz-u, olmosdan tosh oz.

Hayotning abadiy qonuniyatlarini anglagan, his qilgan odam uchun behuda lahzaning o'zi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Zero, inson necha yil umr ko'rishidan qat'i nazar, bu umrning asosini mana shu lahzalar tashkil qiladi. Buyuk qahramonliklar ham, isnodli sharmandaliklar ham ayni lahzalar oralig'ida ro'y beradi. O'zini, o'zligini unutgan odam bir lahza-da yo'l qo'ygan xatosi, qo'rqqoligi, shijoatsizligi tufayli umrbod yuzi qora bo'lib qolishi hech gap emas. Va aksincha, Amir Temurdek, Jaloliddin Manguberdidek, Bobur Mirzodek bobolarimizning shon-shavkati aynan bir lahza qabul qilgan qat'iy qarorlari, biror lahza unutmagani – yurtga sadoqatlari tufayli abadiyatga daxldor bo'ldi.

Endi ayting-chi, ular kabi jo'mard insonlarning umri, faoliyati, millat taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini oltindan yasalgan tarozi-yu olmosdan qilingan tosh bilan o'lchab bo'ladimi?!

G'alaba amri-la mag'lub nemising
Generali qo'l qo'ydi. Uch sekund faqat...
Shu mal'un imzoda odamlar o'qir
Million yil fashistning umriga la'nat.

Yanagi o'quv yilida Siz Ikkinchi jahon urushining barcha tafsilotlari, u keltirgan kulfatlar to'g'risida batafsil ma'lumot olasiz. Hozir esa shuni eslatib o'tamizki, insoniyat tarixidagi eng dahshatli hodisa bo'lgan bu urush 70 milliondan ortiq kishining umriga zavol bo'ldi. Minglab shahar va qishloqlar, Yevropa, Afrika, Osiyo qit'asining eng noyob madaniy yodgorliklari shu urush olovida kuyib kulga aylandi. Qanchadan-qancha bolalar o'z ota-onalaridan, ota-onalar esa farzandlaridan ajrab, hayotlari sarson-sargardonlikda o'tdi. Bu urush yetkazgan jarohatlar o'rni hali-hamon bitgani yo'q. Hali-hamon Yaponiyaga tashlangan atom bombalarining zahri avlodlar tan-u joniga, atrof-muhitga ozor bermoqda...

Holbuki...

Holbuki, fashizmning o'z mag'lubiyatini tan olib, german armiyasining so'zsiz taslim bo'lishi to'g'risidagi hujjatga imzo chekishi uchun uch sekund vaqt talab qilindi, xolos. Biroq shu uch sekungga yetib kelish insoniyatga qanchalar qimmatga tushganini bir tasavvur qilib ko'ring-a.

Darvoqe, 1939-yil 1-sentabrda Ikkinchi jahon urushini boshlash – Polshaga hujum qilish to'g'risidagi qarorni qabul qilishga ham, balki uch sekund kifoya qilgandir.

Shoir dunyoda shuhrat qozonmoqning yo'llari ko'p ekani, biroq bu yo'llarning biri odamni sharmandali shuhratga olib kelsa, boshqasi abadiyatga olib borishini quyma satrlarda eslatadi:

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek
Diana ma'budin yoqmoq shart emas.

Darhaqiqat, o'z davrining buyuk mutafakkirlari goh ilm-fan, goh san'at, goh falsafada ulkan natijalarga erishayotganidan ichi kuygan Gerostrat degan kimsa odamlar uni ham doimiy yodlab-yo'qlab turishlarini xohlab qoladi. Bunga arzirli biror ish qo'lidan kelishiga ko'zi yetmay, ulkan buzg'unchilik, vahshiylikka qo'l uradi. Dunyo arxitekturasiyning noyob namunalaridan biri bo'lgan

Diana ma'badī – ibodatxonasiga o't qo'yadi. Qarabsizki, hali-hamon Gerostratning nomini ham insoniyat eslashga majbur.

Lekin bu eslov-yo'qlovning qimmatī va ahamiyati qanchalik? Hamma gap mana shunda!

Shukrki, insoniyatga xotira degan ulkan saboq – xazina ato etilgan. U o'zining baxt-u iqboli yo'lida kurashgan ulug'lar bilan birga, odamzod tirikligiga xavf-u qo'rqinch solgan yovuz kimsalarni ham unutmaydi. Ularning qilmishlari takrorlanishidan ogoh turadi.

Faylasuf shoir G'afur G'ulom o'zining mo'jazzgina asari – «Vaqt» she'rī bilan lahzaga abadiy haykal qo'ydi, deb bemalol aytusak bo'ladi! Bu she'r bag'riga jo bo'lgan mantiq va ma'no, san'at va sayqal ko'lamini anglamoq uchun, qarangki, asrlar talab qilinmoqda. Chinakam she'riyatning, adabiyotning mo'jizaviy qudrati, balki mana shundadir.

Savol va topshiriqlar

1. «Vaqt» she'rida kapalak umri nega g'uncha ochilguncha o'tgan fursatga tenglashtirilyapti?

2. «Yashash soatining oltin kagiri har borib kelishi bir olam zamon. Koinot shu damda o'z kurrasidan Yasab chiqa olur yangidan jahon...» – satrlarida ifoda qilingan ilmiy haqiqatni boshqa fanlardan olgan bilimlaringiz yordamida ochib berishga harakat qiling.

3. Shoir «Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram...» deydi. Shu fursat insonni yana ne ko'ylarga solishi mumkin?

4. «Aziz asrimizning aziz onlari
Aziz odamlardan so'raydi qadrin», –
degan chaqiriq bugun qanday yangraydi? Siz «bu da'vatning menga ham daxli bor», deb o'ylaysizmi? O'ylasangiz, unga javobni nimalar qilmoqdasiz?

5. Umr daftarini bezashi mumkin bo'lgan shoh satrlar nimalar bo'lishi mumkin? Sizning umr daftaringizga birorta shunday satr tushdimi?

6. «Vaqt» she'rini o'qishli qilib turgan eng muhim jihatlar nimalarda aks etgan, deb o'ylaysiz? Fikringizni misollar bilan tushuntiring-chi.

7. Xalqimizning uzoq va yaqin o'tmishidan «tarixiy lahzalar»ga misollar toping.

8. Sizningcha, lahza insonni, voqeani abadiyatga daxldor qiladimi yoki inson lahzaga shunday qismat bag'ishlaydimi? Bu savolga javobni sinfdoshlaringiz bilan birgalikda topishga harakat qiling.

9. G'afur G'ulomning «Vaqt» she'rini, albatta, yod oling. Uni keyingi hayotingizda ham tez-tez eslab turishga, unda aytilgan haqiqatlarga amal qilishga harakat qiling.

MUNDARIJA

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi.....	3
Kirish (<i>R.Qochqorov</i>)	4
Xalq og‘zaki ijodi (<i>S.Ahmedov</i>)	9
«Kuntug‘ mish» dostoni.....	9
«Kuntug‘ mish» dostonining bayoni.....	14
Nazariy ma‘lumot. Ishqiy-qahramonlik dostonlari	39
O‘zbek adabiyoti tarixidan. Yusuf Xos Hojib Bolosog‘uniy (<i>S.Olim</i>).....	42
Qutadg‘u bilig (Dostondan parcha).....	46
Nazariy ma‘lumot. Didaktik adabiyot haqida tushuncha.....	71
Lutfiy (<i>S.Olim</i>)	74
G‘azallar.....	76
Mustaqil o‘qish uchun. G‘azallar.....	83
Tuyuqlar	87
Mustaqil o‘qish uchun. Tuyuqlar	89
Nazariy ma‘lumot. Irsoli masal.....	90
Qofiya	91
Radif	93
Tuyuq va tajnis.....	95
Alisher Navoiy (<i>S.Olim</i>).....	98
G‘azallar.....	100
Mustaqil o‘qish uchun. G‘azallar.....	129
Qit‘alar	133
Mustaqil o‘qish uchun. Qit‘alar	136
Nazariy ma‘lumot. G‘azal. Qit‘a.	137
Nodira (<i>S.Olim</i>)	143
G‘azallar.....	147
Mustaqil o‘qish uchun. G‘azallar.....	156
O‘zbek adabiyoti tarixidan.....	159
XX asr o‘zbek adabiyotidan.....	159
Abdurauf Fitrat (<i>R.Qochqorov</i>).....	159
G‘afur G‘ulom (<i>R.Qochqorov</i>).....	175

Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo'chqorov

ADABIYOT
Birinchi qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua

Qayta ishlangan uchinchi nashri

Taqrizchi Usmon Qo'chqorov

Muharrirlar: Ma'suda Yo'ldosheva, Davron Ulug'murodov

Musavvir *Anatoliy Bobrov*

Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*

Texnik muharrir *Yekaterina Koryagina*

Musahhah: *Fotima Ortiqova, Dono To'ychiyeva*

Kompyuterda sahifalovchi *Akmal Sulaymonov*

Nashriyot litsenziya raqami AI № 154. 14.08.09

2014-yil 3-martda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x90 ¹/₁₆.

Tayms garniturası. Ofset bosma. 12,0 shartli bosma toboq. 10,0 nashr tobog'i.

Adadi 421 734 nusxa. raqamli buyurtma.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.

www.gglit.uz

E-mail: info@gglit.uz, iptdgulom@sarkor.uz

Olimov S.
Adabiyot 8: darslik-majmua (I qism)/S.Olimov, S.Ahmedov,
R.Qo'chqorov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyi, 2014. – 192 b.

UO'K 372.882(075)
KBK 83.3ya721

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.